

HALIM TO‘RAYEV

BUXORO TOPONIMIKASI

5121000 - Tarix. Buxoro tarixi
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun
darslik

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2021

UO'K 81'373.21(575.146)

81.2-3

T 97

To'rayev, Halim

Buxoro toponimikasi [Matn] : darslik / H. To'rayev .-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона ,2021.-276 b.

КБК 81.2-3

Darslikda Buxoro shahri va viloyati tumanlarining qisqacha tarixi, voha tarixiy toponimlarining shakllanishi, etimologik va ijtimoiy ma'nolari, fonetik o'zgarishlarga uchrashi, joy nomlarida mahalliy lahja xususiyatlari va tabiiy geografik shart-sharoitlarning aks etishi, etnotoponim va onomalarning paydo bo'lish sabablari kabi masalalar har bir tuman, qishloq va mahalla fuqarolar yig'ini kesimida alohida berilgan.

Ushbu darslik Buxoro davlat universiteti 5121000 - Tarix. Buxoro tarixi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, darslikdan Buxoro tarixi bilan qiziquvchi tarixchi, filolog, geograf, o'lkashunos va tadqiqotchilar foydalanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

Q. Rajabov, t.f.d. professor

Taqrizchilar:

M. Is'hoqov, tarix fanlari doktori, professor

X. Toshev, geografiya fanlari nomzodi, dotsent

G. Toirova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

F. Temirov, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 237-131.

ISBN 978-9943-7455-7-5

SO‘ZBOSHI

Joy nomlarining paydo bo‘lishi insoniyat tarixiy taraqqiyotining mahsulidir. Inson nutqi, borliq to‘g‘risidagi tasavvuri va tafakkuri, dunyoqarashining o‘zib borishi bilan joylarni nomlash ortib, joy nomlari ham ko‘paya bordi. Hozirgi kunda nomsiz ob‘yektni tasavvur qilish mumkin emas. Har qanday joy o‘z nomiga ega. Joy nomlarini o‘rganuvchi toponimika esa allaqachon maxsus fan sifatida (lotincha topos-joy, onima-nom) shakllandi. Nomsiz ob‘yekt toponim hisoblanmaydi.

Joy nomlari har bir joyning geografiyasi, bu yerda yashovchi aholining til xususiyatlari, mashg‘uloti bilan uyg‘un holda paydo bo‘ladi va ularni o‘zida aks ettiradi. Nom albatta joyning o‘zidan keyin paydo bo‘ladi.

Shulardan kelib chiqqan holda joy nomlarini quyidagicha turkumlash mumkin:

- 1) u yoki bu joyning tabiati, tabiiy geografiyasi, tabiiy sharoiti bilan bog‘liq joy nomlari;
- 2) aholining mashg‘ulotini ifoda etuvchi joy nomlari;
- 3) aholining etnik mansubligini aks ettiruvchi toponimlar.

Birinчисiga Ko‘ksaroy, Ko‘hibaland, Shahrisabz, Toshloq, Mevazor, Uzumzor va h.k, ikkinчисiga Kosagaron, Degrezi, Halvogaron, Charmgaron, Qamchinbof va boshqalar, uchinчисiga Bahrin, Qovchin, Arg‘un, Qiyot, Mang‘it, Xalach, Turkon, O‘zbekon, Mo‘g‘ulon, Arabon va hokazolar kiradi.

Buxoro shahri va vohasi tarixiy toponimlarga boy maskanlardan biri. Buxorodagi joy nomlarining aksariyati ikki komponentli, ba’zida hatto uch komponentli va asosan fors-tojik tilining xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, sug‘diy til ohanglarini saqlab qolgan toponimlar ham mavjud. Jumladan, Varaxsha, Navmichkat va boshqalar.

Buxoro shahrining o‘zi ko‘plab toponimlarga ega va bu toponimlar hozir ham o‘z ijtimoiy hamda madaniy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Birgina “Buxoro” toponimini olib qarasak, bu toponimning necha asrlar sinovidan o‘tganining guvohi bo‘lamiz. “Buxoro” so‘zining etimologik talqinida olimlar o‘rtasida yagona fikr mavjud emas. Akademik V.V.Bartol’d “Buxoro” sanskritcha (qadimiy

hindcha) Vixara, ya'ni "ibodatxona" so'zidan olingan deb hisoblasa, atoqli o'zbek olimi akademik A.Muhammadjonov "Buxoro" sug'dcha "Bug'oro" – "Tangri jamoli" ma'nosini anglatadi, degan fikrni ilgari suradi. Ilk o'rta asrlarda Buxoroni xitoyliklar turli nomlar bilan atashgan. Buxo, An, Ansi, Buxala, Fuxo, Puxala.

O'rta asr arab manbalarida Buxoro shahriga nisbatan "Madinat us-sufriya", "Madinat ut-tujjor", "Foxira" nomlari qo'llanilgan. Bu nomlar arablar tomonidan berilgan bo'lib, Buxoroning arablar tasavvuridagi sifatlarini anglatadi. Masalan, Buxoro mustahkam qal'a devorlari bilan o'ralganligi uchun uni "Madinat us-sufriya", ya'ni "Mis shahar" deyishgan. Karvon yo'lidagi xalqaro savdoda Buxoro etakchi o'rin tutgani shaharning "Madinat ut-tujjor", ya'ni "Savdogarlar shahri" deb atalishiga sabab bo'lgan. "Foxira" atamasi esa islom dinining barqarorligi uchun kurashgan shahidlari bilan faxrlanuvchi shaharga, ya'ni Buxoroga nisbatan qo'llanilgan. "Buxoro" atamasi esa VIII asrdan boshlab qo'llanila boshladi.

Bulardan tashqari Buxoroning Numijkat, Bumiskat singari mahalliy nomlari ham mavjud bo'lgan. Numijkat aslida sug'd tilidagi Navmichkat so'zining o'zgargan shakli bo'lib, "nav"- yangi, "mich"- qal'a, istehkom va "kat"-qishloq kabi so'zlar birikmasidan tashkil topgan va "yangi qal'a", "yangi qo'rg'on" va "yangi istehkomli qishloq" ma'nolarini anglatgan. Bu toponim aslida hozirgi Mir Arab, Masjidi Kalon yodgorliklarining quyisida joylashgan do'nglikka nisbatan qo'llanilgan. Bu tepalik ilk o'rta asrlarda Buxoroning mustaqil shahristonini tashkil etgan va maydoni 6-7 gektardan iborat bo'lgan. So'nggi o'rta asrlarda bu yerda Buxoro qozikaloni saroyi va mahkamasi joylashgan edi. Bu joyning o'zi hozirgi kunda ham mavjud bo'lsa-da, lekin uning nomi bizgacha saqlanmagan. Bunga shahar strukturasi yuz bergan o'zgarishlar sabab bo'ldi. Shahar kengayib Navmichkat uning umumiy hududiga qo'shilgach, sekin-asta bu nom iste'moldan chiqdi va unut bo'lib ketdi.

Somoniylar davrida Buxoro shahri ark (kuhandiz), shahriston, rabot va bozor qismlaridan iborat edi. Shahriston atamasi shaharning aholi yashaydigan markaziy qismiga nisbatan ishlatilgan. Hozirgi ko'z kasalliklari kasalxonasi, Zindon binosi, So'fiyon Savri mozori, Shoaxsi masjidi, Sayyid Poband mozori va boshqa katta-kichik yodgorliklar shahristonda joylashgan. Shahristonning yetti darvozasi bo'lib, ular quyidagi nomlarga ega bo'lgan: Darvozai Bozor, Darvozai

Shahriston, Darvozai Bani Sad, Darvozai Bani Asad, Darvozai Kabiriya, Darvozai Hafs (Haq rah), Darvozai Nav. IX asrda bu darvozalar hali mavjud edi. Keyingi asrlarda shahriston shahar hududiga qo‘shilib ketgach, darvozalar ham buzilib, ularning nomi xalq orasida ishlatilmay, faqat manbalarda saqlanib qoldi, xolos.

Shayboniylar davrida Buxoro poytaxtga aylangach, shahar hududlari kengayib, o‘z nomiga ega yangi mahalla va guzarlar paydo bo‘ldi. Shahar atrofi mudofaa devori bilan o‘rab olindi hamda devor orasidagi ma‘lum masofalarda 11 darvoza barpo etildi. Har bir darvoza o‘z nomiga ega bo‘lgan va aksariyat hollarda bu nomlar darvoza joylashgan yo‘nalishni anglatgan. E’tiborlisi shundaki, ba’zi darvoza nomlari davr o‘tishi bilan o‘zgarib borgan. Masalan, hozir ham mavjud bo‘lgan Qorako‘l darvozasi XVI asrda “Solor haj” deb atalib, hajga boruvchilar shu darvoza orqali chiqib ketishgan.

Ashtarxoniylar davridan shahar mudofaa devoriga yaqin joylarda saroy va bog‘ barpo etish an‘anasi kuchaydi. Ashtarxoniy Ubaydullaxon (1702-1711) tomonidan Tallipoch darvozasi yaqinida 1709 yil ulkan bog‘, bog‘ o‘rtasida esa muhtasham koshona bunyod etildi. Shu xon sharafiga bu joy Xonobod deb atala boshladi. Davrlar o‘tib bog‘ va koshona buzilib ketdi, lekin joy nomi saqlanib qoldi. Shu nomli qishloq hozir ham mavjud.

Shahar qal‘a devori yaqinida qurilgan yana bir saroy Ubaydullaxon nomi bilan bog‘liq. Saroy Xo‘ja Ismat mozori yaqinidagi Piri Marza mavzesida barpo etilgan. Aslida Xo‘ja Ismat asos solgan bu bog‘ Piri Marza deb atalib, xalq orasida uzoq vaqt shu nomda qo‘llanib kelindi. Davr o‘tib bog‘ va saroy buzilib ketgach, Piri Marza toponimi ham iste‘moldan chiqdi va bu joyga nisbatan “Xo‘ja Ismat” atamasi ishlatila boshlandi. Hozirgi kunga qadar shu nom saqlanib qolgan.

Ashtarxoniy Abulfayzxonning (1711-1747) onasi Sitorai Moxi Xosa tarafidan XVIII asrda shahar tashqarisida so‘lim bir bog‘ barpo etildi. Zamonlar o‘tishi bilan bu joy uning nomi bilan ataladigan bo‘lib qoldi. Mang‘itlar sulolasidan amir Abdulahadxon (1885-1910) va uning o‘g‘li amir Olimxon (1910-1920) o‘zining shahardan tashqaridagi qarorgohini aynan shu bog‘ o‘rtasida qurdi. Hozirgi kunga kelib Sitorai Mohi Xosa toponimi nafaqat bog‘ va saroyga nisbatan, balki butun bir aholi punktiga nisbatan ham qo‘llanilmoqda.

XIX asr oxiri XX boshlarida Buxoro amirligi Janubirud, Shimolirud, Xayrobod, Qorako‘l, Xutfar, Somjin, Shofirkom, Vobkent (Komot), Pirmast, Xarqonrud (G‘ijduvon), Komi Abumuslim tumanlaridan iborat bo‘lib, darslikda berilgan qishloqlar tarixan shu tumanlar hududida joylashgan va hozirgacha o‘z nomini saqlab kelmoqda.

Joy nomlari tarixning bir bo‘lagi. Ularni saqlab qolish, asrash, kelajak avlodga asl holda yetkazish, unutilib ketgan tarixiy joy nomlarini qayta tiklash hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri¹. Joy nomlarining yashovchanligini davrning o‘zi ko‘rsatadi. Davr sinovidan o‘tgan, har qanday zamonda ham o‘z tarixiy-madaniy, ijtimoiy ahamiyatni saqlab qolgan toponimlar uzoq yashaydi va og‘izdan-og‘izga o‘tib kelaveradi.

Talaba yoshlarga o‘zi yashayotgan viloyat, tuman, shahar, ko‘cha, qishloq nomining kelib chiqish tarixini chuqur o‘rgatish orqali ularda vatanga, asriy qadriyatlarimizga, urf-odatlar va tilimizga bo‘lgan hurmat tuyg‘usini yanada mustahkamlashga erishiladi. Buxoro davlat universiteti huzuridagi Buxoro tarixi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallagan ushbu darslik shu maqsadlarni ko‘zlaydi.

Joy nomlari ro‘yxatini shakllantirishda ko‘mak bergan Geografik ob‘ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Buxoro viloyat komissiyasi rahbariyati va a‘zolariga, shu jumladan, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Bayramali Qilichyevga, shuningdek, mas‘ul muharrir va taqrizchilarga samimiy minnatdorlik bildiramiz.

Mazkur darslik doirasiga qamrab olinmagan Buxoro viloyat toponimik ob‘yektlari istiqboldagi izlanishlar natijasida yaratilajak o‘quv adabiyotlari uchun mavzu bo‘ladi, degan umiddamiz.

¹Қаранг: “Географик объектларнинг номлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни (2011-йил 4-март).

MUQADDIMA

Ushbu darslik muqaddimasida Buxoro toponimlari qayd etilgan manbalarning voha toponimlarini o'rganishdagi ahamiyatini ochib berish, toponimikaga bag'ishlangan nashrlarning tavsifi, shuningdek, toponimika masalalariga oid o'quv adabiyotlarining (jumladan, xorijiy nashrlar) qiyosiy tahlilini amalga oshirishga harakat qilindi.

Buxoro toponimlari mamlakatimiz toponimlarining tarkibiy qismi. Ularning paydo bo'lishi va uzoq davrlar iste'moldan tushmay kelishi aholining fonetik qadriyatlarimizga nisbatan tarixiy xotirani saqlashga intilganidan, ularni hurmat qilganidan dalolat beradi. Voha, mintaqa qanchalik qadimiy bo'lsa, joy nomlari ham shunchalik qadimiy va mo'l bo'ladi. Bu borada Buxoro vohasi ibratli misollarni taqdim etishi bilan ajralib turadi.

Buxoro vohasining tarixiy toponimlari to'g'risida qadimgi yunon, rim mualliflari asarlarida qisman ma'lumotlar uchraydi. Shu o'rinda Gerodot, Strabon, Arrian, Kurtsiy Ruf asarlarini eslash kifoya. Buxoro vohasini suv bilan ta'minlab turgan Zarafshon daryosining qadimgi nomi Politimet bo'lgani, Sug'diyonaning ikkinchi poytaxti Basileya shahri Buxoro o'rnida joylashgani¹ to'g'risidagi ma'lumotlar voha toponimlarining yunoncha atamasi xususidagi bilimlarni boyitadi.

Xitoy va arab manbalarida Buxoro shahrining turli nomlari to'g'risida bahs yuritilgani yuqorida – darslik “So'zboshi”sida ta'kidlandi.

Vohaning ilk o'rta asrlar toponimlari, tarixiy geografiyasidan bahs yuritish borasida Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari hamon ustunlik va afzallikni saqlab kelmoqda. 943 – 944-yillarda yozilgan 36 bobdan iborat bu asarda mavzumiz uchun qimmatli bo'lgan Buxoro toponimlari, qadimiy shahar-qo'rg'onlar, ularning joylashuv geografiyasi, shahar mahallalari, darvozalari xususida ma'lumotlar taqdim etilgan. Jumladan, Karmina, Nur, Tavois, Iskajkat, Sharg', Zandana, Vardona, Afshina, Barkad, Romtin, Varaxsha, Baykand (Poykend), Farob kabi voha shaharchalari, Buxoro shahri shimolida joylashgan Jo'yi muliyon mavzesi haqidagi tarixiy-toponimik ma'lumotlar hamon o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Asardagi bir bob to'la Buxoroning turli nomlari bayoniga bag'ishlangan va unda

¹ Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 80.

ushbu nomlarning etimologik ma'nosi sharhlab berilganki, muammoning shu tarzda qo'yilishi tarixiy toponimlarni o'rganish uchun benihoyat katta ahamiyatga ega. Podshohlarning Buxorodagi manzillari to'g'risidagi ma'lumotlar esa shahar registonining ilk o'rta asrlardagi chegaralari hamda shahar mahallalari nomini aniqlashga ko'mak beradi. Ayniqsa, Buxoro shahri yetti darvozasi, ya'ni Darvozai Bozor, Darvozai Shahrison, Darvozai Bani Sa'd, Darvozai Bani Asad, Darvozai Kabiriya, Darvozai Hafs, Darvozai Nav kabilar to'g'risidagi toponimik va topografik ma'lumotlar hamda bu darvozalardan ayrimlarining islomdan oldingi nomlarini keltirish orqali Narshaxiy ularning tarixiy toponimikasiga aniqlik kiritadi¹. Xullas, "Buxoro tarixi"ning shu jihatlari uni tarixiy toponimika masalalarini o'z ichiga olgan asar deb baholashga asos bo'ladi.

Arab tarixiy-geografik adabiyotida Buxoro vohasining tabiiy geografiyasi, iqlimi, etnik tarixi, shaharsozligi, aholisining tili, urf-odatlarini atroflicha tasvirlab berilgan. Ibn Havkalning 977 – 978-yillarda yozilgan "Kitob surat al-ard" (Yer surati) kitobi bunga misoldir. Asarda joy nomlari, ariqlar, qishloqlar nomi ba'zan g'alizroq, arablashtirilgan holda talqin qilinishiga qaramasdan, Buxoro vohasining X asrdagi tarixiy geografiyasi, tarixiy toponimlarini o'rganish uchun bu asarning ahamiyati katta. Asarda shunchalik ko'p joy nomlari, gidronimlar tilga olinadiki, ularning soni ba'zan kishini hayratga soladi. Asarning "Buxoro shahri ariqlari", "Buxoro rustoqlari", "Buxoro viloyati ariqlari", "Buxoro boyliklari va noz-ne'matlari", "Buxoro viloyatidagi shaharlar", "Buxoro aholisi", "Buxoro – Somoniylar poytaxti", "Buxoro viloyati qishloqlari" boblari Buxoro vohasi toponimikasini o'rganish uchun nodir manba hisoblanadi². Asar ma'lumotlari seminar mashg'ulotlariga tayyorlanishda talabalar uchun birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Noma'lum muallif tarafidan 982 – 983-yillarda yozilgan "Hudud ul-olam" (Olam chegaralari) asarining Movarounnahrda bag'ishlangan qismida Buxoro vohasining tarixiy toponimlari va shahar tavsifi berilgan. Buxoro Movarounnahrda eng katta va obod shahar,

¹Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. Мерос серияси. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 95-108, 128-132.

²Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи тарих фанлари доктори, профессор Ш.С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти, 2011. – Б. 40-52.

mashriq podshosining poytaxti, deb e'tirof etiladi. Vohadagi tarixiy joy nomlaridan Farab, Baykand, Tavovis, Karmina, Dabusiy kabilar tilga olinib, bu joylarning tarixiy geografiyasi, tabiiy sharoiti, sarhadlariga keng o'rin berilgan¹.

Abdulkarim Sam'oniyning "Kitob al-ansob" (Nasabnoma) asari tazkiranavislik yo'nalishida yozilgan va asosan Movrounnahrdagi ilohiyot olimlarining tarjimai holini aks ettirsa-da, undan tarixiy toponimlarni o'rganish uchun manba sifatida foydalanishni istisno etmaydi. Asarda Movarounnahrdagi, jumladan, Buxoro vohasidagi VIII-XII asrlarga oid ko'plab joy nomlarini uchratish mumkin. Ularning bir qismi gohida o'zgarib, gohida o'zgarmasdan bizgacha etib kelgan. Buxoro shahri ichidagi ayrim mahallalar nomi ham asardan o'rin olgan. Vohadagi Tobisha, Todiza (Vobkent tumanidagi hozirgi Todar), Taroxiy, Turnovad, Xudobod, Xarjush (Vobkent tumanidagi hozirgi Xargo'sh), Xurmisan, Xunbun (Jondor tumanidagi hozirgi Xumin), Xayroxariy, Daxfandun (Buxoro tumanidagi hozirgi Deg'duz), Zaymun (Jondor tumanidagi hozirgi Demun), Romush, Romitan, Narshax (Vobkent tumanidagi hozirgi Narchoq), Shiravon, Shirg'ovashun (Buxoro shahri sharqidagi hozirgi Shirbudun), Fashna (Peshko' tumanidagi hozirgi Afshona, deb taxmin qilinadi), Fag'ondiza, Vardona (Shofirkon tumanidagi hozirgi Vardonze), Navjobod, Navxas va boshqa qator tarixiy toponimlar asarda qayd etiladi. Joy nomlaridagi fonetik o'zgarishlarni qiyosiy o'zganish uchun asar ma'lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi².

Buxoro mozorlari va shaharning XIV-XV asrlar tarixiy topografiyasi, shuningdek, toponimika masalalarini o'rganishda Ahmad ibn Mahmud Buxoriyning "Tarixi Mullozoda" asari beqiyos ahamiyatga ega³. Buxoro shahri va atrofidagi tarixiy toponimlar u yoki bu islom ulamosi, faqih yoki shayxning dafn qilingan joyiga ishora orqali tilga olinib, toponimning Buxoro shahriga nisbatan joylashgan masofasi aniq raqamlarda ko'rsatib o'tiladi. Shahardagi

¹ Худуд ул-олам (Мовароуннаҳр тавсифи) / Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи Омонулло Бўриев. – Тошкент: O'zbekiston, 2008. – Б. 11-12.

² Қаранг: Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома (Ал-Ансоб) / Таржимонлар Ҳожи Абдулғафур Раззоқ Бухорий, Комилжон Раҳимов. – Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2003. – Б. 12-119.

³ Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Тарихи Муллозода / Сўз боши, форс тилидан таржима, изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, Б.Аминов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.

bizgacha yetib kelmagan tepasimon mazozlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘sha davr tarixiy toponimikasidan guvohlik beradi. Masalan, Tali Xoja, Tali Sudur, Tali Bug‘robek, Xoja Chahorshanba kabi tepasimon mazozlarning nomigina saqlangan, xolos. Ularning tarixiy dislokatsiyasini aniqlash maxsus tadqiqotni talab qiladi.

XVI asr tarixiy adabiyotlari ichida Ibn Ruzbehxonning “Mehmonnomai Buxoro”, Muhammadyor ibn Arab Qatag‘anning “Musaxxir al-bilod”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarlari ko‘plab tarixiy toponimlarni o‘z ichiga olishi bilan alohida e‘tiborga sazovor. Ularda mujassam joy nomlarining miqdoriy tahlilini amalga oshirish natijasida quyidagi raqamlarga duch keldik. “Mehmonnomai Buxoro”da 284 ta (shundan 14 tasi Buxoro vohasiga tegishli), “Musaxxir al-bilod” da 317 ta, “Abdullanoma”da 321 ta tarixiy joy nomlari qayd etilgan.

Shuningdek, ashtarxoniyalar davri tarixiy adabiyotlaridan Muhammad Yusufning “Muqimxon tarixi”, Muhammad Aminning “Ubaydullanoma”, Muhammad Tolibning “Matlab ut-tolibin”, Abdurahmon Davlatning “Abulfayzxon tarixi” asarlaridagi tarixiy joy nomlarining miqdoriy tahlili tubandagi ko‘rsatgichlarni berdi. “Muqimxon tarixi”da 155 ta, “Ubaydullanoma”da 197 ta, “Matlab ut-tolibin”da 289 ta, “Abulfayzxon tarixi”da 69 ta tarixiy joy nomlari, gidronimlar tilga olinadi. Ularning ayrimlari esa bir necha marotaba takror keladi. Xullas, ushbu asarlar toponimlar tarixini o‘rganish uchun diqqatga molik manba hisoblanadi.

Mang‘it amirlari hukmronlik davri tavsifiga bag‘ishlangan Ahmad Donishning (1827-1897) “Mang‘itlar sulolasining qisqacha tarixi”, Mirzo Somiyning (1838-1907) “Tarixi salotini mang‘itiya” asarlarida ham talaygina joy nomlari, katta-kichik shahar va qishloqlar tilga olinib, ba‘zilarining muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarga guvoh bo‘lgani qayd etiladi. Jumladan, “Tarixi salotini mang‘itiya” da 161 ta joy nomi tilga olinadi¹. Takror keladigan toponimlarni qo‘shib hisoblaganda ular soni 200 ga yaqinlashadi.

So‘ngi o‘rta asrlar muallifi Sayyid Muhammad Nosiriddin to‘ra qalamiga mansub “Tuhfat az-zoirin” va “Tahqiqoti arki Buxoro” asarlaridagi toponimik ma‘lumotlar ayrim qishloq va mahallalar,

¹ Мирза Абдал‘азим Сами. Та‘рих-и салатин-и мангитийа / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л.М.Епифановой. – Москва: Изд-во восточной литературы, 1962. – Б. 165-167.

Buxoro arki hududidagi toponimik ob'ektlarni lokalizatsiya qilish uchun foydalidir. Misol uchun "Tuhfat az-zoirin" shahardagi Fathobod, Hovuzi G'oziyon, Saripuli Sho'riston, Xoja A'lam Narason, Ja'far Xoja, Abdulla Xoja, Domla Usmon (ikkinchi nomi Qozi O'rda), Mavlono Musti guzarlarining tarixiy o'rni, shahar atrofdagi Qalti, Xudobod, Shovari, Suxor, Qasri Orifon va boshqa qishloqlarning Buxoro shahriga nisbatan geografik joylashuvini aniqlashga yordam beradi¹. O'tmishda Qarshi va Mazor darvozalarining tashqi tarafi oralig'ida joylashgan va hozirda Daxmai bihishtiyon deb ataluvchi ziyoratgoh aslida Talli bihishtiyon (Jannatiylar tepaligi), deb nomlangani to'g'risidagi ma'lumotlarni faqat "Tuhfat az-zoirin"da uchratish mumkin.

"Tahqiqoti arki Buxoro" asari esa Buxoro arki ichidagi Chahor chaman, Childuxtaron, Haft sulton, G'azab qudug'i singari toponimik ob'ektlar joylashuviga aniqlik kiritish imkonini beradi².

Yuqorida e'tirof etilgan o'rta asr manbalarining bir kemtik jihati ularda toponimlar etimologiyasi va lug'aviy ma'nosining ochib berilmaganligidir.

Rus sharqshunosligida Buxoroga maxsus tadqiqot ob'yekti sifatida qaralganligi uning nafaqat arxeologik, etnografik, tarixiy, balki toponimik jihatdan o'rganishga ham keng yo'l ochib berdi. Tadqiqotlarning barchasiga to'xtalib o'tishning iloji yo'qligidan kelib chiqib, tarixiy toponimika masalalarini V.V.Bartol'dning ayrim ishlari misolida ko'rib chiqishni ma'qulroq hisoblaymiz.

V.V.Bartol'd "Buxoro va uning atrofidagi islomdan oldingi sajdagohlar" nomli ishini Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari hamda boshqa qo'lyozma manbalar asosida yozgan³. Olimning bu tadqiqotidagi toponimik ma'lumotlardan Buxoroni o'rgangan keyingi davr tadqiqotchilari samarali foydalandilar. Buxoro shahri qadimiy darvozalarining nomi to'g'risidagi ma'lumotlar hanuzgacha keng iste'molda.

¹ Каранг: Мухаммад Насриддин ал-Ханафи ал-Хасани ал-Бухари. Тухфат аз-заирин / Перевод, предисловие, комментарии Х.Тураева. – Ташкент: Французский институт исследований Центральной Азии (IFEAC), 2003. – Б. 9-36.

² Саййид Мухаммад Носир ибн Музаффар. Таҳқиқоти арки Бухоро / Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар Ғ.Каримовники. – Тошкент: Tafakkur, 2009. – Б. 41-42.

³ Бартольд В.В. Места домусульманского культа в Бухаре и её окрестностях. Соч. в 9-томах. Том 2. часть 2. – М.: Наука, 1964.

Uning “Buxoro. Uning yodgorliklari va ularning taqdiri”, “Turkiston madaniy hayoti tarixi”, “O‘zbek xonliklari saroyidagi an’analar” nomli asarlarida tarixiy toponimika masalalari bir qadar ifoda etilgan.

V.V.Bartol’ning Buxoro toponimikasiga doir ma’lumotlari muntazam to’ldirilib borilishi, eskilari o’rnini zamonaviy tadqiqotlarda yoritilayotgan yangilari egallashi lozim, deb hisoblaymiz. Talabalarga zamonaviy ilmiy adabiyotlardan foydalanib borishni tavsiya etamiz.

M.S.Andreev va O.D.Chexovich qalamiga mansub “Buxoro Arki” nomli kitob Buxoro arkining tarixiy binolari, saroy an’analari, amirning kundalik hayoti, ayniqsa arkning bizgacha etib kelmagan 80 foiz ma’muriy, xo‘jalik, maishiy ahamiyatga molik binolari to‘g‘risida ma’lumot berish bilan birga, arkdagi toponimik ob’ektlar xususida diqqatga sazovor illyustrativ materiallarni taqdim etadi. Kitobda tilga olingan har bir toponimik ob’ekt muayyan vazifani bajarishga mo‘ljallangan funktsional bino hisoblanadi. Ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz. Buxchaxona, darbonxona, duxtarxona yoki qizlar o‘rdasi, zargarxona, jilavxona, ko‘rinishxona, ko‘rpaxona, mehmonxona, miyonhovli, mirzoxona, nonxona, sayisxona, salavotxona, tagxona, to‘shakxona, farroshxona, xazinaxona, xaroxona, xobxona, childuxtaron, sharbatxona, elchixona, yakkamex, qog‘ozxona, qorixona, qorovulxona, haram¹. Qayd etilgan toponimlarning aksariyati bizgacha saqlanmagan. Ularni ushbu kitob asosida tiklash mumkin.

N.A.Kislyakovning etnografik tadqiqotlar sirasiga kiruvchi “Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начале XX века” nomli kitobida Buxoro xonligi beklilari, beklilklar tarkibidagi amlokдорliklar, ayrim qishloqlar nomi ko‘rsatiladi. Jumladan, Hisor bekligi 21 amlokдорlikka, Qarshi bekligi 15 amlokдорlikka, Ko‘lob bekligi 8 amlokдорlikka bo‘linganligi va ularning nomlari keltiriladi. Masalan Qarshi bekligiga qarashli Qamashi, Kasbi, Maymanoq, Koson, Po‘loti, Parvona, Fayzobod, Beshkent, Jumabozor, Xonobod, Chim, Qorabog‘ kabi amlokдорliklar nomi tilga olinadi. Buxoro atrofidagi tuman yoki amlokдорliklardan Vardonze, Vobkent,

¹ Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (Кремль) Бухары в конце XIX - начале XX вв. – Душанбе: Дониш, 1972. – Б. 153-161.

Shofirkom, G'ijduvon, Pirmast, Zandani, Romitan, Vang'oz, Xayrobod, Qorako'l nomlari qayd etiladi. Muallif G'ijduvon amlokдорligining ikkinchi nomi Xo'jai Jahon ekanligini ta'kidlaydi¹.

Buxoro shahri toponimikasi masasalalarini o'z ichiga olgan eng mukammal ilmiy nashr, shubhasiz, O.A.Suxaryevaning "Квартальная община Бухары" nomli asari hisoblanadi. Albatta asar mazmuni shahar etnografiyasi, tarixiy topografiyasi, ziyoratgohlarini aholi urfodat va an'analari bilan uyg'un holda o'rganishga yo'naltirilganligi yaxshi ma'lum. Lekin toponimika muammosini muallif nazardan qochirmagan. Asarda Buxoro shahridagi 220 ta guzarining nomi, nomlarning lug'aviy va ijtimoiy ma'nolari beriladi. Buxoro shahri mudofaa devorlari bo'ylab joylashgan guzarlarning bizgacha etib kelmagan nomlarini qayta tiklash uchun bu asar ahamiyatining beqiyosligi tabiiy. Asarda zikr etilgan Qozi Nuriddin, Imom Qozixon, Qarokamol, Mir Toxuri, Xossa Po'lod, Nazarcha, Kofar-rabod, Xo'ja Qurbon, Qozi Mir Hoshim, Askarbiy, Takiya Ahmad, Dodxoh, Ahmadi Jom, Qobul Ato, Xo'ja G'unjori, Qalmoqon, Muddao, O'zbek Xo'ja, Charmgaron, Dastorbandon guzarlari nomi shular jumlasidandir². Buxoro shahri guzarlari xaritasining ilova qilinishi ushbu asar ilmiy qimmatini va unga bo'lgan ma'rifiy ehtiyojni yanada oshiradi.

O'tgan asrning 70-yillari toponimika muammosining dolzarb kasb etganligi Z.Do'simov va X.Egamovlar hamkorlikda chop etgan "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" misolida ham namoyon bo'ladi. Aytish joizki, maktab o'quvchilariga mo'ljallangan bu lug'atda sobiq Ittifoq hududida joylashgan ayrim shahar, qishloq, to'qay, daryo, tepalik, qo'rg'on nomlariga sharh berishga asosiy e'tibor qaratilgan³. Shu bilan birga mamlakatimizdagi, shu jumladan, Buxoro vohasidagi shahar qishloqlar nomi va ularning lug'aviy ma'nosi o'z ifodasini topgan. Buxoro vohasiga taalluqli Varaxsha, Vardonze, Vobkent, Galaosiyo, Dekdavon, Jondor, Jo'ybor, Jo'yi mo'liyon, Zarangori, Machitbaland, Mirobod, Olot, Tomdi, Xayrobodcha, Xalach toponimlari bunga misol bo'ladi. Lug'at Buxoro vohasi toponimlarini

¹Кисляков Н.А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начале XX века. – Москва, Ленинград: Изд-во АН СССР, 1992. – Б. 52-55.

² Сухарева О.А. Квартальная община Бухары.- Москва: Наука, 1976.

³ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.

to'liq qamrab olmasa-da, qo'shimcha ma'lumotlar berishi bilan e'tiborga loyiq.

O'tgan asrning 80-yillari Markaziy Osiyo tomonimlari tarixini o'rganish borasida bir necha ishlar e'lon qilinganligi bu sohaga e'tiborning barqarorligidan dalolat beradi. Shu o'rinda N.A.Axunovning "Этнотопонимы – важный исторический источник"¹, X.N.Bababekovning "К этимологии топонима «Коканд»"², S.K.Karaevning "Древнетюркские названия Средней Азии"³, A.Turgunovning "К этимологии топонима «Андижан»"⁴, X.Hasanovning "К этимологии названия «Тянь-Шань»"⁵ singari ishlarini ta'kidlash o'rinli. Bularda mamlakatimiz hududlaridagi joy nomlarining kelib chiqishi, lug'aviy ma'nosi, etnotoponimlar va ularning mamlakatimiz viloyatlari kesimidagi salmog'i masalalari tarixiy manbalar, arxiv materiallari va ilmiy adabiyotlar asosida keng ochib berilgan. Tarixiy joy nomlarini o'rganishda akademik yo'nalish kasb etuvchi ushbu nashrlarning ahamiyati beqiyos.

Mustaqillikning dastlabki yillarida toponimikaga milliy qadriyatlarning bir qismi sifatida qarash tendentsiyasi madaniy-ma'rifiy jarayonlar silsilasida keng namoyon bo'la boshladi. Joy nomlari tarixiga bag'ishlangan ishlarning paydo bo'la boshlashi shu jarayonlarning mahsuli sanaladi. N.Oxunovning "Joy nomlari ta'biri"⁶ nomli risolasi mamlakatimiz toponimlarining sharhiga bag'ishlangan bo'lib, unda 296 ta joy nomining tarixi va ta'rifi berilgan. Ulardan 10 dan ortig'i Buxoro vohasiga tegishli.

S.Rahmatova, H.Qurbonovlarning "Buxoro guzarlari tarixidan lavhalar"⁷ risolasi bir qarashda O.A.Suxaryeva tadqiqotlarining mantiqiy davomidek tuyulsa-da, unda Buxoro viloyat arxivida saqlanayotgan shahar sovetining guzarlar to'g'risidagi qarorlari, keksa

¹ Ахунув Н.А.Этнотопонимы – важный исторический источник // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. – Б. 85-98.

² Бабабеков Х.Н. К этимологии топонима «Коканд» // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. – Б.98-104.

³ Караев С.К. Древнетюркские названия Средней Азии // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. – Б.104-130.

⁴ Тургунов А. К этимологии топонима «Андижан» // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. – Б.130-136.

⁵ Хасанов Х. К этимологии названия «Тянь-Шань» // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. – Б.136-141.

⁶ Охунув Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.

⁷ Раҳматова С., Курбонов Х. Бухоро гузарлари тарихидан лавҳалар. – Бухоро : Бухоро нашриёти, 1995.

avlod vakillarining og‘zaki ma‘lumotlari va joy nomlari bilan bog‘lik tarixiy hujjatlardan samarali foydalanilgan. Mualliflar shaharni 12 ta yirik qismga ajratib, guzarlar joylashuvini shu qismlar kesimida o‘rganishgan. Bular quyidagi qismlar: Shayx Rangrez, Turki Jandi, Jo‘ybor, Chashmai Ayyub, Registon, Xiyobon, Murdashuyon, Sufiyon, Gavkushon, Shahrison, Iskandarxon, Kalobod. Shahar soveti tomonidan ro‘yxatga olinmagan Pushtizog‘on, Arabxona, Duxtarsozon, Zango‘lasozon, Jo‘ybori berun guzarlarini ham aniqlab, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etishgan. Risolada Buxoro shahrining 215 guzari to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. Faqat bir jihat, ya‘ni ayrim guzarlar nomining lug‘aviy ma‘nosi e‘tibordan chetda qolgan.

Buxoro viloyatini rayonlashtirish jarayonining 70 yilligi munosabati bilan tayyorlangan tumanlar tarixi kitoblari ichida maktabning tarix o‘qituvchilari T.Halimov, I.Qobilov qalamiga mansub “Qadimiy va navqiron Romitan”¹ kitobi mahalliy tarix va toponimika masalalarini o‘rganish uchun alohida ahamiyatga ega. Mualliflar Romitan tumanining qadimgi, o‘rta asrlar va yangi tarixi, muqaddas qadamjolari, tuman aholisi etnik tarkibi, ko‘zga ko‘ringan davlat va jamoat arboblari, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi ilg‘orlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini atroflicha yoritish barobarida tumandagi 75 ta qishloq va ularning nomlari to‘g‘risida muhim ma‘lumotlarni keltirib o‘tishadi. Kitobni o‘lkashunoslar uchun qimmatli manba, deb hisoblash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Buxoro toponimikasi masalalariga bag‘ishlangan maxsus adabiyot, bu, mubolag‘asiz, “Населённые пункты Бухарского эмирата (конец XIX - нач. XX вв). Материалы к исторической географии Средней Азии”² asari bo‘lib, akademik A.R.Muhammadjonov xizmatlari evaziga bu kitob nashr yuzini ko‘rdi. I.Yo‘ldoshyev, K.Ubaydullaev, O.D.Chexovich, K.Z.Hakimovalar tomonidan tuzilgan Buxoro amirligi aholi punktlari ro‘yxati A.R.Muhammadjonov tarafidan qayta ko‘rib chiqilib nashr etildi. Asarda Buxoro amirligiga qarashli 10 mingta joy nomi o‘rin olgan. Alifbo ketma-ketligida berilgan joy nomlarining arab yozuvidagi asl

¹ Халимов Т., Қобилов И. Қадимий ва навқирон Ромитан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.

² Населённые пункты Бухарского эмирата (конец XIX - нач. XX вв). Материалы к исторической географии Средней Азии. Под редакцией А.Р. Мухаммеджанова. - Ташкент: Университет, 2001.

nusxasi faksimile varianti nashrga ilova qilingan. Bebaho toponimik manba hisoblanmish bu nashrning qimmatini toponimik o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi paytda bor bo'y-bastini namoyon qilmoqda. O'zgartirish taklif etilgan ko'plab tarixiy toponimlar aynan shu kitobga tayangan holda asl holda saqlab qolindi.

Buxorolik jurnalist M.Baqoyevning "G'ijduvonnoma"¹ kitobi mahalliy tarix, o'lkashunoslik masalalariga qiziqishning amaliy natijasi bo'lish bilan birga, tuman tarixi bilan qiziquvchilarni, toponimika masalalari bilan shug'ullanuvchilarni, shuningdek, qishloq, mahalla fuqarolar yig'ini mutasaddilarini kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Tumanlar tarixini ommalashtirish ilmiy-ma'rifiy an'anasi Vobkent tumani misolida yanada keng quloch yozganligi ushbu tuman tarixiga bag'ishlangan uch kitob orqali o'z tasdig'ini topadi. Bunga misol qilib besh muallif – H.Rizayev, S.Olim, K.Gadoyev, H.To'rayev, M.Olimov tarafidan tayyorlangan "Vobkent tarixi"² kitobini ko'rsatish mumkin. Kitobda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tarixi manzarasida qishloqlar tarixiga alohida o'rin berilgan. 1911- yildagi ro'yxatga asosan tumanda 112 qishloq, 2002 yilga kelib esa ular soni 197 taga etgani to'g'risida qiziqarli statistik ma'lumot berilib, qishloqlar nomi bir-bir ko'rsatib o'tiladi.

Keksa o'lkashunos H.Rizayev ijod mahsuli bo'lmish "Vobkentnoma"³ kitobi yuqorida so'z yuritilgan Vobkent tumani tarixining uzviy davomi bo'lib xizmat qiladi. Kitobda tuman geografiyasi, hunarmandchiligi, me'moriy obidalari, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, maktab, maorif, madaniyat, sport masalalari o'z ifodasini topgan. "Joy nomlari yashirin tarix" sarlavhasi ostida berilgan ma'lumotlarda tumandagi ayrim joy nomlari, jumladan, Mug'iyon, Kumushkent, Shakarkent, Chorbog'kent, Rohkent, Buzunduvon, Hajivon va boshqa bir qancha qishloq nomlarining etimologiyasi xususida so'z yuritiladi. Tuman toponimlarini o'rganish uchun ushbu kitoblarning o'z o'rnini bor.

Vobkent tumaniga bag'ishlangan mavzu Q.Rajabov, K.Rahmonov ijodida davom etdi. Ular ijod yo'nalishining bir qismi

¹ Бақоев М. Гиждувоннома. – Тошкент, 2001.

² Ризаев Х., С.Олим., Гадоев К., Тўраев Х., Олимов М. Вобкент тарихи. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.

³ Ризаев Х. Вобкентнома. – Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2007.

sanalgan “Vobkent tumani tarixi. (Qisqacha ma’lumotnoma)”¹ risolasi tuman tarixi, geografiyasi, iqtisodi, madaniyati masalalarini o‘z ichiga olib, ushbu sohalarining barcha jihatlari risolada keng qamrab olingan. Tarixiy joy nomlari masalasi ham, albatta, mualliflar nazaridan chetda qolmagan. Tumanning ma’muriy-hududiy tuzilishi, qishloq va mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi, manzili, aholisi, oila soni kabi ma’lumotlarning jadval asosida berilishi tuman toponimikasini o‘rganish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Toponimika masalalari bilan shug‘ullanuvchi o‘lkashunoslar uchun bu nashr muhim ahamiyatga ega.

Jurnalist va matbuot xodimi B.Soliyev qator yillar Buxoro viloyatining eng yosh tumani – Qorovulbozor tarixiga doir tadqiqotlar olib borib, tadqiqotlar natijasini “Qorovulbozor tumani: o‘tmish, bugun va kelajak chorrahasida”² nomli kitobida jamladi. Kitobda tuman ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid qiziqarli materiallar silsilasida toponimika mavzusiga ham muayyan o‘rish ajratilgan. “Qorovulbozor qishloqlari” nomli bo‘limda Qo‘riqtepa, Bo‘zachi, Jarqoq, Nog‘oratepa, Sardoba, Toshquduq kabi aholi punktlari va bir necha gidronimlar to‘g‘risida so‘z boradi. Badiiy sifati yuqori va illyustratsiyaga boy ushbu kitob mikrotarixning yorqin namunasi hisoblanadi.

Kogonlik tarix, til va adabiyot o‘qituvchilari Yu.Qurbonov va A.Mardonova o‘zlari tug‘ilib o‘sgan Kogon yaqinidagi Ziropod qishlog‘i tarixi haqida “Ziropod”³ nomli kitob bitib, qishloq tarixi va ijtimoiy hayotiga oid ko‘plab ma’lumotlarni taqdim etishgan. Qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, Ziropod hududiga qiruvchi katta-kichik toponimik ob’etlarning tarixi va ma’nosini yoritib berishgan. Jumladan, Ganchkash, Urganjiyon (Qizilgul), Miyonko‘l, Xo‘jabargi, Sariosiyo, Kofartepa, Xomi. Birgina qishloq to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlarni jamlab chop etish, shubhasiz, e’tiborga sazovor ma’rifiy hodisa hisoblanadi.

Buxoro toponimlarini tumanlar kesimida o‘rganishda Q.Rajabov, K.Bobomurodovlar ijod mahsuli bo‘lmish “Shofirkon tumani tarixi. (Qisqacha ma’lumotnoma)” kitobining ham o‘z o‘rni bor. Kitobda

¹ Ражабов К., Раҳмонов К. Вобкент тумани тарихи. (Қисқача маълумотнома) – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2015.

² Солиев Б. Қоровулбозор тумани: ўтмиш, бугун ва келажак чорраҳасида. Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2013.

³ Юсуф Курбоний, Азизаи Мардон. Зиropod. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2014.

tumandagi bir qancha qishloqlarning nomlari to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar qayd etilgan¹. Kogon va G‘ijduvon tumanlari tarixiy toponimlari to‘g‘risida ham shunday fikrlarni bildirish mumkin. Q.Rajabov, D.Jamolova tomonidan tayyorlangan “Kogon tumani tarixi. (Qisqacha ma‘lumotnoma)”², Q.Rajabov, U.Rashidov, O.Rashidov hammuallifligi natijasi bo‘lmish “G‘ijduvon tumani tarixi. (Qisqacha ma‘lumotnoma)”³ kitoblari bunga misoldir.

Tarixan Buxoro vohasiga, ayni paytda esa Navoiy viloyatining Buxoro bilan chegaradosh hududida joylashgan Qiziltepa tumani tarixiga bag‘ishlangan R.Maqsudov va Q.Rajabov hammuallifligidagi “Qiziltepa tarixi”⁴ nomli kitobda tumanning qadimgi davrdan hozirgacha bo‘lgan tarixini yoritish barobarida, toponimik ob‘ektlar, qadimgi qabriston va ziyoratgohlar to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Qishloqlar, ulardagi aholi soni, nomi o‘zgartirilgan toponimik ob‘yektlar, tarixiy nomlari tiklangan geografik ob‘yektlar, Arabon, Bo‘ston, Vang‘ozi, G‘ardiyon, Zarmitan, Xoja Hasan qishloq fuqarolar yig‘iniga qarashli qishloqlar ro‘yxati taqdim etilgan. Xilma-xil mavzular qatoridan joy olgan toponimik ob‘yektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar nafaqat mahalliy aholini, balki tarixchi, o‘lkashunos talabalarni ham befarq qoldirmaydi.

Iste‘dodli yosh tadqiqotchi, sharqshunos A.Ahmedov tomonidan kirill alifbosiga o‘girilib nashr qilingan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”⁵ nomli kitob toponimik ob‘ektlar nomini qayta ko‘rib chiqish jarayonlari shiddat bilan borayotgan bir paytda ayni muddao bo‘ldi va ilmiy jamoatchilik, mahalliy aholi, qishloq hamda mahalla fuqarolar yig‘ini mutasaddilarining ma‘rifiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildi. Aslida, 1926-yil Samarqandda eski o‘zbek yozuvida nashr etilgan ushbu ro‘yxatda Buxoro tumanlari, shahar, bozor, stantsiyalar, shuningdek, barcha qishloqlar ro‘yxati berilgan. Tabdil matniga eski o‘zbek yozuvidagi asl nusxa ilova qilingan. Ushbu nashr

¹ Ражабов Қ., Бобомуродов К. Шофиркон тумани тарихи. (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2015.

² Ражабов Қ., Жамолова Д. Когон тумани тарихи. (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2015.

³ Ражабов Қ., Рашидов У., Рашидов О. Гиждувон тумани тарихи . (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2015.

⁴ Мақсудов Р., Ражабов Қ. Қизилтепа тарихи. – Тошкент: Tamaddun, 2015.

⁵Халқ турадиган жойларнинг рўйхати. Ўзбекистон марказий районлаштириш комиссияси нашри. Самарқанд, 1926-йил / Кириш сўзи, араб алифбосидан табдил ва айрим изоҳлар муаллифи Ахтам Аҳмедов. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2017.

“Buxoro toponimikasi” fani uchun o‘ziga xos xrestomatiya vazifasini bajaradi.

Buxoro toponimlari bo‘yicha maxsus izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchi N.Adizovaning “Buxoro tumani toponimlari”¹ monografiyasi toponimika mavzusidagi to‘kis asarlar sirasiga kiradi. Mazkur tadqiqotda tuman toponimik ob‘yektlarining qariyb barchasi qamrab olingan. Jumladan, 36 ta mahalla fuqarolar yig‘ini, 248 ta aholi punkti, 88 ta adir, 21 ta bog‘, daraxtlar nomi bilan ataluvchi 10 ta joy, 7 ta hovuz, 15 ta kanal, 1 ta suv ombori, 9 ta ko‘prik, 23 ta masjid, 1 ta qir, 9 ta quduq, 55 ta tepalik, 250 ta dala maydonlari, 16 ta yo‘l, 8 ta zaxkash, 4 ta chashma, 1 ta cho‘l, 30 ta ziyoratgoh. Ushbu nashr Geografik ob‘yektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasi, qishloq va mahalla fuqarolar yig‘ini mutasaddilari, kadastr masalasi bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lish bilan birga, Buxoro tarixi ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mahalliy toponimlar bo‘yicha benihoya zarur ma‘lumotlarni taqdim etuvchi manbadir.

R.Al‘meyev va K.Mahmudov uch tilda – o‘zbek, rus, ingliz tillarida tayyorlagan “Qadimgi Mag‘ok jumboqlari”² nomli risola Buxoro shahridagi Mag‘oki Attori masjidi, shahar darvozalari, tarixiy topografiya va toponimika masalalarini o‘z ichiga oladi. Mualliflar joy nomlari mavzusiga ham qo‘l urib, moh toponimining kelib chiqishi, ma‘nolari, turlicha shakl va talqinlari xususida maxsus to‘xtalib o‘tishgan. Risolani Buxoro shahri qadimiy toponimlarini o‘rganish borasidagi eng so‘nggi va yangi tadqiqot sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Shu o‘rinda, garchi Buxoro vohasiga aloqador bo‘lmasa-da, toponimika masalalari, aynan Toshkent shahri toponimlari to‘g‘risida zarur ma‘lumotlar bazasiga ega X.Bo‘riyevaning “Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)”³ nomli kitobini ham qayd etib o‘tish o‘rinli. Kitobda Toshkent shahri toponimlari birlamchi manbalar asosida yoritib berilgan.

Shuningdek, Farg‘ona vodiysi toponimlari, ayniqsa tarixiy gidronimlari to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan

¹ Adizova N. Buxoro tumani toponimlari.- Toshkent: Navro‘z, 2020.

²Альмеев Р, Махмудов К. Қадимги Мағок жумбоқлари. – Бухоро: Yoqub Dovud bosmaxonasi, 2020.

³ Бўриева Х . Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бoshлари) – Тошкент: Noshirlik yog‘dusi, 2009.

A.Ashirovning “O‘zbek madaniyatida suv”¹ kitobini ham ta’kidlash joiz. Istiqbolda Buxoro vohasi tarixiy gidronimlarini o‘rganish uchun ushbu nashr metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin, deb o‘ylaymiz.

Buxoro toponimlariga oid materiallar A.Nabiyev tomonidan yaratilgan “Tarixiy o‘lkashunoslik” o‘quv qo‘llanmasida ham mavjud². O‘quv qo‘llanmada toponimika to‘g‘risida batafsil ma’lumot berish barobarida, mamlakatimiz tarixiy toponimlari, shu jumladan, “Buxoro” atamasining paydo bo‘lish tarixi, Buxoro shahrining turli nomlari xususida to‘xtalib o‘tilgan.

A.Nizomov, G.Rahimova, N.Rasulova hammuallifligida geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Toponimika” o‘quv qo‘llanmasida³ toponimik terminlar, toponimik tadqiqotlar tarixi, toponimikaning tarkib topish xususiyatlari, toponimlarning to‘g‘ri yozilishi qoidalari batafsil yoritib berilgan. Qo‘llanmada O‘zbekistonning toponimik rayonlari vohalar bo‘yicha, ya’ni Toshkent-Mirzacho‘l, Farg‘ona, Qizilqum, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Amudaryo, Ustyurt misolida ko‘rib o‘tilgan. Buxoro vohasining ayrim toponimlari, jumladan, “Buxoro” atamasi, Pattazor, Sarrofon, Zargaron, Kamongaron, Xorkashon kabi toponimlar tilga olinib, ularning lug‘aviy va ijtimoiy ma’nolariga sharh berilgan.

R.Shamsiddinov va boshqa bir guruh mualliflar hamkorligida nashr etilgan “Vatan tarixi” o‘quv qo‘llanmasining ikkinchi kitobidagi Buxoro xonligi tarixiga bag‘ishlangan materiallar orasida tarixiy joy nomlari ham tilga olingan. O‘quv qo‘llanma oldiga qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, mualliflar joy nomlarini ijtimoiy-siyosiy voqealar silsilasida qisqacha ta’kidlab o‘tishgan⁴.

Toponimikaning nazariy metodologik masalalari, geografik nomlarni tavsiflash usullari, geografik nomlar etimologiyasi, ta’lim jarayonida mahalliy toponimlardan foydalanish yo‘llari va toponimika bilan bog‘liq boshqa qator masalalar Yu.Ahmadaliyevning

¹ Аширов А. Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент: Akademnashr, 2020.

² Набиев А. Тарихий ўлкашunosлик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

³ Низомов А., Раҳимова Г., Расулова Н. Топонимика (ўқув қўлланма). – Тошкент: Sharq nashriyat-manbaa taхририяти, 2013.

⁴ Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S., Ubaydullaev O’. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent: «Sharq» nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016.

“Toponimika va geografik terminshunoslik”¹ o‘quv qo‘llanmasida batafsil ko‘rib chiqilgan. Geografiya, tarix ta‘lim yo‘nalishi talabalariga ushbu qo‘llanmadan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Buxoro toponimlari Buxoro davlat universiteti geografiya ta‘lim yo‘nalishi talabalari o‘quv-tadqiqot ishlarida, ular tomonidan tayyorlangan referatlarda ko‘zga tashlanadi. Asosiysi, mo‘juzgina shu ishlarda ayrim toponimlar to‘g‘risida qiziqarli, shu bilan birga, muhim va kerakli ma‘lumotlarni uchratish mumkin. Shunday ishlardan biri Buxoro davlat universiteti geografiya ta‘lim yo‘nalishi II bosqich talabasi Sitara Karimova tarafidan o‘lkashunoslik fani doirasida tayyorlangan referat hisoblanadi². Referatda yigirmadan ortiq toponimlar to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. Masalan, G‘ijduvon tumanidagi Suktari qishlog‘ining tarixi, joy nomining lug‘aviy ma‘nosi ixchamgina tarzda ochib berilgan. Talaba, ya‘ni referat muallifi toponim lug‘aviy ma‘nosining barcha ko‘rinishlarini ko‘rsatib, “Suktari” atamasi aslida “Sad piri” so‘zining o‘zgargan shakli ekanligini va “yuzta pir, yuz ma‘naviy ustoz yashagan qishloq” ma‘nosini anglatishini taklif qilgan.

Buxoro toponimikasi fanining tarixiy o‘lkashunoslik fani bilan bog‘liqligi ushbu darslikni tayyorlash jarayonida tarixiy o‘lkashunoslik fani yutuqlaridan va bu yo‘nalishda Rossiyada va qisman qo‘shni mamlakatlarda yaratilgan “Tarixiy o‘lkashunoslik” o‘quv qo‘llanmalaridan metodologik asos sifatida foydalanish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Rossiyalik G.N.Matyushin³, I.V.Viborova⁴, A.A.Raspopina, I.A.Raspopina, G.E.Kornilov⁵, qozog‘istonlik muallif Sh.S.Axmetova⁶ tomonidan yaratilgan shu mavzuga doir o‘quv qo‘llanmalar bunga misoldir.

Rossiyalik taniqli o‘lkashunos G.N.Matyushin qalamiga mansub “Tarixiy o‘lkashunoslik” darsligida tarixiy o‘lkashunoslikning shakllanishida muhim rol o‘ynagan arxeologiya, etnografiya,

¹ Ахмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшunoslik. – Фарғона, 2018.

² Karimova S. O‘lkashunoslik fanidan referat. Buxoro davlat universiteti. – Buxoro, 2016.

³ Матюшин Г.Н. Историческое краеведение: учебное пособие. – М.: Просвещение, 1987.

⁴ Выборова И.В., Распопина А.А., Распопина И.А. Иркутское краеведение: основы экскурсионной работы: учебно-методический материал. – Иркутск: БГУЭП, 2008.

⁵ Корнилов Г.Е. Историческое краеведение Урала: учебное пособие. – Екатеринбург: Уральский государственный университет, 2015.

⁶ Ахметова Ш.С. Историческое краеведение в Казахстане: учебное пособие. – Алма-Ата, 2012.

me'moriy obidalar, san'at asarlari, yozma va og'zaki manbalar to'g'risida keng ma'lumot beriladi. O'lkashunoslik materiallarini tarix darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash usullari ko'rsatib o'tiladi. Ushbu darslik Rossiya oliy o'quv yurtlari tarix ixtisosligi ta'lim yo'nalishida hozir ham o'qitilib kelmoqda. Shuningdek, ushbu darslikda toponimikaning o'lka tarixini o'rganishdagi o'rni masalasi alohida ko'rib chiqilgan. Darslikda "toponimika" atamasining lug'aviy ma'nosi, tabiiy shart-sharoitlar, aholining kasb-kori, mashg'uloti, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq toponimlar, toponimik tadqiqotlar o'tkazish metodlari xususida batafsil ma'lumotlar beriladi.

I.V.Viborov va boshqalar hamkorligida chop etilgan "Irkutsk o'lkashunosligi" nomli o'quv qo'llanma tarixchi talabalar bilan birga gidlarga mo'ljallangan bo'lib, o'lkashunoslikka doir uslubiy ma'lumotlar beradi va shahar bo'ylab obzor ekskursiyalar o'tkazish, ekskursiya yo'nalishlarini belgilash, tarixiy ob'yektlarni tanlashga ko'mak beradi. Toponimik ob'yektlar to'g'risida ma'lumot berish masalasi mualliflar nazaridan chetda qolmagan.

G.E.Kornilovning "Ural tarixiy o'lkashunosligi" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida talabalarni nafaqat o'lkashunoslikning predmeti, manbalari, usullari bilan tanishtirish, balki uning muhim va ishonchli tajribasini amaliyotga qo'llash yo'llarini o'rgatish maqsad qilib olingan. Qo'llanmada XVIII -XX asr boshlarida Rossiyada tarixiy o'lkashunoslik masalalari. Rossiya va Uralda XX-XXI asr boshlarida tarixiy o'lkashunoslikning yozma, arxeologiya, etnografiya, san'atshunoslik manbalari ko'rib o'tilgan. Uraldagi ayrim joy nomlari, ularning etimologik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar umumiy toponimika masalalarini o'rganishga ko'mak berishi shubhasiz.

Sh.S.Axmetova tarafidan nashr etilgan "Qozog'istonda o'lkashunoslik" nomli o'quv qo'llanmada Qozog'istonda tarixiy o'lkashunoslikka oid ishlar umumlashtirilgan va ularga ilmiy baho berilgan. Albatta toponimikaga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar ham o'quv qo'llanmada o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, Buxoro toponimikasi O'zbekiston toponimikasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Buxoro davlat universiteti Buxoro tarixi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan ushbu darslikda aynan shu holat inobatga olindi va u yoki bu toponimning mamlakatimizning qaysi hududlarida uchrashi to'g'risida ma'lumot

berildi. Jahon miqyosida olib borilayotgan tarixiy tadqiqotlarda qo'llanilayotgan "mikro tarix", ya'ni tarix masalalarini muayyan mintaqa doirasida o'rganish va o'rgatish uslubiga mazkur darslikda rioya qilindi.

Keyingi to'rt yilda Oliy ta'lim tizimida yuz berayotgan tub burilishlar, 2021-yilni Prezidentimiz tomonidan "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilinishi¹, 2021-yil 19-yanvardagi Ma'naviyat va ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektorda tarix fani oldiga qo'yilgan vazifalar, tarixiy tadqiqotlarda publitsistika va bayonchilikdan voz kechish, milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish to'g'risidagi ko'rsatmalar darsliklar oldiga ham yangi talab qo'yadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, zamonaviy talablarga javob beradigan, bir-birini takrorlamaydigan o'quv adabiyotlari yaratish, jumladan, Buxoro tarixi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini shunday o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash Oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Shu talab va mas'uliyatdan kelib chiqib tayyorlangan **ushbu darslik yuqorida tilga olingan o'quv adabiyotlaridan ayrim jihatlari bilan farq qiladi.** Toponimikaga bag'ishlangan o'quv adabiyotlarida ko'pincha tomonimikaning umumiy masalalari va butun mamlakatimiz toponimlari to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilgan. Alohida olingan bir viloyat va undagi barcha tumanlar toponimlarini o'z ichiga olgan o'quv adabiyotlari yaratish bir oz oqsamoqda. To'g'ri, ayrim viloyat va shahar toponimlarini qamrab olgan ilmiy va o'quv adabiyotlari mavjud. Lekin ular sonini ko'paytirish lozimligi hamon o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. **Yana bir o'ziga xos jihat, darslikni tayyorlashda ilmiy tilda "Qushbegi arxivi" deb ataladigan Buxoro amirligi devonxonasi qo'lyozma hujjatlari muomalaga tortildi.**

Tarixiy toponimlarni mahalla fuqaro yig'inlari kesimida berish tartibi ham ilk bor mazkur darslikda taqdim etilmoqda. Tuman to'g'risidagi umumiy ma'lumotlardan so'ng, mahalla fuqaro yig'inlari kesimida tumandagi mavjud qishloqlar, u yoki bu joy nomining lug'aviy, ijtimoiy ma'nolari, ayrim murakkab toponimlarning arab yozuvidagi shakli, toponim paydo bo'lishi bilan bog'lik ayrim

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи" газетаси, 2020-йил 30-декабрь.

rivoyatlar beriladi. Yana bir jihat, toponimlar ma'nosi to'g'risida barcha versiyalar keltirilgan holda, qo'shimcha o'rganishni talab qiluvchi joy nomlari to'g'risida xulosa chiqarish ba'zan talaba hukmiga havola etiladi va shu orqali talaba mustaqil tadqiqotga da'vat qilinadi. Qishloqlar to'g'risidagi ma'lumotlar alifbo tartibida emas, balki u yoki bu qishloqning mahalla fuqarolar yig'ini hududiga nisbatan joylashuviga qarab taqdim etildi va an'anaviy alifbo tartibidan bir oz chekinildi. Shuningdek, Buxoro shahri ko'chalari to'g'risidagi ma'lumotlar ham shaharning sharqiy qismidan boshlanuvchi katta, uzun ko'cha – Bahouddin Naqshband ko'chasining ikki tomonida joylashgan guzarlar kesimida berildi. “Arablar”, “arabxon”, “qipchoq”, “xalach” va boshqa bir turkum etnotoponimlar Buxoro viloyatining deyarli barcha tumanlarida uchraydi. Ular takror kelganda, ma'lumotlar bir xil tarzda berilishiga harakat qilindi.

Darslikka Buxoro toponimikasini aks ettirgan arab yozuvidagi tarixiy hujjatlar fotonusxasi ilova qilingan.

Darslikni tayyorlashda maxsus adabiyotlar, qo'lyozma tarixiy hujjatlardan, shuningdek, murakkab etimologiyaga ega toponimlar ma'nosini aniqlashda esa “O'zbek tilining izohli lug'ati” hamda Buxoro toponimlari xususiyatlarini aks ettiruvchi bir qancha lug'atlardan foydalanildi. **Talabalar tomonidan tayyorlangan toponimikaga oid referatlar, ushbu darslik muallifi ilmiy rahbarligi ostida bajarilgan tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari va magistrlik dissertatsiyalari materiallari ham darslikka jalb qilindi. Ular ro'yxati darslik oxirida berilgan. Fanlararo yondashuv metodini qo'llamasdan, toponimika sohasiga qo'l urish besamar mehnat hisoblanadi. Shu bois, darslikni tayyorlashda tarixiy, geografik, filologik, etnografik bilimlar yig'indisidan foydalanildi va fanlararo bog'liqlikka e'tibor qaratildi.**

Zamonaviy texnologik yutuqlar doirasida Geonames.org saytidagi Buxoro viloyatining bazasi, Buxoro viloyatining YandexMaps ilovasidagi tasviridan foydalanildi.

Tumanlarga qarashli mahalla fuqarolar yig'ini ro'yxati Geografik ob'ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Buxoro viloyat komissiyasi tomonidan taqdim etilgan hujjat asosida tuzildi. Vobkent tumani toponimik ob'yektlari mahalla fuqarolar yig'ini

kesimida emas, balki fan dasturida belgilanganidek, shaxs nomlari, etnotoponimlar, aholi mashg'uloti, joyning geografik o'rnini va ijtimoiy-maishiy omillar bilan bog'liq holda berildi.

Buxoro toponimikasi darsligi talabalarga o'z yashash manzili tarixini o'rganish, joy nomlari milliy qadriyatlarimizning bir qismi ekanligini chuqurroq anglash, tariximizni milliy ruh bilan his qilishga yordam beradi. Darslikdagi ko'plab toponimlar tarixi arab yozuvidagi qo'lyozma hujjatlar, ya'ni birlamchi manbalar asosida o'chib berilganligi kelgusida darslik asosida Buxoro toponimikasiga oid ilmiy ishlar tayyorlash imkonini beradi.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 29.08 dagi 452-buyrug'ining 3-ilovasi bilan ro'yxatga olingan va Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020-yil 29.08 dagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan (BD - 5121000-2.07) dastur asosida tuzildi. Buxoro toponimikasi darsligi Buxoro davlat universiteti Buxoro tarixi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari tomonidan Buxoro toponimikasi fanini talab darajasida o'zlashtirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

1-MODUL. BUXORO SHAHRI VA UNING ATROFIDA JOYLASHGAN TUMAN TOPONIMLARI

1-MAVZU: BUXORO SHAHRI TARIXIY TOPONIMLARI

1.1. Buxoro shahri, uning vujudga kelishi, tarixiy dinamikasi to'g'risida umumiy ma'lumot

1.2. Shaxs nomlari bilan bog'liq ko'chalar

1.3. Aholining kasbiy mashg'ulotini aks ettiruvchi toponimlar

1.1. Buxoro shahri, uning vujudga kelishi, tarixiy dinamikasi to'g'risida umumiy ma'lumot

Buxoro tarixiy paydo bo'lgan joyini hech qachon o'zgartirmagan va hozirgacha ilk vujudga kelgan hududda qad ko'tarib turgan qadimiy shahar. Shahar bundan 2500 yil burun uchta tabiiy tepalik ustida shakllandi. Bulardan biri Buxoro arkinining ostida joylashgan, maydoni 1,5-2 gektardan oshmagan, balandligi 8-10 metrni tashkil qilgan tepalik. Ikkinchisi hozirgi shahriston o'rnida vujudga kelib, maydoni 12-13 gektardan iborat bo'lgan. Uchinchisi hozirda qad ko'tarib turgan Mir Arab va Masjidi Kalon yodgorliklaridan quyida joylashgan, maydoni 6-7 gektar tepalik. Bu uchala tepalik o'rtasidan qadimda eni 100-120 metr keladigan Zarirud daryosi oqib o'tgan. Aholi tomonidan istiqomat uchun o'zlashtirilgan bu tepaliklar atrofi devor bilan o'rab olingan. 2019-yil qadimgi shahristonning janubiy qismida olib borilgan arxeologik tekshiruvlar natijasida shahristonning ilk o'rta asrlarga oid devori topildi. Umuman, so'nggi yillardagi tadqiqotlar Buxoro uchta emas, beshta tepalik ustida vujudga kelgan degan fikrni o'rta tashlamoqda.



Shahristonning janubiy qismi

V-VI asrlar, ya'ni G'arbiy turk xoqonligi davrida Buxoro mintaqaning yirik shaharlaridan biriga aylana boshladi. Arablar istilosi arafasida mintaqqa o'n beshdan ortiq mustaqil qo'rg'onlardan iborat bo'lgan bo'lsa, bular ichida Buxoro alohida iqtisodiy va harbiy qudrat kasb etuvchi mustaqil qo'rg'on maqomida turgan. Shu bois arablar Buxoroni "Madinat as-sufriya" – Mis shahar, zabt etish qiyin bo'lgan misdek mustahkam shahar, deb ataganlar. Bu yerda savdo-savdo sotiqning rivojlangani shaharga "Madinat ut-tujjor", ya'ni "Savdogarlar shahri" atamasini qo'llashni asoslagan. Shaharning boshqa bir nomi "Foxira" islomiy bo'lib, islom dinini mustahkamlash yo'lida shahid bo'lgan aholisi bilan faxr etuvchi shaharga nisbat berilgan. "Foxira" atamasi XX asr boshlarigacha qozilik, vaqf, vasiqa hujjatlarida Buxoroning sifatlaridan biri tarzida qayd etib kelingan.

Shaharning gullab-yashnashi va Movarounnahrning yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik, ilm-ma'rifat markaziga aylanishi somoniylar davriga to'g'ri keladi. IX-X asrlarda shahar ancha kengayib, yetti darvozadan iborat mudofaa devorlari bilan o'rab olindi. Narshaxiyning yozishicha, shu davrda Buxoro shahrida mingta do'kon bo'lgan. Xalqaro savdoda muomalada bo'lgan "ismoiliy" tangalari Buxoroning iqtisodiy qudrati yuksalganidan va savdo imkoniyatlari kengayganidan dalolat beradi.

Mo'g'ullar istilosi Movarounnahrning boshqa shaharlari singari Buxoroga ham ko'p ofat keltirdi. 1220 va 1270-yilda shahar ikki marta yong'inga duchor etildi. Faqat XIII asr oxiridan shaharda hayot izga tusha boshlaydi. Temuriylar davrida Buxoro ma'rifatli shahar sifatida o'z ijtimoiy-madaniy mavqeini saqlab turdi va Amir Temur hamda Ulug'bekning e'tiboridan bahramand bo'ldi. Shaharda ular nomi bilan bog'liq diniy-ma'rifiy binolar qad ko'tardi.

Shayboniylar davri Ubaydullaxon va Abdullaxon kabi hukmdorlar tomonidan Buxoroning ijtimoiy-siyosiy va madaniy mavqeini tiklanishi, davlatchilik asoslarining mustahkamlanishi, shaharsozlikda burilish yasalishi bilan e'tiborga sazovor. Shahar mudofaa devori va ayrim darvozalarning qurilishi, shahar ichida kasb-korga ixtisoslashgan guzarlar va shunga muvofiq toponimlarning shakllanishi shu davr mahsulidir. Masjidi Kalon, Mir Arab, Ko'kaldosh, Gavkushon, Abdullaxon, Modarixon madrasalari, Xo'ja Kalon masjidi, Toqi sarrofon, Toqi telpakfurushon, Toqi zargaron,

Timi Abdullaxon savdo-maishiy binolari shayboniylar davri iqtisodiy qudrati va ijtimoiy-madaniy ahvolidan guvohlik beradi.

XVII-XVIII asrlardagi murakkab siyosiy ahvol, iqtisodiy tanglikka qaramasdan, shaharda turli maqsadlarga mo'ljallangan binolar qurilishi, bog'lar barpo etilishi uzluksiz davom etdi. Dor ash-shifo, Xo'ja Nihol, Bozori gusfand madrasalari, Bolohovuz masjidi, Labihovuz ansambli shular jumlasidandir.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro 11 darvoza, 12 km uzunlikdagi devor, 500 gektarli hududni o'z ichiga olgan shahar edi. Yo'nalishlarga mo'ljallangan darvozalar shahar ichki va tashqi hayotini, ayniqsa savdo-sotiqni muvofiqlashtirib turuvchi hamda nazoratda tutuvchi qulay vosita bo'lib xizmat qilgan. Ular tubandagicha nomlangan: Samarqand, Hazrati Imom, O'g'lon, Tallipoch, Shergiron, Qorako'l, Shayx Jalol, Namozgoh, Sallohxona, Qarshi, Mozori Sharif.

Mamlakatimizdagi qadimiy shaharlar to Rossiya imperiyasi istilosiga qadar asosan to'rt qismdan, ya'ni ark yoki o'rda, shahriston, rabod va bozordan iborat edi. Qariyb barcha ko'chalar, jumladan, shahar darvozasidan ichkariga yo'nalgan ko'chalar bozorga kelib kesishgan. Rossiya imperiyasi istilosidan so'ng (XIX asr ikkinchi yarmi) Toshkent, Samarqand, Qo'qon shaharlarida o'rta asrlar bo'linishidan keskin farq qiluvchi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu shaharlar ikki qismga – “eski shahar” va “yangi shahar” (“gorut” ya'ni “gorod”) qismlariga ajralib ketdi va ularda qator Yevropacha binolar qad ko'tardi.

Buxoroni “eski shahar” va “yangi shahar” ga ajratish asosan sovet davrida yuz berdi va unda o'sha tuzum g'oyasi o'zining noxush izini qoldirdi. Qizig'i shundaki, o'tgan asrning 60-yillarida Buxoro shahri aholisi “gorod” degan atamani ko'proq shahar markaziga, aniqrog'i Labihovuz va uning atrofiga nisbatan qo'llagan. Chunki bu hudud shaharning eng gavjum saylgohi hisoblangan. Kinoteatr va yozgi teatr binosi shu yerda joylashgan edi. 60-yillardan mudofaa devorining quyi tarafida ikki, to'rt qavatli yangi turar joylar qurila boshlagach, bu hududga nisbatan “yangi shahar”, “mikrorayon” atamalari ishlatila boshladi.

XX asrning 20-60-yillari mobaynida shahar qadimiy mudofaa devorining ichkari qismi bo'ylab joylashgan aksariyat eski hovlilar, guzarlar, me'moriy obidalar devor bilan birga buzib tashlandi. Ark

yodgorligi oldidagi Registon maydoni va unga yaqin yerda joylashgan obidalar olib tashlandi. Bu “tozalash” natijasida XVII asrga oid obidalar, jumladan, kattaligi jihatdan Masjidi Kalondan keyinda turgan Poyanda-biy otaliq masjidi, shuningdek, Dor ash-shifo, Bozori gusfand, Xo‘ja Nihol, Shodim-biy madrasalari butunlay buzildi. Registonning janubiy-g‘arbiy yo‘nalishi bo‘ylab joylashgan XVI asr yodgorliklari bo‘lmish to‘rtinchi va beshinchi savdo toqlari – Toqi ordfurushon va Toqi tirkaron ham tekislab tashlandi. O‘rnida yangi imoratlar, jumladan, tarixga ixtisoslashgan hozirgi 6-maktab va viloyat ichki ishlar boshqarmasi binolari qad rostladi. Xalq orasida “shahar ichidagi shahar” deb yuritilgan ark ichidagi binolarning 80 foizi yo‘qlikka mahrum etildi. Ularning bir qismiga 1920-yil qizil armiya hujumlari paytida shikast etgan bo‘lsa, qolganlari bosqichma-bosqich yo‘qotildi. Bizgacha 20 foizi etib keldi, xolos.

Shu davr mobaynida Xo‘ja Sa‘d Jo‘yboriy tarafidan XVI asrda qurilgan Kalobod madrasasi, shahar mudofaa devorining katta qismi va undagi 11 darvozadan 9 tasi olib tashlandi. Qarshi darvozasi yaqinidagi Shayx rangrez guzaridan to Kokilai kalon guzarigacha bo‘lgan hudud buzilib, unda zamonaviy binolar tiklandi. Qarshi, Mozori Sharif (Naqshband), Samarqand darvozalari yo‘nalishidagi hududda qad ko‘tarib turgan Qozi Nuriddin, Imom Qozixon, Qarokamol, Mir Toxuri guzarlari tarixiy topografiyasida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. eski turar joylar o‘rnini yangilari egalladi. Yuqorida tilga olingan uch darvoza batamom olib tashlandi. Bu hududda bolalar kasalxonasi, grenaj zavodi, avtovokzal va boshqa binolar, shuningdek, Samarqand va Hazrati Imom darvozalari oralig‘idagi tarixiy hududda esa, taksomotor parki, mebel’ magazini, o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti, qisman aholi yangi turar joylari barpo etildi. Hazrati Imom va O‘g‘lon darvozalari oralig‘ida Xossa Po‘lod, Nazarcha, Kofar-rabod, Xo‘ja Qurbon, Qozi Mir Hoshim, Askar-biy nomli tarixiy guzarlar, shuningdek, hovuz, xonaqoh, O‘g‘lon ota mazori joylashgan edi. Ularning barchasi tekislanib, o‘rnida Buxoro davlat pedagogika instituti o‘quv binolarining biri, uning qarshisida esa o‘qituvchilar yashashi uchun zamonaviy ikki qavatli bino (xalq orasida “Dom professorov” deb yuritilar edi. Hozir ham mavjud), sal narida Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasi (hozirgi san’at kolleji, ayni paytda Mir Arab Oliy madrasasi) binosi bunyod qilindi.



Buxoroning eski guzarlaridan biri

Shaharning gʻarbiy tomoni – Tallipoch, Shergiron, Qorakoʻl darvozalari orasidagi tarixiy hudud ham keskin topografik oʻzgarishlarga duchor etildi. Bu hududda XX asr boshlari, hatto oʻrtalariga qadar Takiya Ahmad, Dodxoh, Ahmadi Jom, Qobul Ato, Xoʻja Gʻunjori, Qalmoqon, Muddao, Hovuzi baland, Oʻzbek Xoʻja, Charmgaron, Dastorbandon kabi tarixiy guzarlar qad rostlab turardi. Guzardagi tarixiy uy joylar oʻrnini yangi tipdagi uchastkalar egalladi. Guzar nomlari esa tarixiy toponim sifatidagi ahamiyatini yoʻqotdi va asta-sekin unutildi. Shunday boʻlsa-da, tarixiy toponim sifatida ularning topografik joylashuvi, tarixi, etimologiyasi tarixchilar, oʻlkashunoslar, etnograflar va umuman mutaxassislar tomonidan oʻrganildi va oʻrganilmoqda.

XX asr boshlarida Shayx Jalol guzarida kichik mozor, XVIII asrga oid masjid-xonaqoh va hovuz mavjud edi. Ushbu binolarning barchasi, shuningdek, Shayx Jalol guzariga qoʻshni Sohibzoda, Mirakon, Xoʻja Chorshanba guzarlari ham buzib tashlandi. Oqibatda shaharning janubiy-gʻarbiy qismi butunlay oʻzgacha koʻrinish oldi. Achinarlisi, Buxoroning “eski shahar” qismidagi shahriston bozori hududida joylashgan 60 xonadondan iborat Masjidi kunjak, Hofiz qoʻngʻirot guzarlari ham tekislab tashlandi. Qisqasi, 500 gektarli Buxoro shahri tarixiy hududining 350 gektari sovet davrida oʻzgarishga mahkum etildi.

1993-yil Buxoro shahrining 150 gektarli tarixiy-etnografik hududi YUNESKOning umumjahon moddiy-madaniy obʻyektlar roʻyxatiga kiritildi. Tarixiy koʻchalar va ularning nomlari ham shu roʻyxatdan oʻrin olgan. Bu narsa tarixiy toponimlarni saqlab qolish

masalasiga o‘ta jiddiy, mas’uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashuvni talab qiladi.

Mustaqillik yillarida Buxoro shahri me’moriy obidalarini ta’mirlash, ayrim darvozalarni avvalgi ko‘rinishda qayta qurish e’tiborli tus oldi. Samarqand, Hazrati Imom, Shayx Jalol, Sallohxona darvozalari o‘z tarixiy o‘rnida barpo etildi. Shahar mudofaa devorining bir qismi o‘rta asr qurilish materialli – paxsadan asos bo‘ylab urib chiqildi. Shuningdek, tarixiy toponimlarni tiklash borasida “Geografik ob’yektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasi” tarafidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Sovet davrida eski shahar ko‘chalariga qo‘yilgan Klubnaya, Stadionnaya, Aptechnaya, Krasnoarmeyskaya, Sovetskaya, Fizkul’turnaya, Privokzal’naya, Utkin, Uritskiy, Artyom va boshqa qator nomlar o‘zgartirilib, ushbu ko‘chalarning tarixiy nomlari tiklandi.

Keyingi to‘rt yilda ushbu komissiya faoliyatida tub burilish yasaldi. Komissiya tarkibi qayta tuzilib, unga toponimika masalalari bilan shug‘ullanuvchi tarixchilar, filologlar, mutaxassislar, yosh olimlar kiritildi. Tarixiy toponimlarni o‘rganishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni inobatga olgan holda “Tarixchi va tilshunoslar” ijtimoiy kanali tashkil etilib, unda tarixiy toponimlarni tiklash borasida aholidan tushayotgan taklif va tavsiyalar atroflicha va tezkor muhokama qilinadi. Shuning hosilasi o‘laroq, unutilishga mahkum etilgan o‘ttizdan ortiq tarixiy toponim o‘z nomida saqlab qolindi. Buxoro viloyat toponimlari yuzasidan mahalliy va respublika matbuotida maqolalar e’lon qilib borilmoqda¹.

1.2.Shaxs nomlari bilan bog‘liq ko‘chalar

Abu Hafs Kabir (Afrosiyob) ko‘chasi – tarixiy shaxs nomi. Abu Hafs Kabir Buxoriy (767-832) ilohiyotchi olim, faqih, islom huquqshunosligining bilimdoni. U Buxoroning “Dari haqrah” mahallasida tug‘ilgan. Bag‘dodga borib, fiqhshunos Husayn Shayboniyga shogird turgan. Uning ilohiyot nazariyasi sohasidagi xizmatlari evaziga Buxoro shahri “Qubbat ul-islom” unvonini olgan. Abu Hanifa ta’limotini rivojlantirib, sunniy mazhab amaliyotini

¹ Қаранг: Тўраев Ҳ. Бухоро вилояти топонимлари юзасидан айрим мулоҳаза ва тавсиялар. “Вухоронома” газетаси, 2020 йил, 24-июнь.

mahalliy urf-odatlariga moslagan va uyg'unlashtirgan holda uning rivojiga katta hissa qo'shdi. Abu Hafs Kabir to'g'risida Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Mu'ini Faqiriyning "Kitobi Mullozoda" asarlarida ma'lumotlar keltiriladi. Ularda qayd etilishicha, Abu Hafs Kabir bir kecha-kunduzda Qur'onni ikki marta xatm qilar ekan. Abu Hafs Kabir "hojatbaror" taxallusi bilan xalq orasida mashhur. Uning mozori tomonga yo'naltirilgan Buxoro shahristoni darvozasi "Haqrah" deb atalgan. Buxoro hukmdori Muhammad Tolutning Abu Hafs Kabirga e'tiqodi baland bo'lgan.

Amiriy ko'chasi - tarixiy shaxs nomi. Ko'cha XVI asrdan beri mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro hukmdori Abdullaxon (1557-1598) gazar masjidi qurilishi boshlanganda, birinchi g'ishtni o'z qo'li bilan qo'ygan ekan. Ko'cha nomi shundan olingan. Nomi 1837-1838-yillarda tuzilgan vaqf hujjatida uchraydi.

Ahmad Donish ko'chasi - tarixiy shaxs nomi. Ahmad Donish (1827-1897) – buxorolik shoir, tarixchi, musavvir, munajjim, ma'rifatparvar. "Navodir ul-vaqoe'" (Nodir voqealar) asarining muallifi. Amudaryodan Buxoro vohasiga kanal o'tkazish g'oyasini birinchi bo'lib o'rtaga tashlagan. Buxoro amirligi elchilik delegatsiyasi tarkibida Peterburgda bo'lgan.

Ahmad Yassaviy ko'chasi - tarixiy shaxs nomi. Yassaviya tariqatining asoschisi, shuningdek, turkiy tildagi tasavvuf adabiyotining XI-XII asrlardagi taniqli namoyandasi. U Buxoroda ulug' mutasavvuf Yusuf Hamadoniydan tahsil olib, ul hazratning uchinchi xalifasi sifatida bir muddat Buxoroda faoliyat olib borgan.

Bahouddin Naqshband ko'chasi - ilgarigi Qavola, Kokilai kalon, Bozori alaf, Quyi daraxt guzarlari yo'nalishida joylashgan.

Boboi Nonkash ko'chasi - shaxs nomi asosida tashkil topgan toponim. Boboi nonkash "non tarqatuvchi bobo" ma'nosini beradi. Ajiografik adabiyotda u avliyosifat inson deb talqin qilinadi. Mahalla ahli choy savdosi bilan shug'ullangan. Masjidga ega. Nomi XVIII asrga oid hujjatlarda uchraydi.

Boboyi Porado'z ko'chasi - tarixiy shaxs nomi. Boboyi Porado'z mato, charm parchalarini bir-biriga tikib, yamab mahsulot tayyorlovchi hunarmand usta. Shu kasb bilan shug'ullanuvchilar piri,

mutasavvuf. Asl ismi Muhammad ibn Ahmad Abu Bakr al-Iskaf (vaf.925 y.)¹.

Bozorxo‘ja ko‘chasi - shaxs nomi bilan bog‘lik toponim.

Domla Halim Ibodov ko‘chasi - tarixiy shaxs nomi. Domla Halim Ibodov (1878-1940). Lirik tenor-al‘tino ovozi bilan xalq orasida shuhrat qozongan hofiz.

Imom Qozixon ko‘chasi – eponim. Afsonaviy shaxs nomi. Ushbu nom mo‘g‘ul xoni Hulaguxonning savollariga to‘g‘ri javob bergan bola to‘g‘risidagi afsona asosida paydo bo‘lgan. Ko‘chada po‘stindo‘zlar, to‘quvchilar, meshkoblar yashagan. Imom Qozixon mozori shu guzarda joylashgan. Imom Qozixon to‘g‘risidagi ma‘lumot Ahmad ibn Mahmudning XV asr boshlarida yozilgan “Kitobi Mullozoda” va boshqa asarlarda keltiriladi².

Madqosim avliyo ko‘chasi – shaxs nomi bilan atalgan toponim.

Maxdumi A‘zam ko‘chasi - tarixiy shaxs nomi. Maxdumi A‘zam (vaf.1542) Naqshbandiya tariqatining taniqli namoyandasi. Tasavvuf masalalariga doir o‘ttizdan ziyod asar yozgan. Shayboniy Ubaydullaxonning ma‘naviy rahnamosi³.

Mehtar Anbar ko‘chasi - shaxs nomi. Toponimning birinchi komponenti, ya‘ni “mehtar” atamasi saroyning moliyaviy masalalar bilan shug‘ullanuvchi amaldoriga nisbatan qo‘llanilgan. Ko‘cha nomi mehtar lavozimini egallab turgan amaldor nomidan olingan. Guzarda shu nomdagi masjid ham mavjud. Ushbu atama XVIII asrga oid tarixiy manba - “Ubaydullanoma”da uchraydi. Mehtar Anbar ko‘chasida istiqomat qilgan aholi Orenburgdan mol keltirib sotish, shuningdek, XIX asrda guruch, chopon va hind harir matolari savdosi bilan shug‘ullangan⁴.

Mirakon ko‘chasi - tarixiy nom. Mira – “xoja”, “buzurg”, “ulug‘” ma‘nosini bildiradi. Mirakon ko‘plikda ulug‘lar, ya‘ni ulug‘

¹ Қаранг: Казаков Б. Порадуз / Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Том I.- Москва: Восточная литература, 2006.- Б.331.

² Қаранг: Гафурова Р.Л. Китоби Мулла-заде.- Ташкент: Фан,1992; Сухарева О.А. Квартальная община Бухары.- Москва: Наука, 1976. – Б. 259-260; Йўлдошев Н. IX-XIV асрларда авлиё даражасига кўтарилган бухоролик машоих ва олимлар.- Бухоро,1992.- Б.50-53.

³ Қаранг: Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. - Ташкент: Фан,1985.- Б. 179.

⁴ Қаранг: Сухарева О.А. Квартальная община Бухары.- Москва: Наука, 1976. – Б. 258-259.

kishilar yashaydigan joy ma'nosida keladi. Mahalla ahli ko'pincha kafshdo'zlik bilan shug'ullangan. Unda masjid, xonaqoh, hovuz mavjud edi. Ko'cha nomi 1912-yilda rasmiylashtirilgan vaqf hujjatida qayd etiladi¹.

Mir do'stim ko'chasi - tarixiy shaxs nomi. Mir Do'stim Buxoro hukmdori shayboniy Abdullaxonning (XVI asr) yuqori lavozimli amaldorlaridan biri bo'lgan. Bu amaldor tarafidan Buxoroda va uning atrofida ko'plab binolar barpo etilgan. Ushbu guzarda zardo'zlar va shahar zodagonlari istiqomat qilgan. Nomi tarixiy hujjatlarda tilga olinadi.

Mirzo Azim Somiy ko'chasi - atoqli shoir, tarixchi nomiga qo'yilgan ko'cha. Mirzo Azim Somiy (1838-1907) shoir, tarixchi, xattot. "Ta'rix salotin-i mang'itiya" (Mang'itlar sulolasi tarixi) asarining muallifi. Tarixiy merosi yaxshi o'rganilgan².

Mirzo Usmon ko'chasi - tarixiy shaxs nomi. Maqomotlarda Mirzo Usmonning ajoyib sifatlari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, Buxoro shahriga bo'lgan yuksak ehtirom yuzasidan shahar ichida hech qachon otda yurmagan. Tashrif manzilining uzoq-yaqinligidan qat'iy nazar, doimo piyoda borgan³.

Mirzo G'afur ko'chasi - shaxs nomidan olingan. Mirza G'afur ko'chasi Hazrati Imom va O'g'lon darvozalari oraliq'ida, arkning shimoliy-g'arbiy tomonida joylashgan. Buxoro qozixonasi ro'yxatida qayd etiladi⁴.

Mirzo Hayit Sahbo ko'chasi - tarixiy shaxs, buxorolik shoir nomi.

Mironshoh ko'chasi - tarixiy shaxs nomi. Mironshoh (1368-1408) Amir Temurning uchinchi o'g'li. Eron, Ozarbayjon va Iroq hukmdori. Qoraquyunlilar davlati hukmdori Qora Yusuf bilan bo'lgan janglarda halok bo'ladi. Jasadi avval Tabrizga, keyinchalik Shahrisabzga, undan so'ngra esa Go'ri Amirga qo'yiladi.

Mujrim Obid ko'chasi - XVIII yashab o'tgan shoir nomi bilan ataluvchi ko'cha. Mujrim Obid Buxoro amirligining

¹ Қаранг: Бухоро музейи вақфномалар коллекцияси, инв.№ 1313.

² Қаранг:Епифанова Л.Е.. Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения её к России.- Ташкент: Наука (Фан), 1965.

³ Қаранг: Тазкирай Тохир Эшон. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси.

⁴ Қаранг: Сухарева О.А.. Квартальная община Бухары.- Москва: Наука, 1976. – Б.136.

Kumushkent qishlog'ida tug'ilgan. O'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Navoiy, Bedil, Mashrab g'azallariga muxammaslar bog'lagan.

Muhammad Avfiy ko'chasi – 1172-1233 yillarda yashab ijod qilgan shoir, adib, tarjimon nomi bilan ataluvchi ko'cha.

Muhammad Payraviy ko'chasi - shaxs nomi asosida shakllangan toponim. X-XII asrlar bu ko'cha Kuyi dehqon nomi bilan atalgan. Bu yerda masjid va kutubxona binolari bo'lib, ular Buxoro shahristonining sharqiy qismida joylashgan. Muhammad Payraviyning Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshbandning zamondoshi deb taxmin qilinadi. Lekin bu og'zaki ma'lumot yozma manbalar bilan tasdiqlanmagan.



Muhammad Payraviy ko'chasi va masjidi

Muhammad G'azzoliy ko'chasi - tarixiy shaxs nomi. Abu Homid Muhammad G'azzoliy (1058-1111) mashhur ilohiyotchi olim. Islom falsafasiga bag'ishlangan "Kimyoi saodat" asarining muallifi. Islom olamida eng ko'p asar yozgan olim hisoblanadi. Shahardagi Muhammad G'azzoliy ko'chasida ramziy qabr bor. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, bu qabr XVI asrda yashab o'tgan boshqa bir G'azzoliyga tegishli¹.

Nosir Buxoriy ko'chasi – XIV asrda yashagan buxorolik shoir nomidagi ko'cha. U qasida, tarji'band, masnaviy, g'azal, qit'a va muxammas janrlarida ijod qilgan.

Piridastgir ko'chasi - Qodiriya tariqati asoschisi Abdulqodir Giloniyning Buxoroda keng tarqalgan taxallusi. Shayxning ramziy qabri, masjid, minora, hovuz va quduq shu mavzeda joylashgan.

¹ Қаранг: Абу Хамид Газали. Воскрешение наук о вере / Перевод с арабского, комментарий и исследование В.В. Наумкина. - Москва: Наука, 1980.

Pochchoqul Hoji ko‘chasi – shaxs nomi bilan ataluvchi ko‘cha. Aholisi turli kasb bilan shug‘ullangan. So‘nggi o‘rta asrlarda ko‘chada masjid, maktab va Gahband madrasasi, shuningdek, noma‘lum qabr mavjud bo‘lgan. Madrasa nomi binoni gahbandlik, ya‘ni kumush va tillani aralashmalardan tozalovchi usta qurdirganligidan dalolat beradi. Toponim 1699-yil va 1797-yilda tuzilgan vaqfnomalarda uchraydi.

Rudakiy ko‘chasi - tarixiy shaxs nomi. Abu Abdullo Rudakiy (855-940) fors-tojik adabiyotining atoqli namoyandasi. “Odam ush-shuaro”, ya‘ni “Shoirlarning Odam Atosi” deya ta‘riflangan taniqli shoir. Uning dovrug‘i Somoniy hukmdorlarga ham etib borgan. Xalq orasida bu haqda ajoyib rivoyatlar mavjud.

Siddiqiyon ko‘chasi – shaxslarning sifatini ifoda etuvchi nom. Minorai Kalonning janubiy tomonidagi shahriston hududida joylashgan tarixiy ko‘cha. Ko‘chada Siddiqiyon nomli tarixiy masjid mavjud. Toponimning xalifa Abu Bakr Siddiq nomi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida taxminlar bor. “Siddiq”, ya‘ni to‘g‘riso‘z, sodiq, haqgo‘y, samimiy insonlar yashagan ko‘cha kabi ijtimoiy-ma‘naviy ma‘noga ega. 1805 yilda tuzilgan vaqf hujjatida ko‘cha nomi qayd etiladi.



Siddiqiyon guzari va masjidi

Turki Jandi ko‘chasi - tarixiy shaxs nomi. Buxorodagi qadimgi ko‘chalardan biri. Ko‘chada Turki Jandi maqbarasi joylashgan. Aholi tomonidan avliyo deb qabul qilingan Turki Jandi tadqiqotlarga qaraganda, real shaxs hisoblanadi. Asli Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan Jand shahridan bo‘lganligi uchun “Jandiy” taxallusini olgan. Buxoro aholisi o‘rta asrlarda Turki Jandiy mozori oldidan hech qachon otda o‘tmagan, yaqinlashganda otdan tushgan.

Go‘yo otda o‘tayotganlarni Turki Jandiy arvohi ot ustidan uloqtirib yuborgan¹.



Turki Jandiy ko‘chasi va maqbarasi

Umarxo‘ja ko‘chasi – shaxs nomi bilan ataluvchi ko‘cha.

Usto Ruhiy ko‘chasi - shaxs nomi bilan ataluvchi toponim. Usto Ruhiy hunarmand usta nomidan olingan. Usto Ruhiy to‘g‘risida aholi o‘rtasida turli afsonalar tarqalgan. Go‘yo, u rux (metall) tayyorlovchi hunarmandlar ustozlari bo‘lgan emish. Bizgacha saqlanmagan Bozori gusfand madrasasi shu guzarda qad rostlab turgan. Aholisi asosan beshik yasash bilan shug‘ullangan. Ko‘cha nomi 1615-yil va 1788-yilda tuzilgan vaqf yorliqlarida tilga olinadi.

Usto Sharif – shaxs nomidagi ko‘cha.

Usto Shirin ko‘chasi - shaxs nomi bilan atalgan ko‘cha. Usto Shirin Murodov (1879-1957) o‘zbek xalq me‘mori. Sitorai Mohi Xosa yodgorligida, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrining Buxoro zalida, Muqimiy nomli teatrda ganch o‘ymakorligi ishlarini amalga oshirgan. 1947-yil Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Buxorodagi qator tarixiy obidalarda ta‘mirlash ishlarini olib borgan.

Xalifa Xudoydod ko‘chasi - tarixiy shaxs nomi. Xalifa Xudoydod XVII asrda yashagan mutasavvuf. Tasavvufga oid bir necha asarlar yozgan. Ashtarxoniy Abdulazizxonning (1645-1680) piri sanalgan. Shu nomdagi guzarda uning tomonidan qurilgan xonaqoh va qirq hujrali madrasa mavjud. Ko‘cha nomi 1798-yilda tuzilgan vaqf yorlig‘ida tilga olinadi.

¹ Қаранг: Некрасова Е. Некрополь Турки Джанди в Бухаре // Из истории культурного наследия Бухары.- Бухара: изд-во “Бухоро”,2008.- Б. 38-47.

Xo‘ja Azizon ko‘chasi – onomatoponim. Yassaviya tariqati vakillari istiqomat qilgan guzar. XVII asr vaqf hujjatlarida uchraydi.

Xo‘ja Aspgardon ko‘chasi - eponim. Xo‘ja Aspgardon - ”otlarni aylantiruvchi, davolovchi Xo‘ja” ma’nosiga ega. Shu nomdagi qabr ziyoratgoh sanalgan. Peshobi chiqmay qolgan otlarni qabr atrofida aylantirib davolash odat bo‘lgan. Ko‘cha nomi shundan. Ikki joyda – Buxoro shahri va atrofida shu nomdagi toponim mavjud. 1883-yilda tuzilgan vaqf yorlig‘ida ko‘cha nomi qayd etiladi.

Xo‘jabulg‘or ko‘chasi - tarixiy shaxs nomi. Xo‘ja Bulg‘or ko‘chasida etikdo‘zlar, mahsido‘zlar, kafshdo‘zlar, duradgorlar istiqomat qilgan. Rivoyatga binoan, Xo‘ja Bulg‘or Volga bo‘yidagi Bulg‘or shahridan Buxoroga kelgan va avliyo darajasiga ko‘tarilgan. Uning qabri shu guzarda joylashgan va ziyoratgohga aylangan. Ko‘cha nomi XVIII asrga oid vaqfnomalarda tilga olinadi.

Xo‘jagulrez ko‘chasi – gul kesish kasbi bilan shug‘ullangan shaxs nomidan olingan toponim.

Xo‘ja Zayniddin ko‘chasi - tarixiy shaxs nomi. Ma’lumotlarga qaraganda, masjid qurilishiga podsho xizmatchisi Xo‘ja Zayniddin boshchilik qilgan va guzar nomi shundan olingan. Masjid mehrobining tashqari qismida Xo‘ja Turk degan kishining ziyoratgohga aylangan qabri joylashgan¹.

Xo‘ja Nurobod ko‘chasi – eponim. Afsonaviy shaxs nomi. Buxoro shahristonining qadimgi ko‘chalaridan birining nomi. Shu nomdagi darvoza, XIX asrda esa qabriston ham mavjud bo‘lgan. Arab geograflari uni Darvozai Nav deb atashgan. Chunki uning shimoliy sharqida Xo‘ja Nurobod mozori bo‘lgan va Nurotaga shu yo‘l orqali borilgan².

Xo‘ja Porso ko‘chasi - tarixiy shaxs nomi. Xo‘ja Porso (Xo‘ja Muhammad Porso (1345-1419) – tasavvuf ilmi olimi, mashhur “Fasl ul-xitob” asari muallifi. Naqshbandiya ta’limotini sistemaga solgan va uni “Naqshbandiya” deb atalishiga asos solgan. Bahouddin Naqshbandning muridi. Naqshbandiyaga oid qator asarlar muallifi³.

¹ Қаранг: Сухарева О.А.. Квартальная община Бухары.- Москва: Наука, 1976. – Б. 196-198.

² Қаранг: Мусо Саиджонов. Бухоро ва унинг эски бинолари // “Маориф ва ўқутғучи” журнали.- Тошкент, 1927, №9-10. Қайта нашрга тайёрловчи Ҳ.Тўраев. Тошкент: ИФЕАС, 2005.

³ Қаранг: Ислам на территории бывшей Российской империи. Том 1. –Москва: Наука, 2006. – Б. 293-296.

Xo‘ja Ro‘shnoi ko‘chasi – eponim. Xo‘ja Ro‘shnoi - nur, yorug‘lik baxsh etuvchi, yorituvchi xo‘ja ma’nosida. Rivoyatlarga qaraganda, Sayyid Bandikushoning muridi bo‘lgan. Shu nomdagi guzarda uning ziyoratgohga aylangan qabri bor. (Respondentlar, ya’ni shu guzarda yashovchi aholi ma’lumotlari). Xo‘ja Ro‘shnoi eponimi mamlakatimiz va Buxoro viloyatining boshqa hududlarida ham uchraydi.



Xo‘ja Ro‘shnoi ko‘chasi

Xo‘ja Tabband ko‘chasi – shaxs nomi. Tabband so‘zi “isitmani bog‘lovchi, isitmani tushiruvchi” ma’nosini anglatadi. Nomiga ko‘ra, tabibga nisbatan ishlatilgan. Buxoroning eski guzarlaridan biri. XVII-XIX asrlarga oid hujjatlarda Xo‘ja Tabband nomi bilan qayd etiladi¹.

Chashmai Ayub ko‘chasi – Ayub payg‘ambar nomi bilan bog‘liq toponim. Chashmai Ayub - “Ayub chashmasi, qudug‘i” ma’nosini bildiradi. Bu yerdagi quduqning paydo bo‘lishi to‘g‘risida xalq orasida rivoyat mavjud. Unga ko‘ra, shaharda qurg‘oqchilik bo‘lgan davrda Ayub payg‘ambar tashrif buyuradi va aholi iltijosi bilan qo‘lidagi hassasini yerga uradi. Shu joyda chashma – quduq hosil bo‘lib, aholi najot topadi. Shuningdek, “Kitobi Mullozoda” asarida ham ma’lumot keltiriladi².

Shayxul Olam ko‘chasi - tarixiy shaxs nomi. Sayfiddin Boharziyning (1199-1261) diniy taxallusi. Sayfiddin Boharziy Buxoroda “shayx ul-olam” taxallusi bilan shuhrat topgan. Kubraviya tariqatining namoyandasi. Najmiddin Kubroning muridi. Mo‘g‘ul xonlariga katta ma’naviy, siyosiy ta’sir ko‘rsatgan. Uning to‘g‘risida

¹ Қаранг: Сухарева О.А. Квартальная община Бухары.- Москва: Наука, 1976. – Б. 255.

² Қаранг: Гафурова Р.Л. Китоби Мулла-заде.- Ташкент: Фан,1992.

Navoiyning “Nasoyim ul- muhabbat” tazkirasida iliq ma’lumotlar keltirilgan.

Shoh Aysi ko’chasi – tarixiy shaxs nomi. Tasavvuf vakillaridan biri, XVII asrda yashagan va asli Aysi shahridan bo’lgan Shoh Aysaviy nomidan olingan. Guzarda yashovchi aholi kafshdo’zlik bilan shug’ullangan. O’rta asr vaqf hujjatlarida qayd etiladi.

Shohmalik ko’chasi - shaxs nomi asosida tarkib topgan toponim. Aholisi turli kasb-kor bilan shug’ullangan. Guzarda xo’jalar tabaqasiga mansub ayrim xonadonlar istiqomat qilgan. Ular vaqflardan keladigan daromadga ega bo’lishgan.

Eshon Imlo ko’chasi - tarixiy shaxs nomi. XVII asrda Buxoroda yashagan mutasavvuf shoir. Uning “Devoni Imlo” deb ataluvchi she’rlar to’plami mavjud. Devon O’zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Eshoni Pir ko’chasi - tarixiy shaxs nomi. Eshoni Pir ko’chasida matolarga rang beruvchilar, pilla savdosi bilan shug’ullanuvchilar istiqomat qilgan. “Eshoni Pir” taxallusi XVI asr yashagan mashhur shayx Maxdumi A’zamning avlodidan bo’lgan Muhammad Aminga nisbatan qo’llanilgan. Guzardagi masjidda uning qabri joylashgan. Masjid Amir Olimxon tomonidan ta’mirlangan. Nomi vaqfnomalarda uchraydi.

Hasan Xoja Nisoriy ko’chasi – atoqli shoir, tazkiranavis Hasan Xoja Nisoriy (1480 yilda tug’ilgan) nomiga qo’yilgan ko’cha. “Muzakkir al-ahbob” (Do’stlar yodi) asarining muallifi. Asarda Movarounnahr, jumladan, Buxoroda yashab o’tgan 252 shoir, adib va buyuk shaxslarning tarjimai holi keltiriladi¹.

Hazrati Qo’chqor ko’chasi - mahbuslarning homiysi Qo’chqorota nomidan olingan degan taxmin bor. Qo’chqorota mozori o’rta asrlardagi Buxoro zindoni hovlisida joylashgan.

1.3.Aholining kasbiy mashg’ulotini aks ettiruvchi toponimlar

Aloqabandi ko’chasi - tarixiy nom. Aloqabandi - kamar, belbog’ tikuvchi, shuningdek, aloqa bog’lovchi ma’nosida keladi. Ko’chada etikdo’z, mahsido’z, kafshdo’z, zargar, duradgorlar yashagan. Ko’chada masjid, o’n bir hujrali kichik madrasa bo’lgan. Nomi 1816-yilga oid vaqf yorlig’ida tilga olinadi.

¹ Қаранг: Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. - Ташкент: Фан,1985.- Б. 161-165.

Barakiyon ko‘chasi - tarixiy nom. Barakiyon, ya’ni baraka topganlar, barakalilar. O‘rta asrlarda aholisi savdo, hunarmandchilik, shuningdek, savdo karvonlariga xizmat ko‘rsatish (borband) bilan shug‘ullangan.

Bozorigul ko‘chasi - tarixiy nom. Bozorigul, gul bozori. O‘tmishda aholisi poyafzal savdosi, dori-darmon, shirinliklar tayyorlash bilan shug‘ullangan. Nomi 1908 yilda rasmiylashtirilgan vaqf hujjatida uchraydi.

Bo‘yrabofon ko‘chasi - tarixiy nom. Bo‘yrabofon, ya’ni bo‘yra to‘quvchilar. Aholi shu kasb bilan shug‘ullangan. Guzar o‘z masjidiga ega bo‘lgan. Nomi 1847-yilga oid vaqf yorlig‘ida uchraydi.

Gavkushon ko‘chasi – tarixiy nom. Aholining kasbi-koriga nisbat berib paydo bo‘lgan toponim. Ma’nosi “mol so‘yuvchilar”, ya’ni “qassoblar”. Ko‘cha nomi XVI asrga oid tarixiy asarlarda qayd etiladi. Bu yerda Jo‘ybor xo‘jalaridan Xo‘ja Sa’d (1531-1589) tomonidan qurilgan madrasa mavjud¹.

Degrezi ko‘chasi - tarixiy nom. Degrezi – “qozon quyuvchi, qozon yasovchi” ma’nosini bildiradi. Aholisi shu kasb bilan shug‘ullangan. Guzarda avliyo Sayyid Abulhasan Pobandning mozori joylashgani sabab ko‘cha ba’zida Sayyid Bandikusho nomi bilan ham atalgan. Mozor hozir ham ziyoratgoh. Abulhasan Poband to‘g‘risida “Kitobi Mullozoda”da ma’lumot keltiriladi².



Degrezi ko‘chasi

¹ Қаранг: Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом.-Тошкент: Шарқ, 1999; Бадриддин Кашмирий. Равзат ар-ризвон. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси.

² Қаранг: Гафурова Р.Л. Китоби Мулла-заде.- Ташкент: Фан,1992.

Zargaron ko‘chasi - tarixiy nom. Zargaron – zargarlar yashagan ko‘cha. Shaharning qadimiy ko‘chalaridan biri. Bir necha tarixiy obidalar shu ko‘chada joylashgan, Jumladan, Toqi zargaron yodgorligi.

Kamongar ko‘chasi - tarixiy nom. Kamongaron – “kamon yasovchilar” yoki “kamon otuvchilar” ma’nosini anglatgan. Tarixiy hujjatlarda qayd etib o‘tiladi. Jumladan, 1657-yilda yozilgan vaqfnomada uchraydi.

Kemuxtgaron ko‘chasi - tarixiy nom. Kemuxtgaron – “charmdan qattiq muqova –shagren (saxtiyon) tayyorlovchilar” ma’nosini bildiradi. Aholisi shu kasb bilan shug‘ullangan.

Korxonon ko‘chasi - tarixiy nom. XVI asrda yozilgan vaqf hujjatlarida keltiriladi. Bu guzarda mashhur shayx Yusuf Hamadoniyning qabri joylashgan. U to‘quvchi hunarmandlar homiysi hisoblanib, to‘quvchilik korxonasi shu guzarda joylashgan. Mazkur toponim shu nomdan kelib chiqqan.



Korxonon ko‘chasi

Kosagaron ko‘chasi - tarixiy nom. O‘z nomiga ko‘ra, kosagarlar, ya’ni kosa yasovchilar istiqomat qiladigan ko‘cha bo‘lgan. Guzarda maktab, masjid, madrasa bo‘lgan. Bu yerdagi Xo‘ja Kosagar qabri ziyoratgoh sanalgan. Ko‘cha nomi XVI asr hujjatlarida qayd etiladi.

Morkush ko‘chasi - tarixiy nom. Morkush - “ilon o‘ldiruvchi” ma’nosini beradi. Ko‘chada turli kasb bilan shug‘ullanuvchi aholi, jumladan, shirinliklar tayyorlovchilar, to‘quvchilar, to‘n tikuvchilar istiqomat qilgan. Shialar uchun husaynixona, sunniylar uchun esa masjid mavjud. Miyon Ishoq madrasasi bo‘lib, hozir saqlanmagan.

Pistashikanon ko'chasi - tarixiy nom. Pistashikanon - “pista chaquvchilar” ma’nosini beradi. Ko’chada sho’rdanak tayyorlovchilar, shuningdek, o’rik danagini qobig’idan ajratib olib holvapazlarga sotish bilan shug’ullanuvchilar hamda shohido’zlar istiqomat qilishgan.

Po’stindo’zon ko’chasi - tarixiy nom. Po’stin tikuvchilar ko’chasi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bu ko’chada Ahmadjon po’stindo’z ismli hunarmand yashagan.

Ravg’angaron ko’chasi - tarixiy nom. Ravg’angaron - “yog’-moy tayyorlovchilar” ma’nosida. Bu mashg’ulotdan tashqari ko’chada kamar, do’ppi, jiyak, g’ilof tikuvchilar yashagan. Ko’chada Husaynboy, Zohid Xo’ja madrasalari, masjid va hovuz bo’lgan. Ko’cha nomi 1643-yil va 1735-yilda tuzilgan vaqfnomalarda tilga olinadi.

Sarrofon ko’chasi - tarixiy nom. Sarrofon (sarroflar), ya’ni “pul maydalovchilar, pul almashtiruvchilar” ma’nosini anglatadi. XVI asrda tashkil topgan ko’cha.

Siyohkoron ko’chasi - tarixiy nom. Siyohkoron – “qoralovchilar, qora rangga bo’yovchilar” ma’nosida qo’llanilgan. Alohida guzar sifatida XVIII –XIX asr vaqf hujjatlarida tilga olinadi. Bu guzarda yashovchi aholining asosiy mashg’uloti eski poyafzallarni ta’mirlash, qora rangga bo’yash va sotishdan iborat bo’lgan. Joy nomi ham shu mashg’ulot turidan kelib chiqqan.

Sobungaron ko’chasi - tarixiy nom. O’z nomiga ko’ra, sovun tayyorlovchilar yashaydigan joy. Biroq unda hunarmandchilikning boshqa sohalari bilan shug’ullanuvchilar ham istiqomat qilgan. XVIII asrga oid hujjatlarda uchraydi.

So’zangaron ko’chasi - tarixiy nom. So’zangaron - “igna (nina) yasovchilar” ma’nosini anglatadi. Mazkur kasb bilan shug’ullanuvchilarga nisbat berilib vujudga kelgan toponim. Ko’cha hududida Xo’ja Nuriddin Xilvatiyning muqaddas qabri bo’lgan. 1825-yilda yozilgan vaqfnomada ko’cha nomi qayd etiladi.

Tagbandbofon ko’chasi - tarixiy nom. Tagbandbofon, ya’ni kamar, belbog’ tikuvchi, shuningdek, ayollar sochiga taqish uchun jamalak (Buxoroda tuf deb atalgan) to’quvchi hunarmandlar ko’chasi. Guzarda shu nomdagi masjid mavjud¹.

¹ Қаранг: Сухарева О.А. Квартальная община Бухары.- Москва: Наука, 1976. – Б. 203.

To'pxona ko'chasi - tarixiy nom. To'pxona – “to'plar saqlanadigan joy” ma'nosida. Ko'chada shoyi, baxmal to'quvchilar, duradgorlar, badavlat savdogarlar istiqomat qilgan. Avliyo Xo'ja So'fiyon Savri mozori shu guzarda. Nomi 1680-yil, 1695-yil, 1829-yilda tuzilgan vaqf hujjatlarida qayd etiladi.

Charmgaron ko'chasi - tarixiy nom. Charmgaron – “charm tayyorlovchilar”. Aholisi poyafzal uchun poshna, charm pul xaltachalari (sanoch), sandiq ustiga qoplanadigan charm (yaxdon) tayyorlash bilan shug'ullangan. Guzar o'z masjidiga esa bo'lgan. Nomi 1863-yilga oid vaqfnomada qayd etilgan.

Chitbofon ko'chasi - tarixiy nom. Chit to'qish bilan shug'ullangan aholi istiqomat qilgan ko'cha.

Chorbakr ko'chasi - tarixiy nom. Chorbakr - “bakr” kuniyasiga ega to'rt bakrlarga nisbatan ishlatilgan nom. Ya'ni Abu Bakr Fazl, Abu Bakr Homid, Abu Bakr Tarxon, Abu Bakr Sa'd¹.

Chorbaqqoli ko'chasi - tarixiy nom. Joyning to'liq tarixiy nomi Chorbaqqoli Darvozai O'g'lon, ya'ni “O'g'lon darvozasi oldidagi bozorcha”. Aholisi yog'och ustachilik va un savdosi bilan shug'ullangan. O'g'lon darvozasi O'g'lon madrasasiga tutash bo'lgan. Sovet davrida darvoza ham, madrasa ham buzib tashlangan. Darvoza yaqinida O'g'lon Ato qabri joylashgan. Darvoza nomi shundan olingan. Guzar 1887-yilga oid vaqfnomada tilga olinadi.

Cho'pboz ko'chasi - tarixiy nom. Cho'pboz - “cho'p bilan raqsga tushuvchilar”, ya'ni oyoqlariga yog'och xoda bog'lab to'ylarda, sayllarda raqsga tushuvchilar. Guzar aholisi hunarmandchilikning turli sohalari – mahsido'zlik, shirinliklar tayyorlash, somsapazlik bilan shug'ullangan. Guzarda masjid, madrasa va hovuz bo'lgan.

Kuyi murg'kushon ko'chasi - tarixiy nom. Kuyi murg'kush - “tovuq so'yuvchilar ko'chasi” ma'nosini anglatadi. Aholi ko'cha nomining vujudga kelishini ilohiyot olimi Xo'ja Porso bilan bog'lagan. Xo'ja Porso bu yerda hammom qurib, so'ng bir tovuqni qurbonlikka so'ygan va ko'cha nomini Murg'kush, ya'ni “tovuq so'yuvchilar” deb atashni taklif qilgan ekan. Ko'cha nomi 1809-yilga oid vaqf hujjatida uchraydi.

¹ Қаранг: Тураев Х. Чорбакры и их преемники.- Ташкент: «Fan va texnologiya», 2011.- Б.3.

Halvopazon ko‘chasi - tarixiy nom. Halvopazlik va turli xil shirinliklar tayyorlash bilan shug‘ullangan aholi ko‘chasi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy, geografik mazmun kasb etuvchi toponimlar

Arabon ko‘chasi – etnotoponim. Ko‘cha nomi arablar etnonimi bilan bog‘liq. Buxoroning eski ko‘chalaridan biri. Avvalgi nomi Safidmuy yoki Safidmun bo‘lib, Abdullo Safidmuy nomidan olingan. Ko‘chada qorako‘l savdosi bilan shug‘ullanuvchi aholi istiqomat qilgan. O‘rta asrlarda qurilgan masjid ham mavjud. Sallohxona darvozasiga yaqin joyda joylashgan¹.



Shahar eski qismidagi Arabon ko‘chasi

Bog‘i Amir ko‘chasi - tarixiy nom. Buxoro shahrining shimoliy qismida joylashgan mavze.

Bog‘ishamol ko‘chasi - tarixiy nom.

Darvozai Sallohxona ko‘chasi - tarixiy joy nomi. Buxoro shahrining janubiy darvozasi, ya‘ni Sallohxona (XVI asr) nomidan olingan. Ko‘cha shu darvoza yaqinida joylashgan. So‘nggi o‘rta asrlarda mazkur ko‘chada tadbirkor To‘raqulboy tomonidan qurilgan ikki qavatli madrasa joylashgan edi. Ko‘cha nomi 1683-yilga oid vaqf hujjatida uchraydi.

Darvozai O‘g‘lon ko‘chasi - tarixiy nom. O‘g‘lonato nomli avliyo nomidan olingan. Ko‘chada masjid, hovuz va mozor bo‘lgan.

¹ Қаранг: Сухарева О.А.. Квартальная община Бухары.- Москва: Наука, 1976. – Б.80-82.

Dilkusho ko‘chasi - tarixiy nom. “Dilni ochuvchi” ma’nosida. Buxoro shahrining shimoliy-sharqida joylashgan.

Dilkushoi darun ko‘chasi - tarixiy nom. Dilkushoi darun, ya’ni “ichkari Dilkusho” tarixiy toponim bo‘lib, bu joy Buxoro shahrining Mazor va Samarqand darvozalari oralig‘ida joylashgan. Uning o‘rni taxminan hozirgi bolalar kasalxonasi hududiga to‘g‘ri keladi¹.

Gulobod ko‘chasi - tarixiy nom. Imlo qoidalari asosida “Kalobod”. Chunki arab tilida “g” (“gof”) harfi yo‘q. Mashhur ilohiyot olimi, “at-Ta’rruf” asari muallifi Abu Bakr Is’hoq Kalobodiy shu guzarda yashab o‘tgan. Vaqf hujjatlarida tilga olinadi.

Janafarxona aholi punkti - tarixiy nom. Ma’nosiga ko‘ra, etnonim, ya’ni o‘g‘uz bo‘g‘ini tarkibidagi urug‘lardan biri. Aholisi quruvchilik bilan shug‘ullangan. XX asr birinchi yarmida yashagan, binolar gumbazini qurish bo‘yicha mohir usta Usto Majid Solihov shu guzardan edi.

Jo‘ybor ko‘chasi - tarixiy nom. Jo‘ybor “oqar ariq”, “ravon ariq” ma’nosini anglatadi. Guzar XVI asrda to‘la shakllandi va mashhur Jo‘ybor xojalarining istiqomat manziliga aylandi. Buxoroning xos aholisi yashagan maskan. Shayboniy Abdullaxon davrida Jo‘ybor guzari mudofaa devori bilan o‘ralib, shahar hududiga qo‘shib olinadi².

Jo‘ybori berun ko‘chasi - tarixiy nom. Jo‘ybor guzarining qal’adan tashqari qismiga nisbatan qo‘llanilgan atama. Ayni paytda shaharning g‘arbiy qismida joylashgan.

Kokuli Kalon ko‘chasi - tarixiy joy nomi. To‘g‘ri yozilishi Kokila kalon (Katta, uzun soch). “Kokil” atamasi kishi ismini bildiradi, degan ma’lumotlar ham mavjud. Aholisi yog‘och qoliplar bilan matolarga naqsh bosish hunari bilan shug‘ullangan. Ko‘chada o‘rta asrlarda qurilgan masjid va madrasa mavjud.

Kuyi daraxt ko‘chasi - tarixiy nom. Kuyi daraxt “daraxtlari ko‘p joy” ma’nosida keladi. Ko‘chada bosh kiyimi tikuvchilar, qisman zargarlar, savdogarlar, amir amaldorlari, mashhur mudarrislar,

¹ Қаранг: Сухарева О.А.. К истории городов Бухарского ханства.- Ташкент: Фан, 1958. Приложенная к книге план Бухары.

² Қаранг: Иванов П.П.. Хозяйство Джуйбарских шейхов.- Москва-Ленинград: Наука, 1954.

munshiylar istiqomat qilishgan. Ko'cha nomi XVI asr hujjatlarida uchraydi.

Kuyi xonaqoh ko'chasi - tarixiy nom. Kuyi xonaqoh, ya'ni Xonaqoh ko'chasi. Aholisi savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Ko'chada katta masjid-xonaqoh, uning orqasida esa XVI asrda yashagan mudarris Sadri Badri Maydoniyning qabri mavjud. Qabr ziyoratgoh hisoblanadi. Nomi 1855- yilda yozilgan vaqf yorliqlarida tilga olinadi.

Ko'ksaroy ko'chasi – tarixiy joy nomi. Buxoro shahrining sharqiy qismida, Shirbudun mavzesiga yaqin hududda joylashgan.

Machiti baland ko'chasi - tarixiy nom. Machiti baland, ya'ni Balandmachit ko'chasi. Ko'chadagi XVI asrga oid masjidning baland asosga egaligi, ya'ni yerdan baland qilib qurilganligi guzarining shu nom bilan atalishiga sabab bo'lgan. Masjid oldida sakkiz hujrali kichik madrasa qad ko'tarib turgan.

Mag'oki ko'rpa - tarixiy nom. Mag'ok atamasi pastda joylashgan ob'ektlarga – masjid, madrasa va hokazolarga qarata ishlatilgan.

Namozgoh ko'chasi - tarixiy nom. XII asrda qurilgan Namozgoh masjidi nomidan olingan. Masjid shahar qal'asidan tashqarida joylashgan bo'lib, unda o'rta asrlarda Iyd namozlari o'qilgan.

Otbozor ko'chasi - tarixiy nom. O'rta asrlarda Buxoro shahar mudofaa devorining shimoliy tomonida, shaharga yaqin yerda joylashgan mavze.

Oq masjid ko'chasi - tarixiy nom. "Katta masjid" ma'nosini anglatadi.

Poyi Kalon ko'chasi - tarixiy joy nomi. Minorai Kalon me'moriy majmuasining ikkinchi nomi. Shu majmua hududidagi ko'cha.

Poyi Ostona ko'chasi - tarixiy nom. Poyi Ostona, ya'ni "muqaddas ostona" ma'nosini anglatgan. Bu guzarda Hazrat Bahouddin Naqshband hujrasi bo'lgani bois shu nom bilan atalgan. XX asrning 50-yillarigacha ushbu hujra mavjud edi. Guzar nomi 1860-yilda tuzilgan vaqfnomada keltiriladi. Aholisi bo'yoqchilik bilan shug'ullangan.



Poyi Ostona ko‘chasi

Registon ko‘chasi - tarixiy nom. Eramizning VI asridan beri mavjud toponim. Narshaxiyning “Buxoro tarixi ” asarida tilga olinadi. Buxoro Arki oldidagi katta maydonga nisbatan qo‘llanilgan¹.

Saroyon – etnotoponim. Buxoro shahri janubidagi qishloq. Hozirgi paytda shahar hududiga kiradi.

Safidmuy – tarixiy nom. Buxoro shahri janubida joylashgan.

So‘fiyon ko‘chasi - tarixiy nom. So‘fiyon, ya’ni so‘fiylar ko‘chasi. Aholisi savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Kitob bilan savdo qiluvchilar ham shu ko‘chada yashagan. Ko‘chada masjid, Avazboy madrasasi va hovuz bo‘lgan. Nomi 1563-yil va 1781-yillarga oid vaqfnomalarda uchraydi.

Tagichorbog‘ ko‘chasi - tarixiy nom. “Chorbog‘ osti, chorbog‘ tagi” ma’nosida.

Tagiqal’a ko‘chasi - tarixiy nom. ”Qal’a osti” ma’nosini beradi.

Taliya - tarixiy nom. Tallicha, ya’ni “tepacha” so‘zining o‘zgargan shakli.

Fayzobod ko‘chasi - tarixiy nom. Buxoro shahrining shimoliy sharqidagi ko‘cha. Ko‘chada XVI asrga oid Fayzobod masjidi qad rostlab turibdi.

Foshun ko‘chasi – tarixiy nom. Buxoro shahri janubida joylashgan.

Xokiroh ko‘chasi - tarixiy nom. “Tuproq yo‘l” ma’nosini bildiradi.

¹ Қаранг: Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи. -Тошкент: Фан, 1966.

Shahriston ko‘chasi - tarixiy nom. Buxoro shahrining eng qadimgi, dastlab vujudga kelgan 13 gektarlik qismi¹.



Shahriston ko‘chasi. Shimoliy g‘arbiy qism

Shergiron ko‘chasi - tarixiy nom. Aslida shirgaron, ya’ni “sut qaynatuvchilar” deb atalgan.

Shohrud ko‘chasi - tarixiy nom. Buxoro shahrini qadim zamonlardan beri sug‘orib kelayotgan ariq. Buxoro shahrining vujudga kelishi suv ta’minoti, ayniqsa shu ariq bilan bog‘lik. Qadimda Zarirud nomi bilan yuritilgan².

Chorbog‘xossa - tarixiy nom. Xos, alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turuvchi chorbog‘.

Chor Minor ko‘chasi - tarixiy nom. Xalifa Niyozquli tomonidan 1807 yilda qurilgan Chor Minor madrasasi nomidan olingan. Qarang: O‘ME, “Ch” harfi.

Chorxaros ko‘chasi - tarixiy nom. Chorxaros “to‘rt xaros”, ya’ni “to‘rt tegirmon” ma’nosini anglatadi. Ko‘chada masjid, maktab va Olimjon madrasasi bo‘lgan. Uning nomi 1727-yil va 1863-yillarda yozilgan vaqfnomada qayd etiladi.

O‘tror - Buxoro shahri janubidagi mavze.

G‘oziyon ko‘chasi - tarixiy nom. G‘oziyon, g‘oziyalar, ya’ni din yo‘lida shahid bo‘lganlar. Ko‘chada turli kasb bilan shug‘ullanuvchilar, davlat amaldorlari, oliy tabaqa insonlar istiqomat qilgan. Islom ma’rifati markazlaridan biri bo‘lgan. Ko‘chada shu nomdagi madrasa hozir ham qad ko‘tarib turibdi. Bu yerdagi Imom G‘oziyning qabri muqaddas hisoblanadi. Guzar nomi 1147-yilda

¹ Қаранг: Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. –Тошкент: Фан, 1991. – Б.40-43.

² Шу асар, 41-бет.

yozilgan vaqfnomada tilga olinadi. Qarang: O‘zR Milliy arxivi, 1186-hujjat.



Gavkushon ko‘chasi va madrasasi

Havzi Arbob ko‘chasi – “arbobning hovuzi” ma’nosiga ega.

Havzi bodom ko‘chasi – “bodom hovuz” ma’nosini berib, nomida atrofni bodom daraxtlari o‘rab turganligini bildiruvchi ishora mavjud.

Havzi jilovxona ko‘chasi – “jilovxona hovuzi” ma’nosida. Jilovxona hovuzi joylashgan hududdagi ko‘cha.

Havzi Lesak ko‘chasi - tarixiy nom. Buxoro Arkining janub tomonida joylashgan hovuz. Shahar qamalda qolgan paytlari Ark ushbu hovuz orqali suv bilan ta’minlangan. Qarang: M.S.Andreev, O.D.Chexovich. Ark-Kreml’ Buxari. – Dushanbe: “Donish”, 1972.

Havzinav ko‘chasi - tarixiy nom. Havzi nav- yangi hovuz ma’nosida. Ko‘cha bo‘ylab hovuz joylashgani bois shu nom bilan atalgan. Hovuz hozir ham mavjud. Nomi vaqf hujjatlarida tilga olinadi. Qarang: O‘zbekiston Milliy arxivi, 115-hujjat.

Havzi Qozikalon ko‘chasi - tarixiy nom. Buxoro qadimiy shahristonida joylashgan ko‘cha. O‘rta asr tarixiy manbalarida, ayniqsa vaqf hujjatlarida, shuningdek, Parfenov-Feninning aniqlik bilan tuzilgan xaritasida (1910 yil) uchraydi. Qarang: Н.Г.Некрасова. О нескольких старых планах Бухары // Из истории культурного наследия Бухары. Вып.10.- Бухара: изд-во “Бухоро”, 2006.- Б.17-27.



Buxoro shahridagi Shohrud arig'i

Hisor ko'chasi - tarixiy nom.

Zamonaviy toponimlar

Elobod ko'chasi – zamonaviy nom.

Afrosiyob ko'chasi – afsonaviy - tarixiy shaxs nomiga qo'yilgan zamonaviy ko'cha.

Davlatobod ko'chasi – zamonaviy nom.

Qisqacha xulosa

Buxoro 2500 yil mobaynida o'z tarixiy o'rnida qad ko'tarib turgan mamlakatimizning qadimiy shaharlaridan biri. Uning muayyan me'moriy va topografik echimga ega ko'chalari hamon tarixiy qiyofasini saqlab kelmoqda va aynan shu jihati bilan betakror sayyohlik resursi sanaladi. Buxoro shahri tarixiy toponimlari shahar tarixining, ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi. Ularda aholining qadimiy madaniyati, urf-odatlar, diniy e'tiqodi, til xususiyatlari, kasb-kori aks etgan. Toponimlar o'tmish va kelajak o'rtasidagi madaniy-ma'naviy ko'prikdir va uni asrab qolish barchamizning vatanparvarlik burchimiz hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar: arxeologiya, qadimiy shahar, tarixiy topografiya, shahriston, tepalik, ko'cha, darvozalar, tarixiy nom, tarixiy shaxs, bino, yodgorlik, mashg'ulot, tarixiy manba, mozarlar, masjid, madrasa, xonaqoh, hovuz, mahalla, tarixiy hudud, eski shahar.

Savol va topshiriqlar

1. Buxoro shahri necha ming yillik tarixga ega?

2. Buxoro shahriga arablar tomonidan berilgan nomlarni aniqlang
3. Qaysi ko'chalar aholi kasb-kori bilan bog'liq holda tashkil topgan?
4. Qaysi ko'cha Buxoroni "Qubbat ul-islom" darajasiga ko'targan olim nomi bilan ataladi?
5. O'rta asrlarda shahar qamal qilingan paytda arkni suv bilan ta'minlab turgan hovuz nomini eslang
6. "Mag'ok" atamasi qanday ob'yektlarga nisbatan qo'llanilgan?
7. Muhammad Payraviy ko'chasi to'g'risida ma'lumot bering
8. Shaxs nomlari bilan ataluvchi ko'chalar va ularning shakllanish tarixini aniqlashga harakat qiling
9. O'zingiz yashayotgan ko'cha, mahalla, qishloq nomining ma'nosi va tarixi to'g'risida qisqacha axborot tayyorlang

2-MAVZU: BUXORO TUMANI TOPONIMLARI

2.1.Tuman to'g'risida umumiy, qisqa ma'lumot

2.2.Mahalla va qishloq fuqaro yig'inlariga qarashli qishloqlar

Buxoro tumani 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. Shimol tomondan Vobkent, Rometan, g'arbdan Jondor, janub tarafdin Kogon tumanlari bilan chegaradosh. Buxoro tumanining hozirgi hududi amirlik davridagi Shimolirud va Poyirud nomli tarixiy tumanlar chegaralariga to'g'ri keladi. Tuman Buxoro shahrining shimoliy, janubiy va g'arbiy hududlarini o'z ichiga olib, uning hozirgi joylashuvi ham deyarli o'sha holatda saqlanib qolgan. Tumandagi tarixiy joy nomlari Buxoro qushbegisi arxiv hujjatlarida, amirlik devonxonasi Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligiga taqdim etgan hisobotlarida uchraydi. Tarixiy hujjatlarda qayd etilgan toponimlar hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Hujjatlarda tilga olinmagan katta-kichik joy nomlari esa xalq orasida tildan tilga o'tib hozirgi kungacha etib keldi.

Tuman hududida O'rtacho'l yaylovi bor. Hududidan qadimiy Shohrud kanali oqib o'tadi. Tuman yerlarining ancha qismi sho'rlanganligi bois, muntazam sho'r yuvish ishlari olib boriladi. yeri

sho‘r, sho‘rxok, sho‘rtob, gilli, qumli, qumoq tuproqlardan iborat. Saksovul, yulg‘un, sho‘ra, shuvoq va boshqa daraxt va o‘simliklar o‘sadi.


Tumanda “Toshkent kotton” qo‘shma korxonasi, uzumni qayta ishlash, “Shifo” mahalliy mineral suv korxonasi, iqtidorli bolalar litseyi, kutubxona, madaniyat uyi, ichak va jigar xastaliklarini davolash sanatoriysi, qishloq vrachlik punktlari va boshqa ijtimoiy-madaniy va maishiy ahamiyatga molik korxonalar, muassasa hamda maskanlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Buxoro tumanidagi sobiq “Madaniyat” jamoa xo‘jaligi kurashchi-polvonlar yurti. Sambo kurashi bo‘yicha jahon chempionlari Sobir Qurbonov va uning farzandi Akobir Qurbonovlar shu tumanda tug‘ilib voyaga etishgan va xalqaro toifadagi dunyoga mashhur sportchilar bo‘lib tanilishgan. Ularning ustozligi ostida ko‘plab xalqaro darajadagi sport ustalari yetishib chiqib, jahon kurash shohsupalarida vatanimiz sharafini himoya qilishmoqda.

Chorbakr me‘moriy majmuasi shu tuman hududida joylashgan. Buxorodan 6 km g‘arbda, Sumitan qishlog‘i hududida joylashgan ushbu me‘moriy majmua xonaqoh, masjid, madrasa va daxmalardan iborat. U Shayboniy Abdullaxon tomonidan 1559-yilda boshlanib, qariyb o‘n yil mobaynida me‘moriy majmua shakliga keltiriladi. Keyingi asrlarda majmua hududida qo‘shimcha binolar, ayniqsa Jo‘ybor xojalari avlodlari dafn qilingan daxmalar qurish davom etdi va u yaxlit holda nekropol’ ko‘rinishini oldi.

Sobiq sovet tuzumi davrida omborxonaga aylantirilgan majmua binolari Mustaqillik yillarida ta‘mirlanib, ziyoratgoh hamda turistik marshrutga aylantirildi. Ko‘milib ketgan hovuz, Jo‘ybor xojalarining yarim vayrona holga kelib qolgan oilaviy daxmalari qayta tiklanib, majmua hududida bog‘ tashkil etildi. **Mustaqillik yillarida** o‘zbek va fransuz olimlari hamkorligi dorasida majmuadagi qabrtosh yozuvlari al‘bomi tayyorlanib, Parijda nashr qilindi.

Keyingi to‘rt yilda amalga oshirilgan o‘zgarishlarning bir yo‘nalishi yangi turarjoy binolari sonining keskin ortishida, faoliyati to‘xtab qolgan sanoat korxonalarining qayta rekonstruksiya qilinib ishga tushirilishida, avtomobil’ yo‘llarining ta‘mirlanishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.



Buxoro viloyati tarkibidagi Buxoro tumani xaritasi (qizil rangli)
Buxoro tumanidagi mahalla va qishloq fuqarolar yig'ini ro'yxati

№	Mahalla va qishloq fuqarolar yig'ini
1	Ko'chkumar
2	Qavola Mahmud
3	So'fikorgar
4	Bog'ikalon
5	Qo'shxodim
6	Yangiturmush
7	Turkon
8	Istiqlol
9	Rabotak
10	Kunji qal'a
11	Navmetan
12	Zarmanoq
13	Shergiron
14	Rabotipoyon
15	Xonobod
16	Amirobod Guliston
17	Yurinbolo
18	Talaliyon
19	Kulonxona

20	Rabotiqalmoq
21	Dehcha
22	Arabxona
23	Podshohi
24	Madaniyat Rabot mahalla
25	Losha
26	Xumin
27	Bog'idasht
28	Shexoncha
29	Sohibkor

2.2. Mahalla va qishloq fuqaro yig'inlariga qarashli qishloqlar

Ko'chkumar fuqarolar yig'iniga qarashli qishloqlar

Vag'ozkent – “Varg'ozkent” atamasining juz'iy o'zgargan shakli deb taxmin qilinadi. Sug'dcha varg' - “suv to'planadigan joy, to'g'on, band” va kent, ya'ni “qishloq” so'zlari birikmasidan tashkil topgan ikki komponentli toponim¹. “Suv bo'yidagi qishloq” ma'nosini anglatadi.

Gilembof - gilam to'quvchi kosiblar manzili. Qishloq aholisining asosiy mashg'uloti gilam to'quvchilik bo'lganiga ishora.

Jo'yi odoq – “ariqning odog'i – ariq oxiri” ma'nosini beradi. Ariqning oxiri, poyonida joylashgan mavzega qarata qo'lanilgan atama. Odoqlar katta ariqlar yoqasida yastanib yotgan yulg'unzordan iborat bo'lgan. Ba'zi yovvoyi qushlar bu yerda manzil qurgan. Chorva mollari uchun ozuqabop o'simlar ham o'sgan.

Dehcha - “kichik qishloqcha” ma'nosini beradi.

Ko'chkumar – “ko'shki Umar”, ya'ni “Umarning ko'shki”, “Umarning saroyi” atamasining o'zgargan shakli. Umar ismli shaxs tomonidan bunyod etilgan ko'shk atrofida tashkil topgan qishloq.

Rabot – keng tarqalgan toponim. “Karvonsaroy”, “mehmonxona” kabi ma'nolarni beradi.

Safkarda - “saflanmoq” ma'nosini beradi.

Turkon - etnotoponim. Turklar ma'nosida, ya'ni turkiyzabon aholi yashaydigan joy. Ushbu joy nomi turk etnotoponimiga tojikcha ko'plik ko'rsatgichi - “on” qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan.

¹ Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro'z, 2020. – B. 68.

Turk – bir qancha turkiy qabila va urug‘ birlashmasidan tashkil topgan umumiy nom.

Qorabobo – onoma. Shaxs nomidan olingan.

Qavola Mahmud fuqarolar yig‘iniga qarashli qishloqlar

Davlatobod – davlat hokimiyati tashabbusi yoki ishtiroki bilan obod qilingan mavze ma’nosini bildiradi. Davlat so‘zining “mol-mulk, boylik” ma’nosini ham anglatishi hisobga olinsa, toponimning boshqa ma’nosi - “obod mulk” kelib chiqadi.

Zirobod - tarixiy nom. “Zarobod” bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin. Arabchada “zir”, “zer” past ma’nosini beradi. Demak, “quyida, pastda joylashgan obod qishloq” ma’nosiga mos keladi. Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida Zo‘robod (زوراباد) tarzida qayd etilgan. Bunda “zo‘r berib, mashaqqat tortib, mehnat bilan obod qilingan joy” ma’nosi hosil bo‘ladi.

Labobiyon - to‘g‘ri talaffuz qilinishi “labi obiyon”. Ya’ni suv labida, qirg‘oq yaqinida yashovchilar, shu manzilda joylashgan qishloq ma’nosini beradi.

Mahalliyorak – toponimning tub ma’nosiga oid ma’lumotlar deyarli yo‘q. Faqat ayrim rivoyatlar saqlanib qolgan. Ularning ba’zisiga ko‘ra, mazkur qishloq qizlarining nihoyatda go‘zalligidan ularga oshiq bo‘lib qolgan qo‘shni qishloq yigitlari qizlar oldiga otda kelib, ularni sayr qildirgan. Bundan zavqlangan qishloq ahli ularni “yoronlar” deb atagan ekan¹. Qishloq nomi shunday ijtimoiy voqea asosida shakllangan emish.

Moshkoron - “mosh ekuvchilar” ma’nosini bildiradi.

Mug‘olon (Mug‘ilon) - ko‘p uchraydigan etnotoponim. O‘tmishda mo‘g‘ul elatiga mansub aholi yashaganini anglatadi. Aslida “mo‘g‘ulon” tarzida yozilishi va talaffuz qilinishi kerak. Mo‘g‘ul - barlos, jaloyir, saroy, sulduz va boshqa turk-mo‘g‘ul urug‘larining umumiy nomi. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida uchraydi.

So‘fiyon - “so‘fiylar” ma’nosini beradi. O‘tmishda masjidida azon aytuvchi muazzinlar istiqomat qilgan qishloq

Tikonchi – tikan bilan qoplangan hududda tashkil topgan qishloq. Shuningdek, aholisi tikan o‘rish bilan shug‘ullangan qishloq nomi.

Hasanattor – onoma. Attorlik kasbi bilan shug‘ullangan kishi nomidan olingan toponim.

¹ Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – B. 42.

Qavola - xalq orasida “Qavola Mahmud” nomi bilan mashhur. Toponim to‘g‘risida bir-necha farazlar mavjud. Qavola so‘zi “notiq”, “hofiz” ma’nolarini anglatadi. Toponimga ma’no jihatdan qaraydigan bo‘lsak, “Qavola Mahmud” atamasi Mahmud ismli qaysidir hofiz yashagan qishloqqa nisbatan qo‘llanilgan, degan fikrga kelish mumkin.

Rivoyatga ko‘ra esa, qishloqqa Mahmud ismli shaxs va uning qabiladoshlari asos solgan. Shundan qisman o‘zgargan shaklda “Qavola Mahmud”, ya’ni “Mahmudning qabilasi” atamasi paydo bo‘lgan¹. Qavola so‘zi “kavali” – “po‘stinli”, “po‘stindo‘z” (po‘stin tikuvchi) ma’nolarini anglatadi, degan fikrlar ham bor. Bunday holda Qavola Mahmud toponimi “Po‘stindo‘z Mahmud”, Qavola esa “Po‘stindo‘z, po‘stin tikuvchilar qishlog‘i” ma’nosiga ega bo‘ladi.

So‘fikorgar qishloq fuqarolar yig‘ini

Muchavs – 1926-yilgi tumanlashtirish ro‘yxatida Mavchas yoki Mavchus tarzida uchraydi. etimologik ma’nosi noma’lum. Atamaning fonetik xususiyatiga yaqin bo‘lgan majus (مجوس), ya’ni otashparast so‘zining o‘zgargan shakli deb faraz qilish mumkin. Bu atama esa qishloqning qadimiyligidan darak beradi.

Choruq - charmdan tayyorlangan oyoq kiyimi. Shu turdagi poyafzal tikuvchilar qishlog‘i yoki tabiiy geografik tuzilishi choruqni eslatuvchi mavze bo‘lganligiga ishora mavjud.

Urganjixona - Urganchdan ko‘chib kelgan aholining istiqomat joyi. Urganchlik aholi bir qismining Buxoro vohasiga ko‘chib o‘tishi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi. Birinchisi, Muhammad Xorazmshohning Malik Sanjar qo‘zg‘olonini bostirish uchun 1206-yil Buxoroga yurishi davrida kelib qolgan urganchlik aholi. Ikkinchi bosqich, XVII asrda Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon va Anushaxon hujumlari davrida vohada o‘rinlashgan urganchliklar.

So‘fikorgar – mehnatkash so‘fi, muazzin asos solgan va yashagan qishloq.

Arabxona – keng tarqalgan etnotoponim. Arab qavmlari istiqomat qilgan qishloq. VII asrda, ya’ni arab istilolari davrida Movarounnahrda kelib qolgan arablarning hozirgi avlodlari yashaydigan qishloq. Arablar mahalliy aholi bilan aralashib ketgan

¹ Шу китоб, 81-82- бетлар.

bo'lsa-da, "arabxona" etnotoponimi saqlanib qolgan va hozirgacha iste'molda.

Qumrabot - qumli rabot ma'nosini bildiradi. Qumli maqvzeda, cho'l etagida joylashgan qishloq.

Tovuqchi – parrandachilik bilan shug'ullanuvchi aholi yashagan qishloq.

Denav - "dehinav" so'zining qisqartma shakli. "Yangi qishloq" ma'nosiga ega. Mavjud qishloqlardan alohida holda, muayyan bir joyda, mustaqil, yangi tashkil topgan qishloq.

Rabotioxun - o'rta asrlarda karvonsaroy, mehmonxonalarga ega qishloqlar "rabot" deb yuritilgan. "Oxun" atamasi bilan esa ilmli, ma'rifatli, ziyoli shaxslarga nisbat berilgan. Ushbu atama "oxunning raboti, oxun yashagan rabot, qishloq" ma'nosini beradi.

Bog'ikalon qishloq fuqarolar yig'ini

Kangav - "kandgov" so'zining buzilgan shakli bo'lishi mumkin. Bunda "ho'kiz qazgan" ma'nosi kelib chiqadi. "Ho'kiz bilan qazilgan, haydalgan yer", "ho'kiz yordamida qazilgan joy" kabi ma'nolar ushbu toponimga mos keladi, deb taxmin qilish mumkin.

Nayak – toponimning birinchi komponenti, ya'ni "na" so'zi tojik tilida inkor yuklamasi bo'lib, ikkinchi komponentdagi "yak", ya'ni bir so'zini inkor etmoqda. Bu holatda "bir emas" ma'nosi kelib chiqadi. Demak, biror narsaning bir emas, bir nechaligiga ishora qilinmoqda.

O'ba – "o'ba" qishloq ma'nosini bildiradi. Buxoro vohasining boshqa hududlarida ham uchraydi.

Otkuchi – tarixiy atama yuzasidan bir necha taxminlarni ilgari surish mumkin. Otdek kuchli aholi istiqomat qilgan qishloq. Shuningdek, "otguvchi" so'zining o'zgargan mazmunidan yasalgan joy nomi. Bunday holatda kamondan yoki boshqa engil qurollardan mohirona otuvchilar yashagan qishloq, deb tushunish mumkin.

Bog'ikalon - "katta bog'" ma'nosiga ega. Demak, o'tmishda katta bog'larga ega bo'lgan mavze. Joyning tabiiy sharoitiga mos ravishda vujudga kelgan toponim.

Obitorat – to'liq shaklda Obitahorat bo'lishi kerak. Bunda toponim "tahorat suvi" ma'nosini anglatadi. Toponim tarkibidagi "ob" so'zi suvli joyga ishora qiladi. Tahorat uchun foydalanishga yaroqli va umuman toza suv oqadigan qishloq, deb faraz qilish mumkin.

Jo'borcha – to'liq yozilishi va talaffuz qilinishi "jo'y+bor+[cha]" tarzida bo'lishi kerak. Jo'y - "ariq", "cha" esa kichiklikni bildiruvchi

qo‘shimcha. Fors-tojik tilidagi bor (بار) so‘zining ko‘plab ma‘nolari ichida “shox, tarmoq” ma‘nosini ushbu toponimga qo‘llashni maqbul deb hisoblagan holda, uning umumiy ma‘nosi “ariqchaning tarmog‘i”, “biror hududga qarab oqqan kichik suv tarmog‘i”ni anglatishini taklif qilamiz.

Kaftaul – aslida kaft+ovul so‘zining o‘zgargan shaklidan hosil bo‘lgan toponim. Bundan “kaftdek kichkina ovul” ma‘nosi kelib chiqadi va ushbu qishloq o‘tmishda ko‘chmanchi aholi yashagan ovul bo‘lganligiga ishora qilinadi.

Yuzon (yuzlar) – etnotoponim. Yuz – o‘zbek qabilalaridan biri. Qirq yuz, nayman yuz, turkman yuz va boshqa guruhlariga hamda Marka bolasi, Qorapchi, Rajab bolasi kabi uch tarmoqqa bo‘linadi. Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro vohalarida yashagan.

Qorako‘liyon - “qorako‘lliklar” degan ma‘noni anglatadi. Buxoro vohasining Qorako‘l muzofotidan kelib o‘rnashib olgan aholiga qarata ishlatilgan atama. Buxoro tumanida qorako‘lliklar shevasida so‘zlashadigan aholi ko‘plab qishloqlarda yashaydi.

Ko‘chkicha – kichkina ko‘chki hosil bo‘lgan joyda qad ko‘targan qishloqchaga ishora. Yoki ko‘chkini eslatuvchi mavzega nisbatan qo‘llanilgan atama.

Qo‘shxodim mahalla fuqarolar yig‘ini

“Qo‘shxodim” atamasi tarixiy hujjatlarda “Ko‘shk xodim” (كوشك خاديم) tarzida keladi. O‘zbek tilida “xodimning ko‘shki, qasri” ma‘nosini anglatadi. Odatda shahar tashqarisidagi bahavo joylar va bog‘larda qurilgan imoratlarga nisbatan ishlatilgan. Umuman ko‘shk mahalliy me‘morchilikka xos qadimiy imorat turi. “Ko‘shk” atamasi O‘rta Sharq orqali Evropa xalqlariga, frantsuz yoki nemis tili orqali rus tiliga “kiosk” shaklida o‘tgan. Qadimgi turkiy qabilalarda o‘tov, chayla, chodir kabi oq va qora uylar, arava ustiga o‘rnatilgan safar uyi - ko‘chik keng tarqalgan. Ular keyinchalik ko‘shk me‘morchiligi asosini tashkil etgan. “Ko‘shk” atamasi Narshaxiyning “Buxoro tarixi” va arab geograflari asarlarida uchraydi.

Mirishkor - “miri shikor”, ya‘ni “ovchilarning miri, amiri, boshlig‘i” ma‘nosida. Saroyda maxsus mirishkor lavozimi bo‘lgan. Turkiy qavmlardan birining nomi sifatida ham talqin qilinadi. Bunda atama etnonimga aylanadi.

O‘zbekon – etnotoponim. Tojikzabon aholi “o‘zbekon”, ya’ni “o‘zbeklar” deb talaffuz qilgan. Aslida “o‘zbekon” tarzida yozish va talaffuz qilish kerak. O‘zbek etnotoponimiga tojikcha ko‘plik ko‘rsatgichi “on” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. O‘zbek millatiga mansub kishilar yashaydigan qishloq. Toponim kishilarning etnik belgisi asosida vujudga kelgan.

Do‘g‘do‘z – ikki tarkibli toponim – do‘g‘+do‘z. Do‘g‘ (دوغ) so‘zi fors-tojik tilida yog‘i olingan suzmaga yoki ayronga nisbatan ishlatiladi¹. Do‘z so‘zi esa do‘xtan, ya’ni “tikmoq, yasamoq” so‘zining qisqartma shakli. Shu ko‘rinishda toponim “yog‘i olingan suzma, ayron tayyorlovchilar” ma’nosini beradi.

Shuningdek, do‘g‘ so‘zini fors-tojik tilidagi dux (دخ), ya’ni qamish (lux)² so‘zining o‘zgargan ko‘rinishi deb qabul qiladigan bo‘lsak, unda qamishdan bo‘yra va turli uy-ro‘zg‘or buyumlari to‘qiydigan hunarmandlar yashagan qishloqqa nisbatan qo‘llanilgan toponim sifatida talqin qilish o‘rinli bo‘ladi³.

Raboti eshon - eshon rabot. eshonning raboti, qaysidir eshonga yoki eshonlarga tegishli rabot deb tushunish mumkin. eshonlar diniy tabaqaga mansub bo‘lib, aholi o‘rtasida hurmat va e‘zozga sazovor bo‘lishgan.

Dabiyon – dabir+on (دبیر) so‘zining o‘zgargan shakli deb faraz qilinsa, “mirzolar, kotiblar, muallimlar qishlog‘i” ma’nosini bildiruvchi toponimga aylanadi. Dabiston (دبستان) so‘zi bilan bog‘liq deb hisoblansa, “maktab” ma’nosiga ko‘chadi. Umuman, toponim murakkab etimologik tarkibga ega va qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladi.

Fayzobod – joyning fayzli, tarovatli sifatlariga nisbatan qo‘llanilgan va keng tarqalgan atama.

Yangiturmush qishloq fuqarolar yig‘ini

Qarajeri – “qorajo‘xori” atamasining buzilgan shakli. Chorva mollari uchun qora jo‘xori ekini etishtiradigan qishloq. Boshqa ma’noni berishi to‘g‘risidagi rivoyatga ko‘ra, uning paydo bo‘lishi amir cho‘risi bilan bog‘liq emish. Amirga beminnat xizmat qilib e‘zozga erishgan qora tanli cho‘riga hukmdor tarafidan qishloq

¹ Садриддин Айни. Куллиёт. Жилд 12. – Душанбе: Ирфон, 1976. – Б. 111.

² Шу асар, 110-бет.

³ Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – B. 26-27.

maydonlari in'om qilingan. O'sha joy "qora cho'rining yerlari" deb atala boshlagan va zamonlar o'tishi bilan "qorajeri"ga aylangan¹.

Ipakchi – ipakchilik bilan shug'ullanuvchi aholi istiqomat qilgan manzil.

Chorraha – "to'rt yo'l" ma'nosini anglatib, ko'pincha to'rt yo'lning kesishgan joyiga nisbatan qo'llanilgan. To'rt yo'l kesishgan mavzedagi yoki to'rt tomonga qarab yo'nalgan yo'l yoqasidagi qishloqning ushbu atama bilan izohlanishi mantiqan to'g'ri.

Beshariq – gidronim. Ko'pincha katta suv tarmog'ining beshta ariqqa bo'linib ketish joyi va shu yerda joylashgan qishloqqa nisbatan qo'llanilgan atama.

Deso'xta - "dehi+so'xta", ya'ni "kuygan qishloq" shaklidagi ko'chma ma'noga ega toponim. "Kuygan" atamasi "jabr ko'rgan" degan mazmun kasb etib, uning negizida qishloqning tabiiy ofatlar, jumladan, sel, yomg'ir, suv toshqinlari, hosilsizlik natijasida mashaqqat tortganiga ishora mavjud.

Charmgar - "charm tayyorlovchilar" ma'nosini beradi. O'tmishda shu kasb bilan shug'ullangan aholining yashash manzili.

Kechqo'noq - turkiycha "kechki mehmon" ma'nosini bildiradi. Biror joyga, biror kimsaning uyiga qo'ngan, tushgan yo'lovchi - "qo'noq", ya'ni mehmon atamasi bilan ifoda etilgan. Bunga yaqin "qo'nalg'a" atamasi esa qushlar qo'nib dam oladigan joyga nisbatan qo'llanilgan. "Qo'noq" atamasining umumiy ma'nosi "boshpana, pana joy" demakdir.

Shuningdek, qo'ng'irboshlilar oilasiga mansub boshqoli bir yillik o'simlik hamda g'alla va em-xashak ekini ham qo'noq deyilgan. Yuqoridagi barcha tushunchalarni Kechqo'noq toponimiga joriy qilish qilish mumkin. Shuningdek, qushlar, tovuqlar qo'nadigan dor ham qo'noq deyilgan.

Toponim yuzasidan boshqa mulohaza ham mavjud. Unga ko'ra, toponimning asl shakli turkmancha "gechqo'noq" bo'lib, gechchilar, ya'ni echkilar kech bo'lganda tunaydigan joy ma'nosini anglatadi². Ushbu hududda istiqomat qilgan aholi tarkibida turkman etnik guruhi salmog'ining yuqoriligi bu fikrda jon borligini tasdiqlaydi.

¹ Шы асап, 84-бет.

² Шы асап, 33-бет.

Turkon mahalla fuqarolar yig'ini

Mahalla – joy, makon, maskan kabi ma'nolarni bildiradi. Muayyan ijtimoiy – ma'muriy, geografik hudud. 1926-yilgi tumanlashtirish ro'yxatida Mahalla Shayxon, Mahalla Denav nomlari ostida qayd etiladi.

Turkon - etnotoponim. Turklar ma'nosida, ya'ni turkiyzabon aholi yashaydigan joy, manzil. Turk etnotoponimiga tojikcha ko'plik ko'rsatgichi “on” qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan.

Qayrag'och – qayrag'och daraxtlari mo'l qishloq. Lug'aviy ma'nosi “qattiq, mustahkam, chidamli og'och (yog'och)”. Joyning tabiiy geografik o'rni va holatini ifoda etuvchi toponim.

Arabxona - etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o'zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrda kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrda yurishlari davrida Damashq va Bag'dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o'rinishib oldilar. Movarounnahrdagi sayyidlar va xo'jalar o'z kelib chiqishlarini arablar bilan bog'laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg'ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho'jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrda ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog'i yuqori bo'ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Arablar o'tgan asrning 60-70-yillarigacha o'z tillarini saqlab qoldilar. G'ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o'z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo'lishidan qat'iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Kichikboy – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi qishloq. 1926-yilgi tumanlashtirish ro'yxatida qayd etiladi.

Labidenav - “labi+dehi+nav“ so'z birikmalaridan tarkib topgan bo'lib, “yangi qishloq yonidagi manzil” yoki “Denav qishlog'ining chekkasi” ma'nolarini bildiradi.

Ko'lishtrum – ko'llar ko'p bo'lgan hudud ma'nosini beradi.

Istiqbol qishloq fuqarolar yig'ini

Qushxona – qushlar uchun ozuqabop, o't-o'lanlarga boy manzil. Toponim “Kushxona” deb talqin qilinsa, ma'no o'zgaradi. Mol, qo'y va boshqa jonzotlar so'yiladigan joy ma'nosini anglatadigan toponimga aylanadi.

Kobdun - toponim tarixiy xujjatlarda uchraydi. Fikrimizcha, toponim “Kox Bidun” iborasining fonetik jihatdan o'zgargan shakli hisoblanadi va uning paydo bo'lishi buxorxudotlar hukmronlik davriga borib taqaladi. “Kox” so'zi “qasr” ma'nosini bildirishini inobatga olgan holda, atama buxorxudot Bidunning qasrini anglatuvchi tushunchadan yasalgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Boshqa talqinga ko'ra, qishloqning to'la nomi Xo'ja Konidin bo'lib, unda dindor xo'jalar yashagan. Keyinchalik esa Kobdunga aylangan¹.

Bo'lamaxo'ron - bo'lama nomli ta'omni ko'p iste'mol qiluvchilar ma'nosini beradi. Ushbu toponim bo'lamani faqat tanovul qiluvchilar emas, uni tayyorlovchi aholi yashagan manzilni bildiradigan amaliy ma'noga ega.

Sangsabz – “yashil tosh” ma'nosida. Toponimning umumiy va ko'chma ma'nosi “toshloqdagi yashil, ko'klam joy”. O'sha hududning tabiiy ko'rinishi va holati asosida tarkib topgan toponim.

Talligandum - “bug'doytepa” “dontepa” ma'nosini beradi. Bug'doy o'sadigan balandlik, tepalikka nisbatan qo'llanilgan atama. Ko'rinishi donni eslatuvchi tepalik ham bo'lishi mumkin.

Xitoyon – etnotoponim. Xitoylar, xitoy qavmiga mansub aholi istiqomat qilgan joy.

Rabotak qishloq fuqarolar yig'ini

Rabotak - “kichik rabot” ma'nosini anglatadi. Hududining atrof rabotlarga nisbatan kichikroq bo'lgani nazarda tutilib, farqlovchi “ak”, ya'ni “cha” qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan.

Kulba – joyning kulbadek kichikligiga ishora tariqasida ishlatilgan. Boshqa fikrga ko'ra, “ko'l bo'yidagi, ko'l yaqinidagi qishloq” ma'nosini ham berishi mumkin².

¹ Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro'z, 2020. – B. 33 -34.

² Илй асап, 34 – бет.

Kunji qal'a qishloq fuqarolar yig'ini

Navmetan – toponim ikki komponentdan iborat: nav - yangi va metan, ya'ni “yangi metan” ma'nosini bildiradi. Toponimning ikkinchi komponentini tashkil etuvchi metan so'zi qabila nomidan olingan. Metanlar qadimda Shimoliy Mesopotamiya, Eron, Ozarbayjon, Armanistonda istiqomat qilgan. Keyinchalik yuz bergan migratsion va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqibatida Afg'oniston va Movarounnahr hududlariga tarqaladi hamda mahalliy aholi tarkibiga singib ketadi.

Maxsus adabiyotlarda metan atamasi yuzasidan turli talqinlar o'rtaga tashlanadi. Ya'ni bu atama “qishloq”, “turar joy”, “vatan”, “qal'a”, istehkom” kabi ma'nolarni bildirishi qayd etiladi. Ushbu atamani o'ziga birlashtirgan ikki tarkibli toponimlar Buxoro vohasida bir necha. “Rometan”, “Zarmetan”, “Armetan” bunga misol bo'ladi.

O'ba - “qishloq” ma'nosini beradi. Buxoro viloyatining boshqa hududlarida ham shu nomdagi qishloqlar uchraydi.

Navmetan mahalla fuqarolar yig'ini

Qumrabort - “qumli rabot” ma'nosini bildiradi. Qumli, cho'l etagida joylashgan qishloqqa nisbatan ishlatilgan atama.

Zarmanoq mahalla fuqarolar yig'ini

Mulki Sayidon - “sayidlar mulki, sayidlar yeri” ma'nosini bildirib, toponim mazmunida sayyidlar, ya'ni payg'ambar avlodlari yashagan joyga, ularning mulkiga ishora mavjud.

Xalq orasidagi rivoyatga ko'ra esa, Sayid ismli bir shaxsning boyligi ko'mib qo'yilgan tepalik nazarda tutilgan¹.

Zarmanoq - ushbu qishloq nomi XVI asrga oid tarixiy manbalar - “Abdullanoma”, “Ravzat ar-rizvon” (Jannat bog'i) kabi asarlarda uchraydi. Buxoro xoni Abdullaxon bilan Jo'ybor xojalarining yirik vakili Xoja Islom shu yerda uchrashib, Buxoroni Balxga almashtirish masalasini hal qilishgan. Katta tarixiy vazifa aynan shu qishloqdagi uchrashuvda o'z yechimini topgan. O'rta asrlarda “Dashti Zarmanoq” deb yuritilgan².

Toponim Zarmakon atamasi asosida tarkib topgan degan fikr ham mavjud.

¹ Шу асар, 45- 46 – бетлар.

² Қаранг: Тураев Х. Роль Джуйбарских ходжей в общественно –политической и духовно- культурной жизни Бухарского ханства XVI-XVII веков. Автореферат диссертации доктора исторических наук. – Ташкент, ИВАН РУз, 2007.

Xo‘jaxayron – xayr-ehson, sadaqa qiluvchi xo‘jalar qishlog‘i deb tushunish mumkin. Toponimning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lmish xayron so‘zi aslida hayron zaylida yozilishi va talaffuz qilinishi kerak, deb hisoblanadigan taqdirda, “hayron qolgan xo‘ja, taajjub qiluvchi xo‘ja” ma’nosi kelib chiqadi.

Xo‘jaxayron shaxs, yoki urug‘ nomi asosida vujudga kelgan etnonim bo‘lishi ham mumkin. Qishloq aholisi kelib chiqishining Afg‘oniston bilan bog‘liqligi xususida taxminlar mavjud.

Muxtor Qozisaid – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi toponim.

Shergiron qishloq fuqarolar yig‘ini


Shergiron – toponimning birinchi komponentini tashkil qilgan “sher” so‘zi etnonim sifatida ham talqin qilinadi. Bizningcha, Shergiron toponimi “shirgaron” atamasining o‘zgargan shakli hisoblanadi va sut etishtiruvchi aholi yashagan qishloqqa nisbatan qo‘llanilgan.

O‘zbekon – etnotoponim. Tojikzabon aholi “o‘zbekon”, ya’ni “o‘zbeklar” deb talaffuz qilgan. Aslida “o‘zbekon” tarzida yozish va talaffuz qilish kerak. O‘zbek etnotoponimiga tojikcha ko‘plik ko‘rsatgichi “on” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. O‘zbeklar yashaydigan qishloq.

Qo‘shrabot - ikki, bir-biriga tutash, yonma-yon joylashgan rabot.

Raboti bolo - yuqori rabot ma’nosini anglatadi.

Chorbakr - to‘rt bakr. Movarounnahrlik mashhur to‘rt imom - Abu Bakr Muhammad ibn Fazl Buxoriy (vafoti 937 y.), Abu Bakr Muhammad ibn Homid (X asr 30-40 – yillari orasida vafot etgan), Abu Bakr Tarxon (vafoti 944 y.), Abu Bakr Sa’d Sumitani (vafoti 971 y.) mozori joylashgan qishloq. Qadimiy nomi Sumitan. Taxminan XVII- XIX asrlardan Chorbakr nomini olgan.



Chorbakr me‘moriy majmuasi

Dehimiyona - “o‘rta qishloq” ma’nosiga ega. Atrof qishloqlar, yoki ikki qishloq o‘rtasida joylashganligi nazarda tutilib hosil bo‘lgan toponim.

Kallon - kalon so‘zi bitta “l” harfi bilan yozilsa, “katta”, ikkita “l” harfi bilan yozilsa, “kallar” ma’nosini beradi. Shuningdek, katta, kattalar, katta makon ma’nolari ham borki, bizningcha, aynan shu ma’noda qo‘llanilgan. Buxoro vohasining boshqa hududlarida ham uchraydi.

Mohitobon - “porlab, charaqlab, toblanib turuvchi, jilvalanuvchi nurafshon oy” ma’nosini beradi. Toponim mazmunida badiiy tashbehdan tashqari otashparastlikdagi samoviy jismlarga sig‘inish va ularni muqaddaslashtirish unsurlari mavjud. Arxeologlar tarafidan Mohitobon tepaligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida topilgan qabr otashparastlik davriga oid ekanligi aniqlangan¹. Demak, toponim islomdan oldingi diniy qarash va e’tiqodlar hosilasi hisoblanadi.

Taxmach(j) – toponim murakkab etimologiyaga ega. Tax so‘zi Buxoro shevasida “tayyor”, “tayyorlamoq” ma’nosini anglatadi. Ikkinchi komponentni tashkil etuvchi maj (مَج) so‘zi rivoyat aytuvchilarga nisbatan ishlatilgan. Ikkala qismning birikmasi “tayyor rivoyat aytuvchi” ma’nosini tashkil etadi. Bundan “[doimo] tayyor rivoyat aytuvchilar qishlog‘i” degan umumiy ma’no hosil bo‘ladi.

Ikkinchi talqin. Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida ushbu toponim Taxmaraj (تخمرج) shaklida uchraydi va amirlikning Shimoli-rud tumanida joylashganligi qayd etiladi. Toponimning ikkinchi komponenti, ya’ni “maraj” so‘zi “biror bir narsaning ishdan chiqishi, vayron bo‘lishi, parokandalik” ma’nolarini anglatadi. Bu albatta o‘sha joyning o‘tmishdagi geografik o‘rni va holatiga nisbatan qo‘llanilgan atama.

Toponimning lug‘aviy ma’nosini qo‘shimcha tadqiq qilish lozim deb o‘ylaymiz. Qishloqda milodning boshlariga oid Taxmachtepa deb ataluvchi qadimiy arxeologik yodgorlik mavjud.

Regzor - qumloq joy ma’nosida. Ba’zan shaharlardagi sayilgoh, ommaviy tomoshalar o‘tkaziladigan joyga nisbatan ham

¹ Йўлдошев Н. Бухородаги айрим авлиёлар тарихи. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1993. – Б. 32-33.

qo‘llanilgan. Bunday holatda ko‘pincha regzor atamasining o‘zakdoshi registon so‘zi ishlatilgan.

Rabotipoyon mahalla fuqarolar yig‘ini

Shergiron mahalla - “Shirgaron”, ya’ni sut etishtirib beruvchilar atamasining o‘zgargan shakli. Atamaning o‘zakdoshi bo‘lmish Sherobod, Shertepa, Sherkent toponimlari tarkibidagi sher so‘zi qabila nomini anglatishi to‘g‘risida farazlar ham bor.

Rabotipoyon - “quyidagi rabot”, “pastdagi rabot”, “quyi rabot” ma’nolarini bildiradi.

Quttisoz - qutti yasovchi hunarmandlar qishlog‘i.

Urganjixona – Urganchdan ko‘chib kelgan aholining istiqomat joyi. Urganchlik aholi bir qismining Buxoro vohasiga ko‘chib o‘tishi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi. Muhammad Xorazmshohning Malik Sanjar qo‘zg‘olonini bostirish uchun 1206-yil Buxoroga yurishi davrida kelib qolgan urganchlik aholi. Ikkinchi bosqich, XVII asrda Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon va Anushaxon hujumlari davrida vohada o‘rinlashgan urganchliklar.

Shalg‘amxo‘ron - sholg‘om tanovul qiluvchilar, sholg‘omni ko‘proq iste’mol qiluvchilar qishlog‘i kabi ijtimoiy ma’noga ega. Toponimning laqab asosida shakllanganligi to‘g‘risida taxminlar mavjud.

Chortoq chiltanob – “qirq tanobli Chortoq” qishlog‘i. Chor+toq “to‘rt gumbaz” ma’nosini bildiradi. Ko‘pkari musobaqalari payti uloq tashlanadigan baland moslamaga nisbatan ham Buxoro vohasida ba’zan ushbu atama qo‘llanilgan.

Xonobod mahalla fuqarolar yig‘ini

Xonobod - Buxoro xoni ashtarxoniy Ubaydullaxon (1702-1711) tomonidan asos solingan qishloq. U bu joyda o‘ziga tashqi saroy barpo etgan¹. Shu davrdan boshlab mazkur joy Xonobod, ya’ni “Xon obod qilgan joy” ma’nosida qo‘llanib kelinadi.

Qumrabot – qumli joyda joylashgan rabot, qishloq.

Talipoch – (toponimning birinchi komponentini tashkil qiluvchi tal so‘zini arabchadan tarjima qilganda, “tepa” ma’nosini beradi. Demak, toponim tepalik bilan bog‘lik joy nomini anglatadi. Toponimning ikkinchi komponentiga ham e’tibor qaratish lozim.

¹ Қаранг: Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перевод с таджикского с примечаниями А.А.Семенова. – Ташкент: Изд-во АН Уз ССР, 1957. – Б. 181-191.

“Poch” atamasi “posh”, “poshidan”, ya’ni “sochmoq” so‘zining buzilgan shakli bo‘lishi mumkin. U holda toponim “sochilgan tepa” ma’nosini anglatadi (طل پاش).

Poch so‘zi fors-tojik tilida “bug‘doy poyasi”, shuningdek, “somon uyumi”, “bug‘doy poyasi xirmoni” ma’nolarini beradi. Ikkala komponent qo‘shib talqin qilinsa, “bug‘doytepa, xirmontepa” ma’nolari kelib chiqadi. Buxoro shahri mudofaa devori g‘arbiy davozalaridan biri ham Talipoch deb ataladi. Darvoza bizgacha saqlanib qolgan.

Ko‘hnamachit – qadimiy masjidga ega joy.

Chorbog‘ixossa - Buxoro hukmdori Nasrulloxonning (1826-1860) shahar atrofidagi tashqi saroyi joylashgan mavze. Lug‘aviy ma’nosi “xoslar, maxsus shaxslar chorbog‘i”.

Amirobod Guliston mahalla fuqarolar yig‘ini

Amirobod – “amir obod qilgan joy, amirning qishlog‘i, amirga qarashli yerlarda bunyod etilgan qishloq” ma’nosida. Buxoro viloyatining boshqa hududlarida ham uchraydigan toponim.

Avg‘onon - etnotoponim. Aslida afg‘onlar tarzida yozilishi va talaffuz qilinishi kerak. Turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar natijasida so‘ngi o‘rta asrlarda Buxoro vohasiga kelib qolgan afg‘onlar Buxoro shahri va atrof qishloqlarida savdo-sotiq hamda sipohiylik bilan shug‘ullanishgan.

Arabxona – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o‘zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrqa kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrqa yurishlari davrida Damashq va Bag‘dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o‘rnashib oldilar. Movarounnahrdagi sayyidlar va xo‘jalar o‘z kelib chiqishlarini arablar bilan bog‘laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg‘ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho‘jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrqa ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog‘i yuqori bo‘ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q. Arablar o‘tgan asrning 60-70-yillarigacha o‘z tillarini saqlab qoldilar. G‘ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o‘z ona tili –

arab tilini unutmaganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo'lishidan qat'iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Og'ar – “ko'lmak” ma'nosini beradi. Sel yog'ib o'tgandan so'ng yerning har qayer-har qayerida hosil bo'ladigan ko'lmakka nisbatan qo'llanilgan. Toponim o'sha joyning geografik va tabiiy xususiyatini aks ettirgan.

Daryoning ushbu qishloq yaqinidan qayrilib, og'ib o'tganligiga ishora qiluvchi talqin ham mavjud.

Yurinbolo qishloq fuqarolar yig'ini

Yurinbolo - toponim XIV asrda tuzilgan vaqf hujjatida uchraydi¹. Turkiy va forsiy so'zlardan tashkil topgan “o'rinbolo”, ya'ni “yuqori o'rin, yuqori joy” iborasining o'zgargan ko'rinishi bo'lishi mumkin.

Turkon – etnotoponim. Turklar ma'nosida, ya'ni turkiyzabon aholi yashaydigan manzil. Turk etnotoponimiga tojikcha ko'plik ko'rsatgichi “on” qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan.

Hazratbobo – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi mavze.

Rabot – qo'rg'on, istehkom, karvonsaroy kabi inshootlarga ega mavzega nisbatan ishlatiladigan atama. “Rabot” keng tarqalgan toponimlardan hisoblanadi.

Talaliyon mahalla fuqarolar yig'ini

Talaliyon - “Talli Aliyon” so'zining qisqartma shakli. Toponim mazmunida xalifa Ali avlodlari istiqomat qilgan tepalikka ishora mavjud. Ikkinchi talqindan esa, “tepalikdagilar”, “tepalikda yashovchilar” ma'nosi kelib chiqadi. Har ikkala holatda ham arabcha tall (طل) so'zi orqali yasalgan ushbu atamada joyning tabiiy geografik qiyofasi - tepalik, balandlik, tuproq uyumi nazarda tutilgan.

Toponim talal (طلال) so'zi asosida yuzaga kelgan deb taxmin qilinadigan bo'lsa, “vayrona, xaroba” ma'nolarini anglatuvchi joy nomiga aylanadi.

Shuningdek, parrandalarni ovlashda ishlatilgan yordamchi aylana tuzoq tala (تله) so'zi bilan ifoda etilganki, bu moslamaning joy

¹ Қаранг: Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Ташкент: Фан, 1965.

nomiga qay darajada aloqadorligi mushohadaga chorlovchi masala hisoblanadi.

Suvchiqar – joyning geografik o‘rni bilan bog‘lik tarzda vujudga kelgan toponim.

Ko‘liyurun – Yurin qishlog‘i yaqinida joylashgan ko‘l.

Kulonxona mahalla fuqarolar yig‘ini

Kulonxona – kulonlar, ya‘ni otdan kichik, eshakdan kattaroq hayvon turi – xachirlar ko‘p uchraydigan joy. Bu hayvonlarning qo‘lga o‘rgatilgan xillaridan o‘tmishda minish va yuk tashish maqsadida foydalanilgan. “Kulonxona”ni “kulolxona” atamasining o‘zgargan shakli deb taxmin qilsak, ushbu joy qadimda kulollik bilan shug‘ullangan hunarmandlar maskani bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz.

Mokisoz - mokisozlar, moki yasovchilar qishlog‘i. Moki – to‘quv dastgohining ip gazlama to‘qishga moslashtirilgan qismi.

Jizmandi – Juzbandi so‘zining o‘zgarishga uchragan shakli. Juzbandi “muqovaso‘z” ma‘nosini bildirib, kitoblarga “juz”, ya‘ni muqova yasovchi hunarmandlar istiqomat qilgan qishloqqa nisbatan qo‘llanilgan¹.

Baxmalbof – baxmal, ya‘ni patli qalin mato to‘qish bilan shug‘ullangan aholi yashagan qishloq. Lug‘aviy ma‘nosi “baxmal to‘quvchi”.

Rabotito‘pchi – o‘tmishda to‘pchilar, to‘p, zambarak quyuvchilar, yoki to‘p otuvchilar, shuningdek, harbiy qo‘shinning to‘p otuvchilar qismida xizmat qilgan navkarlar istiqomat qilgan qishloq.

Rabotiqalmoq qishloq fuqarolar yig‘ini

Raboti qalmoq - joy va qabila nomini o‘zida mujassam qilgan va ikki komponentdan iborat topoetnonim. Qalmoq elat nomi. Qalmoqlarning bir qismi mo‘g‘ullar istilosi davrida O‘rta Osiyoga kelib qolgan va mahalliy aholi tarkibiga singib ketgan. O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan arab yozuvidagi hujjatlarda رباط قلماق shaklida uchraydi. Rabot toponimi mamlakatimizning barcha hududlarida uchraydi va bu atama “qo‘rg‘on”, “karvonsaroy”, “mehmonxona” ma‘nolarini anglatadi.

Sheyxon – shayxlar istiqomat qilgan qishloq. “Shayxon” atamasi tarkibiga ko‘ra, “shayx+on” qismlariga ajraladi. “On” tojikcha

¹ Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – B.30.

ko‘plik, jamlik affiksi bo‘lib, o‘zbek tilidagi “lar” qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi.

Shix yoki shex kabi turkiy urug‘lar nomi asosida tarkib topgan toponim deb hisoblash ham mumkin. Bunday holda atama etnotoponim mazmunini oladi.

Zarafshon – zamonaviy nom. Vohani sug‘orib turuvchi yirik suv inshooti – Zarafshon daryosi sharafiga nomlangan joy.

Yobuxona – etnotoponim. Yobu qavmi nomidan olingan joy nomi. Yobu (jobu) qabilalari Zarafshonning o‘rta va quyi oqimi, Qashqadaryo vohasiga tarqalgan. Yobg‘u so‘zining qisqarma shakli deb hisoblangan taqdirda, turkiy qabila hukmdorlarining unvonidan hosil bo‘lgan toponimga aylanadi.

Yuk tortuvchi ot fors-tojik tilida “yobu” deyilgan. Atamaning lug‘aviy ma‘nosidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, Yobuxona yuk tortuvchi otlarga ega aholi yashagan qishloqqa qarata ishlatilgan toponim bo‘lib chiqadi.

O‘rta asrlarda quruq yer, bo‘sh maydon “yobis” (يابس) so‘zi bilan ifoda etilgan¹. Ushbu so‘zning atamaga aylangan bo‘lishi mumkinligini ham inobatga olish kerak, deb o‘ylaymiz.

Yangiobod – zamonaviy nom. Yangi tashkil topgan aholi punkti. Tarixiy atama ham bo‘lishi mumkin. Chunki “yangi” so‘zi qo‘shib yasalgan toponimlar o‘tmishda ham bo‘lgan.

Dehoji - hojiqishloq, hojilar qishlog‘i ma‘nosida. Haj amalini bajarganlar salmog‘i ko‘pligidan darak beruvchi atama.

Tikonchi – o‘tmishda aholisi tikan o‘rish bilan shug‘ullangan yoki tikanli hududda joylashgan qishloqqa nisbatan paydo bo‘lgan toponim. Joyning tabiiy geografik holatini bir qadar ifoda etadi. Buxoro vohasining boshqa hududlarida ham uchraydi.

Dehcha mahalla fuqarolar yig‘ini

Dehcha – “qishloqcha”, “kichik qishloq” degan ma‘noni bildiradi.

Sarhang - سرھنگ qo‘mondon, lashkarboshi, harbiy qo‘shin muayyan qismining boshlig‘i kabi harbiy ma‘nolar bilan birga, saroy qorovullarining boshlig‘i kabi ijtimoiy ma‘noga ham ega. Sarhang joy nomi, aniqrog‘i ariq nomi sifatida XVI asr tarixiy hujjatlarida tilga

¹Чехович О.Д. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве.- Ташкент: Издательство АН Уз ССР, 1954.- Б. 241.

olinadi¹. Demak, toponim aslida gidronim asosida tarkib topgan bo‘lib, Sarhang arig‘i yoqasida joylashgan qishloqni anglatgan.

Tor-tor mahalla – atama mazmunida ushbu joyning topografik tuzilishiga ishora mavjud. Ya’ni tor ko‘chalardan iborat mahalla. Bir-biriga jips, hovlilari tutash mahallalar qishloq joylarida yaqin o‘tmishgacha mavjud edi.

Arabxona mahalla fuqarolar yig‘ini

Arabxona – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o‘zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrqa kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrqa yurishlari davrida Damashq va Bag‘dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o‘rnashib oldilar. Movarounnahrdagi sayyidlar va xo‘jalar o‘z kelib chiqishlarini arablar bilan bog‘laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg‘ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho‘jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrqa ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog‘i yuqori bo‘ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q. Arablar o‘tgan asrning 60-70-yillarigacha o‘z tillarini saqlab qoldilar. G‘ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o‘z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo‘lishidan qat’iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

So‘lakiyon – سولک dehqonchilik, ekin-tekin bilan bog‘liq atama. Dehqonchilikda, ayniqsa g‘alla ekish payti yuz beradigan ofatlardan biri².

Podshohi mahalla fuqarolar yig‘ini

Podshohi – mo‘l-ko‘l, ma‘mur, podshohona turmush tarziga ega, to‘kin-sochin yashagan aholi qishlog‘i deb taxmin qilish mumkin.

¹ Иванов П.П. Хозяйство Джуйбарских шейхов. – Москва – Ленинград: Изд-во АН СССР, 1954.- Б. 172.

² Қаранг: Садриддин Айни. Куллиёт. Жилд 12. – Душанбе: Ирфон, 1976. – Б. 363.

Rabotimarjon – marjondek go‘zal, yam-yashil chamanzordek so‘lim rabot ma‘nolarini o‘z ichiga oladi.

Madaniyat Rabot mahalla fuqarolar yig‘ini

Ko‘chkisafed - oq ko‘chki. Tekis joylarda tuproq uyumidan hosil bo‘lgan, aksari hollarda sun‘iy bunyod etilgan tepalik ko‘chki deyiladi.

Losha qishloq fuqarolar yig‘ini

Jonbobo – onoma. Shaxs nomidan olingan.

Begijo‘gi – aslida Begijo‘ga tarzida talaffuz qilinishi va yozilishi kerak. Chunki toponimning ikkinchi qismidagi “jo‘ga” so‘zi “sizot, zax suv oqadigan chuqur ariq” ma‘nosini bildiradi¹. Ushbu toponim mazkur joyning tabiiy joylashuviga muvofiq tarzda vujudga kelgan.

Toponim ikki komponentdan iborat “bek+jo‘gi” so‘zlari birikmasidan tashkil topgan deb qaraydigan bo‘lsak, “jo‘gilar begi” ma‘nosini oladi. Ma‘lumki, lo‘lilar etnik guruhi Buxoro vohasida jo‘gi deb yuritilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu toponimni lo‘lilar istiqomat qilgan joyga ham nisbat berish mumkin.

Oqrabot – “katta rabot” ma‘nosini bildiradi. Oq so‘zi rangni ifoda qilishdan tashqari, biror-bir narsaning hajmi, o‘lchovi, me‘yorini ham anglatadi.

Losha - Buxoro amirligining Janubirud, boshqacha nomi Poyirud tumani hududida, Buxoro shahrining janubida joylashgan mavze. Bir necha ma‘noga ega. Jumladan, “jasad”, “oriq, ozg‘in, zaif odam, jonzot” ma‘nolarini beradi². Jonivorlari ko‘p, ularni ovlash qulay bo‘lgan joy kabi amaliy ma‘nolarga ham ega. Uning o‘zagini tashkil etuvchi losh so‘zidan yasalgan toponim Hisor vodiysida ham uchraydi. Buxoro vohasida qovun, tarvuz, bodring ekilgan paykallardan birinchi, ikkinchi hosilni yig‘ishtirib olgandan so‘ng ularning pishmay qolgan xom qoldiqlari va shu tashlandiq paykalning o‘zi losh deyilgan. Losha toponimining vujudga kelishida ushbu holatlar sabab bo‘lgan bo‘lishi kerak. Toponim o‘tmishda jonzotlar oziqlanish uchun makon qilgan mavzening tabiiy geografik o‘rniga mos tarzda vujudga kelgan, degan fikrni ham ilgari surish mumkin.

¹ Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 23.

² Қаранг: Фарҳанги забони тожики. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – жилд 1.- Б. 606; яна қаранг: Садриддин Айни. Куллиёт. Жилд 12. – Душанбе: Ирфон, 1976.- Б. 184.

Leylak – laylaklar makon qilgan ko‘l atrofidagi kishloq¹. Joyning tabiiy geografik o‘rnini ifoda etuvchi atama.

Beshbo‘ri – toponim ikkinchi qismidagi bo‘ri so‘zi turkiy xalqlarning totem hisoblanadi. Arxaik tasavvurlarning qoldig‘i tariqasida vujudga kelgan ushbu atamada turkiy urug‘lardan birining nomi aks etgan.

Malikon - maliklar, podshohlar istiqomat qilgan qishloq. Yuqori davlat lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan amaldorlar qishlog‘i ma’nosida.

Chappa – qishloq arig‘ining teskari, ya’ni quyidan yuqoriga qarab oqishiga nisbat berib shakllangan toponim bo‘lishi mumkin. Ayrim mavzelarda ariqchalar joyning tabiiy o‘rni va xususiyatidan kelib chiqib, qisqa masofada yuqoriga qarab qazilgan. Bunda qiyalik deyarli sezilmagan va suvning erkin oqishiga ta’sir qilmagan.

O‘rtarabot – o‘rtaliqda joylashgan rabot, qishloq. Bunda qishloqning boshqa qishloqlarga nisbatan joylashgan geografik o‘rni nazarda tutilgan.

Chorrabot – to‘rt rabotdan iborat qishloq. Bir necha rabotli mavze.

Choydori – joydori so‘zining o‘zgargan ko‘rinishi bo‘lib, “mahalliy”, “shu yerli”, “shu yerga xos, shu yerga taaalluqli” kabi ma’nolarni anglatadi. Masalan, mahalliy mevalarga nisbatan “joydori o‘rik, joydori olma” va hokazolar ishlatilgan.

Xo‘jarabot – xo‘jalarga, ya’ni xo‘jalar ijtimoiy qatlamiga mansub aholiga tegishli bo‘lgan, shu toifa aholi yashagan rabot, joy.

To‘xsabo - to‘qsabo bo‘lishi kerak. “To‘qsabo yoki to‘qsoba” amirlikdagi lavozimlardan biri, ya’ni tug‘ (bayroq) ko‘tarib yuruvchi shaxs, amaldor. Belgili xizmat uchun beriladigan harbiy unvon. Shu unvonga ega shaxs istiqomat qilgan qishloq ushbu atama bilan ifoda etilgan.

Darg‘ali – dorug‘ali so‘zining qisqartma shakli. Dorug‘a Buxoro amirligidagi mansablardan biri bo‘lib, “boshliq”, “sarkarda”, qo‘mondon” ma’nolariga ega. Mo‘g‘ullar davrida qaror topgan bu mansabning ijtimoiy funksiyasi davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib bordi. Viloyat, shahar hokimi, shuningdek, soliq yig‘ish ishlari bilan

¹ Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – B.39-40.

shug‘ullanuvchi amaldor dorug‘a deb atalgan. Mazkur toponimda dorug‘a istiqomat qilgan qishloqqa ishora mavjud.

Xumin mahalla fuqarolar yig‘ini

Xumin - agar ikki qismdan iborat joy nomi deb talqin qilinadigan bo‘lsa, “xum” va “in” so‘zlaridan tarkib topgan va “inga o‘xshash xum” yoki “xumdek in” ma‘nolarini beradi, deb hisoblash o‘rinli.

Chakmo – chakmon atamasining tugallanmagan shakli bo‘lishi mumkin. Bunday holatda chakmon tikuvchilar istiqomat qilgan qishloq deb tushunish o‘rinli bo‘ladi.

Bog‘idasht mahalla fuqarolar yig‘ini

Bog‘idasht – “dashtdagi bog‘” ma‘nosini beradi. Dasht hududlarida, cho‘l etaklarida tashkil etilgan bog‘lar atrofida tashkil topgan qishloqlarga nisbatan qo‘llanilgan atama.

Xonqo‘rg‘on – xonning qo‘rg‘oni joylashgan mavze, yoki xonlar shikorga chiqqan, yoki biror joyga tashrif buyurgan paytda qo‘noq vazifasini o‘tagan aholi qo‘rg‘onlari.

Diosiyo – “dehiosiyo” so‘zining buzilgan shakli. Birinchi talqin bo‘yicha, “osiyo qishloq”, yoki “osiyoli, tegirmonli qishloq” ma‘nosini anglatadi. Ikkinchi talqinga ko‘ra, “di” tojikcha “du” - ikki so‘zining o‘zgargan ko‘rinishi deb hisoblanadigan bo‘lsa, toponim “ikki tegirmon, ikki tegirmonli” qishloq ma‘nosini oladi.

Toytepa – shakli toychoqni eslatuvchi tepa bo‘lganligi sabab shu nomni olgan bo‘lishi mumkin. Tayitepa atamasining o‘zgargan shaklidan hosil bo‘lgan toponim deb taxmin qilinsa, “tepaning pasti, qiya qismi” ma‘nosini kasb etadi¹.

Chuqurrabot – chuqurlikda, pastda, quyida joylashgan rabot, qishloq.

Shexlar – shayxlar istiqomat qilgan qishloq. Shix yoki shex kabi turkiy urug‘lar nomi asosida tarkib topgan toponim deb hisoblash ham mumkin. Bunday holda atama etnotoponim mazmunini oladi.

Pat-put - “pat” jun ma‘nosini beradi. Pat - put qishlog‘ida o‘tmishda jun yigiruvchi hunarmandlar istiqomat qilgan. Toponim “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da پوت پت tarzida qayd qilingan².

¹ Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – B. 64.

² Қаранг: Халқ турадиган жойларнинг рўйхати. Ўзбекистон марказий районлаштириш комиссияси нашри. Самарқанд, 1926 йил / Кириш сўзи, араб алифбосидан табдил ва айрим изоҳлар муаллифи Ахтам Аҳмедов. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2017. – Б. 39.

Shexoncha qishloq fuqarolar yig'ini (aslida Shayxoncha)

Shexoncha – to'g'ri talaffuzda Shayxoncha, ya'ni shayxlar yashagan qishloq deyiladi. "Shayxon" atamasi tarkibiga ko'ra "shayx+on" qismlariga ajraladi. "On" tojikcha ko'plik, jamlik affiksi bo'lib, o'zbek tilidagi "lar" qo'shimchasiga to'g'ri keladi.

Tutti xushk – to'g'ri talaffuzda "tutxushk – qurigan tut" ma'nosini bildiradi.

Dehchabegi – "beklar qishloqchasi" ma'nosiga ega. Toponim mazmunida beklar yashagan mo'jaz qishloq ma'nosi ifodalangan.

Sohibkor qishloq fuqarolar yig'ini

Olmazor – joyning tabiiy shart-sharoitini aks ettiruvchi toponim. Unga ko'ra, olmalari ko'p, olmali bog'larga mo'l, olmazordan iborat qishloq.

Mang'iton - etnotoponim. Mang'itlar istiqomat qilgan qishloq. Mang'itlarning ajdodlari XIII asr boshlarida Mo'g'uliston hududida yashagan. XIII asr davomida Dashti Qipchoqqa kelib o'r mashganlar. XIII-XIV asrlarda mang'itlarning katta qismi Volga va Ural daryolari oralig'ida joylashib oladi. Shu davr mobaynida qipchoqlar ta'siri ostida o'z tillarini unutib turk-qipchoq tilini qabul qilishadi. Keyinchalik ular o'zbeklar, qoraqalpoqlar va qisman qozoqlarning etnik tarkibiga kiradi. Mang'itlar hozirgi O'zbekiston hududiga XVI asrda ko'chib o'tadi va o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Ular Buxoro xonligining siyosiy hayotida katta mavkega ega bo'lib, hukmron sulola darajasiga ko'tariladi va 1753-1920-yillarda Buxoroni idora qiladi.

Charos - zamonaviy nom. Joyni charosga, go'zalligiga qiyos qilib tanlangan nom.

Qisqacha xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish o'rinliki, Buxoro tumani hududi tarixan va hozirda ham shahar atrofida joylashganligi bilan boshqa tumanlardan ajralib turadi. Ikkinchi bir jihat, tuman janub tomondan cho'l hududlariga tutashib ketgan va ushbu tabiiy-geografik joylashuv tumandagi ayrim toponim va gidronimlarda o'z ifodasini topgan. Chorbakr me'moriy majmuasining shu tuman hududida qad rostlab turishi tuman ziyorat turizmi salohiyatining o'sishini ta'minlaydi.

Tayanch soʻz va iboralar: tashkil topmoq, tuman hududi, chegaradosh, toponim, etnotoponim, qishloq, tarixiy joy nomi, arxiv hujjatlari, devonxona hujjatlari, shoʻrxok, korxon, maskan, atama, meʼmoriy majmua, soʻz birikmasi, talaffuz, maʼnosini beradi, muzofot, oʻtroq dehqonchilik.

Savol va topshiriqlar

1. Pat-put toponimining lugʻaviy maʼnosini aniqlang?
2. Ashtarxoniy Ubaydullaxon tomonidan Buxoro shahri atrofidagi qaysi qishloqqa asos solingan?
3. Losha toponimi toʻgʻrisida maʼlumot bering?
4. Urganch aholisi ayrim vakillarining Buxoro vohasiga koʻchib oʻtish bosqichlarining oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat?
5. Buxoro tumanining qisqacha tarixidagi asosiy jihatlarga eʼtibor qarating?
6. Arabxon etnotoponimi toʻgʻrisida kengroq maʼlumot bering?
7. “Rabot” atamasi qanday maʼnoni anglatadi?
8. Qavola Mahmud qishlogʻining nomi toʻgʻrisidagi ogʻzaki maʼlumotga eʼtibor qarating?
9. Oʻzingiz yashayotgan koʻcha, mahalla, qishloq nomining maʼnosi va tarixi toʻgʻrisida qisqacha axborot tayyorlang?

3-MAVZU: KOGON TUMANI TOPONIMLARI

3.1. Kogon toʻgʻrisida qisqacha tarixiy maʼlumot

3.2. Mahalla va qishloq fuqarolar yigʻiniga qarashli qishloqlar

3.1.Kogon toʻgʻrisida qisqacha tarixiy maʼlumot

Kogon tumani 1926-yil 29-sentyabrda Bahouddin tumani nomi bilan tashkil etilgan. 1935-yil Kogon nomi berilgan. Maʼmuriy markazi Kogon shahri. Buxoro viloyatining Buxoro tumani, shimolda qisman Vobkent tumani, shimoliy-sharqda Navoiy viloyatining Qiziltepa, sharqda Qorovulbozor tumanlari bilan chegaradosh. Choʻl zonasidagi hududlarida tabiiy konlar, jumladan, gips koni mavjud.

Tuman markazi Kogon shahri eʼtiborga sazovor tarixga ega. Oʻrta asrlarda Kogon oʻrnida shu nomdagi qishloq va somon bozori boʻlgan. XVI asr tarixiy hujjatlarida Kogon atamasi tilga olinadi. Shu

davrda Kogon Buxoroning Rudishahr tumaniga qaragan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, buxorolik Jo‘ybor xo‘jalarining ko‘zga ko‘ringan vakili Xo‘ja Sa‘d (1531-1589) 1568-yil Kogon mavzesida joylashgan unumdor erlarni oldingi egasi Mirzo Mashhadiy valad Abd al-Karim degan shaxsdan sotib olgan¹. Kogon atamasining etimologiyasi to‘g‘risida olimlar, o‘lkashunoslar tomonidan bildirilgan fikrlar taxminiy mazmunga ega bo‘lsa-da, ularning ayrimlarini toponimning vujudga kelishiga asos bo‘lgan deb hisoblash mumkin. Jumladan, o‘rta asrlarda Kogon qishlog‘i joylashgan mavzeda somon bozori bo‘lganligi ushbu qishloqni Kohkon, ya’ni “Somon koni” deb atalishiga sabab bo‘lgan va toponim transformatsiyaga uchrab Kogonga aylangan, deb taxmin qilinadi. Kogon atamasining boshqa variantlari mavjud bo‘lsa-da, ular munozarali. Masalan, Xoqon atamasi shakl va talaffuzda Kogonga yaqinroq, lekin uni to‘la qabul qilish isbotni talab qiladi.

Buxorodan 12 km uzoqlikda joylashgan Kogon XIX asrning 80-yillaridan o‘z davri uchun zamonaviy hisoblangan infratuzilmaga ega ixcham shaharchaga aylana boshladi. Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diplomatik munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi Rossiya siyosiy agentligi 1917-yilga qadar o‘z faoliyatini shu shaharda olib bordi. Zakaspiy temir yo‘lining Kogon orqali o‘tishi shaharga sanoatning kirib kelishiga, savdo banklari bo‘limlarining ochilishi, paxta firmalari, tipo-litografiyalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Shahar Buxoro amirligidagi rus poseleniesiga aylandi. Rossiya imperiyasi ma’muriyati siyosiy agentlik orqali Buxoro amirining faoliyatini nazorat qilib turardi.


Tuman hududi o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk siymolarga maskan bo‘lgan. Naqshbandiya tariqatining Sayyid Amir Kulol, Bahouddin Naqshband kabi mashhur namoyandalari shu tuman hududidagi Suxor va Qasri Orifon qishloqlarida yashab o‘tishgan va Naqshbandiya ta’limotiga asos solishgan.

Kogon tumanida mashhur tarixiy obidalar, me’moriy majmualar mavjud. Jumladan, Bahouddin Naqshband me’moriy majmuasi, Shohmasjid, Shohnajib (Zirobod) masjidi, 1894-1903-

¹ Иванов П.П. Хозяйство Джуйбарских шейхов. – Москва – Ленинград: Изд-во АН СССР, 1954. – Б. 163.

yillarda Amir Ahadxon tomonidan Evropa va Sharq me'moriy uslubida qurilgan saroy. Ular tarixiy obida yanglig' tarovati va maftunkorligi bilan hamon sayyohlarning e'tiborini tortib kelmoqda. Kogon tumani hududidagi ko'plab joy nomlari tarixiy hisoblanadi.

Keyingi to'rt yilda Kogon tumanida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahamiyatga molik qator ishlar amalga oshirildi. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi, axlatni qayta ishlovchi sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, Buxoro-Kogon avtomobil yo'li atrofida ko'p qavatli turar joy binolarining qad rostlashi, "Obod qishloq" dasturi asosida qurilgan kottedjlar, Kogon temir yo'l vokzalini zamonaviy kommunikatsiya jihozlari bilan ta'minlanishi, Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasi atrofida amalga oshirilgan obodonlashtirish ishlari tuman ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilish yasadi.



Kogon tumanidagi mahalla va qishloq fuqarolar yig'ini ro'yxati

№	Mahalla va qishloq fuqarolar yig'ini
1	Niyozhoji
2	Beklar
3	Istiqlol
4	Nurafshon
5	Geofizika (zamonaviy nom)
6	Bahouddin Naqshband

7	Sarayon
8	Siyozpoyon
9	Navro‘z
10	O‘bacho‘li
11	Sorg‘un
12	Mustaqillik
13	Hukumatobod
14	Tuniroq
15	Yangihayot
16	Kogon
17	Suxor
18	Tutikunda
19	O‘rtacho‘l
20	Zirobod
21	Furqat
22	Xo‘jabargi
23	Navzirbod
24	Buxoroyi sharif

3.2. Mahalla va qishloq fuqarolar yig‘iniga qarashli qishloqlar Niyozhoji qishloq fuqarolar yig‘ini

Niyozhoji – onoma. Hoji maqomidagi shaxs yoki Niyozhoji ismli kishi nomidan olingan.

Ganchkash – ganj+kash (گنجکش) so‘z birikmasidan tashkil topgan ikki qismli toponim. Xazina, boylik, mol-mulki ko‘p bo‘lgan aholi manzili tushunchasi bilan sifatlangan joy nomi.

Chanbaron – hayvonlar bo‘yniga osiladigan halqa, gardish “chanbar” (چنبر) deb atalgan. Shu turdagi buyumlar yasovchi hunarmandlar qishlog‘i.

Talchan – talcha atamasining o‘zgargan shakli deb qabul qilinadigan bo‘lsa, toponim “tepacha” ma’nosini ifoda etadi va joyning tabiiy-geografik tuzilishini aks ettiradi.

G‘onchi – etnotoponim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Vadan – ma’nosi noaniq toponim.

Kurjan - ma’nosi noaniq toponim.

Beklar qishloq fuqarolar yig‘ini

Katta masjid – odatiy qishloq masjidlariga nisbatan katta masjidga ega qishloq.

Xo‘ja Fayz – onoma. Shaxs nomini ifoda etuvchi toponim.

Xomi – toponimda sug‘d tili elementlarining uchrashi uning qadimiyligidan guvohlik beradi. Xomi so‘zi Avestodagi Havma ismli qahramon nomining o‘zgargan shakli yoki zardushtiylarning muqaddas ichimligi xeomadan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, degan fikrlar mavjud¹.

Chopiq – chopiq qilingan hududga qarata ishlatilgan atama bo‘lishi kerak. Hududdagi o‘simliklar atrofini chopiq qilish, ya‘ni yumshatish ishlariga e‘tiborli aholi yashaydigan manzil sifatida izohlash mumkin. Toponimga o‘zakdosh “chopqildiq” atamasi qirg‘izlar tarkibidagi nayman qabilasi tarmoqlaridan birini anglatadi². Chopiq atamasi ham qabila nomidan olingan deb tasavvur qilinsa, ushbu joy nomi etnonimga aylanadi. Har ikkala talqinni munozarali tarzda qabul qilish o‘rinli. Istiqbolda qo‘shimcha talqinlar paydo bo‘lishi mumkin, deb o‘ylaymiz.

Jinjak – Buxoro shevasida go‘shtning haddan ziyod qovurilib, qattiqlashib qolgan holatiga qarata qo‘llaniladigan so‘z. Majoziy ma‘noda g‘am-anduhdan kuyish, birovlardan yetgan tashvishlardan azoblanish³. So‘zning toponimga aylanishi e‘tiborni tortadi. Joyning tabiiy sharoitini aks ettirgan atama sifatida vujudga kelgan deb taxmin qilish mumkin. Chunki, dukkakli o‘simliklarning bir turi ham jinjak deb ataladi⁴. Mazkur atama shu turdagi o‘simliklar etishtiriladigan mavzega nisbatan qo‘llanilgan.

Istiqbol mahalla fuqarolar yig‘ini

Berishim – ushbu toponimda ham joyning tabiiy tuzilishiga ishora mavjud. Rish tojik tilida “soqol” ma‘nosini anglatadi. Joy nomidagi rish so‘zi ko‘chma ma‘no kasb etib, o‘sha joyning o‘simliksiz, o‘t-o‘lansiz, tikansiz, tekis yer bo‘lganiga ishora qiladi.

¹ Қаранг: Юсуф Қурбоний, Азизаи Мардон. Зиробод. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2014. – Б. 7.

² Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 60.

³ Маҳмудов М., Бердиев Б. Луғати мухтасари лаҳжаҳои Бухоро. – Душанбе: Дониш, 1989. – Б.275.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 91.

Dehmirzayon - mirzalar qishlog‘i ma’nosini beradi.

Shorabod - “sho‘robod” atamasining buzilgan shakli. Sho‘rlangan erlarning obod qilinishi natijasida shakllangan mavze.

Qatong‘i – giyoh o‘smaydigan yerga, dashtga nisbatan qo‘llanilgan atama.

Xonsaroy - xonning saroyi ma’nosini bildiradi. O‘tmishda xonlarning shahardan tashqarida joylashgan saroylari bo‘lib, ular asosan dam olish, hordiq chiqarish, tabiat bilan uyg‘unlashish orqali sog‘liqni mustahkamlashga mo‘ljallangan. Buxoro mang‘it amirlarining shahardan tashqarida beshdan ortiq saroylari bo‘lib, ularning ayrimlarigina bizgacha yetib kelgan. Saroylar saqlanmagan bo‘lsa-da, ularning tarixan mavjud bo‘lganligidan darak beruvchi toponimlar hanuzgacha yashab kelmoqda.


Ayronchi – ayronchilar, ayron tayyorlovchilar qishlog‘i. Aholi ixtiyorida sigir, buzoqlarning ko‘pligi ushbu maishiy soha bilan shug‘ullanish imkonini bergan.

Qalqondiyor – tabiiy tuzilishiga ko‘ra qalqonni eslatuvchi joyga nisbatan qo‘llanilgan atama.

Choloki – chelaki so‘zining o‘zgarishga uchragan ko‘rinishi, deb faraz qilish mumkin. Chelak tayyorlash kasbi ommalashgan qishloq.

Qasri Orifon - oriflar qasri (qishlog‘i). Bahouddin Naqshband tavallud topgan joy. Maqomot va diniy tazkiralarda keltirilishicha, Qasri Orifon Bahouddin Naqshband tavallud topgan davrgacha Qasri Hinduvon deb atalgan. Naqshbandiya tariqati pirlaridan biri Bobo Samosiy o‘z muridlari hamrohligida shu qishloq yaqinidan o‘tayotganda: “Bu tuproqdan tariqatda peshqadam bo‘ladigan va xizmat qiladigan orif bir erning bo‘yi (isi) kelmoqda”, degan ekanlar. Uch kun o‘tib, Bahouddin Naqshband tug‘ilgach, uni duo olish uchun Bobo Samosiy oldiga keltirganlarida ul hazrat Sayyid Amir Kulolga Bahouddinni ko‘rsatib shunday degan ekanlar: “Bu zot bizga mansubdir. Uni ma’naviy farzandlikka qabul qildik. Bu zot kelajakda tariqatimizning peshvosi bo‘ladi. Qasri Hinduvon maskani bundan keyin Qasri Orifon, ya’ni Oriflar qasri bo‘ladi”¹.

¹ Қаранг: Хожа Абдулхолик Гиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний / Таржимон, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари Сайфиддин Сайфуллох, Нодирхон Ҳасан. – Тошкент; Янги аср авлоди, 2005. – Б. 47- 48; Сайфиддин Сайфуллох. Буюклар



Qasri Orifondagi Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasi

Qaliqon – qalqon soʻzining oʻzgargan shakli sifatida izohlash mumkin. Bunda, ehtimol, joyning tabiiy geografik joylashuvi, qalqonmonandligi nazarda tutilgan.

Nurafshon qishloq fuqarolar yigʻini

Obod chuqurkoʻl – joyning geografik oʻrniga uygʻun tarzda ishlatilib, Chuqurkoʻl qishlogʻining obod maskanga aylanganini bildiruvchi atama.

Choʻkati – choʻk(k)a tushmoq, choʻkkalamoq, tiz choʻkmoq maʼnolari asosida yasalgan atama deb faraz qilish mumkin. Atrof hududga nisbatan pastroqda, choʻkkan mavzeda joylashgan qishloq nazarda tutilgan boʻlishi kerak.

Geofizika mahalla fuqarolar yigʻini

(geofiziklar ekspeditsiyasi idorasi joylashgan hamda ishchi-xodimlari istiqomat qiladigan hudud)

Saribozor - bozorboshi maʼnosida. Tarixan bozorning boshlanish joyida qaror topgan qishloq. Hozirda bu joyda bozor mavjud boʻlmasa-da, atama oʻz tarixiylikini saqlab qolgan.

Toshbogʻa – “toshtugun”, “toshbogʻich”, “toshbogʻlam” kabi maʼnolar kasb etib, joyning geografik, tabiiy oʻrnini aks ettiradi.

Saidobod – paygʻambar avlodlari sanalgan sayyidlar tabaqasiga mansub shaxslar tomonidan obod qilingan joy maʼnosini anglatadi. Shuningdek, Said ismli shaxs nomi bilan ataluvchi qishloq boʻlganligi ham ehtimoldan xoli emas.

Dechaobod - “dehchaobod” atamasining qisqacha shakli, yaʼni obod qishloqcha maʼnosida.

Bahouddin Naqshband qishloq fuqarolar yig'ini

Sarjo'yazor – mozorga qarab oqadigan ariqning boshlanish joyi ma'nosini beradi.

Po'lotchi - po'lat toblovchi ma'nosida. Shuningdek, po'lotchi o'zbek urug'laridan birining nomi ekanligini inobatga olgan holda, ikkinchi talqinni ham qabul qilish mumkin.

Kirakashxona – o'tmishda kirakashlik bilan shug'ullangan aholi yashagan qishloq.

Saribozor - bozorboshi ma'nosida. Tarixan bozorning boshlanish joyida qaror topgan qishloq. Hozirda bu joyda bozor mavjud bo'lmasa-da, atama o'z tarixiyligini saqlab qolgan.

Ro'yibozor - bozor yuzasi ma'nosida. Bozor hududida joylashgan qishloq nazarda tutilgan.

Labijo'y - ariq labi (qirg'og'i) ma'nosini bildiradi. Ariq labida joylashgan qishloq.

Rabotipoyon - quyi rabot. Biror bir geografik ob'ektga nisbatan quyida joylashgan mavze.

Kulolon - kulollar qishlog'i. O'lkamizda keng tarqalgan kulolchilik kasbi bilan shug'ullangan aholining istiqomat manzili.

Chorchinor – to'rtchinor. Bu qishloq Bahouddin Naqshband yashagan mavzening g'arbida joylashgan. O'z nomiga mos ravishda bu yerda eski, katta chinorlar hamon qad ko'tarib turibdi. Rivoyatga ko'ra, Bahouddin Naqshband shu chinorlarga suyanib, dam olgan ekanlar.

Bog'ibolo - yuqoribog', ya'ni yuqori, shimol tomonda joylashgan bog' ma'nosida.

Qozoqovul - qozoq millatiga mansub aholi istiqomat joyi. O'tmishda cho'l etagida joylashgan. Davrlar o'tishi bilan atrofida o'troq aholi o'r'nashib, ovul sifatidagi ijtimoiy-maishiy ahamiyatini yo'qotgan va o'troq qishloqlar bilan aralashib ketgan.

Sarayon qishloq fuqarolar yig'ini

Sarayon qo'rg'oni - "saroyiyon", ya'ni saroy urug'iga mansub aholi istiqomat qilgan joy, qo'rg'on ma'nosida. etimologik jihatdan tahlil qilinadigan bo'lsa, "sara" so'zi tojikcha "yaxshi" ma'nosini beradi. Unda toponim "yaxshilar qo'rg'oni" ma'nosini anglatadi.

Kari - "qori" so'zining buzib ifoda qilinishi natijasida o'zgargan toponim yoki "qari"- keksa, ya'ni joyning qadimiyligini bildiruvchi geografik ob'yekt sifatida iste'molda bo'lgan atama.

Toponim asli “qarya” (قرية) atamasidan yasalgan, deb hisoblaydigan bo‘lsak, “qishloq” ma’nosini kasb etishini inobatga olish kerak.

Siyozpoyon qishloq fuqarolar yig‘ini

Siyozpoyon - Sayozpoyon deb taxmin qilinsa, quyida joylashgan sayoz (chuqur bo‘lmagan) joy ma’nosi kelib chiqadi.

Joniston – (جانستان) lug‘aviy ma’nosi “jon oluvchi”. Ko‘chma ma’nosi ko‘rkamligi, jozibardorligi bilan jonga orom berib, hayratga soluvchi makon. Joniston asl ma’noda qo‘llanilsa, teskari mazmun kelib chiqadi. Ya’ni murakkab tabiiy tuzilishga egaligi bilan yashash va jon saqlash uchun noqulay joy.

Siyozibolo - Sayozbolo deb taxmin qilinsa, yuqorida joylashgan sayoz (chuqur bo‘lmagan) joy ma’nosini beradi.

O‘zbekobod – o‘tmishda o‘zbek qavmlari istiqomat qilgan obod qishloq.

Chorxona - to‘rtxona ma’nosida. O‘tmishda aksar to‘rt xonali hovlilardan iborat bo‘lgan qishloq.

Dedaroz – dehidaroz, ya’ni “uzun qishloq” ma’nosini bildiradi. Joyning geografik tuzilishiga nisbat berib vujudga kelgan atama.

Navro‘z mahalla fuqarolar yig‘ini

Jarqo‘rg‘on – lug‘aviy ma’nosi “pastdagi, pastda joylashgan qo‘rg‘on”.

Oqchamamat – ikki qismdan iborat joy nomi. Oqcha yoki aqcha pul, zar ma’nolarini anglatadi. Mamat esa “Muhammad”ning kisqartma shakli va shaxs nomini bildiradi. Mamat ismli badavlat, puldor shaxs yashagan qishloq bo‘lganligidan dalolat beradi.

Farovon – obod va farovon joy ma’nosida.

Dashtobod – dasht etagida, dashtga yaqin yerda joylashgan obod mavze.

Xo‘chkob – xalq orasida Xo‘ja Axbori Kabir nomi bilan mashhur afsonaviy shaxsning mozori joylashgan qishloqqa nisbatan qo‘llaniladigan atama. Ba’zan “Qo‘shka‘b” tarzda talaffuz qilinadi. Bu joy baland tabiiy tepalikdan iborat bo‘lib, keyinchalik mozorga aylantirilgan. Ayrim arxeologlar tepalik qadimda qo‘rg‘on bo‘lgan, degan fikrni bildiradilar. Tepalikning quyi qismida afsonaviy Xo‘ja Axbori Kabirning 12 metrlik ramziy qabri bor. Arxeologik tadqiqotlar natijasida qabr ichida inson jasadi mavjud emasligi aniqlandi. Tepalikda epigrafik yodgorlik namunalari – ko‘plab qabrtoshlar

mavjud va ularning ayrimlari olimlar tomonidan o‘rganilgan. Tepalik oldida Mustaqilik yillarida qurilgan masjid mavjud.

O‘bacho‘li mahalla fuqarolar yig‘ini

Qalluq - “qarluq” etnotoponimining buzilgan shakli bo‘lishi mumkin.

Qarshilik - Qarshi tomonlardan kelib qolgan kishilar istiqomat qiladigan joy. Tumanda o‘sha taraflardan ko‘chib kelgan aholi salmog‘i e‘tiborga molik. Ayniqsa Qasri Orifon va uning atrofidagi qishloqlarda bunday aholi ko‘rsatgichlari muayyan miqdorni tashkil etadi.

Obodqipchoq - qipchoq urug‘larining obod qishlog‘i ma‘nosida.

Buyrak – etnotoponim. O‘zbek urug‘laridan birining nomi. Buyrak inson tanasidagi peshob hosil qiluvchi va uni ajratuvchi loviyasimon juft a‘zo. Ba‘zi hayvonlarning shunday a‘zosidan pishirilgan taomga ham buyrak deyilgan. Mazkur atamaning joy nomiga aylanishi uchun shu xildagi taom tayyorlovchi va iste‘mol qiluvchi aholining mashg‘uloti sabab bo‘lganligi ehtimol. Lekin buyrak atamasi ko‘proq etnik nomni anglatadi.

Demillion – “dehimavlaviyon”, ya‘ni mavlaviylar yashagan qishloq atamasining o‘zgargan shakli deb hisoblash mumkin.

Tang‘it - mang‘it etnotoponimining noto‘g‘ri ifodasi bo‘lishi mumkin. Mang‘itlar to‘g‘risida ushbu kitobning boshqa sahifalarida ma‘lumot berilgan.

O‘bazulfiqor - “Zulfiqor qishlog‘i” degan ma‘noga ega bunday ikki komponentli toponimlar ilmiy tilda topo+ononim deb ataladi. Ya‘ni birinchi komponenti joy, ikkinchisi shaxs nomi bilan ataluvchi joy nomlari. “O‘ba” so‘zi qipchoq shevasida “qishloq” ma‘nosini bildiradi. Zulfiqor shaxs nomini anglatgan bo‘lishi ham mumkin. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, xalifa hazrat Alining qilichi “zulfiqor” deb atalgan. Ba‘zan, u yoki bu joyning geografik shakliga qarab unga nom berilgan. O‘bazulfiqor qishlog‘i trayektoriyasi qilichsimon bo‘lgani sabab unga shu nom berilgan bo‘lishi mumkin. Ikkinchi varianti “Zulfiqorning qishlog‘i” ma‘nosini beradi. Bunda Zulfiqor ismli qaysidir shaxsning nomiga ishora mavjud.

Yobi – etnotoponim. Yobu (jobu) qavmi nomidan olingan toponim. Yobu qabilalari Zarafshonning o‘rta va quyi oqimi, shuningdek, Qashqadaryo vohasiga tarqalgan. Payariq, Pastedarg‘om, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, G‘ijduvon va Buxoro vohasining ayrim

tumanlarida istiqomat qilgan. Yobis atamasining qisqartma shakli deb taxmin qilinsa, “quruq yer” ma’nosini bildiradi. Bu to’g’rida yuqorida kengroq ma’lumot berildi.

O‘ba cho‘li - cho‘l etagidagi qishloq ma’nosida. O‘tmishda bu qishloq cho‘lga yaqin bo‘lgan. Lekin hozirgi geografik o‘rniga ko‘ra madaniy hududlar bilan uyg‘unlashib ketgan manzilga aylangan.

Qumrabod – qumloq mavzeda joylashgan rabod. Toponim mazmunida uning o‘tmishdagi holati o‘z aksini topgan.

Sorg‘un mahalla fuqarolar yig‘ini

Sug‘diyona – Qashqardaryo va Zarafshon daryolari orasidagi tarixiy hudud. Aslida Sug‘d deb atalgan, yunon manbalarida Sug‘diyona tarzida tilga olinadi. Yunonlar Samarqand shahriga nisbatan ham shu atamani qo‘llashgan. Sug‘d atamasining ma’nosi borasida turlicha talqinlar mavjud. So‘z, so‘xtan so‘zlari asosida yasalib, “kuymoq, yonmoq, porlamoq”, ya’ni zartushtiylar uchun muqaddas sanalgan olovda yonib poklanmoq ma’nolarini anglatadi, degan fikr, shuningdek, “namli, unumdor yer” ma’nolarini bildiradi, degan izoh ham mavjud.

Kogon tumanida tashkil topgan yangi aholi punktiga zamonaviy nom sifatida berilgan.

Sorg‘un – etnotoponim. Turkiy urug‘lardan birining nomi deb taxmin qilinadi.

Oynasoz - oyna yasovchi ustalar yashagan qishloq.

Katta Org‘un – etnotoponim. Arg‘un qabilasi vakillari yashagan qishloq. Arg‘un, arg‘in qadimgi urug‘lardan birining nomi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk”¹ asarida arg‘u tarzida uchraydi. Ular o‘tmishda Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm hududlarida yashagan.

Parakti – parrakchi (پرک) so‘zining buzib talaffuz qilinishidan paydo bo‘lgan joy nomi, degan farazni ilgari surish mumkin. Tegirmon parragi, shuningdek, arava gardishli g‘ildiraklarini asosiy metall o‘q bilan bog‘laydigan parrak yasovchi ustalar qishlog‘i.

Asalxo‘ja – onoma. Shaxs nomini ifoda etadi.

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк / Солих Муталлибов таржимаси асосида нашрга тайёрловчи Қосимжон Содиков. – Тошкент: Ғафур Ғуллом нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

Surxiyon – qizillar ma’nosini bildiradi. Mazkur maskanda mavjud qizil narsalar – qizil kiyim, qizg‘ish tuproq, qizil olma va hokazolarga ishora tarzida tarkib topgan joy nomi.

Mustaqillik mahalla fuqarolar yig‘ini

Ko‘rak – yetilmagan paytida sovuq urgan, ochilmay qolgan ko‘sak. Atamaning toponimga aylanishi joyning tabiiy shart-sharoiti bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Miyonko‘l – o‘rtako‘l, ya’ni ko‘lning o‘rta qismi ma’nosini bildiradi. Atrofi ko‘l bilan o‘ralgan mavzening tabiiy geografik o‘rnini ifoda etuvchi toponim.

Eshmatlar – o‘tmishda eshmat ismli bir guruh insonlar istiqomat qilgan qishloq, degan farazni asos sifatida o‘rtaga tashlash mumkin.

Allaberdi – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi qishloq.

Jaloyirobod - etnotoponim. Jaloyir urug‘lari obod qilgan joy ma’nosida. Turk-mo‘g‘ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik qabilalar uyushmasi. XII asr oxiri XIII asr boshlarida jaloyirlarning salmoqli qismi Mo‘g‘uliston hududidan Ettisuv va Movarounnahrning ayrim viloyatlariga kelib o‘rnashadilar. XIII-XIV asrlarda katta bir guruhi Ohangaron vodiysida yashagan. Amir Temur hukmronligining dastlabki davrida jaloyirlarning boshqa bir qismi Zarafshon bo‘ylariga ko‘chib o‘tadi.

Hukumatobod mahalla fuqarolar yig‘ini

Hukumatobod – hukumat tomonidan obod qilingan joy ma’nosida.

Batosh – toponimni “betosh” atamasining o‘zgarishga uchragan shakli deb hisoblash uning lug‘aviy ma’nosini “toshsiz”, “toshdan xoli joy” deb qabul qilish imkonini beradi.

Ilqibolon - aslida Yilqibolo, ya’ni “yilqidan yuqoridagi joy” bo‘lishi kerak. Nomiga ko‘ra, chorvador aholiga yaqin hududda, cho‘l etagida joylashgan mavze.

Sabiyon - “sabi”, “saby” so‘zi fors-tojik tilida ikki xil ma’noni beradi. Uning arabcha sin (س) va sod (ص) harflari bilan yoziladigan shakllari mavjud. Sin bilan سبى (sabi) shaklida yozilsa, “asir, tutqun” ma’nosini beradi. Sod bilan صبى (sabi) ko‘rinishida bo‘lsa, “go‘dak, bola” ma’nosiga ega bo‘ladi. Demak, Sabiyon – asirlar, tutqunlar yashagan qishloq yoki “bolalar qishlog‘i” ma’nolarini anglatadi.

Yuqori Qo‘ng‘irot - etnotoponim. Qo‘ng‘irot urug‘iga mansub aholi yashagan qishloq. Qo‘ng‘irotlar yirik o‘zbek qabilalaridan biri. XIII asrda Chingizxon qo‘shinlari bilan Movarounnahrda kelib o‘rnashganlar. XIV asrdan ularning butun O‘rta Osiyo bo‘ylab tarqalish jarayoni boshlandi. O‘zbekistonning janubiy hududlari, Zarafshon, Xorazm vohalarida istiqomat qilishgan.

Chorbog‘kedi - chorbog‘kadi, ya‘ni qovoq ekiladigan chorbog‘, yoki qovoqmonand, ya‘ni qovoqqa o‘xshash chorbog‘ bo‘lishi mumkin. Buxoro shevasida qovoq “kadi”, “kadu” (كدو) deb ataladi.

Tuniroq mahalla fuqarolar yig‘ini

Havzaktepa – hovuz bo‘yida joylashgan tepa, yoki hovuzchali tepa ma‘nosida.

Tuniroq - toponimning ma‘nosini Iroq tuni tarzida talqin qilish mumkin. Lekin “tuniroq” so‘zi asosida yasalgan toponim deb hisoblash ham imkoniyatdan tashqari emas. Bunday holatda “uzun tun” ma‘nosi hosil bo‘ladi va uzun tunli, tuni uzoq qishloq nazarda tutilganligi to‘g‘risidagi faraz yuzaga keladi.

Nishovur – Nishopur shahriga taqlid tariqasida paydo bo‘lgan toponim deb taxmin qilinadi.

Perosta – پيراسته fors - tojik tilidan olingan va “orasta”, “go‘zal”, “tartibga solingan” kabi ma‘nolarni anglatadi. U yoki bu joyning tartibga solingani, jumladan, daraxtlarining ayrim shoxlari qaychilanib, chiroyli shakl berilgani, yerlari begona o‘tlardan tozalangani va hokazolar ushbu atama orqali ifodalangan.

Galajo‘y – ikki tarkibli joy nomi. Gala - “qishloq”, jo‘y - “ariq” so‘zlari birikmasidan tashkil topgan ushbu toponim “qishloq arig‘i” ma‘nosini bildiradi.

Yangihayot qishloq fuqarolar yig‘ini

Chorobodbog‘ - to‘rt obod bog‘ ma‘nosini beradi.

Qalqon - qalqon so‘zining o‘zgargan shakli sifatida izohlash mumkin. Bunda, ehtimol, joyning tabiiy geografik joylashuvi, qalqonmonandligi nazarda tutilgan. Yuqorida izohlanganidek, tumanning boshqa hududlarida ham shu nomdagi qishloq mavjud.

Qizilolma – qizil olmalarga boy mavze. Yetishtiriladigan meva turlarining aksariyatini qizil rangli olmalar tashkil qiluvchi qishloqni nazarda tutuvchi atama.

Turkman o‘g‘li – etimologiyasiga ko‘ra “turkmanning o‘g‘li” ma’nosini bildiradi. Keng ma’noda esa turkmanlar istiqomat qilgan qishloq.

Ko‘lto‘ri – ko‘l chetida joylashgan qishloq ma’nosini anglatadi.

Qayraqon – qayroqlar ko‘p bo‘lgan, qayroqzordan iborat mavze.

Shexoncha - shayxoncha toponimining o‘zgargan shakli. Shayxlar yashagan qishloqcha. “Shayxon” atamasi tarkibiga ko‘ra “shayx+on” qismlariga ajraladi. “On” tojikcha ko‘plik, jamlik affiksi bo‘lib, o‘zbek tilidagi “lar” qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi.

Shix yoki shex kabi turkiy urug‘lar nomi asosida tarkib topgan toponim deb hisoblash ham mumkin. Bunday holda atama etnotoponim mazmunini oladi.

Kogon qishloq fuqarolar yig‘ini

Mallapo‘sh - malla, sariq kiyim kiyib yuruvchilar qishlog‘i. Shunday rangli kiyim kiyib yuruvchi toifalar asosan Qarshi taraflardan kelib qolgan.

Hofizlar – Qur‘on tilovat qiluvchi hofizlar yashagan qishloq.


Arabxona – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o‘zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrda kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrda yurishlari davrida Damashq va Bag‘dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o‘rnashib oldilar. Movarounnahrda sayyidlar va xo‘jalar o‘z kelib chiqishlarini arablar bilan bog‘laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg‘ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho‘jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrda ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog‘i yuqori bo‘ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q. Arablar o‘tgan asrning 60-70-yillarigacha o‘z tillarini saqlab qoldilar. G‘ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o‘z ona tili – arab tilini unutkanlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo‘lishidan qat’iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab

qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Uyrot - etnotoponim, qabila nomidan olingan. Aslida Oyrot bo‘lishi kerak. Ular mo‘g‘ullar tarkibida alohida etnik guruhni tashkil qilgan. Oyratlarning Movarounnahrda kelishi mo‘g‘ullar istilosi davrida yuz beradi. Oyratlar mo‘g‘ullar armiyasining chap qanotida xizmat qilgan. Mamlakatimizning boshqa hududlarida ham ushbu nomdagi toponimlar uchraydi.

Suxor mahalla fuqarolar yig‘ini

Suxor - Naqshbandiya tariqatining yirik vakili Sayyid Amir Kulol tavallud topgan va yashagan qishloq. Toponim ma‘nosi yuzasidan ayrim mulohazalarni bildirmoqchimiz. Bizningcha, ushbu atama fors-tojik tilidagi saxra (صخره), ya‘ni xarsangtosh, yoki saxo (سَخَا) – saxovat, muruvvat so‘zlarining fonetik o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan. Suxor qishlog‘i o‘tmishda cho‘lga yaqin hududda joylashgani tufayli bir qismi xarsangtoshlar bilan qoplangan. Shuningdek, qishloqda muruvvatli insonlar aksariyatni tashkil etganiga nisbat berilib, masokinlar, ya‘ni istiqomat ahlining ijobiy xislati toponimga aylangan.



Suxor qishlog‘idagi Sayyid Amir Kulol maqbarasi

Naymancha - etnotoponim, qabila nomidan olingan. Mo‘g‘ulcha nayma, ya‘ni “sakkiz” degan ma‘noni bildiradi. Atama mamlakatimizning barcha hududlarida uchraydi. Naymanlar qabila sifatida o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, no‘g‘ay, oltoy xalqlari tarkibiga kirgan. O‘zbek naymanlari XIX asrda uch yirik urug‘ga bo‘lingan: qo‘shnamg‘ali, sadirbek va uvoxtamg‘ali. Shuningdek, boshqa bo‘laklarga ham bo‘lingan.

O‘rtakent - o‘rta qishloq. Atrof qishloqlarga nisbatan o‘rtada joylashgani nazarda tutilib tashkil topgan atama.

Xo‘jayakshaba – “bir kechada xo‘ja” ma’nosini beradi. Toponimning vujudga kelishi to‘g‘risida qishloq ahli orasida quyidagi rivoyat yuradi. Emishki, o‘tmishda bir yetim yigit juda nochor ahvolda kun kechirar, qanchalik mehnat qilmasin, nochorlikdan xalos bo‘lish yo‘llarini qidirmasin, biri ikki bo‘lmas ekan. Oxiri najot izlab bir fol ochuvchiga murojaat qilibdi. Folbin unga o‘z otasining kasbi bilan shug‘ullansa nochorlikdan xalos bo‘lishi, muhtojlikdan qutulishi mumkinligini bashorat qilibdi. Otasi esa o‘g‘ri bo‘lgan ekan. Shunga muvofiq, u bir qishloq masjidiga o‘g‘irlikka tushibdi. Masjiddagi gilamni yig‘ishtirayotgan paytda, ittifoqo Bahouddin Naqshband namoz o‘qish uchun o‘z muridlari bilan shu masjidga tashrif buyuribdilar. Yigit qo‘lga tushmaslik uchun darhol o‘zini gilamga o‘rab yotib olibdi. Namoz tugagach, Bahouddin Naqshband muridlarning soni negadir birtaga ortiqligini, masjidda yana kimdir borligini sezibdilar. Xullas, yigit fosh bo‘libdi va boshidan kechirganlarini so‘zlab beribdi. Shunda Bahouddin Naqshband unga Qur’onni yod olishni maslahat beribdilar va u bir kechada Kur’onni yodlab, Haq yo‘liga yuz buribdi va xo‘ja maqomiga ko‘tarilibdi. U yashagan qishloq Xo‘jayakshaba, ya’ni “bir kechada xo‘ja”, “bir kechada xo‘jaga aylangan”, deb atala boshlabdi¹.

Xo‘ja shayxlar – xo‘jalar ijtimoiy tabaqasiga mansub shayxlar istiqomat qilgan qishloq.

Boqimirzo – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi joy nomi.

Xo‘jalarkent – xo‘jalar istiqomat qilgan qishloq.

Yaglov – yaylov so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lishi mumkin.

Xo‘jasarmon pok – murakkab etimologiyaga ega toponim. Mazmuniga qiyos qilinsa, xo‘jalar tabaqasiga mansub pokdomon, halol, dinu diyonatlilik kabi sifatlar bilan ziynatlangan shaxs qishlog‘i ma’nosi kelib chiqadi.

Xonzi – mazkur toponim bilan o‘zakdosh va unga shaklan yaqin bo‘lgan ikki komponentli “xoni+zeh” (خان زه) atamasini “xonzi”ning o‘zgargan shakli deb qabul qiladigan bo‘lsak, fors-tojik tilidan olingan xoni-hovuz, zeh-lab, chekka, ya’ni “hovuz labidagi,

¹Ушбу маълумотлар шу қишлоқда истиқомат қилувчи тарихчи олима Дилноза Жамоловадан олинди.

hovuz chekkasidagi” qishloq ma’nosi hosil bo’ladi. Shuningdek, “xonning izi”, ya’ni “xon, hukmdor qadami tekkan joy” ma’nosida ham talqin qilish mumkin.

Vodikcha - vodiycha so‘zining o‘zgarishi natijasida shakllangan joy nomi, degan taxmin haqiqatga yaqinroq. Shuningdek, Amu-Buxoro kanalining bir qismida joylashgan vodnik nomli suv inshooti bilan bog‘liklik tomoni borligi va ushbu atamaning zamonaviy mazmunga egaligi ehtimoli mavjud.

Tutikunda mahalla fuqarolar yig‘ini

Tutikunda – xalq orasida Tutkunda, ya’ni tutning kundasi tarzida qo‘llaniladi.

Jomard - javonmard, ya’ni jasur, qo‘rqmas yigit ma’nosiga ega. Shunday shaxslar istiqomat qilgan qishloq.

Shexon – shayxlar yashagan qishloq. “Shayxon” atamasi tarkibiga ko‘ra “shayx+on” qismlariga ajraladi. “On” tojikcha ko‘plik, jamlik affiksi bo‘lib, o‘zbek tilidagi “lar” qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi.

Shix yoki shex kabi turkiy urug‘lar nomi asosida tarkib topgan toponim deb hisoblash ham mumkin. Bunday holda atama etnotoponim mazmunini oladi.

Kaftarxona – nomiga ko‘ra, kabutarlar (kaptarlar) makon qilgan manzil. Turkiycha kaft so‘zi orqali yasalgan toponim deb qaralsa, kaftdek kichkina joy nazarda tutilganligi aniq bo‘ladi.

O‘rtacho‘l mahalla fuqarolar yig‘ini

Janafar – etnotoponim. Turkiy urug‘lardan birining nomi.

O‘rtacho‘l – cho‘l o‘rtasidagi qishloq.

Kogon shahri toponimlari

Fayzibaland – fayzi-barakasi baland, ma‘mur, obod va farovon joyga nisbatan qo‘llanilgan atama.

Zirobod mahalla fuqarolar yig‘ini

Zirobod – Zo‘robod so‘zining o‘zgargan shakli. Aholi qattiq mehnat qilib, ko‘p kuch sarflab sho‘r, tashlandiq yerlarni obod qilishi natijasida ushbu mavze “Zo‘robod” nomini olgan. Pastda, quyida joylashgan obod joy ma’nosini ham bildiradi¹.

Amirobod - amir, hukmdor obod qilgan maskan. Shuningdek, hukmdor xonadoniga tegishli ekin, ziroat yerlari.

¹ Юсуф Курбоний, Азизаи Мардон. Зиروبод. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2014. – Б.5.

Furqat mahalla fuqarolar yig'ini

Sariosiyo - tegirmonboshi ma'nosida. Tegirmonning boshlanish joyida qaror topgan qishloq. Toponim vohaning boshqa tumanlarida ham uchraydi.

Xo'jabargi mahalla fuqarolar yig'ini

Xo'jabargi – xo'jaga ergashgan, xo'janing etagidan tutgan kabi ijtimoiy ma'no kasb etadi. Shuningdek, urug', ijtimoiy tabaqa singarilarga qo'llanilgan atama sifatida ham talqin qilish mumkin.

Navzirobod mahalla fuqarolar yig'ini

Navzirobod – Yangizirobod.

Bog'ishamol – yoqimli shamol esib turadigan xush manzarali joy.

Buxoroyi sharif mahalla fuqarolar yig'ini

Azizobod – onoma. Shaxs nomini ifoda etuvchi toponim. Makonning obodligi ushbu shaxs bilan bog'lanadi.

Qisqacha xulosa

Kogon tumani tarixiy toponimlari rang-barangligi bilan diqqatga sazovor. Tumanda tarixiylik va zamonaviylik bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Rossiya imperiyasi siyosiy agentligi mahkamasi joylashgan Kogon shahrida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus tarixiy atamalari, jumladan, sanoat atamalari vujudga kelgan bo'lsa-da, davr o'tishi bilan ular o'z ahamiyatini yo'qotdi. Tuman hududidagi Bahouddin Naqshband, Sayyid Amir Kulol me'moriy majmua va ziyoratgohlari nafaqat Buxoro viloyati, balki butun mamlakatimiz faxri sanaladi.

Tayanch so'z va iboralar: shahar, viloyat, tuman ma'muriy markazi, mahalla fuqarolar yig'ini, tabiiy kon, somon bozori, Rudi shahr, etimologiya, mavze, transformatsiya, temir yo'l, tarkibiy qism, manzil, saroy, anglatmoq, tariqat piri, geografik o'rni, tabiiy holati, obod joy, istiqomat manzili.

Savol va topshiriqlar

1. Sovet davridagi rayonlashtirish (tumanlashtirish) jarayonida Kogon tumani hududiga dastlab qanday nom berilgan?
2. Kogon atamasi etimologiyasi to'g'risida o'lkashunoslar tomonidan bildirilgan fikrlarni qiyosiy tahlil qiling?
3. Qasri Hinduvon atamasining Qasri Orifonga aylanish tarixini so'zlab bering?
4. Sorg'un etnotoponimi to'g'risida ma'lumot bering?

5. Sayyid Amir Kulol tavallud topgan qishloqning nomi?
6. O'bacho'li mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli ayrim qishloqlar nomini aytib bering?
7. Xo'chkob toponimi to'g'risidagi afsona va haqiqatni aniqlang?
8. Ma'nolari noaniq toponimlar lug'aviy ma'nosini aniqlashga va bu borada o'z fikringizni ilgari surishga harakat qiling?
9. O'zingiz yashayotgan ko'cha, mahalla, qishloq nomining ma'nosi va tarixi to'g'risida qisqacha axborot tayyorlang?

4-MAVZU: QOROVULBOZOR TUMANI TOPONIMLARI

4.1.Qorovulbozor tumanining tashkil topishi to'g'risida umumiy ma'lumot

4-2.Mahalla va qishloq fuqarolar yig'ini tarkibidagi yaylov, qishloq, ko'chalar

4.1.Qorovulbozor tumanining tashkil topishi to'g'risida umumiy ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Prezidiumining 1993-yil 12-yanvardagi "Buxoro viloyati tarkibida Qorovulbozor tumanini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan viloyatda yangi tuman – Qorovulbozor tumani tashkil etildi. Tuman janubdan Qashqadaryo viloyatining Muborak, g'arbdan Buxoro viloyatining Olot, shimoliy-g'arbdan Kogon tumanlari, shimoldan Buxoro tumani, sharqdan Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlari bilan chegaradosh. Rel'yefi, asosan, tekislik bo'lib, adir, qir va kumli cho'l, barxanlar, taqir, sho'rxoklardan iborat. Asrlar davomida sahro kengliklari chorvadorlar uchun yaylov, savdogarlar va harbiy qo'shinlar o'tadigan manzil-makon bo'lib kelgan. XII asrga oid Toshquduq, XVI asrga mansub Qorovulbozor va Bo'zachi sardobalari, rabot va karvonsaroy qoldiqlari tuman hududi ko'hna tarixga guvoh ekanligini ko'rsatadi. O'tgan asrning 80-yillari Qorovulbozor cho'l massivini o'zlashtirish paytida Bo'zachi qishlog'i atrofidagi yerlardan zardushtiylik diniga mansub sopol suyakdon topildi.

Tumandagi toponim, gidronimlarning kelib chiqishi tumanning geografik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Qorovultepa, Nog‘oratepa, Qo‘riqtepa, Setalantepa, Avliyotepa kabilar shular jumlasidandir. Masalan, Nog‘oratepa nog‘oraga o‘xshashligi uchun shu nomni olgan. Qo‘riqtepa o‘tmishda hukmdorlarning yoz mavsumidagi qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan. Setalantepa uch tepalikning birikuvidan hosil bo‘lganligi bois shunday atalgan. Avliyotepa toponimining paydo bo‘lishi rivoyat bilan bog‘liq. Unga ko‘ra, avliyo darajasiga ko‘tarilgan qozoq tabiblaridan biri shu erda yashagan ekan¹.


Tuman hududidagi Qorovul raboti, Bo‘zachi raboti, eshakchi raboti, shuningdek, Qorovultepa do‘ngligi Qorovulbozor atamasining vujudga kelishiga asos bo‘lgan. O‘rta asrlardagi harbiy yurishlar davrida qo‘shindan ancha oldinda yurib, muxolif to‘g‘risida xabar to‘plab boruvchi maxsus otliq guruh qorovul deyilgan. Buxoro xonligida yo‘llarni, yo‘llar atrofida qad ko‘tarib turgan chegara tepaliklarni yovdan muhofaza qilib turuvchi guruh ham qorovul deb atalgan. Tuman hududidagi Qorovultepa do‘ngligi shular jumlasiga kiradi va bu atama ham Qorovulbozor toponimining shakllanishida muhim omil bo‘lgan.

Tumandagi Saritosh, Jarqoq, Setalantepa kabi tektonik kichik burmalarda gaz va neft’ zaxiralari, gips, ohaktosh kabi qurilish materiallari bor. Shularni inobatga olganda, Qorovulbozorning nafaqat Buxoro viloyati, balki respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi salmog‘i yuqoriligi o‘z tasdig‘ini topadi. 1997-yil ishga tushirilgan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi tufayli Qorovulbozor katta sanoat va qurilish maydoniga aylandi. Qisqa vaqt ichida tumanda yangi turarjoy, madaniy-maishiy ob’yektlar qurildi, yo‘llar kengaytirildi.

Keyingi to‘rt yilda tuman ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo‘lgan tub ijobiy o‘zgarishlar natijasida tuman markazi - Qorovulbozor shaharchasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi. Sardoba mahalla fuqarolar yig‘ini hududida qad ko‘targan yangi turar joylar aholining uy-joyga bo‘lgan talabini to‘la qondirdi. Shuningdek, tuman markazida madaniy-maishiy talablarni qondiruvchi bir qancha binolar,

¹ Қаранг: Солиев Б. Қоровулбозор тумани: ўтмиш, бугун ва келажак чоррахасида. – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2013. - Б. 16 – 28.

jumladan, tuman madaniyat markazi, sogʻlomlashtirish sport kompleksi, bozor binosi qayta taʼmirlanib, foydalanishga topshirildi.



Buxoro viloyati tarkibidagi Qorovulbozor tumani xaritasi (qizil rangli)

Qorovulbozor tumanidagi mahalla fuqarolar yigʻini roʻyxati

№	Mahalla fuqarolar yigʻini
1	Navbahor
2	Jarqoq
3	Boʻzachi

4-2. Mahalla va qishloq fuqarolar yigʻini tarkibidagi yaylov, qishloq, koʻchalar

Navbahor mahalla fuqarolar yigʻini

Qoʻriqtapa qishlogʻi - qoʻriq – uzoq davr ekin ekilmagan, haydalmagan, mahalliy sharoitbop koʻp turli oʻsimliklar oʻsgan yer. Tapa – tabiiy yoki inson tomonidan tuproq uyib koʻtarilgan kichik balandlik.

Toshquduq – ichki devori tosh yoki gʻishtdan terib chiqilgan quduqqa ega qishloq.

Jarqoq mahalla fuqarolar yig'ini

Jarqoq - Jar geografik atama bo'lib, tog' etagi qiyaliklarda, yeri yumshoq tekisliklarda ko'plab uchraydigan, oqar suvlar yerni yuvib ketishi natijasida hosil bo'lgan chuqurliklardir. Jar "chuqurlik, pastlik" ma'nosini bildiradi. Jarqoq "jar bo'yidagi, pastdagi qattiq joy" degan ma'noni beradi.

Bo'zachi mahalla fuqarolar yig'ini

Bo'zachi – bo'za tayyorlovchi aholi yashagan joyga nisbatan qo'llanilgan atama.

Sardoba - qadimiy suv inshooti. Uning atrofida joylashgan aholi turar joyi.

Qisqacha xulosa

Qorovulbozor viloyatning eng yosh tumanlaridan biri bo'lish barobarida, mamlakat iqtisodiy hayotida salmoqli o'rinda turadi. Sahro o'rtasida qad rostlagan Qorovulbozor shaharchasi mamlakat neft va gaz sanoati rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Tuman hududidagi toponimlar garchi oz sonli bo'lsa-da, o'z tarixiyli va hududning geografik manzarasini o'z mazmuniga singdirishi bilan kishini befarq qoldirmaydi. Sahrodagi sardoba esa o'tmishimizdan guvohlik beruvchi gidronimik yodgorlikdir.



Qorovulbozordagi sardoba

Tayanch so'z va iboralar: qaror, rel'yef, adir, qumli cho'l, sahro kengliklari, cho'l massivi, geografik xususiyat, qorovul, toponim, chegara tepaliklar, tektonik burmalar, sanoat va qurilish maydoni, do'nglik, qishloq, geografik atama, suv inshooti, o'simlik.

Savol va topshiriqlar

1. Qorovulbozor tumani hukumatimizning qaysi qarori bilan nechanchi yilda tashkil topgan?
2. Tumanning hududiy chegaralarini aniqlang?
3. Keyingi to'rt yilda tumanda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida so'zlab bering?

4. Jarqoq toponimining etimologik ma'nosini aniqlang?
5. Tumandagi qaysi tektonik kichik burmalarda gaz va neft' zaxiralari aniqlangan?
6. Tuman hududida qaysi tarixiy obida joylashgan?
7. Tumandagi gidronim nomini aniqlang?
8. Tumanda mavjud barcha tarixiy va zamonaviy toponimlar ro'yxatini tuzing?
9. O'zingiz yashayotgan ko'cha, mahalla, qishloq nomining ma'nosi va tarixi to'g'risida qisqacha axborot tayyorlang?

2-MODUL. BUXORONING JANUBIY-G‘ARBIY, SHIMOLIY – G‘ARBIY VA SHIMOLIY HUDUDLARIDAGI TUMANLAR TOPONIMLARI

5-MAVZU: JONDOR TUMANI TOPONIMLARI

5.1. Jondor tumani to‘g‘risida tarixiy ma‘lumot

5.2. Mahalla fuqarolar yig‘inlari tarkibidagi qishloqlar

5.1. Jondor tumani to‘g‘risida tarixiy ma‘lumot

Jondor tumani 1935-yilda tashkil topgan. 1926-yilgi rayonlashtirish davrida tuman hududlarining bir qismi Rometan tumani chagaralarini tashkil etgan. Jondor (جاندار) atamasi “tirik, tirik mavjudod” ma’nosini bildiradi¹. Tuman hududining qadimda turli jonzoqlar makon qurishi uchun qulayligi ushbu toponimning vujudga kelishiga asos bo‘lgan. Tuman hududi qadimgi va o‘rta asrlar tarixiga boy maskan. Dovud alayhisalomning ramziy qadamjosi shu tumanda joylashgan va hanuzgacha muqaddas ziyoratgoh sifatida e’zozlab kelinadi. Islomdan oldingi davr yodgorligi sanalmish Varaxsha qo‘rg‘oni qadimgi madaniyat izlaridan bahs yuritadi. Varaxsha nomi asosan islomdan keyingi davr yozma manbalarida tilga olinadi. Jumladan, Narshaxiy, Ibn Havkal buxorxudotlarning saroyi bo‘lmish Varaxsha to‘g‘risida asosiy ma‘lumotlarni qoldirishgan. Musulmon manbalarida aynan shu nom ostida tilga olinishi uning X asrdayoq mustaqil toponim bo‘lib shakllanganini ko‘rsatadi.

Varaxsha va uning nomi to‘g‘risida boshqa o‘rta asr mualliflaridan farqli o‘laroq Narshaxiy muhim ma‘lumotlarni qoldirgan. Bu borada Ibn Havkal xizmatlari ham e’tiborga sazovor. U o‘zining “Surat ul-arz” (Yer surati) kitobida Varaxsha toponimi xususida so‘z yuritib, uni bir joyda “Baraxsha”² (برخشه) deb qayd etsa, boshqa erda “Faraxsha”³ (فرخشه) shaklida beradi. Narshaxiy esa

¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.- Б. 105.

² Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи тарих фанлари доктори, профессор Ш.С. Камолиддин. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти, 2011. – Б. 45.

³ Шу китоб, 84-бет.


toponimni bir xil, ya'ni Varaxsha shaklida qayd etadi¹. Varaxsha toponimi ikki komponentli - var "qo'rg'on, qal'a" va axsha yoki axshi qabilasi nomidan tarkib topgan, degan fikrlar mavjud².

Jondor tumanidagi tarixiy voqealardan guvohlik beruvchi qal'alardan biri bu Tarob qal'asi bo'lib, 1238-yilda mo'g'ullarga qarshi bo'lib o'tgan xalq harakatining rahbari Mahmud Tarobiy shu yerdan. Tarob qal'asi ushbu harakatning markazi edi.

Diqqatga sazovor yodgorliklardan yana biri Qizbibi me'moriy majmuasi hisoblanadi. Qizbibi ismli avliyo ayol qabri atrofida XVIII asrda barpo etilgan masjid-xonaqoh, maqbara, chillaxona, hujralar, keyinchalik ochilgan hovuz Mustaqillik yillarida ta'mirlanib, go'zal, fayzli ziyoratgohga aylantirildi³. Ushbu maskan toponimga aylanib, Qizbibi nomi ostida xalk ongi va tilida mustahkam o'rnashib oldi.

"Daxmai shohon" nomli asar muallifi, o'rta asr shoiri, tazkiranavis Mirzo Sodiq munshiyning ijodiy iste'dodi o'z yurti Jondorda shakllandi va kamol topdi.

Jondor tumani hududi amirlik davrida Xayrobod va qisman Somjin deb atalgan. Tuman janubiy-g'arb tarafdan Qorako'l, shimolda Rometan, sharqda Buxoro tumanlari bilan chegaradosh.



Buxoro viloyati tarkibidagi Jondor tumani xaritasi (qizil rangli)

¹ Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. Мерос серияси. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б.99-100.

² Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 37.

³ Раҳмонов Т. Қизбibi – Ҳазрат Оғойи Бузург. –Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт- матбаа бирлашмаси, 2017. – Б. 24-25.

Keyingi to‘rt yilda tuman ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub ijobiy o‘zgarishlar, jumladan, maktab binolarining ta‘mirlanishi, qishloq xo‘jaligida klaster tizimining joriy qilinishi, ko‘plab issiqxona va sanoat korxonalarining ishga tushirilishi aholi turmush darajasining o‘shishiga xizmat qilmoqda.

Jondor tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini
1	Denov
2	Samonchuq
3	Murg‘ak
4	Xumdonak
5	Ko‘liyon
6	Ushot
7	Istiqlol
8	Po‘loti
9	Oromgoh
10	Hazorman
11	Zangi
12	Demun
13	Sho‘robod
14	Xumin
15	Qozikenti
16	Boloiob
17	Qalmoq
18	Qaroli
19	Yangiobod
20	Dovud
21	Xo‘jaxayron
22	Eronshoh
23	Pahlavon
24	Nurafshon
25	Tobagar
26	Chorzona
27	Darveshi

28	Mustaqillik
29	Qarovul
30	Oyto‘g‘di
31	Pochchoyi
32	Bahoriston
33	Aleli
34	Rabot
35	Obod
36	Jondor
37	Oxshix
38	Namgoni
39	Qovchin
40	Romish
41	Qazoqon
42	Oqtepa
43	Ibn Sino
44	Lugmon
45	Oydin
46	Dalmunobod
47	Mirzayon
48	Yosh kuch
49	Navgadi

5.2. Mahalla fuqarolar yig‘inlari tarkibidagi qishloqlar

Denov mahalla fuqarolar yig‘ini

Haftrabot- yetti (yettinchi) rabot yoki yetti rabotdan iborat qishloq.

Denov - keng tarqalgan toponim. Dehinav tarzida to‘g‘ri talaffuz qilinishi va yozilishi kerak. Ma‘nosi “yangi qishloq”.

Samonchuq mahalla fuqarolar yig‘ini

Samonchuq - XV asr tarixiy manbalarida uchraydi. “Somonchi” atamasining o‘zgargan shakli. Somon yetishtirib beruvchilar istiqomat qilgan qishloq.

Murg‘ak mahalla fuqarolar yig‘ini

Murg‘ak – mitti, kichkina qishloq ma‘nosida. Katta qishloqlar o‘rtasida joylashgan kichik, mustaqil turar joy.

Xumdonak mahalla fuqarolar yig'ini

Burjoq – “burchak” so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lishi mumkin. Burchakdagi, chetdagi qishloq ma’nosida.

Jo‘yzar – lug‘aviy ma’nosi “tilla ariq”. Suvi zarga teng, qadrli ariq ma’nosida.

Qo‘shrabot – ikki rabotdan iborat qishloq, rabot.

Xumdonak – xumdoncha ma’nosini beradi. Xumdonlar yasash bilan shug‘ullanuvchilar yashagan qishloq.

Ko‘liyon mahalla fuqarolar yig'ini

Ko‘liyon - ko‘lliklar yoki yon tomondagi ko‘l ma’nolarini beradi.

Ushot mahalla fuqarolar yig'ini

Ushot - uch ot so‘zining buzilgan shakli bo‘lishi mumkin.

Madamboy – onoma. Shaxs nomidan olingan. Aslida Muhammad Aminboy, yoki Madaminboy bo‘lishi kerak.

Istiqlol mahalla fuqarolar yig'ini

Pasana – lug‘aviy ma’nosi murakkab va mavhum. Shu atamaga yaqin bo‘lgan posangi so‘zidan yasalgan deb taxmin qilish mumkin. Posangi tarozi pallalarini tenglashtirish uchun ishlatiladigan qo‘shimcha tosh. Atamaga yaqin pakana so‘zi asosida shakllangan toponim deb hisoblashni ham ma’lumot sifatida qabul qilishni taklif etamiz.

Eskiyon – “eskilar” ma’nosini beradi. Qadimdan aholi yashab kelgan ko‘hna qishloq nazarda tutilgan.

Oqxo‘ja – “katta xo‘ja” ma’nosini bildiradi. Nufuzli, obro‘-e’tiborli xo‘jalar yashayotgan qishloq nazarda tutilib tarkib topgan toponim.

Po‘loti mahalla fuqarolar yig'ini

Po‘loti - po‘latdan qilingan ma’nosiga ega bo‘lib, toponimda kasbga ishora mavjud. O‘zbek urug‘lari ichida shu nomdagi qabila ham bo‘lgan.

Do‘qqi – Buxoro shevasida yo‘g‘on, beso‘naqay narsaga, hatto odamga nisbatan ham qo‘llanilgan atama¹.

Jaloyir – etnotoponim. Turk-mo‘g‘ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik qabilar uyushmasi. XII asr oxiri XIII asr

¹ Махмудов М., Бердиев Б. Луғати мухтасари лаҳжаҳои Бухоро. – Душанбе: Дониш, 1989. – Б. 97.

boshlarida jaloyirlarning salmoqli qismi Mo'g'uliston hududidan Yettisuv va Movarounnahrning ayrim viloyatlariga kelib o'rnashadilar. XIII-XIV asrlarda katta bir guruhi Ohangaron vodiysida yashagan. Amir Temur hukmronligining dastlabki davrida jaloyirlarning boshqa bir qismi Zarafshon bo'ylariga ko'chib o'tadi.

Oromgoh mahalla fuqarolar yig'ini

Rabotio'g'lon – o'g'lonrabot. O'g'lonlar istiqomat qilgan rabot.

Arabxona – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o'zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrqa kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrqa yurishlari davrida Damashq va Bag'dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o'rnashib oldilar. Movarounnahrdagi sayyidlar va xo'jalar o'z kelib chiqishlarini arablar bilan bog'laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg'ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho'jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrqa ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog'i yuqori bo'ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Arablar o'tgan asrning 60-70-yillarigacha o'z tillarini saqlab qoldilar. G'ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o'z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo'lishidan qat'iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Hazorman mahalla fuqarolar yig'ini

Hazorman - hazor, ya'ni ming so'zidan olingan. Man – tarixiy og'irlik o'lchovi birligi. "Ming man" ma'nosida.

Zangi mahalla fuqarolar yig'ini

Shodila - shodilar deb talaffuz qilinsa, shod-xurram bo'lib yuruvchilar ma'nosini beradi.

Gulobod – gullarga boy, obod manzil.

Zangi - zangi arabchada "qora" ma'nosini anglatadi. Ushbu nomda toponimning tabiiy geografik o'rniga ishora mavjud.

Demun mahalla fuqarolar yig'ini

Dehmun - deh, ya'ni "qishloq" ma'nosida.

Ko'cha – shahar yoki qishloq ichidan o'tgan uzun yo'l. Ikki qishloqni tutashtirgan yo'l ustidagi manzil.

Qalluq – mazkur toponim yuzasidan ikki xil versiyani ilgari surish mumkin. Birinchisi, ushbu toponim "qarluq" etnotoponimining buzilgan shakli bo'lishi mumkin. Ikkinchisi, "qalliq" so'zidan olinganligi ehtimoldan xoli emas.

Sho'robod mahalla fuqarolar yig'ini

Sho'robod – sho'ri yuvilib, obod qilingan manzil.

Yovonbolo – yuqori yovon (dala) ma'nosida. Dala yuqorisida joylashgan qishloq.

Yuqori Arabxona – etnotoponim. Ikki katta qishloqdan iborat Arabxona qishlog'ining yuqori qismi.

Xumin mahalla fuqarolar yig'ini

Qipchoq – etnotoponim. Qipchoq qavmiga mansub aholi yashagan joy. Qipchoqlar turkiy qabilalarning yirik bo'g'ini. Farg'ona, Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm vohalariga tarqalgan. "Qipchoq" atamasining vujudga kelishi xususida Abulg'ozixonning "Shajarai tarokima" asarida quyidagi rivoyat keltiriladi. O'g'uzxon bekларidan biri homilador ayolini o'zi bilan birga harbiy yurishga olib boradi. Lekin jangda o'zi halok bo'ladi. Kunning sovuq pallasida qurigan bir daraxt kovagida ayolining ko'zi yoriydi. O'g'uzxon shu yetim bolani o'g'il qilib olib, unga Qipchoq, ya'ni "ichi kovak daraxt" deb ism qo'yadi. Undan tarqagan barcha avlod qipchoq deb atalgan.

Umarxo'ja – onoma. Shaxs nomidan olingan joy nomi.

Rahimobod – onoma. Shaxs nomidan olingan joy nomi.

Tangosha - tong osha deb talaffuz qilinsa, "tong o'tib" ma'nosini beradi.

Qozikenti mahalla fuqarolar yig'ini

Qozikenti - qozi qishloq. Qozi yoki qozilar qishlog'i.

Xosakor – maxsus ekinlar ekiladigan mavze.

Janafar – etnotoponim. Turkiy qavmlardan biri nomidan olingan.

Boloiob mahalla fuqarolar yig'ini

Qirg'ichi – qoshiqqa o'xshash temir asbob bo'lib, u bilan qovoq va qovunlarning ichi qirilgan. Shu turdagi asbob yasovchi ustalar qishlog'i.

Bolojob - suv (ariq, daryo) yuqorisida joylashgan mavze ma'nosida.

Qishloqcha – boshqa atrof qishloqlarga nisbatan kichik, mo'juz, lekin mustaqil turmush tarziga ega qishloq.

Ko'salar – etnotoponim. Urug' nomidan olingan. Qo'ng'iroq, yuz, turkmanyuz kabi qabilalar tarkibida uchraydi¹. Farg'ona, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlari hududida ham yashagan.

Qalmoq mahalla fuqarolar yig'ini

Xumin - agar ikki qismdan iborat joy nomi deb talqin qilinadigan bo'lsa, "xum" va "in" so'zlaridan tarkib topgan va "inga o'xshash xum" yoki "xumdek in" ma'nolarini beradi deb hisoblash mumkin.

Qalmoq – etnotoponim. Qalmoqlarning bir qismi mo'g'ullar istilosi davrida O'rta Osiyoga kelib qolgan va mahalliy aholi tarkibiga singib ketgan.

Qaroli mahalla fuqarolar yig'ini

Xorsafed - oq tikan ma'nosida. Oq tikanli mavzeda joylashgan qishloq.

Qaroli - qaroli, qora olu (olchazor) ma'nosida.

Kulonchi - kulon (jonivorni) ovlovchilar, yoki yetishtiruvchilar qishlog'i. etnotoponim sifatida ham uchraydi.

Kulonlar, ya'ni otdan kichik, eshakdan kattaroq hayvon turi – xachirlar ko'p uchraydigan joy. Bu hayvonlarning qo'lga o'rgatilgan xillaridan o'tmishda minish va yuk tashish maqsadida foydalanilgan.

Yangiobod mahalla fuqarolar yig'ini

Og'ar - "ko'lmak" ma'nosini beradi. Sel yog'ib o'tgandan so'ng yerning har qayer-har qayerida hosil bo'ladigan ko'lmakka nisbatan qo'llanilgan. Toponim o'sha joyning geografik va tabiiy xususiyatini aks ettirgan, deb hisoblash mumkin.

Chandir – etnotoponim. VIII-IX asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi, Orol dengizining janubidagi cho'llarda yashovchi o'g'uzlar tarkibida bo'lgan qabila. Keyinchalik chandirlarning bir qismi Movarounnahrqa o'tib o'zbeklar tarkibiga singib ketadi, ikkinchi qismi esa hozirgi Turkmaniston hududiga siljib, turmanlar bilan aralashib ketadi.

¹ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.72.

Dovud mahalla fuqarolar yig'ini

Bolin – yostiqlik, shuningdek, ot egarining ostiga qo'yiladigan maxsus yumshoq mato. Bolin tikuvchi aholi qishlog'i.

Dovud - Dovud payg'ambar qadamjosi nomidan kelib chiqqan. Tumanda shu nomdagi ziyoratgoh bor.

Xo'jaxayron mahalla fuqarolar yig'ini

Xo'jaxayron – xayrli, yaxshi niyatli va amalli xo'jalar qishlog'i.

Askarcha – askarlar yashagan qishloq ma'nosida.

Eronshoh mahalla fuqarolar yig'ini

Eronshoh – 1740 yil Buxoroni istilo qilgan eron shohi Nodirshoh afshor nomi bilan bog'liq bo'lgan toponim bo'lishi kerak. Buxoro shahri va Buxoroning janubiy – g'arbiy hududlarida eroniy qavmiga mansub aholi yashagan. Ularning migratsiyasi, aniqrog'i majburiy ko'chirish asosan amir Shohmurod (1785- 1800) zamonida ro'y berdi.

Yakkatut – bir tutli mavze ma'nosida.

Pahlavon mahalla fuqarolar yig'ini

Bo'ribog'i – onoma sifatida talqin qilinsa, Bo'ri ismli shaxsga tegishli bog' ma'nosida iste'molda bo'lganligi ma'lum bo'ladi.

Nurafshon mahalla fuqarolar yig'ini

Moxon – aslida mohon, fors-tojik tilidagi “oy, oylar” so'zi asosida tarkib topgan toponim bo'lgani ehtimol. Muhammad Narshaxiy Buxoroda Mox ismli podshoh o'tganligini yozadi. Bunday holatda Moxon etnonimga aylanadi. Hozirda Moxonko'l nomi bilan tilga olinadigan massivda qator arxeologik yodgorliklar mavjud.



Varaxsha arxeologik yodgorligi

Tobagar mahalla fuqarolar yig'ini

Tobagar - toba uy-ro'zg'or buyumlaridan biri. Tuxum, qatlama va boshqa xil taom pishirishga mo'ljallangan gardishli yassi qozoncha. Toba yasovchi ustalar qishlog'i.

Chorzona mahalla fuqarolar yig'ini

Chorzona - to'rt tizza ma'nosini beradi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, toponim dastlab "chorzina", ya'ni "to'rt zina" deb atalgan.

Og'ar - "ko'lmak" ma'nosini beradi. Sel yog'ib o'tgandan so'ng yerning har qayer-har qayerida hosil bo'ladigan ko'lmakka nisbatan qo'llanilgan. Toponim o'sha joyning geografik va tabiiy xususiyatini aks ettirgan, deb hisoblash mumkin.

Darveshi mahalla fuqarolar yig'ini

Darveshi - darveshona taom pishiruvchilar qishlog'i. Darveshona Buxoro vohasida tayyorlangan taom turlaridan biri.

O'rikzor - o'rikzorlarga ega mavze. Hozirgi holatida toponim o'z mazmuniga mos kelmasa-da, tarixiy nom sifatida saqlanib kelmoqda.

Mustakillik mahalla fuqarolar yig'ini

Akka-Chakka - عكة چككه tarixiy toponim. 1926-yil rayonlashtirish munosabati bilan tuzilgan "Xalq turadigan joylarning ro'yxati"da tarixiy nom sifatida qayd qilinadi. Ro'yxat amirlik devonxonasiidagi tarixiy hujjatlar asosida tuzilgan.

Bodomzor - bodomzorlar mo'l bo'lgan mavze. Tarixiy nom sifatida saqlanib kelmoqda.

Chorg'uli - to'rt g'uli, ya'ni to'rt serhosil, zich joylashgan qishloq ma'nosini bildiradi.

Navrabet - yangirabet ma'nosiga ega toponim.

Moxonko'l - fors-tojik tilida moh "oy" ma'nosini anglatadi. Toponimning lug'aviy ma'nosi "oyko'l", "oydek yorug', oydek tiniq ko'l". Mazkur ko'lning tabiiy sifatlari negizida vujudga kelgan toponim hisoblanadi.

Qarovul mahalla fuqarolar yig'ini

Qarovul - qorovullar qishlog'i. Atrof qishloqlarni muxolifdan himoya qiluvchi chegara hududda joylashgan qishloq.

Xo'jagaroy - xo'jasaroy atamasining o'zgargan ko'rinishi deb faraz qilish mumkin. Bunda xo'jalar saroyi, xo'jalar yashagan qishloq ma'nosi yuzaga keladi.

Mang‘it – etnotoponim. Mang‘itlar istiqomat qilgan qishloq. Mang‘itlarning ajdodlari XIII asr boshlarida Mo‘g‘uliston hududida yashagan. XIII asr davomida Dashti Qipchoqqa kelib o‘rnashganlar. XIII-XIV asrlarda mang‘itlarning katta qismi Volga va Ural daryolari oralig‘ida joylashib oladi. Shu davr mobaynida qipchoqlar ta’siri ostida o‘z tillarini unutib turk-qipchoq tilini qabul qilishadi. Keyinchalik ular o‘zbeklar, qoraqalpoqlar va qisman qozoqlarning etnik tarkibiga kiradi. Mang‘itlar hozirgi O‘zbekiston hududiga XVI asrda ko‘chib o‘tadi va o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Ular Buxoro xonligining siyosiy hayotida katta mavqega ega bo‘lib, hukmron sulola darajasiga ko‘tariladi va 1753-1920 yillarda Buxoroni idora qiladi.

Xo‘jagulrez - gul kesuvchi xo‘ja, gul chizuvchi usta kabi ma’nolarga ega.

Oyto‘g‘di mahalla fuqarolar yig‘ini

Oytug‘di – oy yangilandi ma’nosida.

Peshqandoq – ikki qismli pesh + qandak so‘zlaridan tashkil topgan joy nomi. Pesh “old,” “oldingi tomon” ma’nosini anglatadi, qandak (قندک) o‘rik, jiyda so‘zlarga qo‘shilib, ularning u qadar yirik bo‘lmagan, kamsuv, lekin sershira navini bildiradi. Demak, shu xildagi o‘rikzor, yoki jiydazorlar oldida joylashgan qishloq.

Jo‘ysafed – lug‘aviy ma’nosi “oq ariq”. Xayru baraka keltiruvchi, farovonlik baxsh etuvchi ariq degan majoziy ma’noga ega.

Pochchoyi mahalla fuqarolar yig‘ini

Pochchoyi – pochchaoyi ma’nosida. Hurmat yuzasidan ismlarga, biror bir kishining ismiga qo‘shib ishlatilgan so‘z. Toponimga aylanishi o‘sha joyda yashagan kishilarga nisbatan e’tibor bilan bog‘liq.

Torob-arabxona. Torob –1238 yil mo‘g‘ullarga qarshi bo‘lib o‘tgan xalq qo‘zg‘olonining rahbari - xalq qahramoni Mahmud Torobiy yashagan qishloq.

Bahoriston mahalla fuqarolar yig‘ini

Urganjiyon - Urganch tomonlardan ko‘chib kelgan aholi yashagan manzil. Urganchlik aholi bir qismining Buxoro vohasiga ko‘chib o‘tishi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi. Muhammad Xorazmshohning Malik Sanjar qo‘zg‘olonini bostirish uchun 1206-yil Buxoroga yurishi davrida kelib qolgan urganchlik aholi. Ikkinchi

bosqich, XVII asrda Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon va Anushaxon hujumlari davrida vohada o‘rinlashgan urganchliklar.

Hojikanda – lug‘aviy ma‘nosi “hoji qazigan”. Ijtimoiy ma‘nosiga ko‘ra, hoji maqomiga ega shaxs tomonidan qazilgan ariq yoki er oldida joylashgan qishloq bo‘lishi kerak. So‘z tarkibidagi “k” harfi aslida “g” bo‘lib, “hojiganda” (حاجیگنده) atamasi tarzida vujudga kelgan deb taxmin qilinsa, toponim “yomon hoji” ma‘nosini oladi.

Aleli mahalla fuqarolar yig‘ini

Aleli - etnotoponim. O‘g‘uz (turkman) qabilalaridan birining nomi bilan ataluvchi qishloq.

Alelicha - Ali eli nomining kichik hududga nisbatan qo‘llanish shakli.

Rabot mahalla fuqarolar yig‘ini

Rabot – atrofi devor bilan o‘rab olingan qishloq. Devorlari saqlanmagan bo‘lsa ham, umuman qishloqqa nisbatan qo‘llanilgan atama.

Xo‘jalik – o‘tmishda katta qishloqlar chekkasida alohida holda vujudga kelgan kichik qishloqcha. Keyinchalik kattalashib ketgan bo‘lsa-da, nomi o‘zgarmay qolgan.

Obod mahalla fuqarolar yig‘ini

Yuqori Obod – yirik Obod qishlog‘ining yuqori qismi.

Quyi Obod – yirik Obod qishlog‘ining quyi qismi.

Jondor mahalla fuqarolar yig‘ini

Jondor - bu nom tirik mavjudot, jonivor ma‘nosini ifodalaydi. Shuningdek, Movarounnahrda, xususan qoraxoniylar va xorazmshohlar davrida yasovulboshilar jondorlar deb atalgan.

Manqufi - mavquf, ya‘ni vaqf qilingan so‘zining buzilgan shakli. O‘tmishda vaqf mulkiga aylantirilgan yoki vaqf yerlari, ya‘ni masjid, madrasa va umuman diniy muassasalarga tegishli yerlar joylashgan qishloq.

Oxshix mahalla fuqarolar yig‘ini

Ko‘libolo - ko‘lning yuqorisi yoki yuqoridagi ko‘l ma‘nosiga ega. Ko‘lning yuqori tomonida joylashgan qishloq.

Oxshix- oq shayx shaklida qo‘llanishi to‘g‘ri bo‘ladi. Shuningdek, turkmanlarning “shix” qavmi mavjud bo‘lib, uning bir urug‘i “oqshix” deb nomlangan¹.

¹ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009.- Б. 202.

Namgoni mahalla fuqarolar yig'ini

To'qsaboy - to'qsabo bo'lishi kerak. "To'qsabo yoki to'qsoba" amirlikdagi lavozimlardan biri, ya'ni tug' (bayroq) ko'tarib yuruvchi shaxs. To'qsanboy atamasining buzilgan shakli ham bo'lishi mumkin.

Yobu – etnotoponim. Yobu qabilasi nomidan olingan joy nomi. Yobu (jobu) qabilalari Zarafshonning o'rta va quyi oqimi, Qashqadaryo vohasiga tarqalgan.

Namgoni – namakgon so'zi asosida shakllangan joy nomi bo'lib, "sho'rloq, botqoqlik, sho'r yer" ma'nolarini bildiradi.

Qovchin mahalla fuqarolar yig'ini

Qovchin – etnotoponim. O'zbek urug'laridan birining nomi. XIII asr o'rtalarida arlot, barlos, jaloyirlar bilan birga Mo'g'uliston hududidan Amudaryoning o'rta va yuqori oqimiga hamda Farg'ona vodiysiga ko'chib kelib yarim o'troq turmush tarziga o'tishgan. Chorvachilik va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lishgan. Qovchinlarning muayyan qismi Qashqadaryo vohasi, qo'shni Turkmaniston va Tojikiston hududlarida yashagan va mahalliy aholi bilan aralashib ketgan.

Romish mahalla fuqarolar yig'ini

Romish – Buxoro vohasidagi qadimiy qo'rg'onlardan biri. Narshaxiyning yozishicha. Kayxisrav Romtin qishlog'ining ro'baro'sida bir qishloq bino qilib, uni Romush deb atagan. Bu yerda otashparastlar ibodatxonasini ham barpo etgan¹. O'tgan asrning 60-yillarida Romushda arxeologik tadqiqotlar olib borilgan.

Rabot – atrofi devor bilan o'rab olingan qishloq. Devorlari saqlanmagan bo'lsa ham, umuman qishloqqa nisbatan qo'llanilgan atama.

Oqrabot – ikki qismdan iborat toponim – oq + rabot. Oq so'zi bu erda "katta" ma'nosida ishlatilmoqda. Demak, toponimning ma'nosi "katta rabot, katta qishloq".

Rabotiqora – ikki komponentli joy nomi – rabot + qora. Qora so'zi turkiy tilda rangni bildirishdan tashqari, "buyuk, ulug', katta" ma'nolarini ham anglatishini nazarda tutib, ushbu toponim "katta rabot" ma'nosiga egaligini ta'kidlash joiz.

¹ Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. Мерос серияси. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 98-99.

Yangiobod – yangi tashkil topgan obod manzil, yoki yangilanib, obod maskanga aylantirilgan qishloq.

Qazoqon mahalla fuqarolar yig‘ini

Qazoqon - qozoqlar yashagan manzil. Geografik joylashuviga ko‘ra, cho‘l etagiga yaqin bo‘lgan va aholisi chorvachilik bilan shug‘ullangan.

Xushkonu – mazmuni murakkabroq joy nomi. Xushk o‘zagidan yasalgan toponim sifatida izohlashni va bunda xushk - “quruq” so‘zi joyning tabiiy-geografik holatini anglatishini taklif qilamiz. Quruq, ishlov berilmagan yer, hududda joylashgan manzil nazarda tutilib shakllangan toponim.

Toponim aslida “Xushkon” tarzida paydo bo‘lib, keyinchalik transformatsiyaga uchragan va “Xushkonu”ga aylangan degan farazni ham o‘rtaga tashlash mumkin. Bunda ma’no xushkon, ya’ni “quruqlar”ga aylanadi va hech narsasi yo‘q, kambag‘allar yashagan qishloqqa qarata ishlatilgan hamda ijtimoiy ma’noga ega atama hosil bo‘ladi.

Bo‘z yer – ishlov berilmagan qo‘riq yer. Shu xildagi mavze atrofida, yoki unga yaqin yerda joylashgan qishloq.

Dehqonobod – dehqonlar obod qilgan maskan. Shuningdek, dehqonlar istiqomat qilgan obod joy.

Oqtepa mahalla fuqarolar yig‘ini

Oqtepa – ikki komponentli joy nomi – oq + tepa. Ma’lumki, oq so‘zi rangni bildirish bilan birga, “katta, baland” ma’nolarini ham ifoda etadi. Oqtepa “katta, baland tepa” demakdir.

Urganjilar – yuqorida ta’kidlanganidek, Urganch tomonlardan ko‘chib kelgan aholi yashagan manzil. Urganchlik aholi bir qismining Buxoro vohasiga ko‘chib o‘tishi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi. Muhammad Xorazmshohning Malik Sanjar qo‘zg‘olonini bostirish uchun 1206-yil Buxoroga yurishi davrida kelib qolgan urganchlik aholi. Ikkinchi bosqich, XVII asrda Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon va Anushaxon hujumlari davrida vohada o‘rinlashgan urganchliklar.

Xatcha – xadicha so‘zining o‘zgargan shakli deb taxmin qilinsa, Xatcha shaxs ismidan yasalgan toponimga aylanadi. Hadcha so‘zini bir oz buzilgan talaffuzidan yaralgan joy nomi deb faraz qilingan taqdirda esa, “kichik hudud”, “kichik yer”, “kichik chegara, chegaracha” ma’nolari kelib chiqadi.

Chiqir – gidronim. Chig‘ir, ya‘ni suv ko‘targich uskunasi o‘rnatilgan qishloq. Chig‘ir yordamida suv bir ariqdan boshqa yo‘nalish bo‘ylab oqishga mo‘ljallangan ikkinchi ariqqa ko‘tarib berilgan.

Ibn Sino nomli mahalla fuqarolar yig‘ini

Quyi Luqmon - Luqmon qishlog‘ining quyi qismida joylashgan makon. Luqmon arab mifologiyasida qurg‘oqchilik ofatidan qutulish maqsadida Makkaga duo so‘rab borgan xalq vakili. Ikkinchisi, Qur‘onning Luqmon surasida tilga olingan hakim, donishmand, iymon-e‘tiqodga da‘vat qiluvchi shaxs. Xalq orasida buyuk hakim, hakimlarning piri, shuningdek, donishmand, zukko shaxslarga nisbatan ham ishlatilgan. Bizning holatimizda shunday sifatlarga ega shaxs yoki shaxslar yashagan qishloq nazarda tutilmoqda.

Yangibog‘ – yangidan tashkil qilingan bog‘ga ega qishloq.

Buxorcha – Buxoro shahriga xos bo‘lgan an‘ana va urf-odatlariga ega qishloq.

Beklar – o‘tmishda bek va bekozodalar yashagan qishloq.

Asbobsoz – turli asbob-uskuna, dehqonchilik qurollari yasashga ixtisoslashgan qishloq.

Aminobod – Buxoro amirligidagi amal va vazifalardan biri, ya‘ni amin lavozimiga ega shaxs tomonidan obod qilingan mavze.

Kulonchi – o‘tmishda kulon (jonivorni) ovlovchilar, yoki etishtiruvchilar qishlog‘i. etnotoponim sifatida ham uchraydi.

Kulonlar, ya‘ni otdan kichik, eshakdan kattaroq hayvon turi – xachirlar ko‘p uchraydigan joy. Bu hayvonlarning qo‘lga o‘rgatilgan xillaridan o‘tmishda minish va yuk tashish maqsadida foydalanilgan.

Luqmon mahalla fuqarolar yig‘ini

Sherbayon – ma‘nosi murakkab va mavhum atama. Semantik tadqiq qilishni talab qiluvchi joy nomi. Nazarimizda, sherbayot atamasining buzib talaffuz qilinishi natijasida hosil bo‘lgan toponim. Sherbayot – o‘g‘uz qabilalarining bir bo‘g‘ini.

O‘ba - “qishloq” ma‘nosini anglatadi. Buxoro vohasining boshqa hududlarida ham uchraydi.

Lolo – ♪♪ Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida shu ko‘rinishda uchraydi. Buxoro shevasida bir qancha ma‘nolarga ega. Jumladan, 1. “xizmatkor”, 2. “ravshan, yorug‘”. Bolalarning yangi,

orasta kiyimiga nisbatan ham shu soʻz qoʻllanilgan¹. Shuningdek, bolalar tilida yaxshilik, sihat, sihat topmoq, maʼnolarini bildiradi. Qishloq ham shu sifatlar bilan ziynatlangan.

Davcha - dovuchcha – pishmagan gʻoʻr, xom oʻrik. Umuman oʻrikzorlar moʻl boʻlgan qishloq

Oydin mahalla fuqarolar yigʻini

Joʻymoʻmin - Moʻmin ismli shaxs tomonidan chiqarilgan ariq maʼnosini anglatadi. Shuningdek, moʻmin soʻzining “yuvosh, beozor, muloyim” kabi maʼnolari ushbu joy nomiga qiyos qilinsa, “sokin, beozor oquvchi ariq” maʼnosi hosil boʻladi. Har ikkala maʼnoning maqbul jihatlari mavjud.

Shamshergaron - shamshir yasovchi hunarmandlar yashagan qishloq.

Zandavois - zindavoiz deb talaffuz qilinsa, “tirik voiz, vaʼz aytuvchi” maʼnosini beradi.

Dalmunobod mahalla fuqarolar yigʻini

Dalmun -- tallmun, yaʼni tepa soʻzining buzilgan shakli.

Xoʻjalar – katta ijtimoiy mavqe va imtiyozga ega boʻlgan xoʻjalar yashagan qishloq.

Mirzayon mahalla fuqarolar yigʻini

Arablar – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning oʻzida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrda kelib qolishi uzoq tarixiy davrni oʻz ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrda yurishlari davrida Damashq va Bagʻdod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib oʻrnashib oldilar. Movarounnahrda sayyidlar va xoʻjalar oʻz kelib chiqishlarini arablar bilan bogʻlaganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – paygʻambar s.a.v. avlodlari sanalsa, hoʻjalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrda ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmogʻi yuqori boʻldi. Ushbu migratsiyaning sababi toʻgʻrisida aniq maʼlumot yoʻq. Arablar oʻtgan asrning 60-70-yillarigacha oʻz tillarini saqlab qoldilar. Gʻijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular oʻz ona tili –

¹ Қаранг: Садриддин Айни. Куллиёт. Жилд 12. – Душанбе: Ирфон, 1976. – Б. 183-184.

arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo‘lishidan qat’iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Mirzoyon – mirzalar yashagan qishloq. Amir saroyida, tumanlardagi amlokdorliklarda mirzalik qilgan shaxslarga tegishli qishloq.

To‘prez - to‘p yasovchilar, to‘p quyuvchilar yashagan qishloq.

Yosh kuch mahalla fuqarolar yig‘ini

Rahimobod – onoma. Rahim ismli shaxs tomonidan obod qilingan qishloq ma’nosini beradi.

Navgadi mahalla fuqarolar yig‘ini

Navgadi – navkadi, navkadu so‘zining buzilgan talaffuzdan yasalgan joy nomi. Bunda toponim “yangi qovoq” ma’nosini anglatib, qishloq xo‘jalik ekinlaridan biri - qovoq yetishtirishga ixtisoslashgan qishloqqa ishora qilinadi.

Qisqacha xulosa

Jondor tumani viloyatning qadimiy va mashhur arxeologik yodgorligi - Varaxsha joylashgan hudud. Shu bir holatning o‘zi uning qadimiyligi, tarixiy toponimlarga boyligidan bahs yuritadi. Bu to‘g‘rida Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” asarida ma’lumot bergan. Tuman hududi mo‘g‘ullar istilosi davridagi tarixiy voqealarga, jumladan, istilochilarga qarshi xalq harakatlariga shohid bo‘lsa, mavjud toponimlar esa aholining ijtimoiy turmush tarzi, xo‘jaligi va mashg‘ulotidan guvohlik beradi.

Tayanch so‘z va iboralar: rayonlashtirish, hudud, ma’nosini bildiradi, jonzoqlar makoni, ramziy qadamjo, toponim, qo‘rg‘on, qal’a, rabot, istiqomat joyi, aholi turar joyi, etnotoponim, qavm, tarixiy davr, arab tili, migratsiya, buzilgan shakl, o‘zgargan shakl, onoma, arxeologik yodgorlik.

Savol va topshiriqlar

1. Varaxsha toponimi qaysi tarixiy manbalarda ilk bor tilga olinadi?
2. Jondor atamasining ma’nosini tushuntirib bering?
3. Tuman hududida qanday arxeologik yodgorlik va me’moriy majmua joylashgan?
4. Qipchoq etnotoponimi to‘g‘risida batafsil ma’lumot bering?

5. Po‘loti mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi qishloqlarni sanab bering?
6. Qovchin etnotoponimi haqida ma’lumot bering?
7. O‘rta asrlarda yashagan xalq qahramoni nomi bilan ataluvchi qishloq?
8. Tumandagi etnotoponimlar tasnifini ishlab chiqib, alohida jadval tuzing
9. O‘zingiz yashayotgan ko‘cha, mahalla, qishloq nomining ma’nosi va tarixi to‘g‘risida qisqacha axborot tayyorlang?

6-MAVZU: QORAKO‘L TUMANI TOPONIMLARI

6.1. Qorako‘l tumani va uning hududiy chegaralari

6.2. Mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi qishloqlar

6.1. Qorako‘l tumani va uning hududiy chegaralari

Qorako‘l tumani Buxoro viloyatining janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. Shimoliy va shimoliy-sharqdan Jondor, janubiy-sharqdan Olot tumanlari bilan, janub va g‘arbdan Turkmanistonning Lebap (avvalgi Chorjo‘y) viloyati, shimoliy –g‘arbdan Romitan tumani bilan chegaradosh. Tumanda 1 shahar va bir necha mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud.

Tuman hududi Zarafshon daryosining quyi oqimida, Qorako‘l vohasida joylashgan. Sharqiy qismi baland bo‘lmagan qirlar, shimoliy va shimoliy-g‘arbiy qismi Qizilqum cho‘li, Qorako‘l va Moxonko‘l vohalari bilan o‘ralgan¹.

Umuman Qorako‘l tumani hududi ibtidoiy madaniyat izlarini o‘zida aks ettirgan mamlakatimizning qadimiy maskanlaridan biri. Shu bois o‘tgan asrning 50-yillaridan bu hudud arxeolog olimlarning diqqatini tortib, ularning keng miqyosdagi arxeologik tadqiqot ob’ektiga aylandi. Ya.G‘ulomov, A.Muhammadjonov, A.Asqarov, J.Mirzaahmedov kabi milliy arxeologiyamizning jonkuyar namoyandalari hududda keng ko‘lamli arxeologik izlanishlar olib

¹Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Қ” ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.259.

bordilar. Ularning aniqlashicha, qadimda hozirgi Qorako‘l tumani hududida ulkan ko‘l bo‘lib, unga Qashqadaryo tomondan va Zarafshon daryosi orqali doimiy ravishda suv oqib turgan. Keyinchalik “Qorako‘l” geografik atamasining paydo bo‘lishi ham tumanning qadimiy geografik o‘rni bilan bog‘liq. Bu ko‘l o‘rta asr yozma manbalarida “Buxayrayi Somjan”, ya‘ni Somjan dengizi, “Bahr ul-Buxoro” – Buxoro dengizi va boshqa bir qancha atamalar bilan nomlangan. Turklar uni “Dengiz” yoki “Qorako‘l” deb yuritishgan.

Qorako‘l hududida joylashgan bronza davriga oid Zamonbobo ibtidoiy madaniyat manzilgohi nafaqat Buxoro vohasi, balki butun mamlakatimiz ibtidoiy davri tarixida alohida ahamiyatga ega. Bu erdan ibtidoiy dehqonchilik bilan shug‘ullangan odamlarning manzilgohi topilib, ular o‘sha davrning ijtimoiy turmushi, dehqonchilik madaniyati, dafn marosimlari, diniy tasavvurlari to‘g‘risida bahs yuritadi. Ayniqsa Zamonbobo ko‘lidan 500 metr sharqroqda joylashgan ibtidoiy dehqonlarning turarjoy qoldiqlari, ya‘ni yarim yerto‘la va ikki chayla, qorako‘lliklarning ilk dehqonchilik tarixini to‘la tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi¹.


Islomdan oldingi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, diniy tasavvurlar, tibbiyot ilmi, madaniyat to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi Poykent yodgorligi Qorako‘l hududida joylashgan.

Qorako‘l o‘rta asrlarda, ayniqsa shayboniy Abdullaxon (1557-1598) davrida muhim strategik ahamiyatga molik manzil sifatida xonlik siyosiy hayotida salmoqli o‘rin tutgan.

Mustaqillik yillari, ayniqsa keyingi to‘rt yilda Qorako‘lda ijtimoiy-iqtisodiy, maorif, madaniyat sohalarida yuz bergan ulkan ijobiy o‘zgarishlar tumanning respublika miqyosidagi nufuzini ko‘tardi. Tumanda qurilgan sanoat korxonalarining iqtisodiy sohadagi salmog‘i yuqori. Shaharda bunyod etilgan yangi teatr binosi ushbu san‘at sohasining joylardagi rivojini ta‘minlashga benihoya ulkan hissa qo‘shadi. Qorako‘l shahridagi aniq fanlarga ixtisoslashgan maxsus litsey nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda mashhur. Bu erda tahsil olayotgan o‘quvchilar jahon fan olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni egallab, O‘zbekiston ilm-fanini dunyoga tanitmoqdalar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan

¹ Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шахри 2500 ёшда. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 14-15, 29.

Qorako‘l matematika maktabi tajribasi bugungi kunda butun mamlakatimiz bo‘ylab ommalashmoqda.



Buxoro viloyati tarkibidagi Qorako‘l tumani xaritasi (qizil rangli)

Qorako‘l tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini
1	Sayyot
2	Alikaxo‘ja
3	Paykent
4	Qulonchi
5	Sho‘rrabot
6	Qorako‘l
7	Do‘rman
8	Tojikent
9	Qozon
10	Istiqlol
11	Tashabbus
12	Yangiturmush
13	Jig‘achi
14	Osiyo
15	Vaxim
16	Qoraqulonchi

17	Darg‘ali
18	Shakarbek
19	Darg‘abog‘i
20	Ziyorat
21	Mallaishayx
22	Xo‘jakon
23	Qorahoji
24	Arabxona
25	Qoraun
26	Kamolot
27	Mirzaqal‘a
28	Chovli
29	Oq oltin
30	Mirob
31	Chandirobod
32	Bandboshi
33	Quyil Yangibozor
34	Arna
35	Quvvacha
36	Yangi qal‘a
37	Eski qal‘a
38	Zarafshon
39	Paxtakor
40	Chekirchi
41	Xo‘jalar
42	Do‘stlik
43	Tinchlik
44	Ketmondo‘g‘di

6.2. Mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi qishloqlar

Sayyot mahalla fuqarolar yig‘ini

Sho‘rko‘l – gidronim. Suvi sho‘r, ichishga yaroqsiz ko‘l ma’nosida.

Sayyod – etnotoponim. Turkiy urug‘lardan birining nomi.

Solur – solor, ya'ni turk-mo'g'ul tilidagi “boshliq, rahbar” so'zining o'zgargan shakli bo'lishi mumkin. Xitoy qabilalaridan birining nomi salor deyilgan¹.

Janapar – etnotoponim. Turkman urug'laridan birining nomi.

Alikaxo'ja mahalla fuqarolar yig'ini

Alikaxo'ja – toponimning ma'nosi bo'yicha ikki xil taxmini ilgari surish mumkin. Ali+aka+xo'ja deb hisoblanadigan bo'lsa, shaxs nomidan yasalgan joy nomini bildiradi. Turkman urug'laridan birining nomi sifatida talqin qilinsa, etnotoponimni anglatadi.

Janapar – etnotoponim. Turkman urug'laridan birining nomi.

Paykent mahalla fuqarolar yig'ini

Qizilrabot – qizil rangli butalar turkumiga kiruvchi o'simliklar yoki qizilcha deb ataluvchi buta o'sadigan yerda joylashgan rabot, qishloq.

Morli - marvlik iborasining buzilgan shakli bo'lishi kerak. Mor fors-tojik tilida ilon degani. Shundan kelib chiqib, ushbu atamani “ilonli” tarzida talqin qilish va ilonli joyni anglatuvchi toponim sifatida qabul qilish mumkin.

Qulonchi mahalla fuqarolar yig'ini

Obod qulonchi – kulon ovlash bilan mashg'ul aholi yashash manzili.

Kunduk – ma'nosi noma'lum joy nomi.

Sho'rrabot mahalla fuqarolar yig'ini

Sho'rrabot – sho'rzaminda joylashgan rabot.

Qorako'l mahalla fuqarolar yig'ini

O'tiq Do'rman – etnotoponim. Taxminimizcha, “o'troq do'rman” tarzida qo'llash maqsadga muvofiq. Do'rmanlar o'zbek qabilalardan biri. Movarounnahr hududiga XVI-XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kirib kelgan va Buxoro amirligi siyosiy hayotida faol ishtirok etgan. Zarafshon vohasi, shuningdek, mamlakatimizning janubiy hududlariga keng tarqalgan.

Do'rman – etnotoponim. Ta'kidlanganidek, do'rman o'zbek qabilalardan biri. Movarounnahr hududiga XVI-XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kirib kelgan va Buxoro amirligi siyosiy hayotida faol

¹Қаранг: Хўжаев А. Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.220.

ishtirok etgan. Zarafshon vohasi, shuningdek, mamlakatimizning janubiy hududlariga keng tarqalgan.

Qaymoqchi - qaymoq yetishtirib beruvchi qishloq.

Do‘rman mahalla fuqarolar yig‘ini

Katta Do‘rman – etnotoponim. O‘zbek qabilalardan biri. Movarounnahr hududiga XVI-XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kirib kelgan va Buxoro amirligi siyosiy hayotida faol ishtirok etgan. Zarafshon vohasi, shuningdek, mamlakatimizning janubiy hududlariga keng tarqalgan. Bir nomdagi bir necha Do‘rman qishlog‘ining eng kattasi.

Tojikent mahalla fuqarolar yig‘ini

Mo‘ytob – toblangan jun yoki soch ma’nosida. Jun yetishtiruvchi aholi istiqomat qilgan qishloq.

Galavek – Galabek atamasining o‘zgargan ko‘rinishi. Gala - “qishloq” o‘zagiga bek qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan toponim deb hisoblaymiz. Bunda “bekning qishlog‘i”, “bekqishloq”, “beklar yashaydigan qishloq” ma’nolari hosil bo‘ladi.

Tojikent – tojiqishloq ma’nosida. Tojik so‘zining qisqartma shaklidan yasalgan atama deb taxmin qilinsa, “tojik qishloq, tojiklar yashagan qishloq” ma’nosi kelib chiqadi. Buxoro vohasiing o‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholisidan farqli o‘laroq, o‘g‘uz-turkman tilida so‘zlashuvchi aholi tojikzabon aholiga nisbatan “tojik” atamasini qo‘llagan va ayrim hollarda hozir ham shunday.

Qozon mahalla fuqarolar yig‘ini

Qozon – qozonga o‘xshash qishloq yoki qozon yasovchilar qishlog‘i bo‘lishi mumkin.

Rabotliq – rabotdan iborat bo‘lgan mavze.

Zog‘orakash – makkajo‘xori unidan pishiriladigan zog‘ora uchun mahsulot etishtirib beruvchilar qishlog‘i.

Xo‘jalar - xo‘jalar ijtimoiy tabaqasiga mansub aholi yashaydigan qishloq. O‘zini Bahouddin Naqshbandning avlodi deb hisoblagan va bu to‘g‘rida shajarai nasabiyga ega zamondoshimiz Xo‘ja Isomiddin Muhiddinov shu qishloqda yashab o‘tgan.

Pirlar - ustozlar yashagan manzil. Atama ko‘proq diniy mazmun kasb etadi va din ahllari yashagan qishloqqa nisbatan qo‘llanilgan.

Istiqlol mahalla fuqarolar yig'ini

So'k-so'k – tozalangan, oqlangan tariq so'k deyilgan. Shuningdek, xom tariq, tariqdan tayyorlangan taom ham shu atama bilan ifodalangan. Hozirgi holatda tariq ekib yetishtiradigan yoki tariqdan tayyorlangan so'k taomini ko'p iste'mol qiladigan qishloq nazarda tutilmoqda.

Shexlar – shayxlar istiqomat qilgan qishloq. Shix yoki shex kabi turkiy urug'lar nomi asosida tarkib topgan toponim deb hisoblash ham mumkin. Bunday holda atama etnotoponim mazmunini oladi.

Jaloyir – etnotoponim. Jaloyir urug'lari yashagan joy. Turkmo'g'ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik qabilalar uyushmasi. XII asr oxiri XIII asr boshlarida jaloyirlarning salmoqli qismi Mo'g'uliston hududidan Yettisuv va Movarounnahrning ayrim viloyatlariga kelib o'rnishadilar. XIII-XIV asrlarda katta bir guruhi Ohangaron vodiysida yashagan. Amir Temur hukmronligining dastlabki davrida jaloyirlarning boshqa bir qismi Zarafshon bo'ylariga ko'chib o'tadi.

Surmachi – surma tayyorlovchilar yashagan qishloq. Surma – qosh va kipriklarni bo'yash uchun ishlatiladigan qoramtir pardozi bo'yog'i.

Yangiqishloq – aholining an'anaviy yashash manzilidan alohida holda, muayyan masofada qad ko'targan yangi turar joy.

Tashabbus mahalla fuqarolar yig'ini

Adham - ادهم bir qancha ma'nolarga ega: "qora", "ot", "qora ot", "poyband", ya'ni o'tmishda bandi – asirlarning oyog'iga uriladigan temir zanjir. Toponim ijtimoiy mazmunida qora ot yetishtiradigan, qora ot minib yuradigan aholi yashagan qishloq mavjudligi nisbatan haqiqatga yaqinroq.

Tashabbus – mustaqillik yillarida tarkib topgan zamonaviy nom.

Yangiturmush mahalla fuqarolar yig'ini

Hunarmand – hunarmandlar qishlog'i. Hunarmandchilikning muayyan sohasi bilan mashg'ul aholi istiqomat manzili.

Mo'ynachi – mo'yna yetishtirib beruvchilar qishlog'i. Cho'l etagida joylashgan qishloq aholisining asosiy mashg'ulotini ifoda etuvchi joy nomi.

Mirxo'ja – onoma. Shaxs nomi asosida shakllangan toponim.

Obod Chig‘atoy - Chingizxon o‘g‘illaridan biri Chig‘atoyga tegishli ulus – Movarounnahrda ko‘p uchraydigan joy nomi. (Toshkent shahridagi Chig‘atoy qabristoni nomi chingiziylardan qolgan). Hozirgi ko‘rinishda chig‘atoylar obod qilgan manzil ma’nosini beradi.

Qo‘hna Urganjiy – yuqorida ta’kidlanganidek, Buxoro vohasiga Urganchdan ko‘chib kelgan aholiga nisbatan “urganjiylar” atamasi ishlatilgan. Urganch tomonlardan ko‘chib kelgan aholi yashagan manzil. Urganchlik aholi bir qismining Buxoro vohasiga ko‘chib o‘tishi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi. Muhammad Xorazmshohning Malik Sanjar qo‘zg‘olonini bostirish uchun 1206-yil Buxoroga yurishi davrida kelib qolgan urganchlik aholi. Ikkinchi bosqich, XVII asrda Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon va Anushaxon hujumlari davrida vohada o‘rinlashgan urganchliklar.

Lakki – 1926-yil tuzilgan ro‘yxatda Lak-lak tarzida qayd etilgan. Lak so‘zi “yuz” ma’nosini beradi.

Jig‘achi mahalla fuqarolar yig‘ini

Jig‘achi - “jivachi” atamasining o‘zgargan shakli. Jiva, ya’ni sovut kiyib yuruvchi otliq va piyoda askarga nisbatan qo‘llanilgan. Jivachi Buxoro amirligida mansab pillapoyasining to‘rtinchisi hisoblangan¹.

Osiyo mahalla fuqarolar yig‘ini

Osiyo – tegirmonli qishloq. Tumanning chekka hududida, cho‘l etagida joylashgan qishloq.

Vaxim mag‘alla fuqarolar yig‘ini

Vaxim - vaqf yerlariga nisbatan ba’zan “vahm” iborasi qo‘llanilgan. Diniy muassasalarga tegishli yerlar hududida joylashgan qishloq.

Qoraqulonchi mahalla fuqarolar yig‘ini

Qoraqulonchi – Qorakulon (jonivorni) ovlovchilar, savdosi bilan shug‘ullanuvchilar yoki yetishtiruvchilar qishlog‘i. etnotoponim sifatida ham uchraydi.

Kulonlar, ya’ni otdan kichik, eshakdan kattaroq hayvon turi – xachirlar ko‘p uchraydigan joy. Bu hayvonlarning qo‘lga o‘rgatilgan xillaridan o‘tmishda minish va yuk tashish maqsadida foydalanilgan.

¹ Қаранг: Бабабеков Х.Н. К этимологии топонима “Коканд” // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. – Б. 123.

Darg‘ali mahalla fuqarolar yig‘ini

Qiyos – qiyot etnotoponimining o‘zgargan shakli. Qiyot o‘g‘uzlar tarkibidagi qadimgi turkiy qabilalardan biri. VIII-X asrlarda Dashti Qipchoqda yashab, chorvadorlik bilan shug‘ullanganlar. XI asrda O‘g‘uzlar davlatining emirilishi oqibatida qiyotlar bo‘linib ketadi va katta qismi hozirgi Turkmaniston hududi tomon siljib, mahalliy xalqlar tarkibiga singib ketadi. Boshqa qismi Bolqon yarim oroliga kelib o‘rnashib oladi. Qoraqalpoqlar tarkibidagi qiyotlar uchtamg‘ali, taroqli, bolg‘ali kabi bo‘g‘inlarga bo‘lingan. Qiyotlar Qashqadaryoning yuqori oqimi, Xorazm va Buxoro vohalari, Zarafshonning o‘rta oqimidagi hududlarga tarqalgan.

Org‘un – etnotoponim. Arg‘un qabilasi vakillari yashagan qishloq. Arg‘un, arg‘in qadimgi urug‘lardan birining nomi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk”¹ asarida arg‘u tarzida uchraydi. Ular o‘tmishda Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm hududlarida yashagan.

Tomqishloq – tabiiy-geografik o‘rniga ko‘ra, balandda, boshqa qishloqlarga nisbatan teparoqda joylashgan qishloq deb faraz qilish o‘rinli.

Darg‘ali – aslida dorug‘ali, ya‘ni o‘z dorug‘asi (rahbari)ga ega qishloq. Chig‘atoy ulusi, ya‘ni Movarounnahrda harbiy ma‘murlar dorug‘a deb atalgan.

Oqrabot – katta rabot, qatta qishloq ma‘nosini beradi.

Mirobariq – ikki tarkibiy qismdan iborat toponim: mirob+ariq. Mirob o‘rta asrlarda suv taqsimoti, ariq suvlarini xo‘jaliklarga to‘g‘ri taqsimlanishini nazorat qiluvchi amaldor hisoblangan. Toponim mazmunida kichik ariqlar suv oladigan asosiy yirik ariq joylashgan qishloq ifoda topgan.

Shakarbek mahalla fuqarolar yig‘ini

Chatqash – shaklan chotkash so‘ziga yaqinligi toponimning shu atama asosida vujudga kelganligiga ishora qiladi. Bunda toponim ikki komponentli so‘z birikmasidan tashkil topganligi ayon bo‘ladi: chot+kash. Chot so‘zining toponim tabiiy-geografik holatiga mos keladigan ma‘nosi - “kichik, yassi tepa”, “yassi bag‘ir, kash, kashidan

¹Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк / Солиҳ Муталлибов таржимаси асосида нашрга тайёрловчи Қосимжон Содиков. – Тошкент: Ғафур Ғулум нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

esa fors-tojik tilida “tortmoq” ma’nosini anglatadi. Atamaning umumiy, ko‘chma ma’nosi “kichik, yassi tepa barpo qilmoq”.

Shakarbek – onoma. Shaxs nomi asosida yasalgan toponim.

Darg‘abog‘i mahalla fuqarolar yig‘ini

Darg‘abog‘i – dorug‘aga tegishli bo‘lgan bog‘. Yuqorida ta’kidlanganidek, Chig‘atoy ulusi, ya’ni Movarounnahrda harbiy ma’murlar dorug‘a deb atalgan.

Ziyorat mahalla fuqarolar yig‘ini

Yakkaa’lam - Qorako‘l tumanidagi Nahri ziyorat mavzesi tarkibidagi qishloq. A’lam o‘rta asrlardagi diniy lavozim. Fiqh, ya’ni islom huquqi, shariat qonun-qoidalarini yaxshi bilgan kishilar a’lam lavozimini egallashi mumkin bo‘lgan. Muftilar tuzgan fatvo va rivoyatga a’lam muhr bosgandan keyin, u kuchga kirgan. Shu hujjat asosida qozilar hukm chiqargan. Odatda a’lam muftilar boshlig‘i sanalgan. Yakka A’lam toponimi tarixiy mazmunga ega bo‘lib, shu qishloqda iste’dodli, fiqh ilmida yagona a’lam istiqomat qilganidan yoki qishloqqa asos solganidan dalolat beradi. Yakka A’lam, Nahri ziyorat toponimlari O‘zbekiston Milliy arxivining I-126 fondida saqlanayotgan hujjatlar tarkibida نهر زیارت یکه اعلم ko‘rinishida qayd etilgan.

Qumobod – qumli obod maskan ma’nosida. Joyning tabiiy-geografik o‘rniga qiyos tariqasida vujudga kelgan atama.

O‘rikzor – o‘rikzorlarga boy maskan. Hozirgi holati mazmunga muvofiq kelmasa-da, atama tarixiy toponim sifatida iste’molda.

Regi Haydar – ikki tarkibiy qisimli joy nomi. Reg (ریگ) - “qum”, haydar (حیدر) - “sher” ma’nolarini bildiradi. Toponimning shaxs nomi asosida yasalganligi inkor qilingan taqdirda, majoziy ma’noda “katta qum”, “sherdek kuchli, haybatli qum” ma’nolarini anglatadi.

Charmgar – charm mahsulotlari tayyorlovchi kosiblar qishlog‘i.

Rohatibolo –yuqorida joylashgan Rohat qishlog‘i. Toponim tarkibida qishloqning rohatmakon ekanligiga ishora mavjud.

Mallaishayx mahalla fuqarolar yig‘ini

Mallaishayx – mallashayxlar istiqomat qilgan qishloq. Malla (sariq) kiyim kiyib yuruvchi shayxlar nazarda tutilgan. Ikkinchi

taxminga ko‘ra, mahallaishayx, ya’ni shayxlar mahallasi atamasining buzilgan shakli.

Obod Mirishkor - “miri shikor”, ya’ni “ovchilarning miri, amiri, boshlig‘i” ma’nosida. Saroyda maxsus mirishkor lavozimi bo‘lgan. Mirishkorlar yashagan obod qishloq ma’nosini bildiradi. Shuningdek, turkiy qavmlardan birining nomi sifatida ham talqin qilinadi. Bunda atama etnonimga aylanadi.

Rohatipoyon –quyida joylashgan Rohat qishlog‘i. Toponim tarkibida qishloqning rohatmakon ekanligiga ishora mavjud.

Yuqori Mirobod – amirobod so‘zining qisqartirilgan mazmuni asosida tarkib topgan toponim. Amir, hukmdor obod qilgan mavze.

Yangiqishloq - aholining an’anaviy yashash manzilidan alohida holda, muayyan masofada qad ko‘targan yangi turar joy.

Xo‘jakon mahalla fuqarolar yig‘ini

Yangiobod – zamonaviy nom. Yangidan obod qilingan mavze, yangi tashkil topgan aholi punkti. Tarixiy atama ham bo‘lishi mumkin, chunki “yangi” so‘zi qo‘shib yasalgan toponimlar o‘tmishda ham bo‘lgan.

Hunarmand – hunarmand aholi yashagan qishloq.

Xo‘jakon – aslida “gon” ko‘plik qo‘shimchasi yordamida yasalgan Xo‘jagon nomli qishloq, ya’ni xo‘jalar yashagan qishloq.

Boxkanda – “bog‘kanda” atamasining buzilgan ko‘rinishi. Bunda “uzilgan bog‘”, shuningdek, “qazilgan bog‘” ma’nolari tarkib topib, ko‘chma ma’noda “buzilgan bog‘” atamasi hosil bo‘ladi. Yangilash, boshqa joyga ko‘chirish maqsadida buzilgan bog‘ atrofidagi qishloq nazarda tutilgan.

1926-yilgi ro‘yxatda Bog‘iganda ko‘rinishida qayd etilgan. Bunda toponim “yomon bog‘”, “tashlandiq bog‘” ma’nosini oladi. Har ikkala ma’lumotni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Qorahoji mahalla fuqarolar yig‘ini

Qorahoji – katta hoji ma’nosini anglatib, hoji maqomini olgan obro‘li inson yashagan qishloq nazarda tutilgan.

Qandim – qumda o‘sadigan buta, o‘simlik qandim deb ataladi. Shu turdagi o‘simlik bilan qoplangan hudud. Cho‘l bag‘rida shu nomdagi mavze mavjud bo‘lib, uning hududi tabiiy konlarga boyligi bilan iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Arabxona mahalla fuqarolar yig‘ini

Arabxona – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida

uchraydi. Bir tumanning o'zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrda kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrda yurishlari davrida Damashq va Bag'dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o'rinishib oldilar. Movarounnahrda sayyidlar va xo'jalar o'z kelib chiqishlarini arablar bilan bog'laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg'ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho'jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrda ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog'i yuqori bo'ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Arablar o'tgan asrning 60-70-yillarigacha o'z tillarini saqlab qoldilar. G'ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o'z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo'lishidan qat'iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Arababdol - “abdol” diniy ibora sifatida Allohga yaqin kishilarga, Allohni do'st tutuvchilarga qarata qo'llanilgan. “Allohni do'st tutuvchi arab” yashagan qishloq ma'nosida.

Qoraun mahalla fuqarolar yig'ini

Qoraun – ikki qismdan, ya'ni qora+un so'zlaridan tarkib topgan joy nomi. Qora so'zining rangni anglatishdan tashqari, boshqa, kuchaytiruvchi ma'nosi borligi ushbu toponimga tatbiq qilinsa, mo'l, ko'p g'alla, un yetishtiruvchi qishloq nazarda tutilganligi ma'lum bo'ladi. Demak, ko'p un yetishtiruvchi qishloqqa nisbatan qo'llanilgan atama.

Kamolot mahalla fuqarolar yig'ini

Kamolot – zamonaviy, mustaqillik yillarida shakllangan nom.

Mirzaqal'a – o'tmishda mirzalar istiqomat qilgan qal'a-qo'rg'on. Bizningcha, toponim “marzaqal'a” atamasining o'zgarishga uchragan shakli hisoblanadi. Bunday holatda “ekin yerlariga ega qal'a-qishloq, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qishloq” ma'nolari kelib chiqadi.

Xosxo'rda – xos, maxsus taomlarni tanovul qiluvchilar qishlog'i. Umuman xos, alohida e'tiborga sazovor shaxslar yashagan qishloq.

Ko'hna Kulonchi – azaldan kulon (jonivorni) ovlovchilar, savdosi bilan shug'ullanuvchilar yoki yetishtiruvchilar qishlog'i. etnotoponim sifatida ham uchraydi.

Kulonlar, ya'ni otdan kichik, eshakdan kattaroq hayvon turi – xachirlar ko'p uchraydigan joy. Bu hayvonlarning qo'lga o'rgatilgan xillaridan o'tmishda minish va yuk tashish maqsadida foydalanilgan.

Yangizamon - zamonaviy, mustaqillik yillarida shakllangan nom.

Mirzaqal'a mahalla fuqarolar yig'ini

Mirzaqal'a – o'tmishda mirzalar istiqomat qilgan qal'a-qo'rg'on. Yaqorida ta'kidlanganidek, bizningcha, toponim "marzaqal'a" atamasining o'zgarishga uchragan shakli hisoblanadi. Bunday holatda "ekin yerlariga ega qal'a-qishloq, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qishloq" ma'nolari kelib chiqadi.

Chovli mahalla fuqarolar yig'ini

Chovli (jovli) – etnotoponim. Turk-mo'g'ul urug'laridan biri. Mang'itlar tarkibida bo'lgan.

Yochili – etnotoponim. Turkiy urug'lardan birining nomi.

Qirqqal'a – qirq qal'adan iborat mavze. Toponimni qirqal'a so'zining buzilgan talaffuzdagi ifodasi deb taxmin qilsak, "qirdagi qal'a" ma'nosini bildiradi.

Guliston – go'zal maskanga nisbat berib tarkib topgan toponim.

Navbahor – yangi bahor ma'nosini beradi. Joyning tabiiy-geografik o'rni va holatiga qiyos tarzida shakllangan atama.

Oq oltin mahalla fuqarolar yig'ini

Do'koncha – do'konchadek ixcham, kichik qishloq.

Bog'ieram – afsonaviy eram bog'idek xushhavo, obod va go'zal bog'dan iborat mavze. Shu sifatlarga qiyos tariqasida tarkib topgan joy nomi.

Mirob mahalla fuqarolar yig'ini

Mirob – o'rta asrlarda suv taqsimoti, ariq suvlarini xo'jaliklarga to'g'ri taqsimlanishini nazorat qiluvchi amaldor yashagan qishloq.

Fozilxo‘ja – onoma. Shaxs nomidan olingan toponim.

Chandirobod mahalla fuqarolar yig‘ini

Chandir - etnotoponim. VIII-IX asrlarda Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi, Orol dengizining janubidagi cho‘llarda yashovchi o‘g‘uzlar tarkibida bo‘lgan qabila. Keyinchalik chandirlarning bir qismi Movarounnahrda o‘tib o‘zbeklar tarkibiga singib ketgan bo‘lsa, ikkinchi qismi hozirgi Turkmaniston hududiga siljib, turkmanlar bilan aralashib ketadi.

Bandboshi mahalla fuqarolar yig‘ini

Bandboshi - sug‘orish tarmog‘ining boshlanish joyiga tashlangan banddan kelib chiqqan bo‘lishi kerak. Sug‘orish tarmog‘ining boshlanish qismida joylashgan qishloq.

Quyi Yangibozor mahalla fuqarolar yig‘ini

Qo‘lva – g‘ulba atamasiing o‘zgargan shakli bo‘lgani haqiqatga yaqinroq. Asosiy ariq bilan qo‘shimcha kichik ariq, jilg‘alarni tutashtirish uchun ishlatilgan sopol quvur “g‘ulba” deb atalgan. Shuningdek, ushbu toponimni kulba atmasining buzilgan ko‘rinishi deb hisoblab, joyning kulbadek kichikligidan darak beruvchi nom degan taxmini ham ilgari surish mumkin.

Sayyod - sayyod صياد ya‘ni “ovchi” so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lishi kerak.

Nimpaykal – yarim paykal ma‘nosida. Joyning tabiiy-geografik holati va ziroatchilik bilan bog‘liq toponim.

Qumqishloq – qumli mavzeda joylashgan qishloq. Joyning tabiiy o‘rni va holatini ifoda etuvchi toponim.

Arna mahalla fuqarolar yig‘ini

Mirpo‘lat – onoma. Shaxs nomi bilan atalgan toponim.

Chovurchi – etnotoponim. Turkiy qabilalardan birining nomi.

Arna - arna “nahr, anhor” so‘zlaridan yasalgan toponim. Suv inshooti, sug‘orish tizimi bilan bog‘liq joy nomi.

Quvvacha mahalla fuqarolar yig‘ini

Quvvacha – qubbacha so‘zining buzilgan shakli degan taxmini ilgari surish mumkin. Tashqi ko‘rinishi qubbani eslatuvchi qishloqqa qarata ishlatilgan atama. Yoki qubba tayyorlovchilar qishlog‘i bo‘lishi mumkin.

Yangi qal‘a mahalla fuqarolar yig‘ini

Yangi qal‘a – o‘z davrida yangi barpo etilgan o‘rta asr qal‘asi.

Eski qal'a mahalla fuqarolar yig'ini

Quyi Sarbozor – bozor boshida joylashgan qishloqning quyi qismi.

Eski qal'a – o'rta asrlarga oid eski qal'a.

Tabiblar – o'tmishda mahalliy tabiblar istiqomat qilgan qishloq.

Sarbozor – bozor boshida joylashgan qishloq.

Tosh ko'cha – tosh, asosan qayroqtosh terib chiqilgan yoki tabiiy toshli yerda vujudga kelgan qishloq ko'chasi.

Hunarmandlar – hunarmandchilikning turli sohalariga, jumladan, qishloq xo'jalik mehnat qurollari yasashga ixtisoslashgan qishloq.

Zarafshon mahalla fuqarolar yig'ini

Tayqir - “tagiqir”, ya'ni “qir osti, qir yaqini” atamasining o'zgargan shakli bo'lishi kerak.

Paxtakor mahalla fuqarolar yig'ini

Shohimardon – onoma. Shaxs nomini ifoda etuvchi toponim. Shuningdek, ulug'lik, mahobatlilik sifatini anglatuvchi atama.

Chekirchi mahalla fuqarolar yig'ini

Chekirchi – chegirchi, chegiruvchi. Lug'aviy ma'nosi jihatdan biror narsa tarkibidan ma'lum qismni chiqarib, chegirib tashlashni anglatadi va ko'proq moliyaviy masalalarga daxldor. Hozirgi vaziyatda esa, u yoki bu qishloqning katta qishloq tarkibidan chiqarilgan qismini anglatuvchi toponim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mingchinor – chinorli mavzening tabiiy ko'rinishini aks ettiruvchi toponim. Uning nomi bu joyda chinorlarning behad ko'pligi bilan belgilangan.

Paykent – Buxoro vohasidagi qadimiy shahar xarobasi. Hozir ham mavjud. Narshaxiy uni Boykend deb atagan va Buxorodan qadimiyroq deb hisoblagan. Atamaning etimologiyasi xususida talqinlar deyarli mavjud emas. Shahar arab va mahalliy tarixchilar tomonidan “Madinat ut-tujjor” (Savdogarlar shahri) tarzida tilga olingan va muhim savdo markazi sifatida e'tirof etilgan. Narshaxiy ta'rifidagi Boykend keyinchalik Poykendga aylangan va hozirgi paytda ba'zan Paykent, ba'zida Poykent shaklida iste'molda uchraydi. Poykent “quyida, pastda joylashgan qishloq” ma'nosini bildiradi. Shahar 673 yil arab lashkarboshisi Ubaydulla ibn Ziyod tarafidan hujumga duchor etilgan bo'lsa, 706 yil Qutayba ibn Muslim uni butunlay istilo qildi. Shahar boyligidan arablar hayratga tushishgan va

katta miqdordagi oltinni eritib olganlar. Qoraxoniylar hukmdori Arslonxon XII asrda shaharni bir muddat qayta tiklashga erishgan bo'lsa-da, keyinchalik Zarafshon suv tizimidagi o'zgarishlar uni xarobaga aylanishga olib keldi. Qadimiy yodgorlikda muntazam ravishda arxeologik tadqiqotlar olib boriladi. Yodgorlik oldida muzey mavjud.



Paykent arxeologik yodgorligi

Xo'jalar mahalla fuqarolar yig'ini

Xo'jalar – imtiyozli tabaqa vakillari hisoblangan xo'jalar istiqomat qilgan qishloq.

Do'stlik mahalla fuqarolar yig'ini

Fayzobod – fayzli va obod maskan ma'nosini anglatadi.

Hasanak – toponim tarkibidagi hasan o'zagi “go'zal, yaxshi” ma'nolarini bildiradi. Shu qishloq tabiiy sifatlarining e'tirofi tariqasida tashkil topgan toponim.

Tinchlik mahalla fuqarolar yig'ini

Chuqursoy – soy yaqinida joylashgan qishloq.

Ketmondo'g'di mahalla fuqarolar yig'ini

Ketmondo'g'di – 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro'yxati”da Ketmoni Dovudi (کیتمنی داودی) nomi ostida qayd etilgan. Toponimning aynan Ketmoni Dovudi deb nomlanishi uning tarixiy-ijtimoiy ma'nosiga mos keladi. Zero, toponim mazmunida temirchilik kasbi bilan shug'ullangan Dovud payg'ambar va bir paytning o'zida podsho tomonidan yasalgan ketmonga majoziy ishora mavjud. O'rta asrlarda bu qishloq ahlining Dovud payg'ambarnikidek mustahkam mehnat quroli - ketmon yasashga ixtisoslashganligi ushbu toponimni vujudga kelishiga asos bo'lgan degan to'xtamga kelish mumkin.

Ayni paytda bu qishloqning Ketmondo‘g‘di deb atalishi davr o‘tishi bilan nomining o‘zgarishga uchraganidan dalolat beradi. Demak, ushbu toponim **Ketmoni Dovudi** tarzida yozilishi va talaffuz qilinishi kerak.

Qisqacha xulosa

Ko‘rib o‘tilgan masalalar yuzasidan fikrlarimizni umumiyLashtiradigan bo‘lsak, Qorako‘l tumani hududi mamlakatimiz ibtidoiy davr tarixining boy ashyoviy manbalarga ega manzillaridan biri ekanligini e‘tiborga olishni taqozo qiladi. Shunday manzil arxeologlar diqqatini tortgani ham fakt. Zamonbobo, Paykent yodgorliklari uzoq davlatchilik tariximizdan so‘zlovchi tilsiz guvohdir. Toponim, gidronim, etnotoponimlar esa madaniy meros ob‘ektlariga tenglashtirilgan yodgorlik namunalariDir.

Tayanch so‘z va iboralar: voha, qir, cho‘l, janubiy-g‘arbiy qism, daryoning quyi oqimi, aks ettirgan, milliy arxeologiya, ulkan ko‘l, Zarafshon vohasi, Zarafshon daryosi, geografik atama, Zamonbobo yodgorligi, dehqonchilik madaniyati, Poykent yodgorligi, gidronim, turkiy urug‘lar, ijtimoiy tabaqa, nazarda tutmoq.

Savol va topshiriqlar

1. Qorako‘l tumani hududiy chegaralarini belgilab bering?
2. Tuman hududida joylashgan ibtidoiy madaniyat manzilgohi qanday nomlanadi?
3. Qaysi arxeolog olimlar Qorako‘l tumani hududida arxeologik tadqiqotlar olib borgan?
4. Transformatsiyaga uchragan Ketmondo‘g‘di toponimining vujudga kelishida qaysi atama asos bo‘lgan?
5. Yakkaa‘lam toponimi to‘g‘risida ma‘lumot bering?
6. Tumandagi etnotoponimlarni sanab o‘ting?
7. Paykent shahriga arablar dastlab qanday nom berishgan?
8. Ma‘nosi noma‘lum, shuningdek, shaxs nomlari bilan ataluvchi toponimlar bo‘yicha o‘z-fikr mulohazalaringizni o‘rtaga tashlang?
9. O‘zingiz yashayotgan ko‘cha, mahalla, qishloq nomining ma‘nosi va tarixi to‘g‘risida qisqacha axborot tayyorlang?

7-MAVZU: OLOT TUMANI TOPONIMLARI

7.1. Olot tumanining tashkil topishi va hududiy chegaralari

7.2. Mahalla fuqaro yig'inlari tarkibidagi qishloqlar

7.1. Olot tumanining tashkil topishi va hududiy chegaralari

Olot tumani 1943-yil 14-fevralda tashkil topgan. Ma'muriy – hududiy ixchamlashtirish siyosati doirasida uning maqomi qayta ko'rib chiqilib, 1960-yil qo'shni Qorako'l tumaniga qo'shib yuborilgan. 1973-yil yana qayta tashkil etilgan. Dastlabki davrda paxtachilik sohasida respublikaning peshqadam tumanlaridan biriga aylandi. Lekin 80 – yillarning boshlarida tuman ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergan muammolarning salbiy oqibatlari, surunkali turg'unlik holatlari natijasi o'laroq, 1983-yil yana Qorako'l tumani tarkibiga kiritildi. 1989-yildan esa Olot yana alohida tuman maqomiga ega bo'ldi.

Tuman Buxoro viloyatining janubiy g'arbida joylashgan. Janub va janubiy sharqdan Qashqadaryo viloyati, janubiy g'arbdan 75 kilometr masofada Amudaryo orqali Turkmanistonning Lebap viloyati, shimoliy g'arb va shimoliy sharq tomondan Buxoro viloyatining Jondor, Qorako'l, Buxoro, Qorovulbozor tumanlari bilan chegaradosh.

Tuman nomi sanalgan Olot atamasi o'zbek urug'laridan biri orlot nomidan olingan va ushbu etnotoponimning o'zgargan shakli hisoblanadi.


Olot tumani hududi Zarafshon daryosining eng quyi qismida, Korako'l del'tasidagi tekislikda joylashgan. Hududda yuzga yaqin ko'l qoldiqlari mavjud. Jumladan, Dengizko'l, Somonko'l, Qorong'iko'l, Sho'rko'l, Xo'jamsayod, Qarag'anjida va hokazolar. Yer osti sizot suvlari yaqin bo'lganligi sabab tuman hududida 130 dan ortiq quduqdan foydalaniladi. Yirik gidrotexnika inshootlari va nasos stantsiyalari Amu-Buxoro, Amu-Qorako'l kanallari suvini ekin yerlariga yetkazib berishga xizmat qiladi. Tuman hududi tabiiy gaz, tuz va qurilish materiallari zaxirasiga ega.

Mustaqillik yillarida tumanda sanoat korxonalarini, litsey, kollej binolari qurildi. Qo'shni Turkmaniston bilan savdo-iqtisodiy

aloqalarni rivojlantirish maqsadida Xo‘jadavlat bojxona maskani tashkil etildi.

Keyingi to‘rt yilda Buxoro-Olot, Olot-Toshkent temiryo‘l qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Tuman markazida madaniy-maishiy, ma’rifiy ahamiyatga molik qator zamonaviy binolar qurib bitkazildi. 2020-yil aprel oyida tumanda yuz bergan tabiiy ofatning salbiy oqibatlari Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tezkor chora-tadbirlari natijasida qisqa muddatda bartaraf qilinib, aholi uchun yangi, zamonaviy turar joylar qurib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil Buxoro viloyatiga tashrifi Olot tumanidan boshlandi. Davlatimiz rahbari bu erda tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf qilish borasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi va kerakli ko‘rsatmalar berdi.



Buxoro viloyati tarkibidagi Olot tumani xaritasi (sariq rangli)

Olot tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini
1	Chovdur
2	Kesakli
3	Soinqorovul
4	Asajam
5	Usmonshayx
6	Yoshbotir
7	Bo‘ribek Chandir

8	G‘anchi Chandir
9	Xidreyli
10	Qirtay
11	Ko‘l Chovdur
12	Bayot
13	Qumkashon
14	Opshoq
15	Dilkor
16	Qirlishon
17	Denov
18	Ko‘kko‘z
19	Pichoqchi
20	Balandmachit
21	Oq oltin
22	Burjoq
23	Soloqorovul
24	Arabxona
25	Akkali

7.2. Mahalla fuqaro yig‘inlari tarkibidagi qishloqlar Chovdur mahalla fuqarolar yig‘ini

Chovdur - etnotoponim. O‘g‘uz- turkman urug‘laridan birining nomi.

Tomjiq – tomchi atamasining o‘zgarishga uchragan ko‘rinishi bo‘lgani ehtimol. Bunda tomchidek kichik qishloq nazarda tutilgan.

Muxtor – o‘ziga mustaqil qishloq ma’nosini bildiradi.

Kundali – mavzening tabiiy geografik o‘rni asosida tarkib topgan toponim. Kesilgan daraxtlarning kunda qoldiqlari ko‘p saqlanib qolgan qishloq yerlari.

Shayxlar mahalla fuqarolar yig‘ini

Shixlar – shayxlar yashagan qishloq. Yuqorida qayd etilganidek, shix yoki shex kabi turkiy urug‘lar nomi asosida tarkib topgan toponim deb hisoblash ham mumkin. Bunday holda atama etnotoponim mazmunini oladi.

Bog‘qishloq – mavzening tabiatini aks ettiruvchi toponim bo‘lib, qishloqning bog‘lardan iborat ekanidan darak beradi.

Kesakli mahalla fuqarolar yig'ini

Kesakli – joyning geografik o'ri va tabiiy xususiyatlari aks etgan toponim.

Soinqorovul mahalla fuqarolar yig'ini

Xo'jadavlat - Xo'jadavlat tarixiy shaxs nomi. Ashtarxoniylar davrida, XVIII asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan amaldor. Saroy fitnalari davrida hajga jo'natilib, ortidan qotillar yollanadi va hozir shu nomda yuritilayotgan mavzeda qatl qilinadi¹. Joy uning nomi bilan atalgan. Bu yerda hozirgi paytda yirik bojxona mahkamasi joylashgan.

Soinqorovul – soin (صاین) arabchada “kuzatib turuvchi, qarab turuvchi, muhofaza qiluvchi” ma'nosini bildiradi. Bizning misolimizda bu toponim o'sha joyni qo'riqlab turuvchi qishloq ahliga nisbatan qo'llanilgan.

Asajam mahalla fuqarolar yig'ini

Qosimariq - toponimning birinchi qismini tashkil etuvchi qosim قاسم so'zi “taqsimlovchi” ma'nosini beradi. Bundan suv taqsimlovchi ariq ma'nosi kelib chiqadi.

Olot – etnotoponim. O'zbek urug'laridan birining nomi. Orlot etnotoponimining o'zgargan shakli. Respublikamiz hududiga keng tarqalgan etnotoponim. Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko'p uchraydi.

Asajam – aslida Asadjam shaklida bo'lgan. Asad – sher degani. “Sherlar jam bo'ladigan, to'planadigan joy”, “sherlar makoni” ma'nosini beradi. Shuningdek, musulmon quyosh taqvimi bo'yicha asad beshinchi oy hisoblanadi. Toponim shakllanishida buning qanchalik ahamiyati borligi mulohazaga chorlaydigan masala hisoblanadi.

Usmonshayx mahalla fuqarolar yig'ini

Sheraklar – شیرک lug'aviy ma'nosi “jasur, botir, dovyuraklar”. Aholining shu sifat va atvoridan kelib chiqib nomlangan qishloq.

Qipchoqqorovul – etnotoponim. Qipchoq qabilalari uch yirik bo'g'inidan birining nomi.

Usmonshayx – onoma. O'tmishda Usmon ismli shayx yashagan qishloq.

¹ Қаранг: История Абулфейз-хана / Перевод с таджикского, предисловие и примечания А.А.Семенова.- Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1959. – Б. 36.

Zargarqayroq – zargarlikda ishlatiladigan qayroq koni mavjud mavze.

Tikonchi – o‘tmishda aholisi tikan o‘rish bilan shug‘ullangan yoki tikanli hududda joylashgan qishloqqa nisbatan paydo bo‘lgan toponim. Joyning tabiiy-geografik holatini bir qadar ifoda etadi. Buxoro vohasining boshqa hududlarida ham uchraydi. Bu to‘g‘rida oldingi o‘rinlarda ma’lumot berildi.

Yoshbotir mahalla fuqarolar yig‘ini

Bo‘ston – chamanzor, obod maskan nazarda tutilgan holda paydo bo‘lgan toponim.

Yoshbotir – navqiron, shijoatli, qo‘rqmas yosh avlod yashaydigan manzilni anglatadigan toponim.

Qatortepa – geografik o‘rniga ko‘ra tepaliklar tizilgan mavze.

Bo‘ribek Chandir mahalla fuqarolar yig‘ini

Bo‘ribek chandir – onoma. Chandir urug‘iga mansub shaxs nomi bilan ataluvchi qishloq. Chandir urug‘ining bir tarmog‘i sifatida ham izohlash mumkin.

Chandir - etnotoponim. O‘g‘uzlar tarkibidagi urug‘. VIII-IX asrlarda ular Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi, Orol dengizining janubidagi cho‘llarda yashagan. Chandirlarning bir qismi keyinchalik Movarounnahrda ko‘chib o‘tib mahalliy aholi bilan qo‘shilgan, ikkinchi qismi hozirgi Turkmaniston hududiga kelib o‘rnashib turkmanlar bilan aralashib ketgan. XIX asr oxiri va XX boshlarida chandirlarning ayrim guruhlarini yarim o‘troq hayot kechirib, asosan chorvachilik, qolganlari qishloqlarda yashab dehqonchilik bilan shug‘ullangan

G‘anchi Chandir mahalla fuqarolar yig‘ini

G‘anchi chandir – onoma. Chandir urug‘iga mansub shaxs nomi bilan ataluvchi qishloq. Chandir urug‘ining bir tarmog‘i sifatida ham izohlash mumkin.

Xidreyli mahalla fuqarolar yig‘ini

Xidreyli – etnotoponim. Turkmanlarning xizr eli urug‘i nomi asosida yasalgan toponim.

Zangiota – “qora ota” ma’nosini bildiradi. Yassaviya tariqati namoyandalaridan biri Zangiota maqbarasi Toshkent yaqinida joylashgan. Olot tumanidagi ushbu joy esa mazkur shayxning qadamjosi hisoblanadi. Har ikkala toponim bir-biridan mustaqil tarzda paydo bo‘lgan.

Chagas – tagas soʻzining notoʻgʻri talaffuzi natijasida ushbu shaklni olgan toponim deb faraz qilamiz. Tojik tilining Buxoro shevasida uzum donalari uzib olingandan soʻng qoladigan shoxchalarga tagas (تگس) deyiladi¹. Toponimning paydo boʻlishiga tokzorlarga ega, uzumchilik bilan shugʻullanuvchi qishloq aholisining mashgʻuloti asos boʻlgan.

Toponim bilan bogʻliq boshqa holatni ham inobatga olish kerak. Yaʼni, baʼzan qurilish ashyosi sifatida foydalaniladigan tuproq bilan qumning tabiiy aralashmasi Buxoro shevasida chaga deyiladi. Atamaning paydo boʻlishida oʻsha joyning shunday tabiiy xususiyatlarga egaligi hisobga olingan boʻlishi mumkin.

Bostom – arab mamlakatlaridan birining Bastom, Bistom shahriga taqlid tariqasida vujudga kelgan joy nomi deb izohlash mumkin. Samarqand atrofida joylashgan Damashq, Forish va boshqa Amir Temur orzusidagi bir necha qishloqlar bunga misol boʻla oladi.

Shuningdek, fors-tojik tilidagi boston (باستان), yaʼni “qadimiy, qadimgi” soʻzining “bostom”ga aylanishi oqibatida shakllangan toponim deb hisoblab, atama joyning qadimiyligiga ishora qiladi, degan fikrni ham taklif etamiz.

Qirtay mahalla fuqarolar yigʻini

Qirtay – qirning tagi, qir etagi soʻzining buzilgan shakli deb taxmin qilamiz. Qirga yaqin joydagi qishloqqa nisbatan qoʻllanilgan atama. Shuningdek, oʻgʻuz qabilalarining bir tarmogʻi sifatida ham izohlashga moyillik mavjud.



Qandim neftʻ va gaz kompleksi

Koʻl Chovdur mahalla fuqarolar yigʻini

Koʻl chovdur – gidroetnonim. Chovdur qabilasi vakillariga tegishli koʻl.

¹ Қаранг: Садриддин Айни. Куллиёт. Жилд 12. – Душанбе: Ирфон, 1976. – Б. 369.

Paxtakor mahalla fuqarolar yig'ini

Kattabayot – etnotoponim. Bayot- qadimgi o'g'uz qabilalaridan birining nomi. Turkman tili lahjasida so'zlashuvchi aholi. Buxoro vohasining Qorako'l, Olot tumanlari aholisiga xos lahja. Bayotlar IX-X asrlarda Dashti Qipchoqda yirik o'g'uz qabilalariga bosh bo'lgan. XVI asr boshlarida shimoliy turkman qabilalari tazyiqi ostida bayotlarning katta guruhi Amudaryoning o'rta oqimi atroflari va Buxoroning Qorako'l vohasiga ko'chib o'tgan.

Sherqishloq – shersifat, dovyurak odamlarning qishlog'i. Sho'rqishloq so'zining o'zgargan shaklidan tarkib topgan atama deb taxmin qilish mumkin. Bunda yerlari sho'r mavze nazarda tutiladi.

Sho'rkashon – sho'rni tortuvchi mavze. Joyning tabiiy-geografik o'rni va holatini anglatuvchi atama.

Bayot mahalla fuqarolar yig'ini

Qassobbayot – bayot urug'iga mansub qassoblar yashagan qishloq.

Bahrimbayot – “Bahrombayot”, ya'ni bayot urug'idan bo'lgan Bahrom ismli shaxs nomidan olingan yoki ikki qabila – bahrin va bayot qabilalari yashagan qishloqqa nisbatan qo'llanilgan atama bo'lishi mumkin.

Qumkashon mahalla fuqarolar yig'ini

Qalqon – qalqon yasovchilar qishlog'i yoki tabiiy geografik o'rniga ko'ra qalqonni eslatuvchi qishloq.

Qumkashon – lug'aviy ma'nosi “qum tashuvchilar”. Qumli, istiqomat manzili qumdan, ayniqsa muntazam ko'chib turgan qumlardan tozalab turilgan joy.

Opshoq mahalla fuqarolar yig'ini

Obshoq – ikki qismdan iborat joy nomi. Fikrimizcha, tojik tilidagi ob – “suv” va tojik tilining Buxoro shevasidagi shoqq (شاق), ya'ni “qiyin”, “mashaqqatli”, “sermashaqqat” so'zlaridan tarkib topgan. Jilovlash qiyin bo'lgan suv, ya'ni ariq yoqasida joylashgan qishloqqa nisbatan qo'llanilgan atama.

Atama etnik tarmoqlardan birining nomini anglatgani to'g'risidagi mulohazani ham inobatga olish mumkin.

Quyi Guliston – tabiiy holati, go'zal va so'lim maskanligini anglatuvchi sifatlardan kelib chiqib Guliston deb atalgan qishloqning quyi qismi.

Chig‘atoy - o‘rta asrlarda Chingizxon o‘g‘illaridan Chig‘atoyga mulk qilib berilgan hududlar, ya‘ni Movarounnahrda keng tarqalgan toponim. Chig‘atoylar yashagan hudud.

Qorliq – etnotoponim. O‘g‘uz bo‘g‘inidagi qarluq qabilasining nomidan olingan. Abulg‘ozixonning yozishicha, O‘g‘uzxon navbatdagi yurishga otlanib, hech kimning qo‘shindan orqada qolmasligi to‘g‘risida farmon berdi. Iliq shamollar esib bahor boshlandi. O‘g‘uzxon askarlarni sanab chiqqanda, bir necha kishining qo‘shin tarkibida yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi. Lekin ularning kimligini hech kim aytib bera olmadi. Bir necha kundan so‘ng o‘sha kishilar O‘g‘uzxon oldiga kelib, qo‘shin ortidan ketayotganda qalin qor yog‘ib tog‘larda qolib ketishganini, ot va tuyalari o‘lib ketganini, bahor kelib, havolar isiy boshlagach, qo‘shinga yetib olishganini aytishdi. Shunda O‘g‘uzxon bu kishilarni va ularning avlodlarini qorliq deb atashga buyruq berdi¹.

Xosabo‘yi – maxsus joyda joylashgan qishloq ma‘nosida. Ya‘ni ariq bo‘yi, anhor bo‘yi, ko‘l bo‘yi bo‘lishi mumkin.

Mevazor – mevalarga boy hududda joylashgan qishloq.

Dilkor mahalla fuqarolar yig‘ini

Bayramhoji – onoma. Bayram turkmanlar orasida keng tarqalgan nom. Mazkur holatda Bayramhoji ismli shaxs istiqomat qilgan qishloq nazarda tutilmoqda.

Mirobod – “amirobod” atamasining o‘zgargan shakli. Amir obod qilgan joy ma‘nosida.

Dilkor – toponimning lug‘aviy ma‘nosiga oid ikki xil mulohazani bahsga kiritish mumkin. Avvalo, ushbu atamani dildor so‘zining o‘zgargan ko‘rinishi sifatida izohlash o‘rinli. Bunda joyning go‘zal, maftunkorligiga nisbat vujudga keladi. Shuningdek, dilafkor so‘zining qisqartma iboraga aylanishidan hosil bo‘lgan so‘z deb hisoblash ham mumkin. Bu holda yuqoridagi ma‘noning teskarisi hosil bo‘ladi.

Ko‘ng‘irot - etnotoponim. Qo‘ng‘irot urug‘iga mansub aholi yashagan qishloq. Qo‘ng‘irotlar yirik o‘zbek qabilalaridan biri. XIII asrda Chingizxon qo‘shinlari bilan Molvarounnahrda kelib o‘rnashganlar. XIV asrdan ularning butun O‘rta Osiyo bo‘ylab

¹Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абу-л-Гази хана хивинского. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1958. – Б. 45.

tarqalish jarayoni boshlandi. O‘zbekistonning janubiy hududlari, Zarafshon, Xorazm vohalarida istiqomat qilishgan.

Qirlishon mahalla fuqarolar yig‘ini

Bo‘ralang eski – toponim o‘zagi bo‘ralamoq so‘zidan olingan bo‘lib, “shiddat” ma’nosini anglatadi. Jumladan, biror narsaga shiddat bilan kirishmoq, biror ishni shiddat bilan amalga oshirmoq yoki shiddat bilan kechayotgan jarayon shu so‘z orqali ifoda etiladi. Atamaning ijtimoiy qo‘llanilishi shu ma’no bilan bog‘liq.

Qirlishon – qirlik eshon so‘zining o‘zgargan ko‘rinishi deb hisoblash mumkin.

Jiydali – jiydazorlarga ega mavze. Vohaning janubiy hududlarida issiqqa chidamli jiyda daraxti ko‘p ekilgan.

Zilol – joyning tabiiy geografik o‘rnini aks ettiruvchi atama.

Qarikon – azaldan mavjud bo‘lgan kon. Ushbu joyning tabiiy boyligi, o‘simlik va hayvonot olamining diqqatga sazovorligi e’tiborga olinib vujudga kelgan atama.

G‘azmach - ma’nosi noma’lum

Qarvoq - ma’nosi noma’lum

Denov mahalla fuqarolar yig‘ini

Qahramon – etnotoponim. Aslida qaraman tarzida talaffuz qilingan va yozma manbalarda shu ko‘rinishda uchraydi. O‘zbek urug‘laridan birining nomi.

Tuzolli – tuzga boy mavzega nisbatan ishlatilgan atama.

Ko‘kko‘z mahalla fuqarolar yig‘ini

Yuqori Ko‘kko‘z – ko‘zlari ko‘k aholi istiqomat qilgan qishloq. Shuningdek, turkiy urug‘lardan birining nomi.

Quyi Ko‘kko‘z - ko‘zlari ko‘k aholi istiqomat qilgan qishloq. Shuningdek, turkiy urug‘lardan birining nomi.

Pichoqchi mahalla fuqarolar yig‘ini

Denov - dehinav, ya’ni “yangi qishloq” ma’nosini bildiradi.

Pichoqchi – pichoqchilik kasbi bilan shug‘ullangan aholi yashagan qishloq.

Davlatboy – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi qishloq.

Ojayron - oqjayron so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lishi kerak.

Balandmachit mahalla fuqarolar yig‘ini

Balandmachit – baland masjidga ega yoki masjidi baland yerda joylashgan qishloq.

Oq oltin mahalla fuqarolar yig'ini

Qo'rchi – qo'r so'zi turk-mo'g'ul tilida “o'q”, “qurol” ma'nosini bildiradi. Mazkur toponim o'q yoki qurol-yaroq yasovchi aholi yashagan qishloqni ifoda etadi.

Tutunqora – qora tutun. Joyning tabiiy-geografik holatiga mutanosib ravishda vujudga kelgan atama.

Hasanyor – lug'aviy ma'nosi “yaxshi yor”, “yaxshi do'st”. Joyning tabiiy holatini aks ettiruvchi va uning yaxshi jihatlaridan darak beruvchi atama.

Talqon Sayyot – talqon yetishtiruvchi Sayot qishlog'iga nisbatan ishlatiladigan atama. Sayot turkman urug'laridan birining nomi.

Burjoq mahalla fuqarolar yig'ini

Burjoq - “burchak” so'zining o'zgargan shakli bo'lishi mumkin. Burchakdagi, chetdagi qishloq ma'nosida.

Soloqorovul mahalla fuqarolar yig'ini

Soloqorovul- qorovulboshi ma'nosini bildiradi.

Arabxona mahalla fuqarolar yig'ini

Arabxona – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o'zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrda kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrda yurishlari davrida Damashq va Bag'dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o'rnashib oldilar. Movarounnahrda sayyidlar va xo'jalar o'z kelib chiqishlarini arablar bilan bog'laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg'ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho'jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrda ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog'i yuqori bo'ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Arablar o'tgan asrning 60-70-yillarigacha o'z tillarini saqlab qoldilar. G'ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o'z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo'lishidan qat'iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab

qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Eski Olot mahalla fuqarolar yig'ini

Eskibozor – eski bozor o‘rnida joylashgan qishloq.

Akkali mahalla fuqarolar yig'ini

Olot - etnotoponim. Yuqorida tilga olinganidek, o‘zbek urug‘laridan birining nomi. Orlot etnotoponimining o‘zgargan shakli. Respublikamiz hududiga keng tarqalgan va Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo hamda Surxondaryo viloyatlarida ko‘p uchraydi.

Qisqacha xulosa

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, Olot tumanining qo‘shni Turkmaniston bilan chegaradoshligi ushbu davlat bilan munosabatlarni tuman hududi orqali amalga oshirishga yordamlashadi. Tuman hududidagi Xo‘ja Davlat bojxona maskani ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo aloqalarini muvofiqlashtirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Hududdagi toponimlarda og‘uz shevasiga xos fonetik xususiyatlar mavjudligini etnomadaniy jarayonlarning o‘zaro ta’siri, deb baholash maqsadga muvofiqdir.

Tayanch so‘z va iboralar: chegaradosh, orlot, onoma, hududiy ixchamlashtirish, alohida tuman maqomi, o‘zbek urug‘lari, Qorako‘l del’tasi, ko‘l qoldiqlari, o‘g‘uz-turkman urug‘lari, nisbatan qo‘llanilgan, keng tarqalgan, aholi mashg‘uloti, obod maskan, mahalliy aholi, izohlash mumkin, ifoda etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Olot tumanining tabiiy geografiyasi to‘g‘risida ma’lumot bering?
2. Tuman hududidagi bojxona maskani qaysi tarixiy shaxs nomi bilan ataladi?
3. Qo‘ng‘irot, qorliq etnotoponimlari va ularning joy nomiga aylanish sabablari to‘g‘risida so‘zlab bering?
4. Qaysi toponimlar u yoki bu joyning tabiiy o‘rni va xususiyatlarini ifoda etadi?
5. Qirlishon mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli qishloqlar haqida ma’lumot bering?
6. Tuman hududidagi qaysi gidroetnonimni bilasiz?
7. Bayot etnotoponimi to‘g‘risida ma’lumot bering?

8. G‘azmach, Qarvoq kabi ma’nosi noaniq toponimlar ma’nosini maxsus adabiyotlarga murojaat qilish va aholidan so‘rab-surishtirish orqali aniqlashga harakat qiling?
9. O‘zingiz yashayotgan ko‘cha, mahalla, qishloq nomining ma’nosi va tarixi to‘g‘risida qisqacha axborot tayyorlang?

8-MAVZU: ROMITAN TUMANI TOPONIMLARI

8.1.Romitan tumani to‘g‘risida umumiy ma’lumot

8.2.Mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli qishloqlar tarixiy nomlari

8.1.Romitan tumani to‘g‘risida umumiy ma’lumot

Tuman O‘zbekistonda rayonlashtirish siyosati olib borilayotgan davrda, 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. Shimoliy sharqdan Peshko‘, janubiy sharqdan Vobkent, Buxoro tumanlari, janubiy g‘arbdan Jondor tumani, Amudaryo orqali Turkmaniston, shimoliy g‘arbdan Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan chegaradosh. Shu geografik holatda Buxoro viloyatining markazida joylashgan. Tuman hududining tekislikdan iborat to‘rtdan uch qismi Qizilqum cho‘lining qumli, gipsli yaylovzorlaridan iborat.

Romitan tarixi, Romitan atamasining kelib chiqishi to‘g‘risidagi yozma ma’lumotlar Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida uchraydi. Rivoyatga asoslangan bu ma’lumotga ko‘ra, Turon hukmdori Afrosiyobning qizi bosh og‘rig‘i kasalligidan aziyat chekib yurgan paytlarda Romitanga kelib qoladi va bu erning havosi unga xush kelib, darddan forig‘ bo‘ladi. Shu sabab bu joyni “Oromitan” – “Tan oromi” deb ataydi. Toponim “Rohmitan”, ya’ni “roh” – yo‘l va mitan qabilasi nomi asosida vujudga kelgan degan ma’lumot ham bor. Bunda toponim “yo‘l chetidagi mitan qabilasi yashagan qishloq” ma’nosini anglatadi.

Narshaxiy Romitan qo‘rg‘onini Buxorodan qadimiyroq deb hisoblaydi. 1972-yildan Romitan qo‘rg‘onida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida uning tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar qo‘lga kiritildi. Qo‘rg‘on tepasida masjid, shahriston maydonida bozor, qo‘rg‘onning balandligi 10 metr atrofida bo‘lganligi, shahristonning

topografik shakli va umumiy maydoni, chegaralari aniqlandi. Romitan oʻrta asrlarda, jumladan, arablar istilosi, somoniylar davrida Buxoro vohasining muhim strategik ahamiyatga ega qoʻrgʻonlaridan boʻlgan.


Romitanning geografik joylashuvi, irrigatsiya tarmoqlari arab geograflarini befarq qoldirmagan. Ibn Havkalning Romitan arigʻi toʻgʻrisidagi maʼlumotlari eʼtiborga sazovor. U shunday yozadi: “Nahri Romitan nomli ariq daryodan boshlanib, Romitan qishlogʻiga etguncha hamma qishloqlarni sugʻoradi. Romitan ahli undan suv ichadi”¹.

Xoʻja Ali Romitaniy, Boboyi Samosiy kabi Xoʻjagon-naqshbandiya tariqati yirik namoyandalarining ziyoratgohlari shu tuman hududida joylashgan va Mustaqillik yillarida obod maskanga aylantirilgan. Xoʻja Zaʼfaron, Xoʻja Ubbon qadamjolari esa shifobaxshlik xususiyati bilan aholi doimiy tashrif buyuradigan manzil hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida tuman ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergan katta ijobiy oʻzgarishlarni tuman markazida barpo etilgan litsey, kasb-hunar kollejlari, kutubxona, muzeylar misolida koʻrish mumkin. Tuman markazida faoliyat koʻrsatayotgan oʻlkashunoslik muzeyi ekspozitsiyasi yangilanib, tumanning qadimgi davrlardan hozirgacha boʻlgan tarixini aks ettiradi. Romitanlik saxovatpesha chorvador Choriqulboy tarafidan 1914-yil Zarafshon daryosi ustiga qurilgan koʻprik Mustaqillik yillarida qayta taʼmirlandi va ayni davrda tarixiy obida sifatida davlat muhofazasiga olingan.

Keyingi toʻrt yilda sodir boʻlgan ijobiy oʻzgarishlar sifatida tuman qishloq xoʻjaligida klaster tizimining keng joriy qilinishini, shuningdek, tumanning choʻl hududida tashkil etilgan 10 gektarlik ekoturizm markazini tilga olish mumkin. Buxoro shahridagi meʼmoriy obidalarining mikromulyaji, shuningdek, shaharning oʻrta asrlardagi qiyofasini aks ettiruvchi imoratlar va boshqa koʻngilochar binolardan iborat markaz xorijiy va mahalliy sayyohlarning suyuqli maskaniga aylanib bormoqda. Markazda havo shari vositasida osmondan turib choʻl manzarasini tomosha qilish imkoniyati yaratilgan.

¹ Ибн Хавкал. Китоб сурат ул-ард (Ернинг сурати китоби) / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б. 46.



Buxoro viloyati tarkibidagi Romitan tumani xaritasi (qizil rangli)

Romitan tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini
1	Mirishkor
2	Attoron
3	Taranut
4	O‘ba
5	Qahramon
6	Qalaychorbog‘
7	Mug‘oncha
8	Xosa
9	G‘azberon
10	Decha
11	Chandir
12	Urganjiyon
13	Toshrobot
14	Chelong‘u
15	O‘zbekiston
16	Samosiy
17	Azizon
18	Baxtiyorchi
19	Qo‘rg‘on

20	Bog'isaydon
21	Qumrabot
22	Xo'ja Ubbon
23	Marziya
24	Hazortut
25	Bog'iturkon
26	Sho'rcha
27	Iftixor
28	Poyjo'y
29	Qoqishtuvon
30	Sho'robod
31	Navbahor
32	O'tabek
33	Sho'rcha
34	Qizilrabot

8.2. Mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli qishloqlar tarixiy nomlari

Mirishkor mahalla fuqarolar yig'ini

Mirishkor – “miri shikor”, ya’ni “ovchilarning miri, amiri, boshlig'i” ma’nosida. Keng tarqalgan toponim. Voha boshqa hududlarida ham uchraydi. Saroyda maxsus mirishkor lavozimi bo’lgan. Turkiy qavmlardan birining nomi sifatida ham talqin qilinadi. Bunda atama etnonimga aylanadi.

Bahrin – etnotoponim. Turklashgan mo’g’ul qabilalaridan biri. Mo’g’ullar hukmronligi davrida ular Dashti Qipchoqqa kelib o’rnashib oladilar. XVIII-XIX asrlarda bahrinlarning katta qismi Toshkent vohasi va Farg’ona vodiysida o’troqlashgan bo’lsa, boshqa qismi Zarafshon vohasiga ko’chib o’tadi. Umuman bahrinlar hozirgi O’zbekiston hududining ko’p qishloqlarida istiqomat qiladi¹.

Musicha – Buxoroning so’nggi o’rta asrlar davri tarixiga doir qo’lyozma hujjatlarda, jumladan, Buxoro qo’shbegisi arxiv hujjatlarida shu nom ostida uchraydi. Toponimning iste’molga kiritilish tarixi bo’yicha ikki xil taxmini o’rtaga tashlash mumkin. Birinchisi, musichalar makon qilgan qishloq bo’lsa, ikkinchisi

¹ Носиржон Охунов. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 8.

musichadek beozor, odobli, kamsuqum kishilar istiqomat qilgan manzil.

Payshanba – odatda payshanba kunlari bozor bo‘lib turadigan qishloqlarga xos atama. Toponim ushbu ijtimoiy jarayon natijasida vujudga kelgan bo‘lishi kerak.

Attaron mahalla fuqarolar yig‘ini

Attaron – attorlar istiqomat qilgan qishloq. Mahalliy rivoyatlarga ko‘ra, ilgari zamonlarda qishloq o‘rni to‘qayzor bo‘lgan. Bir necha o‘ziga to‘q kishi to‘qayzorlarning bir qismini kesib, o‘rniga imoratlar qurgan va aholi bu yerlarni asta-sekin o‘zlashtira boshlagan. Qishloq aholisi attorlik moli hisoblangan qalampir etishtirib sotgan va qishloq nomi shu tariqa paydo bo‘lgan¹.

Mirishkor – yuqorida ta’kidlanganidek, “miri shikor”, ya’ni “ovchilarning miri, amiri, boshlig‘i” ma’nosida. Keng tarqalgan toponim. Voha boshqa hududlarida ham uchraydi. Saroyda maxsus mirishkor lavozimi bo‘lgan. Turkiy qavmlardan birining nomi sifatida ham talqin qilinadi. Bunda atama etnonimga aylanadi.

Avliyoxo‘ja - onoma. Shaxs nomidan olingan. Xalq orasidagi ma’lumotlarga ko‘ra, qishloqda ko‘plab avliyo yashab o‘tgan. Jumladan, Avliyoxo‘ja, eshon bobo, Zikrilla eshonxo‘ja. Bular nomlari bilan bog‘liq qadamjolar ham mavjud².

Tag‘ori - tog‘ora bo‘lishi mumkin. Qishloqning shakli tog‘orani eslatishi sabab shu toponim tarkib topganligi ehtimoldan xoli emas. Xalq orasidagi ma’lumot bo‘yicha esa, qishloqda bir g‘or bo‘lib, shu g‘or orqali qishloqqa borilgan. “Tagi g‘or”, ya’ni “g‘or tagi” atamasidan Tag‘ori toponimi shakllangan. Bora-bora g‘or ko‘milib bitgan, lekin nom saqlangan³.

Bog‘ishamol - yoqimli shamol esib turadigan xush manzarali mavze.

Sardaribolo - eshikka og‘irlik tushmasligi uchun uning ustidan o‘tkazilib, devorga tirkab qo‘yiladigan yog‘och to‘sin⁴. Shu xildagi eshiklar yasaydigan eshiksoz duradgorlar qishlog‘i. Boshqa

¹Тўра Ҳалимов, Исмоил Қобилов. Қадимий ва навқирон Ромитан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 130.

² Шу китоб, 128-бет.

³ Шу китоб, 138-бет.

⁴Маҳмудов М., Бердиев Б. Луғати мухтасари лаҳжаҳои Бухоро. – Душанбе: Дониш, 1989. – Б.202.

ma'lumotga ko'ra, qishloqdan katta ariq oqib o'tgan. Ariqda dara bo'lib, suv shu dara orqali qishloqlarga tarqatilgan. Daraning yuqori qismi Sardaribolo deb yuritilgan. Shuningdek, qishloqlar oralig'ida joylashgan Imom Sardor qabristoni nomidagi sardor so'zi Sardaribolo toponimining vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin, degan taxmin ham mavjud¹.

Taranut mahalla fuqarolar yig'ini

Tarnavut – gidronim. Toponim o'zagini tashkil etgan tarnov so'zidan olingan. Qishloq ko'p tarmoqli irrigatsiya tizimi orqali suv bilan ta'minlanib turgan. Mahalla fuqarolar yig'ini nomiga nisbatan qo'llanilgan Taranut atamasi Tarnavut so'zining buzilgan shakli hisoblanadi.

Cho'pon – cho'ponlar qishlog'i. Mahalliy rivoyatga ko'ra, qishloqda Cho'ponota degan avliyo yashab o'tgan. Shuningdek, bu yerda yettita cho'pon yashagan. Toponimlar vujudga kelishida ushbu holatlar asos bo'lgan.

Arablar – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o'zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrda kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrda yurishlari davrida Damashq va Bag'dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o'rinishib oldilar. Movarounnahrda sayyidlar va xo'jalar o'z kelib chiqishlarini arablar bilan bog'laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg'ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho'jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrda ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog'i yuqori bo'ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Arablar o'tgan asrning 60-70-yillarigacha o'z tillarini saqlab qoldilar. G'ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o'z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo'lishidan qat'iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab

¹ Қаранг: Тўра Ҳалимов, Исмоил Қобилов. Қадимий ва навқирон Ромитан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 136.

qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Xo‘jaobod - xo‘jalar obod qilgan qishloq.

Qatag‘on - etnotoponim. O‘zbeklar tarkibidagi yirik qabila. Qashqadaryoning yuqori va quyi oqimlarida, Buxoro vohasi, Xorazm, Farg‘ona va Toshkent vohalarida yashagan. Qatag‘onlar bir necha urug‘ga bo‘lingan. Dastlab asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lsa-da, asrlar davomida mahalliy aholi ta’siri ostida o‘troqlashib, dehqonchilikka o‘tgan.

Nazarobod – onoma. Nazar ismli shaxs asos solgan va obod maskanga aylantirgan qishloq. Naqlga ko‘ra, Nazar ismli shaxs bo‘sh yotgan yaylovga kelib chayla quradi va dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Keyinchalik uning yaqinlari ham shu erga ko‘chib kelib manzil qurgan. Shu tariqa ushbu qishloqqa asos solingan¹.

Zaminobod – unumdor, obod erlarga ega mavze.

Minglar – etnotoponim. Ming urug‘lari yashagan makon. Minglar XV asr oxiri va XVI birinchi yarmida Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda ko‘chib o‘tib, keyingi davrlarda xonliklar siyosiy hayotida faol ishtirok etadilar. Qo‘qon xonligida hukmron mavqega ega bo‘lishgan. Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm vohasiga keng tarqalgan.

Bog‘cha – kichik bog‘lari ko‘p bo‘lgan qishloq.

Garanshoh – garangshoh so‘zining qisqartma shaklidan hosil bo‘lgan atama bo‘lishi mumkin. Bunda parishonxotir shohga nisbat beriladi. Toponim garon, ya’ni “qimmat”, “to‘la” ma’nolarini beruvchi so‘z asosida yasalgan degan taxminni ham ilgari surish mumkin. Lekin mahalliy rivoyat toponimning boshqa bir ijtimoiy hodisa asosida shakllanganligiga ishora qiladi. emishki, qishloqning nomi aslida “Karomshoh” bo‘lgan. Buxoro hukmdorlaridan biri qish tugamagan, bahor endigina boshlanayotgan chog‘da shu qishloqqa tashrif buyuradi va qishloqning badavlat xonadonlaridan birida mehmon bo‘ladi. Qishloq chekkasida yashovchi bir choldan tashqari butun qishloq ahli shu xonadonga menmonga keladi. Aniq bo‘lishicha, chol taklif qilinmagan ekan. Hali pishiqchilik mavsumi boshlanmagan bo‘lsa-da, shoh o‘z mulozimlaridan biriga cholning uyidan endigina

¹ Тўра Ҳалимов, Исмоил Қобилов. Қадимий ва навқирон Ромитан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 135.

palagidan uzilgan toza qovun olib kelishni buyuradi. Mulozim topshiriqni ado etib, cholning roziligi bilan uning polizidan qovun uzib hukmdorga tortiq qiladi. Cholning bu karomatidan shoh hayratga tushadi va cholning xonadoniga borishni ixtiyor etadi. Borishsa, cholning uyi yo‘q, o‘rnida bir uyum tuproq. Shu voqea tufayli qishloq Karomshoh, ya’ni karomatli shoh, talaffuzda esa Garonshoh nomini olgan ekan¹.

Sariosiyo - “osiyoboshi, tegirmon boshi” ma’nosida.

Urganji - urganjiylar yashagan qishloq. Urganchdan kelib, shu joyga asos solgan aholining istiqomat manzili. Shuningdek, Urganchdan kelgan savdo karvonlari to‘xtab o‘tgan manzil. Urganchlik aholi bir qismining Buxoro vohasiga ko‘chib o‘tishi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi. Muhammad Xorazmshohning Malik Sanjar qo‘zg‘olonini bostirish uchun 1206-yil Buxoroga yurishi davrida kelib qolgan urganchlik aholi. Ikkinchi bosqich, XVII asrda Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon va Anushaxon hujumlari davrida vohada o‘rinlashgan urganchliklar.

O‘ba mahalla fuqarolar yig‘ini

O‘ba - “qishloq” ma’nosini anglatadi.

YOqubshayx – onoma. Shaxs nomidan olingan qishloq. Mahalliy rivoyatga ko‘ra, Yoqubshayx avliyosifat inson bo‘lgan va dori-darmon tayyorlab odamlarni davolagan emish. Qishloqda uning nomi bilan ataluvchi qadamjo ham mavjud.

Do‘rman - etnotoponim. O‘zbek qabilalardan biri. Movarounnahr hududiga XVI-XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kirib kelgan va Buxoro amirligi siyosiy hayotida faol ishtirok etgan. Zarafshon vohasi, shuningdek, mamlakatimizning janubiy hududlariga keng tarqalgan.

Mirmullo – onoma. Shaxs nomidan olingan toponim.

Soqijon – onoma. Shaxs nomi asosida vujudga kelgan toponim.

Indamas – mazkur qishloqda istiqomat qilgan aholining fe‘l-atvorini ifoda qiluvchi toponim sifatida tarkib topgan bo‘lishi mumkin.

Hojiobod – hojilar istiqomat qilgan obod maskan.

¹ Тўра Ҳалимов, Исмоил Қобилов. Қадимий ва навқирон Ромитан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 131-132.

Rabotipoyon - “quyirabot” ma’nosida. Muayyan geografik ob’yektga nisbatan quyida joylashgan rabot.

Qahramon mahalla fuqarolar yig‘ini

Kahramon – rivoyatga ko‘ra, o‘tmishda bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashgan qishloq. Aslida “qatramon”, “qaramon”, ya’ni “ozgina qoldi”, “dushmanni yengishga ozgina qoldi” iboralari asosida shakllangan toponim¹.

Boshqa ma’lumotga ko‘ra, qaraman tarzida talaffuz qilingan va yozma manbalarda shu ko‘rinishda uchraydi. O‘zbek urug‘laridan birining nomi.

Havlogaron – halvopazlar qishlog‘i.

Sarayon - “saroyon” bo‘lishi kerak. Saroy o‘zbeklar tarkibiga kirgan yirik qabila uyushmasi. Qabila uyushmasi yana bir necha katta kichik qabilalarga bo‘lingan. Jumladan, majar-saroy, qorabo-saroy, nayman-saroy, qo‘ng‘irot-saroy va hokazolar. Buxoro vohasiga keng tarqalgan.

Siyokon - siyohon, ya’ni “qoralar” bo‘lishi mumkin. Bunda qoramtir aholi istiqomat qilgan manzil tushuniladi. Asl nomi Siyohkon bo‘lgani nazarda tutilsa, tabiiy qora kon ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Ustalar – turli kasb egalari yashagan qishloq.

Qalaychorbog‘ mahalla fuqarolar yig‘ini

Qalaychorbog‘ - aslida “qal’ai chorbog‘”, ya’ni “chorbog‘qal’a” tarzida bo‘lgan.

Akana – pakana so‘zining qisqartma shaklidan tashkil topgan toponim.

Bo‘yrabof - bo‘yra to‘quvchi. Bo‘yra - qamishdan to‘qilib, uyga to‘shaladigan buyum. Xonani namdan saqlash uchun qulay vosita. Bo‘yra to‘qish kasbi sohiblari yashagan qishloq.

Alishayx - onoma Shaxs nomidan olingan.

Challi – “cholli”, ya’ni ko‘plab chol, qariyalar yashagan qishloqqa qarata ishlatilgan atama bo‘lishi mumkin.

Kulolo – kulollar yashagan qishloq. Keng tarqalgan hunarmandchilik turlaridan biri. Qishloq ahli asosan sopol buyumlar yasash bilan shug‘ullangan.

¹Тўра Ҳалимов, Исмоил Қобилов. Қадимий ва навқирон Ромитан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 141.

Labiro‘t - “ariq qirg‘og‘ida joylashgan qishloq” ma’nosida. Viloyatning boshqa tumanlarida ham uchraydi. Labiro‘t Romitan shahrining janubiy-g‘arbida joylashgan. Bir zamonlar bu qishloq hududida katta bozor bo‘lganligi sabab, ba’zan Ko‘nabozorjoy deb ham yuritilgan.

Qumi – atrofi qumlar bilan o‘ralgan, qumli joyda joylashgan mavzega nisbatan ishlatilgan atama.

Enarzi – ma’nosi noma’lum toponim.

Mug‘oncha mahalla fuqarolar yig‘ini

Mug‘oncha (مغان) – mug‘lar, otashparastlar yashagan qishloqcha ma’nosida. “Mug‘” so‘zini Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” kitobida ishlatgan. Buxoro arkinging “Darvozai g‘uriyon” deb atalgan sharqiy darvozasidan kiraverishda Siyovush qabri joylashgan. “Shu sababli Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarda mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo‘shiq qilib aytadilar. Qo‘shiqchilar uni “otashparastlar yig‘isi” (giryu mug‘on) deydilar”¹.

Arabxona – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o‘zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrda kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrda yurishlari davrida Damashq va Bag‘dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o‘rnashib oldilar. Movarounnahrda sayyidlar va xo‘jalar o‘z kelib chiqishlarini arablar bilan bog‘laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg‘ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho‘jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrda ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog‘i yuqori bo‘ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q. Arablar o‘tgan asrning 60-70-yillarigacha o‘z tillarini saqlab qoldilar. G‘ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim

¹ Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993. – Б. 28.

vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o‘z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo‘lishidan qat’iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Gulxona – gul yetishtirish bilan mashg‘ul aholi qishlog‘i.

Bo‘zaxo‘r – bo‘za tayyolovchilar qishlog‘i. O‘tmishda bug‘doy, tariq, arpa kabi boshqoqli ekinlardan bo‘za tayyorlovchi aholi istiqomat qilgan qishloq. Lug‘aviy ma‘nosi “bo‘za ichuvchi”.

Qalavuron - “qorovullar” ma‘nosida. Xalq orasidagi rivoyatga binoan, o‘tmishda Marg‘ubshoh degan podsho bo‘lgan. Uning qorovullari shu qishloqda yashagan ekan. Qishloq aholisi hunarmandchilik bilan ham shug‘ullangan¹.

Alamdor - “bayroqdor, bayroq ko‘taruvchi” ma‘nosida. Toponimning vujudga kelishini xalq qishloqdagi Tug‘ori Turk ziyoratgohi bilan bog‘laydi. Tug‘ori Turk turklar lashkarining yalovbardori (bayroqdori) bo‘lgan emish.

Xaraton - “duradgorlar”, “yog‘och taroshlovchilar” ma‘nosida. Shu kasb bilan shug‘ullanuvchi ustalar yashagan qishloq.

Mo‘zado‘zon - “etik tikuvchilar” ma‘nosida. Etikdo‘zlik bilan mashg‘ul aholi yashagan qishloq.

Xosa mahalla fuqarolar yig‘ini

Xosa - yuqori tabaqaga mansub, xos kishilar yashagan qishloq.

G‘azberon mahalla fuqarolar yig‘ini

G‘azberon – toponim tarkibidagi g‘azb so‘zi “g‘azab” ma‘nosini bildiradi. ehtimol g‘azabli, jahldor kishilar yashagan qishloq nazarda tutilgan. Lekin boshqa ma‘lumotga ko‘ra, qishloq yaqinidagi qamishzorlar bilan qoplangan ko‘lni makon qilgan g‘ozlarni ovlab, qovurib iste‘mol qilgan qishloq ahlining turmush tarzi toponimning shakllanishiga asos bo‘lgan. Qishloq nomi dastlab G‘ozbiryon, ya‘ni qovurilgan g‘oz ko‘rinishida tarkib topib, keyinchalik talaffuzda G‘azberonga aylanib qolgan.

Decha mahalla fuqarolar yig‘ini

Rabot - “karvonsaroy, qo‘rg‘on” ma‘nosini anglatadi.

¹ Тўра Ҳалимов, Исмоил Қобилов. Қадимий ва навқирон Ромитан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 141.

Merganlar – mohir merganlar yashagan qishloq.

Decha - “dehcha”, ya’ni “qishloqcha” atamasining qisqartma shakli.

Chandir mahalla fuqarolar yig‘ini

Chandir – etnotoponim. O‘g‘uzlar tarkibidagi urug‘. VIII-IX asrlarda ular Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi, Orol dengizining janubidagi cho‘llarda yashagan. Chandirlarning bir qismi keyinchalik Movarounnahrda ko‘chib o‘tib mahalliy aholi bilan qo‘shilgan, ikkinchi qismi hozirgi Turkmaniston hududiga kelib o‘rnashib turkmanlar bilan aralashib ketgan. XIX asr oxiri va XX boshlarida chandirlarning ayrim guruhlarini yarim o‘troq hayot kechirib, asosan chorvachilik, qolganlari qishloqlarda yashab dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Hasanobod - Jo‘ybor xo‘jalarining yirik vakillaridan biri Xo‘ja Tojiddin Hasan (1574-1646) tomonidan obod qilingan mavze. Uning sharafiga “Hasanobod” deb atalgan.

Toshmachit – toshmachitga ega qishloq. Ushbu masjid hozir ham mavjud.

Urganjiyon mahalla fuqarolar yig‘ini

Xokimullomir – lug‘aviy ma’nosi “Mullomirning tuprog‘i”. Naqshbandiya tariqatining XVI asrdagi namoyandasi Mullo Mir Kosagaroniy yashagan qishloq. Qishloqda u tomondan barpo etilgan xonaqoh mavjud.

Urganjiyon - urganchliklar yashagan joy. Urganchdan kelib, shu joyga asos solgan aholining istiqomat manzili. Shuningdek, Urganchdan kelgan savdo karvonlari to‘xtab o‘tgan manzil. Urganchlik aholi bir qismining Buxoro vohasiga ko‘chib o‘tishi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi. Muhammad Xorazmshohning Malik Sanjar qo‘zg‘olonini bostirish uchun 1206-yil Buxoroga yurishi davrida kelib qolgan urganchlik aholi. Ikkinchi bosqich, XVII asrda Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon va Anushaxon hujumlari davrida vohada o‘rinlashgan urganchliklar.

Ko‘lipalos – palosga o‘xshash ko‘lning atrofida joylashgan qishloq. Qamishzorlarning ko‘pligi palosni – qamishdan to‘qilgan bo‘yrani eslatgan.

Toshrabot mahalla fuqarolar yig‘ini

Safarobod – onoma. Shaxs nomida asosida vujudga kelgan toponim.

Chelong‘u - “chelon” atamasi mevasi katta jiydaga o‘xshash tikanli daraxtga, shuningdek, mayda zanjir temir buyumlarga nisbatan qo‘llanilgan. Bizning holatimizda shunday daraxtlari ko‘p bo‘lgan qishloq yoki kichik temir buyumlar yasaydigan aholi istiqomat qilgan qishloqqa nisbatan qo‘llanilmoqda.

Elobod –elning birdamligi va hamjihatligida obod qilingan mavze.

Toshrabot – keng tarqalgan toponim. Toshidan qurilgan rabotga ega manzil.

Mulki xolis - o‘rta asrlarda soliqlardan ozod bo‘lgan yerlar mulki xolis deb atalgan. Shunday imtiyozga ega qishloq nazarda tutilayotgan bo‘lishi kerak.

Xalach - etnotoponim. Qadimgi turkiy qabilalalardan biri. Amudaryoning yuqori, o‘rta va quyi oqimlaridagi hududlarga, jumladan, Qashqadaryo, Buxoro vohalariga tarqalgan. Tarixiy manbalarda turkman qabilalari qatorida tilga olinadi. Mahmud Koshg‘ariy, shuningdek, Abulg‘ozixonning yozishicha, xalach so‘zi “qol+ och, och+ qol” ma’nosini bildiradi. Abulg‘ozixon o‘z fikrini quyidagi ma’lumot bilan asoslaydi. O‘g‘uzxon yurishlari davrida qo‘shindan orqada qolib adashgan, ochqolgan askarlarni yig‘ib kelish uchun maxsus kishilar harakat qilgan. Kunlarning birida qo‘shindan orqada qolib ketgan bir askarni O‘g‘uzxon huzuriga olib kelishadi. Ma’lum bo‘lishicha, egulikdan qiynalish oqibatida u qo‘shindan orqada qolgan va shu paytda askar homilador ayolining ko‘zi yorib, farzand ko‘rishgan. Ovqat kamligidan ayolning suti chaqaloqni boqish uchun ozlik qilardi. Askar yer qirg‘ovul ovlab xotinini boqqan ekan. Bundan voqif bo‘lgan O‘g‘uzxon unga ot, oziq-ovqat va chorva mollari berib shunday degan: “Sen endi qo‘shin ortidan yurma, och qol”¹. Shu so‘zdan “xal+ach” etnotoponimi kelib chiqqan.

So‘filar - musulmonlarni namozga chaqiruvchi muazzin “so‘fi” deb atalgan. Bu ibora tasavvuf ahliga nisbatan ham qo‘llanilgan.

Chelong‘u mahalla fuqarolar yig‘ini

Chelong‘u – toponim tarkibida chelangarlik, ya’ni temirchilik kasbi bilan shug‘ullangan aholi yashagan qishloqqa ishora mavjud. Fors-tojik tilidagi chelon so‘zi jiyda ma’nosini bildirishi inobatga

¹ Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абу-л-Гази хана хивинского. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1958. – Б. 46.

olinadigan bo'lsa, Chelong'u toponimi jiydalari mo'l qishloq ma'nosini anglatishi to'g'risidagi xulosa kelib chiqadi. Toponim "chelongul" atamasining o'zgargan shaklidan vujudga kelgan degan mulohazaga ham e'tibor berish kerak. Chelong'u toponimining paydo bo'lishi xususida aholi orasida rivoyat ham shakllangan. Unga ko'ra, qadimda Chelong'uda ertak, doston va termalar aytib beradigan qirqta donishmand yashagan ekan. Shundan "chil+on+gu", ya'ni "qirqta aytuvchi" iborasi paydo bo'lib, kelinchalik bu ibora toponimga aylangan.

Suspatta – cuc yovvoyi holda o'sadigan o'simlik turlaridan biri, muya deb ham ataladi. Patta esa butasimon o'simlik. Shu turdagi o'simliklar o'sgan mavzega nisbatan qo'lanilgan toponim.

O'zbekiston mahalla fuqarolar yig'ini

Muloyon - mullalar yashagan qishloqqa nisbatan ishlatilgan bo'lishi mumkin.

Chuqurko'l – chuqurlikda, pastda joylashgan ko'l atrofidagi qishloq.



Xo'ja Ali Romitanii ziyoratgohi

Samosiy mahalla fuqarolar yig'ini

Komkuch – katta, tez oqar ariq atrofida joylashgan qishloq.

Kosxur – kosadan ovqat tanovul qiluvchilar qishlog'i ma'nosida.

Og'ar - "og'ar" atamasini "log'ar" so'zining o'zgargan shakli deb hisoblasak, ushbu toponim "oriq, ozg'in" ma'nosini anglatishini inobatga olishimiz kerak. "Og'ar" so'zining yomg'ir suvlaridan keyin hosil bo'ladigan "ko'lmaq" ma'nosi ham mavjud.



Boboi Samosiy ziyoratgohi

Azizon mahalla fuqarolar yig'ini

Rabotipoyon - “quyirabot” (quyiqo‘rg‘on) ma’nosini anglatadi.

Sarbiston - “saribo‘ston”, ya’ni “bo‘stonning boshi, boshlanishi” iborasining buzilgan shakli bo‘lishi kerak.

Qo‘hna O‘ba – “ko‘hna qishloq” ma’nosida.

Baxtiyorchi mahalla fuqarolar yig'ini

Baxtiyorchi – etnotoponim. Turkiy qabilalardan biri. Baxtiyoriylar deb ataluvchi qabilalar Afg‘oniston, eron hududlarida ham istiqomat qilgan.

Atfor - “atfol” so‘zining buzilgan shakli deb hisoblansa, bu so‘z “bola, yosh bola” ma’nosini anglatadi. Atvor so‘zining o‘zgargan ko‘rinishi sifatida qabul qilinsa, “yurish-turish” degan ma’noni bildiradi.

Qo‘rg‘on mahalla fuqarolar yig'ini

Miyonsaroy - “o‘rtasaroy” ma’nosida.

Bog‘isaydon mahalla fuqarolar yig'ini

Qiyoton - etnotoponim. “Qiyotlar” degan ma’noga ega. O‘g‘uzlar tarkibidagi qadimgi turkiy qabilalardan biri. VIII-X asrlarda Dashti Qipchoqda yashab ko‘chmanchi chorvadorlik bilan shug‘ullanganlar. XI asrga kelib o‘g‘uzlar davlati yemirilgach, qiyotlar bo‘linib ketadi. Bir qismi Turmaniston, ikkinchi qismi Bolqon yarim oroli tomon siljiydi. Dashti Qipchoqda qolgan qismi keyinchalik o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq xalqlari tarkibiga singib ketadi. Qashqadaryo, Xorazm, Buxoro vohasida o‘rnashib olgan qiyotlar o‘troq hayotga o‘tib, dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Vag'eni – toponimning birinchi qismidagi vag' so'zi asosida yasalgan vag'eni atamasi Buxoro shevasida vag'ar, ya'ni “shovqin” ma'nosini anglatadi. Quyidagi rivoyat qishloq nomiga nisbatan qo'llanilgan. O'tmishda bir lashkarboshi dam olish maqsadida o'z lashkarlari bilan shu qishloqqa kelib qo'nadi. Nariroqda esa bir to'da odamlar shovqin – suron ko'tarib dam olishga xalaqit berishardi. Lashkarboshi barcha anjomlarni ulovga yuklab qishloqni tark etadi va unga Vag'eni, ya'ni shovqinli deb nom beradi.

Bog'isaidon – “sayyidlar bog'i” ma'nosida. Og'zaki ma'lumotlarga ko'ra, avvalgi zamonlarda bu qishloqda Saidboy degan kishi yashab o'tgan ekan. Uning katta erlari, behisob daraxtzor va mevazor bog'lari bo'lgan. Ocharchilik, qahatchilik paytlari mol-mulki, mevazor bog'larini xalqqa in'om qilib, aholini kulfatdan asrab qolgan ekan.

Marg'osim – ikki komponentli toponim: marg'+osim - مرغ . Marg' so'zi o'tloq, chamanzor ma'nolarini anglatadi, osim so'zi asramoq, saqlamoq ma'nolarini bildiradi. Demak, toponim “asralgan, saqlab qolingan chamanzor, o'tloq” degan ma'noga ega.

Kalavroncha – toponim tarkibidagi kalav so'zi fors-tojik tilidagi kalavidan (كلويدن) so'zidan olingan bo'lib, “ikkilanib yurmoq, beqaror, ishonchsiz” degan ma'nolarni bildiradi. Ron (ران) so'zi oyoqning tizzadan yuqori, son suyagini, rondan (راندن) so'zi esa bir qancha ma'nolarni, jumladan, “haydamoq, otda yurmoq, ijro qilmoq, idora qilmoq, amalga oshirmoq” kabilarni anglatadi. Ushbu ma'nolarni anglatuvchi so'zlardan tarkib topgan atama ikkilanib yuruvchi, beqaror kishilar yashagan qishloq ahliga, shuningdek, yo'l ikkiga ajralib ketadigan mavzeda joylashgan qishloqqa qarata ishlatilgan, degan taxminni o'rtaga tashlash mumkin.

Qumrabot mahalla fuqarolar yig'ini

Saroy - etnotoponim. O'zbeklar tarkibiga kirgan yirik qabila uyushmasi. Qabila uyushmasi yana bir necha katta-kichik qabilalarga bo'lingan. Jumladan, majar-saroy, qorabo-saroy, nayman-saroy, qo'ng'iroq-saroy va hokazolar. Buxoro vohasiga keng tarqalgan.

Chortuq – “chortug'”, ya'ni “to'rt bayroq” ma'nosini bildiradi.

Qirqlar - etnotoponim. 92 o'zbek urug'lari tarkibiga kiruvchi ming va yuz qabilalaridan keyin uchinchi hisoblanadi. O'z navbatida qirqlar o'tmishda quyidagi olti katta bo'lakka bo'lingan: qoraqo'yli, qoracha, moltop, mulkush, chaprashli, chortkesardir. Toshkent,

Farg‘ona, Namangan, Jizzax, Samarqand, qisman Buxoro viloyatlariga tarqalgan¹.

Bog‘iturkon - “turklar bog‘i” ma’nosida. Turkiy tilli aholiga tegishli bog‘.

O‘basaroy - “saroyqishloq” ma’nosida. Qishloqda hukmdorning dam oladigan saroyi bo‘lganligi va u safarga otlanganda asosan shu qishloqda dam olib o‘tganligi rivoyat qilinadi.

Boyish – etimologik ma’nosiga ko‘ra “boyimoq” so‘zidan yasalgan atama. Boyishga intiluvchi va doimo mehnat bilan mashg‘ul aholi yashagan qishloqqa qarata qo‘llanilgan toponim.

Qumrabot – qumli rabot, qumlar ichidagi rabot.

Xo‘ja Ubbon mahalla fuqarolar yig‘ini

Asbob – turli asbob-uskuna yasaydigan kosiblar qishlog‘i.

Dehikuna - “ko‘hna qishloq” ma’nosida.

Qo‘rg‘on – qadimiy Romitan qo‘rg‘oni. Qadimda bu yerda jome’ masjidi, bozor bo‘lgan.

Xo‘ja Ubbon – Xo‘ja Ubbon avliyosi cho‘l ichida joylashgan. Undagi quduq suvi shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Turli teri kasalliklariga davo hisoblanadi. Hozirda qadamjo.

Marziya mahalla fuqarolar yig‘ini

Marziya - “marza” so‘zi “yer, ekin yeri” ma’nosini beradi. Lekin xalq orasidagi rivoyat Marziya toponimi shunday ismli qiz nomidan olinganligiga ishora qiladi. Qishloqqa dushman hujum qilganda, Marziya ismli qizning Xudoga iltijosi bilan qirq qiz va uning o‘zi bir tepalik ichiga berkinib, g‘animdan xalos bo‘lishadi. Shu joy keyinchalik Marziya deb atala boshlagan emish.

Garmoba - “issiq suv” ma’nosida. Joyning tabiiy sharoitiga qarab nomlangan. Rivoyatga ko‘ra, qishloqdagi buloqdan issiq, qo‘l va oyoq og‘rig‘iga shifo bo‘luvchi suv otilib turgan ekan.

Hazortut mahalla fuqarolar yig‘ini

Hazortut - “ming tut” ma’nosini bildiradi. Toponimning vujudga kelishi bilan bog‘liq rivoyatlar ham mavjud, lekin ular haqiqatdan ancha yiroq. Aslida “hazortut” tutlari ko‘p bo‘lgan mavzega nisbatan qo‘llanilgan atama hisoblanadi.

Arabon – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida

¹ Носиржон Охунов. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 73-74.

uchraydi. Bir tumanning o'zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrğa kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrğa yurishlari davrida Damashq va Bag'dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o'rinishib oldilar. Movarounnahrdagi sayyidlar va xo'jalar o'z kelib chiqishlarini arablar bilan bog'laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg'ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho'jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrğa ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog'i yuqori bo'ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Arablar o'tgan asrning 60-70-yillarigacha o'z tillarini saqlab qoldilar. G'ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o'z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo'lishidan qat'iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Tayloqon – tayloqlar. Tayloq va toyloq atamaları ma'no jihatdan biri-biridan farq qiladi. Tayloq (طیلاق) fors-tojik tilida tuyaning bolasiga nisbatan qo'llanilsa, otning bolasi, kichkina toychoq turkiy tilda toyloq deb atalgan. Shuningdek, kichkina bolani erkalab ba'zan erka-toyloq deb atash an'anasi ham mavjud. Mazkur qishloq ahli o'tmishda tayloq etishtirish yoki ularni parvarish qilish bilan shug'ullangan deb hisoblash mumkin.

Hafizrabot – Qur'onni tilovat qiluvchi xush ovozli hofizlar istiqomat qilgan qishloq. Og'zaki ma'lumotlarga qaraganda, qishloqda hofizlar bilan bir qatorda turli kasb egalari – kosiblar, choriq tikuvchilar, xonandalar yashagan. Qishloqning Hofizrabot deb atalishi shundan ekan. Lekin o'tmishda, ayniqsa islom mafkurasi ustuvor bo'lgan sharoitda hofiz atamasi qo'shiqchi-xonandalarga nisbatan emas, ko'proq Qur'onni baland va yoqimli ovozda tilovat qiluvchi shaxslarga nisbatan qo'llanilgan.

Navfaj – نوافج Buxoro amirligi devonxonaci hujjatlarida tilga olinadi. Nav va faj so'zlaridan tarkib topgan ikki komponentli joy nomi: nav “yangi”, faj(ch) Buxoro shevasida “tuzsiz, mazasiz” ma'nolarini bildiradi. Yangi o'zlashtirilgan joyning ziroat, ekin-tekni

uchun noqulayligiga ishora tarzida vujudga kelgan toponim deb izohlaymiz.

Bog'iturkon mahalla fuqarolar yig'ini

Pinjon – toponim to'g'risida aholi o'rtasida ikki xil ma'lumot yuradi. Birinchisi, atama shu qishloqda istiqomat qilgan Pinjon bobo nomidan olinganligiga asoslansa, ikkinchisi Urganch cho'li orqali Xorazmdan ko'chib kelgan aholi shu erda o'rnashib, sekin-asta ming jonga etgan va qishloq nomi dastlab Mingjon tarzida vujudga kelganligini o'z ichiga oladi. Demak, Pinjon atamasi Mingjon so'zining buzilgani.

Sho'rcha mahalla fuqarolar yig'ini

Raboti Sulaymon – Sulaymonning raboti.

Tayloq - tayloq va toyloq atamaları ma'no jihatdan biri-biridan farq qiladi. Tayloq (طیلاق) fors-tojik tilida tuyaning bolasiga nisbatan qo'llanilsa, otning bolasi, kichkina toychoq turkiy tilda toyloq deb atalgan. Shuningdek, kichkina bolani erkalab ba'zan erka-toyloq deb atash an'anasi ham mavjud. Mazkur qishloq ahli tayloq etishtirish yoki ularni parvarish qilish bilan shug'ullangan deb hisoblash mumkin.

Sho'rcha – sho'r bilan qoplangan, sho'rxok mavze.

Iftixor mahalla fuqarolar yig'ini

Piyozkor - piyoz ekuvchilar, piyoz yetishtiruvchilar qishlog'i.

Sorikunda – “kunda tarafda joylashgan qishloq” ma'nosida.

Rabotalak – toponim ikkinchi komponentidagi lak so'zining bir qancha ma'nolaridan faqat birgina “eski asbob-anjom” ma'nosini ushbu toponimga nisbatan qo'llaydigan bo'lsak, “eski rabot” atamasi vujudga keladi va u toponimning ijtimoiy ma'nosiga ko'proq yaqin bo'ladi.

Poyjo'y mahalla fuqarolar yig'ini

Kulibolo – yuqorida joylashgan ko'l.

O'zbekon – etnotoponim. Tojikzabon aholi “o'zbekon”, ya'ni “o'zbeklar” deb talaffuz qilgan. Aslida “o'zbekon” tarzida yozish va talaffuz qilish kerak. O'zbek etnotoponimiga tojikcha ko'plik ko'rsatgichi “on” qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. O'zbek millatiga mansub kishilar yashaydigan qishloq. Toponim kishilarning etnik belgisi asosida vujudga kelgan.

Poyjo'y - “quyi ariq yoki ariq quyisidagi qishloq” ma'nosida.

Qoqishtuvon mahalla fuqarolar yig'ini

Qoqishtuvon - toponim negizida o'g'uz shevasi elementlari mavjudligi qishloqda turkmanlar istiqomat qilganligidan dalolat beradi. Qishloq aholisi o'tmishda Tajan daryosi bo'ylarida yashagan turkmanlarning kemachi urug'i vakillari hisoblanadi. Ular taxminan XVI asr oxirlarida Romitan tumani hududiga kelib o'rtnashgan. Toponim tarkibidagi qoqa so'zi turkman tilida "oqsoqol", "ota", "von" so'zi esa "joy", "makon", kishti so'zi "kemachi" ma'nolarini anglatadi. Toponim to'liq holda "oqsoqol kemachilar makoni" degan ma'noni bildiradi. Ushbu joy nomining boshqa ma'nosi ham mavjud. Ya'ni Qoqishtuvon atamasi "qoqa+ hashti +von" so'zidan kelib chiqqan va "sakkiz oqsoqol makoni" ma'nosini anglatadi kabi ma'lumotlar ham bor¹.

Sho'robod mahalla fuqarolar yig'ini

Go'jaxo'r - go'ja taomini tayyorlab iste'mol qiluvchilar ma'nosida.

Sho'robod – sho'rlari yuvilib, obod qilingan mavze.

Rabotibolo - yuqori rabot.

Qantale – qantari (قنطرى) so'zining o'zgargan, og'zaki shakli. Qishning yarmi o'tib, ikkinchi yarmining boshlanishi va yer ostining isiy boshlashi "qantar og'di" iborasi bilan ifoda etilgan. Otlarga dam berib, minishga, ayniqsa ko'pkariga tayyorlashni "qantarga olmoq" deyilgan. Bir musofir shu qishloqdan o'tayotib qantarga olingan otlarga ko'zi tushgan va "bu yer qantari ekan" degan emish.

Navbahor mahalla fuqarolar yig'ini

Yomg'irobod – yomg'irlar natijasida obod bo'lgan maskan.

Respontob – "ip tovlovchi", "ip to'quvchi" ma'nosida. Shu kasb bilan shug'ullangan aholi istiqomat manzili.

Zamate – tarixiy hujjatlarda Zammati (ذمتى) tarzida uchraydi. Dehqonchilik uchun noqulay, hosildorligi past, yomon yerlarga qarata ishlatilgan atama deb taxmin qilamiz.

O'tabek mahalla fuqarolar yig'ini

Yakkabog' – yagona, atrofida boshqa ko'klam bo'lmagan bog'.

O'tabek – onoma. Shaxs nomidan olingan joy nomi.

¹ Қаранг: Тўра Ҳалимов, Исмоил Қобилов. Қадимий ва навқирон Ромитан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 14-142.

Qumrabot – qumlar bilan o‘ralgan, qumli dashtda joylashgan mavze.

Ayronchi – ayron tayyorlovchilar qishlog‘i. Qishloq oralab o‘tgan savdo karvoni ahlini yozning issiq pallasida muzdek ayron bilan siylagan qishloq.

Xo‘jalar - xo‘jalar tabaqasiga mansub aholi yashagan qishloq. Hozirgi paytda ushbu atama o‘z ijtimoiy ma’nosini yo‘qotgan.

Pitmon – tarixiy hujjatlarda پتمان shaklida qayd etiladi. Ma’nosi noma’lum.

Sho‘rcha mahalla fuqarolar yig‘ini

Sho‘robod – sho‘rlab yotgan yerlarning sho‘ri yuvilib, obod maskanga aylantirilganligini anglatuvchi atama.

Temirxo‘ja – onoma. Shaxs nomidan yasalgan atama.

Qizilrabot mahalla fuqarolar yig‘ini

Qizilrabot – cho‘l bag‘rida qizg‘ish loydan barpo etilgan rabot. Buxoro viloyatining g‘arbiy hududida joylashgan. Janubda Turkmaniston, g‘arbda Xorazm bilan chegaradosh.

Gugurutli – ma’nosi noma’lum toponim.

Qisqacha xulosa

Demak, tilga olganimiz Romitan tumani va toponimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tuman hududining ilk o‘rta asrlar, o‘rta asrlar va hozirgi davrdagi ijtimoiy-madaniy hayoti to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Romitan qo‘rg‘oni qadimiy yodgorlik sanalsa, Xo‘ja Ali Romitaniy, Boboi Samosiy ziyoratgohlari o‘rta asrlar diniy-ma’naviy hayotidan darak beruvchi va tarbiyaviy ahamiyatga molik obidalar hisoblanadi. Qadimgi va o‘rta asr obidalari nomida, shuningdek, tumandagi toponimlarda xalqning uzoq yillik shonli tarixi o‘z ifodasini topgan.

Tayanch so‘z va iboralar: sug‘ormoq, shifobaxsh, tekislik, unumdor, yaylovzor, qo‘rg‘on, eshiksozlar, rayonlashtirish siyosati, geografik holat, qabila nomi, arab geograflari, Choriqulboy ko‘prigi, qavm nomi, ko‘chib o‘tmoq, arxiv hujjatlari, irrigatsiya tizimi, asosiy mashg‘ulot, asos solmoq, yashash joyi, ishlatilgan atama.

Savol va topshiriqlar

1. Romitan atamasining kelib chiqishi to‘g‘risida tarixiy asarlarda qayd etilgan ma’lumotlarni eslang?
2. Mustaqillik yillari va keyingi to‘rt yilda tumanda amalga oshirilgan ijobiy o‘zgarishlar nimalarda namoyon bo‘ladi?

3. Qaysi toponimlarni aholining kasb-kori bilan bog‘liq deb hisoblash mumkin?
4. Xalch etnotoponimi to‘g‘risida qaysi manbada batafsil ma‘lumot keltiriladi? Ma‘lumotlarni to‘liq keltiring
5. Qaysi mahalla fuqarolar yig‘ini Naqshbandiya tariqatining beshinchi piri nomi bilan ataladi?
6. Teri kasalliklariga shifo bo‘luvchi qadamjo qaysi nom bilan ataladi?
7. Toshrobot mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi qishloqlarni tilga oling?
8. Enarzi, Pitmon, Gugurutli kabi ma‘nosi noaniq joy nomlarining ma‘nosini aniqlashga, paydo bo‘lish tarixiga aniqlik kiritishga harakat qiling?
9. O‘zingiz yashayotgan ko‘cha, mahalla, qishloq nomining ma‘nosi va tarixi to‘g‘risida qisqacha axborot tayyorlang?

9-MAVZU: PESHKO‘ TUMANI TOPONIMLARI

9.1.Tumanning qisqacha tarixi

9.2.Mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi qishloqlar va ularning tarixiy nomlari


9.1.Tumanning qisqacha tarixi

Peshko‘ tumani 1950-yil 15-aprelda tashkil etilgan. 1959-yil Vobkent tumani, keyinroq Romitan tumani tarkibiga kiritiladi. 1978-yil alohida tuman sifatida qayta tuziladi. 1988-yil Romitan tumani bilan birlashtirilgan. Lekin bir yildan so‘ng, ya‘ni 1989-yil unga alohida tuman maqomi berilgan. Tuman markazi Yangibozor shaharchasi hisoblanadi. Tuman tarixidagi bunday tez-tez o‘zgarishlar uning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatida yuz berib turgan ko‘tarilish va tushish jarayonlari, ma‘muriy-hududiy boshqaruvni ixchamlashtirish bilan bog‘liq.

Tuman nomining ma‘nosi to‘g‘risida turli xil talqinlar mavjud. “Peshikuy” so‘zidan olingan va “katta yo‘l ustidagi qishloq” ma‘nosini bildiradi, shuningdek, “peshku” yoki “peshko‘”, ya‘ni “tog‘ oldi qishlog‘i” ma‘nosini anglatadi kabi izohlar bor.

Peshko‘ tumani shimol tomondan Navoiy viloyati, shimoliy g‘arbdan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, shimoliy sharq va sharqdan Shofirkon, Vobkent tumanlari, janub va janubiy sharqdan Romitan va Jondor tumanlari bilan chegaradosh.

Tuman hududi asosan tekislikdan, cho‘l va yaylovlardan iborat bo‘lsa-da, Quljuqtovga tutash yerlarda past tog‘lar, bir oz murakkab rel‘yeflar mavjud. Buxoro vohasidagi barcha sug‘oriladigan yerlarning to‘rt foizi Peshko‘ tumani hududiga to‘g‘ri keladi. Tuman hududi shimoliy g‘arbgacha tomon cho‘zilganligi bois iqlimi boshqa tumanlardan farq qiladi va cho‘l iqlimining ustunligi sezilib turadi. Yil davomida shamol esadi. Madaniy zona tuproqlari ekin yetishtirishga yaroqli, hosildor. Shuningdek, cho‘l zonasida qo‘ng‘ir, qumli, taqir, taqirsimon va sho‘rxok tuproqlar uchraydi. Cho‘l sharoitiga moslashgan oq saksovul, quyonsuyak, qandim, partak, isiriq va boshqa turdagi o‘simliklar o‘sadi.



Buxoro viloyati tarkibidagi Peshko‘ tumani xaritasi (qizil rangli)

Tumandagi Afshona qishlog‘i buyuk mutafakkir, tabobat asoschilaridan biri Ibn Sino tavallud topgan maskandir. Ibn Sino tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan 1980-yil bu qishloqda Ibn Sino muzeyi tashkil etildi. Yubiley kunlari bu qishloq tantana ishtirokchilari, jumladan, bir guruh xorijiy olimlarni qabul qildi. 2006-yil ushbu muzey ekspozitsiyasi yangilanib, Ibn Sino hayoti va ijodiga doir yangi eksponatlar bilan boyitildi. Afshona qishlog‘ida tibbiyot kolleji tashkil etildi. **Keyingi to‘rt yilda** tumanda qator madaniy-maishiy, ma‘rifiy ob‘yektlar, jumladan, kitob do‘konlari, yangi

dehqon bozori qurildi, shuningdek, tuman markazidagi eskirgan binolar o‘rniga yangilari qad ko‘tardi.

Obod maskanga aylantirilgan Afshona qishlog‘ida Ibn Sino muzeyi, uning haykali va zamonaviy tibbiyot kolleji binosi bir-biriga uyg‘un holatda yagona kompozitsion majmuani tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil fevral oyida Buxoroga tashrifi davrida viloyat faollari bilan uchrashuvi Peshko‘ tumani hokimligi binosining yangilangan majlislar zalida bo‘lib o‘tdi.



Peshko‘ tumani mahalla fuqarolar yig‘ini xaritasi

Peshko‘ tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini
1	Ibn Sino
2	Deycha
3	Chaqir
4	Mustaqillik
5	Malishoyak
6	Bog‘imuso
7	Navbahor

8	Valfajr
9	Zandane
10	Bobohoji
11	Xorkash
12	Qoraqalpoq
13	Xo‘lbor
14	Do‘stlik
15	Yangiobod
16	Mahallai Mirishkor
17	Talisobun
18	So‘sana
19	Alisher Navoiy
20	O‘zbek
21	Varaxsha
22	Turkiston
23	Navgahon
24	Kuyovxo‘ja
25	Obidxo‘ja
26	Shavgon
27	Chibog‘oni
28	Quchoq
29	O‘g‘lon
30	Peshko‘
31	Guliston
32	Jongeldi

9.2. Mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi qishloqlar va ularning tarixiy nomlari

Ibn Sino mahalla fuqarolar yig‘ini

Afshona - Ibn Sino tug‘ilgan qishloq. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, haftshona, ya’ni “yetti tarmoq” so‘zidan olingan va katta suvning yetti yo‘nalishiga qiyos qilingan.

Qo‘ng‘ontepa – “qo‘rg‘ontepa” atamasining buzilgan shakli bo‘lishi mumkin.

Avdene – etimologik ma’nosi murakkab toponim. Avd, avdiya o‘zagi asosida tashkil topgan atama. Avdiya so‘zining buzilgan ko‘rinishi deb hisoblaydigan bo‘lsak, avdiya (اودييه) arab tilida “vodiy”

ma'nosini anglatadi. Demak, ushbu toponimga vodiydagi qishloq tushunchasi to'g'ri keladi.

Sadir - sadr shaklida o'qiladigan bo'lsa, "ko'krak" ma'nosini beradi. Joyning geografik holatidan kelib chiqib shunday nomlangan bo'lishi mumkin.

Dehdaroz – deh "qishloq", daroz "uzun", ya'ni uzun qishloq ma'nosini beradi.

Alot - etnotoponim. O'zbek urug'laridan birining nomi. Orlot etnotoponimining o'zgargan shakli. Respublikamiz hududiga keng tarqalgan etnotoponim. Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko'p uchraydi.

Makadit – ma'nosi noma'lum toponim.

Deycha mahalla fuqarolar yig'ini

Deycha – dehcha, ya'ni "qishloqcha" atamasining qisqartma shakli.

Kodravon – kordravon atamasining qisqartma shakli deb faraz qilish o'rinli. Toponim o'zagidagi kord so'zi tojik tilida "pichoq" ma'nosini bildiradi. Ikkala komponentning birlashma ma'nosi "o'tkir pichoq", ko'chma ma'nosi esa, doimo iste'molda bo'lgan, foydalaniladigan pichoq. Umuman, pichoq yasovchi hunarmandlar qishlog'i tarzida ham izohlash mumkin.

Bolin - bolin yoki bolish – bosh ostiga qo'yadigan yostiq. Geografik o'rniga nisbat berib nomlangan qishloq, yoki shu turdagi maishiy buyum tikuvchilar maskani deb talqin qilish o'rinli.

Chorobod – "to'rt tarafi obod" qishloq ma'nosida. Shuningdek, "chorrabot", ya'ni "to'rt rabot" atamasining buzilgan shakli deb ham qabul qilish o'rinli. Viloyatning boshqa tumanlarida ham uchraydi.

Laylakxona – laylaklar makon qilishiga mos tabiatga, qamishzor va ko'lga ega mavze.

Chiqir mahalla fuqarolar yig'ini

Talisarob - "sarobtepa" ma'nosida. "Tall sari ob" shaklida talqin qilinsa, "suv boshidagi tepa", "suv boshlanadigan joydagi tepa" ma'nolari kelib chiqadi.

Mustaqillik mahalla fuqarolar yig'ini

Chiqirchi - chaqar so'zidan olingan deb hisoblanadigan bo'lsa, og'zaki tojik tilidagi "ko'cha, tor ko'cha" ma'nosini anglatadi.

Malishoyak mahalla fuqarolar yig'ini

Malishoyak – tarkibi murakkab toponimlar sirasiga kiradi. Malik+shoh+yak atamasining o'zgarishga uchragan shakli deb qabul qilinadigan bo'lsa, “yakka, yagona Malikshoh” ma'nosi kelib chiqadi va onomatoponimga aylanadi. Toponim talqini borasida boshqa fikr va ma'lumotlar ham tavsiya etilishi mumkin. Jumladan, 1926-yil tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro'yxati”da Mahalla Shoyak (محله شايک) shaklida qayd etilgan. Bunda “yagona shoh mahalla” ma'nosi hosil bo'ladi.

Ko'saravon – “yuruvchi, ketib borayotgan, yurib ketayotgan ko'sa” ma'nosini bildiradi. Ikkinchi talqinga ko'ra, ko'sa - etnotoponim. Urug' nomidan olingan. Qo'ng'iroq, yuz, turkmanyuz kabi qabilalar tarkibida uchraydi¹. Farg'ona, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlari hududida ham yashagan.

Bog'imuso mahalla fuqarolar yig'ini

Bog'imuso – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi toponim. Muso ismli shaxsga tegishli bog'.

Do'rman - etnotoponim. O'zbek qabilalardan biri. Movarounnahr hududiga XVI-XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kirib kelgan va Buxoro amirligi siyosiy hayotida faol ishtirok etgan. Zarafshon vohasi, shuningdek, mamlakatimizning janubiy hududlariga keng tarqalgan.

Qassoblar – asosiy kasbi qassoblik hisoblangan aholining istiqomat manzili.

O'zbeksarob – o'zbek+sari+ob tarzida talqin qilinsa, “suv boshida, ariq boshlanadigan joyda istiqomat qiluvchi o'zbek” ma'nolarini qo'llash mumkin bo'ladi.

Navbahor mahalla fuqarolar yig'ini

Novabo'yi – gidronim. Suv bo'yida joylashgan mavze.

Valfajr mahalla fuqarolar yig'ini

Saroy - etnotoponim. O'zbeklar tarkibiga kirgan yirik qabila uyushmasi. Ushbu qabila uyushmasi yana bir necha katta kichik qabilalarga bo'lingan. Jumladan, majar-saroy, qorabo-saroy, nayman-saroy, qo'ng'iroq-saroy va hokazolar. Buxoro vohasiga keng tarqalgan.

Xo'jalar – xo'jalar tabaqasiga mansub aholi yashagan qishloq. Hozirgi paytda ushbu atama o'z ijtimoiy ma'nosini yo'qotgan.

¹ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.72.

Ko‘panak – 1926-yilgi “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da aynan shu shaklda qayd etilgan va bu holat ushbu joyning tarixiylikidan guvohlik beradi. Biroq toponim ma‘nosi mavhum joy nomlari turkumiga kiradi. Shakl jihatdan “ko‘panak” atamasi “ko‘pdanak” so‘ziga yaqinroq. Masalaning shunday qo‘yilishi ushbu toponim borasida ayrim mulohazalarga, jumladan, quritilgan danak tayyorlab sotuvchilar qishlog‘i bo‘lganligi to‘g‘risidagi fikrlarni o‘rtaga tashlashga chorlaydi.

Sardushox - sari dushox, ya‘ni “ikki shoxli bosh” ma‘nosini bildiradi. Geografik ob‘yektning tabiiy shaklini aks ettiruvchi toponim.

Chorobod - “to‘rt tarafi obod” qishloq ma‘nosida. Shuningdek, “chorrabot”, ya‘ni “to‘rt rabot” atamasining buzilgan shakli deb ham qabul qilish o‘rinli. Viloyatning boshqa tumanlarida ham uchraydi.

Ko‘chkallo – Ko‘shk-i a‘lo (كوشك علا) atamasining fonetik o‘zgarishi natijasida ushbu shaklda iste‘molga kirgan joy nomi. Ma‘nosi “baland ko‘shk”, “baland qasr”.

Ko‘chkarasul – 1926-yilgi “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da Qo‘rg‘oni Rasul tarzida qayd etilgan. Mazmun jihatda ikkalasi ham bir xil. Ya‘ni Rasul nomli shaxsga tegishli qo‘rg‘on, tepa ma‘nolarini ifoda etadi.

Valfajr – Buxoro qushbegisi devonxona hujjatlarida Volfajr (والفجر) ko‘rinishida qayd etiladi¹. Ma‘nosi noma‘lum toponimlar guruhiga kiritish bilan bir qatorda, turkiy urug‘lardan birining nomi bo‘lsa kerak, deb faraz qilamiz.

Zandane mahalla fuqarolar yig‘ini

Mo‘g‘ilon - etnotoponim. Mo‘g‘ul urug‘lari yashagan qishloq. Mo‘g‘ullar garchi Movarounnahr va boshqa hududlarni zabt qilgan bo‘lsalar-da, ijtimoiy-madaniy, ma‘rifiy jihatdan mahalliy aholidan quyida turardilar. Ular tarafidan islomning qabul qilinishi, mahalliy aholining yozuv madaniyatini o‘zlashtirilishi ayrim mo‘g‘ul guruhlarining o‘troqlashuviga olib keldi. Ular hatto o‘z tillarini unutilib mahalliy aholi bilan aralashib ketdilar. “Mo‘g‘ulon” atamasi toponim sifatida saqlanib qoldi.

Arabguzar - arablar yashaydigan mahalla.


¹ Қаранг: Населённые пункты Бухарского эмирата (конец XIX - нач. XX вв). Материалы к исторической географии Средней Азии. Под редакцией А.Р. Мухаммеджанова. -Т.: Университет, 2001. – Б. 34, 200, 203.

Ko‘lhavli – tabiiy-geografik joylashuvi ko‘lni eslatuvchi mavze.

Zandani - mashhur joy nomi. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Zandaniga keng ta’rif beriladi. O‘rta asrlarda o‘zining zandanicha matosi bilan mashhur bo‘lgan. Toponimning birinchi komponenti zand so‘zi Avesto, so‘g‘d, o‘rta va yangi fors tillarida uchraydi va “sharh” degan ma’noni bildiradi. Bunda Avesto matnlariga sharhlar berish anglashiladi. Ikkinchi qismi, ya’ni ani yoki ane so‘zi so‘g‘dcha, sharqiy eroncha bo‘lib, ravish, harakat nomi, sifatdosh hosil qiluvchi qo‘shimcha hisoblanadi. Demak, “zandanicha” atamasi zandanicha matosini zandlar, zandanilik sharhlovchilar tayyorlaganini anglatadi¹.



Zandani qo‘rg‘oni



Zandanicha matosi

Ko‘kchi – yam-yashil joyga nisbatan qo‘llanilgan atama.

Juyabul – ma’nosi noma’lum toponim.

Olong – ma’nosi noma’lum toponim.

Bobohoji mahalla fuqarolar yig‘ini

Shovare - XVI asrda yozilgan “Ravzat ar-rizvon”, “Sa’diya” kabi qo‘lyozma asarlarda ushbu joy nomi tilga olinadi.

¹ Альмеев Р., Махмудов К. “Зандани” тепалиги, “Занданичи” матоси маданий меросини асраш ҳамда туризмни ривожлантириш. – Бухоро: ООО Бухоро вилоят кутубхонаси, 2019. – Б. 19 – 23.

Boqimirishkor – onoma. “Mirishkor Boqi, ya’ni ovchilar boshlig‘i bo‘lgan Boqi” ma’nosida. Shuningdek, mirishkor urug‘ining vakili Boqi ismli shaxs qishlog‘i sifatida ham izohlash joiz.

Tanirud – tanarud, ya’ni daraxt tanasiga, shoxlariga o‘xshab turli tarafga yo‘nalgan ariq sifatida izohlash bilan birga, ikkinchi talqini ham borligini eslatish o‘rinli. Unga ko‘ra, ikki o‘zakli tanin+rud so‘zlaridan tashkil topgan joy nomi. Tanin (طنين) “ovoz”, “sado”, rud esa “ariq”, “soy”, ya’ni turli tovush chiqarib, sharqirab oquvchi ariq, soy ma’nolarini bildiradi.

Bobohoji – onoma. Shaxs nomidan olingan. Hoji maqomiga ega keksalar Bobohoji yoki Hojibobo deb e’zozlangan.

Xorkash mahalla fuqarolar yig‘ini

Xorkash – “yantoq tashuvchi” ma’nosini bildiradi. Joyning yantoqzordan iborat bo‘lganidan darak beradi.

Yangihovli – yangi hovlilardan iborat aholi turar joyi nazarda tutilib vujudga kelgan atama.

Po‘stindo‘st - “po‘stindo‘z”, ya’ni “po‘stin tikuvchi” atamasining o‘zgargan shakli bo‘lishi kerak.

Bo‘zakon - “qo‘riq yer” ma’nosini bildiradi.

Oqrabod – “oqqo‘rg‘on”, shuningdek, “katta rabot” ma’nolarini anglatadi.

Qoraqalpoq mahalla fuqarolar yig‘ini

Mahallagija – gijjadek halqaga o‘xshash mahalla ma’nosida.

Arbobhoji – hoji maqomiga ega amaldor yashagan qishloq.

Qoraqalpoq - etnotoponim. Qoraqalpoqlar istiqomat qilgan qishloq. Ilk o‘rta asrlarda Orol bo‘yi xalqlari, ya’ni bijanaklar va o‘g‘uzlar shakllandi va shular negizida VIII-X asrlarda qoraqalpoqlar shakllana boshlaydi. XIV-XV asrlarda qoraqalpoqlarning no‘g‘aylar bilan aloqasi ularning etnogenezigiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. XVI asr oxirlariga oid manbalarda qoraqalpoq nomi bilan tilga olinadi. Qoraqalpoqlar XIX oxirlarida yarim o‘troq tarzda hayot kechirgan bo‘lsa-da, ular turmushida hali chorvachilik etakchi o‘rin tutgan. Lekin sekin-asta sug‘orma dehqonchilikni ham o‘zlashtira boshladilar.

Xo‘lbor mahalla fuqarolar yig‘ini

Xo‘lbor – ho‘lbor atamasining o‘zgargan shakli. Toponim tarkibidagi bor so‘zi juda ko‘p ma’nolarga ega. Jumladan, “meva, daraxt shoxi” va hokazolar. Ho‘lbor atamasi “ho‘l meva” tarzida qabul

qilinadigan bo'lsa, toponim "ho'l meva yetishtiruvchi qishloq" ma'nosini kasb etadi.

Arabdiyor – etnoim. Arab qabilalari yashaydigan mavze.

Do'stlik mahalla fuqarolar yig'ini

Mahallayi miron – o'tmishda amirlar yashab kelgan mahalla.

Ko'lmiri – Ko'li amiri shaklida yozilishi va talaffuz qilinishi mazmun va ma'no jihatdan toponim mohiyatini ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan yondashilganda, "amirlikka tegishli ko'l" yoki "amirning ko'li" tushunchalari orqali yasalgan toponim ekani ayon bo'ladi.

Qo'rg'on – atrofi mudofaa devori bilan o'rab olingan yoki baland tepalik ustida joylashgan yashash manzili.

Yorika – Buxoro qushbegisi devonxona hujjatlarida Yorigoh (يارىگاه) shaklida tilga olinadi¹. Ma'nosi "madadgoh", "madad beruvchi joy".

Mutfare – ushbu atamani mutvori (متواری) so'zining fonetik o'zgargan shakli deb qabul qiladigan bo'lsak, "pinhon bo'lgan, yashiringan" ma'nolarini bildiruvchi joy nomiga aylanadi. Bu esa joyning kichikligidan, katta qishloqlar orasida noma'lum bo'lib qolganidan darak beradi.

Miyonjo'y - "o'rta ariq" ma'nosida. Qishloqning o'rtasidan oqib o'tadigan ariq, yoki ariqning o'rta qismi bo'ylab joylashgan qishloq..

Yangiobod mahalla fuqarolar yig'ini

Ofandar - "bofandar", ya'ni "to'quvchi" so'zining buzilgan shakli. To'quvchilik bilan shug'ullangan aholi istiqomat qilgan qishloq.

Urganjiobod - urganjiylar obod qilgan joy. Urganchdan kelib, shu joyga asos solgan aholining istiqomat manzili.

Mahallayi Mirishkor mahalla fuqarolar yig'ini

Talisobun - "sovuntepa" ma'nosida. Ko'rinishi sovunni eslatuvchi tepalik.

Talisobun mahalla fuqarolar yig'ini

Mahallayi mirishkor - mirishkorlar mahallasi. Mirishkor urug'iga mansub aholi yashagan qishloq.

¹ Қаранг: Населённые пункты Бухарского эмирата (конец XIX-нач. XX вв). Материалы к исторической географии Средней Азии. Под редакцией А.Р. Мухаммеджанова. – Ташкент: Университет, 2001. – Б. 65, 200.

Yobonidur - “uzoq yovon, uzoqda joylashgan yovon” ma’nosida.

So’sana mahalla fuqarolar yig’ini

Saidon - sayidlar, ya’ni payg’ambar avlodlari yashagan joy.

So’sana - “so’zana” bo’lgan bo’lishi ham mumkin. So’zana – qo’lda, igna bilan tikiladigan va devorga osib qo’yiladigan mato. Aholining kasb-korini anglatuvchi toponim.

Uyboy – badavlat xonadonlar ko’p bo’lgan qishloq nazarda tutilib tarkib topgan atama sifatida talqin qilish mumkin.

Ko’lbaxti – tarixiy hujjatlarda كولبختى ko’rinishida uchraydi. Ma’nosi “baxt ko’li”. Barakali, ozuqabop, baxt keltiruvchi kabi majoziy ma’nolarga ega.

Turgare - تورگرى toponim tarkibidagi tur so’zi fors-tojik tilida “pahlavon, botir” ma’nolarini anglatadi. Shunga ko’ra, toponimni pahlavonlar, polvonlar qishlog’i sifatida izohlash mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi mahalla fuqarolar yig’ini

Qal’ayi mirishkor - mirishkorlar kal’asi. Mirishkor urug’iga mansub aholi istiqomat manzili.

Allayor – onoma. Shaxs nomidan yasalgan toponim.

Kudrasheyx – onoma. Shaxs nomini ifoda qiluvchi toponim.

O’zbek mahalla fuqarolar yig’ini

O’zbek – etnotoponim. O’zbek urug’lariga mansub aholi yashagan qishloq.

Shoboti – Sho’robod atamasining fonetik o’zgargan shakli sifatida taxmin qilish mumkin.

Murodi - مرادى Buxoro amirligi devonxona hujjatlarida qayd etiladi. “Murod hosil bo’luvchi”, “murod baxsh etuvchi manzil” ma’nolarini anglatadi.

Nurafshon - “nur sochuvchi, nur taratuvchi” ma’nosida.

Varaxsha mahalla fuqarolar yig’ini

Vahmkor - “vahm, ya’ni vaqf yerlarida ishlovchilar” ma’nosida.

Nalbandon - “taqa uruvchi” ma’nosida. Shu kasb bilan shug’ullanuvchilar yashagan qishloq.

Ishkom – ishkamlari ko‘p, uzumchilikka ixtisoslashgan qishloq. Ishkom – toklarni ko‘tarib qo‘yish, yoyish uchun poya va bag‘azlardan baland qilib qurilgan so‘ri¹.

Turkiston mahalla fuqarolar yig‘ini

Zaxkash – zaxkash yaqinida joylashgan mavze.

Qorovul – qishloqning boshqa qishloqlarga nisbatan joylashuviga qarab tarkib topgan toponim. Odatda teparoqda, yoki hudud boshida joylashgan, atrof qishloqlarni o‘z kuzatuviga olib, tashqaridan keladigan xavf-xatardan ogoh qilib turadigan va himoya choralarni ko‘radigan manzilga qarata qo‘llanilgan atama.

Xayrob – xayr-barakali, sersuv, hosildor mavze.

Tegirmonchi – tegirmon tortish bilan mashg‘ul kishilar istiqomat qilgan qishloq.

Navgahon mahalla fuqarolar yig‘ini

Nogahon - ناگهان lug‘aviy ma‘nosi “to‘satdan”, “daf‘atan”, “qo‘qqisdan”, “bexosdan”. Toponimning tarkib topishida ushbu so‘zlar ma‘nosining ahamiyati bor deb o‘ylaymiz, va shu asosda uni daf‘atan tashkil topgan manzil sifatida izohlashni taklif etamiz.

Saidmiroxur – onoma. Miroxur lavozimiga ega amaldor nomi bilan atalgan qishloq. Miroxurlar Buxoro amirlikda otxona boshlig‘i lavozimida turgan.

Denov – “yangi qishloq” ma‘nosini bildiradi.

Kuyovxo‘ja mahalla fuqarolar

Kuyovxo‘ja - كيوخواجه Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlari tarkibida shu tarzda uchraydi. Shaxs nomini anglatuvchi onomatoponim deb taxmin qilamiz.

Qumqo‘rg‘on – qum ko‘chishi natijasida atrofni tuproq bosib qolgan qo‘rg‘on.

Qo‘shchi – Buxoro amirligi devonxonasiga tegishli qo‘lyozma hujjatlarda Qo‘shchin (قوشچين) ko‘rinishida qayd etilgan². Yer haydovchi dehqonlar qishlog‘i ma‘nosiga ega.

Obidxo‘ja mahalla fuqarolar yig‘ini

Obidxo‘ja – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi toponim.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 256.

² Қаранг: Населённые пункты Бухарского эмирата (конец XIX-нач. XX вв). Материалы к исторической географии Средней Азии. Под редакцией А.Р. Мухаммеджанова. - Ташкент: Университет, 2001. – Б.90, 204.

Shodmin - “shodmon” atamasining buzilgan shakli.

Kati - کتی Buxoro amirligi devonxonasiidagi qo‘lyozma hujjatlarda shu nomda uchraydi. To‘rt oyoqli yog‘och so‘ri Buxoro shevasida kat deyiladi. Qishloq nomining paydo bo‘lishi shu xildagi o‘tirish moslamasi yasovchi ustalar mashg‘uloti bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Toponim borasida boshqacha izohni ham taklif qilamiz. Unga ko‘ra, Kati so‘zi aslida Buxoro vohasining janubiy hududlarida yashaydigan qisman turkmanzabon aholi tomonidan katti, gati, gatti, gitti, ketti tarzida talaffuz qilinadi va “ketdi” ma‘nosini bildiradi.

Shavgon mahalla fuqarolar yig‘ini

Shavgon – 1926-yilda tuzilgan qishloqlar ro‘yxatida Savgon shaklida uchraydi. Toponimni savgand سوگند so‘zining keskin o‘zgarishga uchragan ko‘rinishi deb hisoblaydigan bo‘lsak, bu so‘z tojik tilida qasam ma‘nosini anglatadi.

Chibog‘oni mahalla fuqarolar yig‘ini

Chibog‘oni – tarixiy hujjatlarda Chibog‘ni (چيباغنى) shaklida uchraydi. Ma‘nosi noaniq.

Degdavon - toponimning birinchi komponenti “qozon” ma‘nosini anglatadi. Joyning tabiiy-geografik tuzilishi natijasida hosil bo‘lgan toponim.

Chalmagadoy - Buxoro amirligining Xutfar (hozirgi Peshko‘) tumaniga qarashli ikki komponentdan iborat tarixiy toponim. Chalma Buxoro vohasida tayyorlangan non turlaridan biri. Xamirga piyoz va qovoq aralastirilib tandirga yopilgan. “Gadoy” so‘zi asl ma‘noda emas, balki ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan. Shu nonni tayyorlovchi va shu xildagi nonga ehtiyoji ko‘proq aholi istiqomat qilgan qishloqqa nisbatan ishlatilgan. O‘zbekiston Milliy arxivining I-126 fondida saqlanayotgan hujjatlar tarkibida چالمه گدای shaklida qayd qilingan.

Sarichashma - “chashma bo‘yi” ma‘nosida. Geografik holatiga ko‘ra nomlangan toponim.

Jonxo‘roz – جانخوراڭ ushbu nomdagi toponim Hisor viloyatining Laqay Badroqli amlokdorligida ham uchraydi. Qorako‘l tumanidagi Jonxo‘roz qishlog‘i o‘g‘uz qabilalarining bir tarmog‘i nomidan olingan bo‘lsa kerak.

Chaqalon – toponim o‘zagidagi chaqa so‘zi mis va jezdan yasalgan mayda pulni anglatadi. Atamaning joy nomiga naqadar aloqasi borligi bir oz bahsli. Chaqa so‘zi “o‘yiq” ma‘nosini ham

anglatishiga ko‘ra, toponimda joyning tabiiy-georafik holati aks etgan, degan izohni ham taklif qilish o‘rinli. Yoxud chaqaloq so‘zining fonetik o‘zgargan shakli asosida shakllangan toponim sifatida baholash mumkin.

Yuqori Kati – كتي Kati qishlog‘ining yuqori qismi. Yuqorida ta’kidlaganidek, Buxoro amirligi devonxonasiidagi qo‘lyozma hujjatlarda shu nomda uchraydi. To‘rt oyoqli yog‘och so‘ri Buxoro shevasida kat deyiladi. Qishloq nomining paydo bo‘lishi shu xildagi o‘tirish moslamasi yasovchi ustalar mashg‘uloti bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Toponim borasida boshqacha izohni ham taklif qilamiz. Unga ko‘ra, Kati so‘zi aslida Buxoro vohasining janubiy hududlarida yashaydigan qisman turkmanzabon aholi tomonidan katti, gati, gatti, gitti, ketti tarzida talaffuz qilinadi va “ketdi” ma’nosini bildiradi.

Quyi Kate – Kati qishlog‘ining quyi qismi.

Hurdiyoy – ozod, hur, farovon diyoy ma’nosida.

Kalasang – etimologik tuzilishiga bo‘yicha tahlil qilinadigan bo‘lsa, ikkita “l” harfi bilan talaffuz qilinadigan “kalla+sang” atamasi asosida tarkib topgan ikki komponentli toponim hisoblanadi. Ushbu so‘z birikmasidagi “kalla” bu yerda “katta” ma’nosini bildirmoqda. Demak, toponim o‘z tabiiy-geografik holatiga ko‘ra, “katta tosh” ma’nosini anglatadi.

Biryonkati – بریان کتی Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida shu ko‘rinishda uchraydi. Ikki qismdan iborat joy nomi. Biryon fors-tojik tilida “qovurilgan”, “kuygan”, “g‘am-alamga botgan”, “g‘am-g‘ussali” ma’nolarini anglatadi. Toponimning ikkinchi tarkibiy qismini tashkil etuvchi kati so‘zi, yuqorida ta’kidlanganidek, aslida Buxoro vohasining janubiy hududlarida yashaydigan qisman turkmanzabon aholi tomonidan katti, gati, gatti, gitti, ketti tarzida talaffuz qilinadi va “ketdi” ma’nosini bildiradi. Toponim “g‘am ketdi” ma’nosini anglatib, g‘am-alam, tashvishlardan forig‘ bo‘lgan qishloqqa nisbatan ishlatilgan.

Qo‘rchi – qo‘r so‘zi turk-mo‘g‘ul tilida “o‘q”, “qurol” ma’nosini bildiradi. Mazkur toponim o‘q yoki qurol-yaroq yasovchi aholi yashagan qishloqni ifoda etadi.

Quchoq mahalla fuqarolar yig‘ini

Quchoq - قچاق tarixiy qo‘lyozma hujjatlarda shu taxlitda tilga olinadi. Quchoq ochib kutib oladigan qishloqning tabiiy-geografik

oʻrni, aholisining xush feʼl – atvori, samimiyligiga nisbat sifatida tarkib topgan joy nomi deb hisoblaymiz.

Shuningdek, qipchoq etnonimining fonetik oʻzgargan shakli deb izohlashni ham mulohaza uchun taklif etamiz.

Mangʻitlar - etnotoponim. Mangʻitlar istiqomat qilgan qishloq. Mangʻitlarning ajdodlari XIII asr boshlarida Moʻgʻuliston hududida yashagan. XIII asr davomida Dashti Qipchoqqa kelib oʻrnashganlar. XIII-XIV asrlarda mangʻitlarning katta qismi Volga va Ural daryolari oraligʻida joylashib oladi. Shu davr mobaynida qipchoqlar taʼsiri ostida oʻz tillarini unutilib turk-qipchoq tilini qabul qilishadi. Keyinchalik ular oʻzbeklar, qoraqalpoqlar va qisman qozoqlarning etnik tarkibiga kiradi. Mangʻitlar hozirgi Oʻzbekiston hududiga XVI asrda koʻchib oʻtadi va oʻtroq dehqonchilik bilan shugʻullanadi. Ular Buxoro xonligining siyosiy hayotida katta mavqega ega boʻlib, hukmron sulola darajasiga koʻtariladi va 1753-1920 yillarda Buxoroni idora qiladi.

Sariob - “suvboshi” maʼnosida. Ariq boshlanadigan joyda joylashgan mavze.

Naberaxoʻja – etnotoponim. Shaxs nomi asosida vujudga kelgan joy nomi. Shu bilan birga, qaysidir xoʻjaning nabirasi istiqomat qilgan qishloq sifatida ham izohlash mumkin.

Oʻgʻlon mahalla fuqarolar yigʻini

Oʻgʻlon – etnotoponim. Oʻzbek urugʻlaridan biri.

Shabboda – doimo yengil shamol esib turadigan hududda joylashgan qishloq.

Xayroxayre – Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida Xayr Oxuri (خير اخی) tarzida qayd etilgan. Shu shaklda qabul qiladigan boʻlsak, “xayrli oxur”, “barakali oxur”, koʻchma maʼnoda esa “xayrli maskan” maʼnolarini kasb etadi. Toponim tarkibidagi xayr soʻzi har holda joyning ijobiy sifatlarga ega ekanligidan darak beradi.

Gulxalon – گل خان tarixiy qoʻlyozma hujjatlarda uchraydigan ikki komponentli ushbu toponimning lugʻaviy maʼnosini “sanchiq gul” deb taxmin qilamiz. Tikanli gullar oʻsadigan mavzeda joylashgan qishloq.

Peshkoʻ mahalla fuqarolar yigʻini

Peshkoʻ – ikki qismdan iborat boʻlgan toponim: pesh+koʻ. Pesh soʻzi biror narsaning old tomonini bildirsa, koʻ soʻzi esa “koʻcha” maʼnosini anglatadi. Bunda “koʻchaning oldi, koʻcha boshi”

ma'nosini hosil bo'ladi. Agar ko' atamasi fors-tojik tilidagi kuh, ya'ni tog' so'zidan olingan deb hisoblansa, toponim "tog' oldi" qishlog'i ma'nosini bildiradi. Biroq Peshko' tumani hududi va undan yaqin-yiroqda umuman tog' yo'q. Demak, birinchi ma'no to'g'ri bo'ladi. Toponim o'rta asr manbalarida Beski shaklida uchraydi. 1572-yil Jo'ybor xo'jalaridan biri Xo'ja Sa'd Beski mavzesida joylashgan yerlarning bir qismini Mirzo Suxrob degan kishidan o'zaro kelishuv asosida sotib olgan¹.

Iskomgaze – اسکام گزی Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida tilga olinadi. Iskom so'zini iskov so'zining buzilgani deb izohlaydigan bo'lsak, dehqonchilikda xashak to'playdigan yoki somon sovuradigan mehnat quroli - "seshaxa" anglashiladi. Iskof so'zining o'zgargani deb qaralsa, "etikdo'z", "kovushdo'z" ma'nolari hosil bo'ladi. Umuman olganda, ushbu toponim qo'shimcha o'rganishga muhtoj.

Rabodxo'ja - turkiycha "xo'jarabod", ya'ni "xo'janing rabodi" ma'nosini beradi.

Sho'robod – sho'rdan xalos qilinib, obod maskanga aylantirilgan mavze.

Taxna – تخنه Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida shu tarzda qayd etilgan. Dahana so'zining buzilgani deb taxmin qilinsa, yer sug'orish ishlari bilan bog'liq ijtimoiy ma'no kelib chiqadi. Ya'ni, Buxoro vohasida katta ariqdan kichik ariqqa, yoki ekin yeriga suv tortilgan joy dahana deyilgan.

Guliston mahalla fuqarolar yig'ini

Jogarepoyon - quyi Jogare. Aslida "javgar" – g'alla yetishtiruvchi qishloq ahliga nisbatan qo'llanilgan.

Rabot – qo'rg'on, istehkom, karvonsaroydan iborat manzil. Atrofi devor bilan o'rab olingan aholi turar joyi. Ushbu komponentlar saqlanmagan bo'lsa-da, toponim tarixiy nom sifatida hozirgacha iste'molda.

Niyozxo'jam – onoma. Shaxs nomini ifoda etuvchi toponim.

Chuqurak – chuqurda joylashgan qishloqqa qarata ishlatilgan toponim.

¹ Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. – Москва – Ленинград: Изд-во АН СССР, 1954. – Б. 299.

Jogarebolo - yuqori Jogare. Aslida “javgar” – g‘alla yetishtiruvchi qishloq ahliga nisbatan qo‘llanilgan.

Ho‘pkalak – هويکه لک 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da shu nomda uchraydi. Lug‘aviy ma‘nosi noaniq.

Saroycha – etnotoponim. Saroy o‘zbeklar tarkibiga kirgan yirik qabila uyushmasi. Qabila uyushmasi yana bir necha katta kichik qabilalarga bo‘lingan. Jumladan, majar-saroy, qorabo-saroy, nayman-saroy, qo‘ng‘irot-saroy va hokazolar. Buxoro vohasiga keng tarqalgan.

Chorobod - “to‘rt tarafi obod” qishloq ma‘nosida. Shuningdek, “chorrabot”, ya‘ni “to‘rt rabot” atamasining buzilgan shakli deb ham qabul qilish o‘rinli. Viloyatning boshqa tumanlarida ham uchraydi.

Jongeldi mahalla fuqarolar yig‘ini

Jongeldi - “jon keldi”, “jonlandi” ma‘nolarini beradi.

Qal‘a ata – o‘tmishda katta qal‘adan iborat bo‘lgan aholi manzili. Qishloq hozirda zamonaviy ko‘rinish olgan bo‘lsa ham, uning tarixiy nomi saqlanib qolgan.

Safron – fikrimizcha arabcha sufr (سفر) “mis” so‘zi asosida tarkib topgan toponim. O‘tmishda misgarlar yashagan qishloq.

Qisqacha xulosa

Peshko‘ tumani to‘g‘risida yuqorida qayd qilinganlarga asoslanib **xulosa** qilish mumkinki, o‘z tarixi davomida tuman bir necha bor qo‘shni tumanlar tarkibiga qo‘shilib, so‘ng yana alohidalik maqomini olgan bo‘lsa ham, o‘z salohiyatini saqlab qoldi. Uning o‘ziga xos tabiati, ijtimoiy munosabatlari, madaniy muhiti bu yerdan Ibn Sinodek buyuk allomaning chiqishiga, Zandanidek hunarmandchilik markazining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldiki, ushbu holatlar mavjud toponimlar mazmunida o‘z aksini topgan.

Tayanch so‘z va iboralar: birlashtirilgan, izohlar, iqlim, hosildor, taqir, o‘troqlashuv, qayta tuzilgan, ma‘muriy-hududiy boshqarish, sug‘oriladigan erlar, Ibn Sino muzeyi, tavallud topgan makon, tibbiyot kolleji, so‘zidan olingan, qisqartirilgan shakl, qabila uyushmasi, ma‘nosi noma‘lum, faraz qilmoq, komponent.

Savol va topshiriqlar

1. Peshko‘ tumanining tabiiy-geografik tuzilishi va tabiati haqida so‘zlab bering?
2. Peshko‘ atamasining turli ma‘nolari qaysi ma‘lumotlar bilan izohlanadi?
3. Tumandagi qaysi toponimlar shaxs nomini aks ettiradi?

4. Xorkash, Miyonjo‘y, Ofandar toponimlari qanday ma‘noni anglatadi?
5. Ibn Sino tavallud topgan qishloq nomini ayting?
6. Saroy etnotoponimi to‘g‘risida ma‘lumot bering?
7. Tuman hududidagi qadimiy qo‘rg‘on nomini esga oling?
8. Ma‘nolari noma‘lum Makadit, Juyabul, Olong toponimlarining ma‘nosiga aniqlik kiritishga urinib ko‘ring ?
9. O‘zingiz yashayotgan ko‘cha, mahalla, qishloq nomining ma‘nosi va tarixi to‘g‘risida qisqacha axborot tayyorlang?

10-MAVZU: SHOFIRKON TUMANI TOPONIMLARI

10.1.Tumanning qisqacha tarixi

10.2.Mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi toponimlar

10.1.Tumanning qisqacha tarixi

Tuman 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. O‘tgan asrning 60-yillari mahalliy ma‘muriy boshqaruv tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida bir muddat Vobkent tumani hududiga qo‘shib olinadi. Lekin shu yillarning oxirida Shofirkonga yana alohida tuman maqomi beriladi.

Uning hududi tarixan qadimiy. Qadimda hudud bo‘ylab oqib o‘tgan Shofurkom arig‘i yoki anhuri hududda dehqonchilikning keng tarqalishi va aholi punktlarining paydo bo‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Ushbu ariq to‘g‘risida Narshaxiy va Ibn Havkal o‘z asarlarida ma‘lumot qoldirishgan. Narshaxiy ma‘lumotiga ko‘ra, sosoniylar sulolasidan bo‘lgan Kisroning farzandlaridan biri Shopur o‘z otasidan arazlab, Buxoroga keladi va bu yerda Buxorxudot tarafidan yaxshi kutib olinadi. Ov qilishni yaxshi ko‘rgan Shopur bir kuni yaylovdan iborat, ov qilish uchun qulay, kimsasiz bir yerga kelib qoladi. Bu yer unga juda ma‘qul bo‘ladi. Bu mavzeni obod qilish uchun uni Buxorxudotdan so‘rab oladi va hudud bo‘ylab katta anhor qazdirib, uni o‘z nomi bilan Shopurkom deb ataydi hamda anhor bo‘ylab qishloq va qasrlar barpo etadi.

Ibn Havkal bu yerni Shofrikom (شافري کام) deb atab, undagi ariq daryodan boshlanib, Vardona qishlog‘iga yetguncha hamma

qishloqlarni, shuningdek, Vardona qishlog‘ini suv bilan ta‘minlashini yozgan¹. “Shofirkon” atamasining vujudga kelishi yuqoridagi ma‘lumotlar bilan bog‘liq. Shofirkon hududida XIII asrda yashagan tasavvuf namoyandasi, Xojagon-naqshbandiya tariqatining ko‘zga ko‘ringan vakili Xoja Orif Revgariyning maqbarasi joylashgan va u el ardog‘idagi tabarruk ziyoratgoh hisoblanadi.


Mang‘it amirlari davrida Shofirkon alohida tuman maqomida Sultonobod nomi bilan amirlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Sultonobod arig‘i tuman dehqonchiligining yetakchi irrigatsiya tarmog‘i hisoblangan.

Tuman janubdan Vobkent, janubiy g‘arbdan Romitan, g‘arbdan Peshko‘, sharqdan G‘ijduvon tumanlari, shimoldan Navoiy viloyatining Konimex tumani bilan chegaradosh. Hududi asosan tekislik va qum barxanlaridan iborat. Shimoliy qismi Quljuqtov etaklari va Qizilqumga tutash. Jilvon kanali, Sultonobod va Ko‘hnarud ariqlari tumanni sug‘orib turuvchi asosiy suv inshootlaridir. Shimoliy cho‘llarda ajriq, otquloq, yalpiz, sho‘ra, oq saksovul, qandim, quyonsuyak, yulg‘un va boshqa ko‘plab o‘simlik va daraxtlar o‘sadi.

Shofirkon tumani markazi **Mustaqillik yillari, shuningdek, keyingi to‘rt yildagi o‘zgarishlar** natijasida obod maskanga aylandi. Gilam to‘qish fabrikasi, Buxoro pillakashlik fabrikasi filiali sanoat rivojiga xizmat qilsa, dehqon bozori, rekonstruktsiya qilingan yirik savdo majmuasi, yangi avtovokzal binosi, mehmonxona, bank, Muxtor Ashrafiy nomidagi san‘at maktabi, bolalar va o‘smirlar sport maktabi, kutubxona, litsey, kollejlarda madaniy-maishiy va ma‘rifiy hayot tarzi yuksalib borayotganidan guvohlik beradi.

2020-yilni Buxoroning islom olami madaniyati poytaxti deb e‘lon qilinishi munosabati bilan tumanda joylashgan Xoja Orif Revgariy ziyoratgohi tamoman qayta ta‘mirlanib, bu erda masjid, minora, tuman tarixi muzeyi, “Poykent” nomli zamonaviy mehmonxona barpo etildi. Ziyoratgohga olib boradigan yo‘l esa kengaytirildi.

¹ Ибн Ҳавкал. Китоб сурат ул-ард (Ернинг сурати китоби) / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолитдин. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б. 45.



Buxoro viloyati tarkibidagi Shofirkon tumani xaritasi (qizil rangli)

Shofirkon tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini
1	Shaharchalar
2	Vardonze
3	Denov
4	Jo‘ynav
5	Jo‘yrabot
6	Do‘rmon
7	Tinchlik
8	Bobur
9	Tezguzar
10	Mazlaxon Chandir
11	Alisher Navoiy
12	Iskogare

10.2. Mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi toponimlar

Tuman hududidagi shaharchalar

Jo‘yrabot - “rabot ariq” yoki “ariq rabot” ma’nosini bildiradi.

Iskogare - mahalliy aholi toponimni somon sovurish uchun ishlatilgan iskov asbobi bilan bog‘laydi. Iskov panjshaxaga (پنج شاخه) o‘xshagan besh, ba’zan to‘rt panjadan iborat yog‘och mehnat quroli bo‘lib, asosan bug‘doy o‘rib olingandan keyin uni xirmon qilib, somon va donni sovurish yo‘li bilan biri-biridan ajratib olish uchun

yengil shamol esgan paytlari ishlatilgan. Asbob hozir deyarli unutilib, ishlatilmay qo‘ygan bo‘lsa-da, toponim saqlangan. Ushbu mehnat qurolini yasovchilar yaqin o‘tmishda shu qishloqda istiqomat qilgan.

Quy Chuqurak - “quyida joylashgan chuqur qishloq” ma’nosida.

Mirzoqul – onoma. Shaxs nomini ifoda etuvchi toponim.

Talisafed - turkiyda “oqtepa” ma’nosini anglatadi.

Undari - اوندرى Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida, shuningdek, 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da shu nomda uchraydi. Buxoro shevasidagi “g‘und”, “g‘undor” (buyruq fe’li), “g‘undoshtan”, ya’ni “yig‘ishtirmoq”, “to‘plamoq” so‘zlari asosida shakllangan joy nomi deb faraz qilamiz.

Chandir - etnotoponim. O‘g‘uzlar tarkibidagi urug‘. VIII-IX asrlarda ular Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi, Orol dengizining janubidagi cho‘llarda yashagan. Chandirlarning bir qismi keyinchalik Movarounnahrda ko‘chib o‘tib mahalliy aholi bilan qo‘shilgan, ikkinchi qismi hozirgi Turkmaniston hududiga kelib o‘rnashib turkmanlar bilan aralashib ketgan. XIX asr oxiri va XX boshlarida chandirlarning ayrim guruhlarini yarim o‘troq hayot kechirib, asosan chorvachilik, qolganlari qishloqlarda yashab dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Fulomte - qo‘lyozma hujjatlarda غلامده “g‘ulomdeh”, ya’ni “g‘ulomqishloq” shaklida uchraydi. Ba’zan “Xo‘ja g‘ulomdeh” nomi bilan tilga olinadi.

Vardonze mahalla fuqarolar yig‘ini

Vardonze - qadimiy qo‘rg‘on xarobasi. Hozirgi paytda arxeologik yodgorlik sifatida davlat muhofazasida. Qadimda vardonxudotlar qarorgohi sifatida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Narshaxiy bu qo‘rg‘onni Vardona nomi bilan tilga oladi va uni Buxorodan qadimiyroq deydi¹. Shuningdek, uning qurilishini Shopurga nisbat beradi². Toponimning birinchi qismi var so‘zi so‘g‘dcha “qo‘rg‘on”, “istehkom” ma’nolarini anglatadi.

¹ Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993. – Б. 22-23.

² Шу асар, 35-бет.



Vardonze qo'rg'oni

Churuk - choruq bo'lishi kerak. Charmdan tayyorlangan oyoq kiyimi. Shu turdagi poyafzal tikuvchilar qishlog'i yoki tabiiy geografik tuzilishi choruqni eslatuvchi mavze bo'lganiligiga ishora mavjud.

Denov mahalla fuqarolar yig'ini

Denov – aslida Dehinav tarzida yozilishi va talaffuz qilinishi kerak. Ma'nosi “yangi qishloq”. Mamlakatimizning boshqa hududlarida ham tez-tez uchraydi.

Mahallaboqi – Boqimahalla. Shaxs nomi orqali yasalgan toponim sifatida ham talqin qilish mumkin.

Yuqorimahalla – muayyan aholi manzilining yuqorisida joylashgan qishloq nazarda tutilmoqda.

Nurafshon - “nur sochuvchi, nur taratuvchi” ma'nosida.

Istamze – toponim tarkibidagi “istam” so'zi biror bir narsaning, jumladan, matoning bardavomligini, mustahkamligini, chidamliligini bildiradi. “Ziy” so'zi esa turli tabaqaga mansub kishilarning maxsus libosini anglatadi. Chidamli, uzoq xizmat qiladigan libos tikuvchi hunarmandlar yashagan qishloq degan xulosaga kelish o'rinli.

Ikkinchi fikrimizga ko'ra, toponim aslida “istamzeh” (ایستمزه) shaklida yozilgan va talaffuz qilingan. Fonetik o'zgarishga uchrab “istamze”, ba'zan esa “stamze”ga aylangan. Uning tarkibidagi “zeh” so'zi “kamon ipi”, “yoy ipi” ma'nosini bildiradi. Demak, o'tmishda bu qishloqda mustahkam kamon ipi yasovchi aholi istiqomat qilgan.

Andaqi - Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida Andaqi (انده قى), shuningdek, 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning

ro‘yxati”da esa Andaki (عندہ کی) tarzida tilga olinadi. Fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, oz, kam, ozgina ma’nolarini anglatadi. Bizningcha, aholisi oz, kichik qishloq nazarda tutilib shakllangan toponim hisoblanadi.

Rabot – “karvonsaroy, qo‘rg‘on” ma’nolarini anglatadi.

Nekishi - “nek kishi”, ya’ni “yaxshi kishi” ma’nosini bildiradi. Yaxshilar istiqomat manzili.

Yuqorikent - yuqori qishloq. Atrof qishloqlarga nisbatan yuqorida joylashgan maskan.

Toshliobod – toshloq joyning obod maskanga aylanganiga ishora.

Qayrag‘och – qayrag‘och daraxtlari mo‘l qishloq.

Arabcha – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi manzili.

Bog‘ishamol – bog‘laridan shamol esib turadigan xushhavo maskan.

Mehnatobod – mehnat bilan obod qilingan mavze.

Rabotcha – kichik rabot, kichik qishloq ma’nosida.

Kichikmahalla – nisbatan kichik mahalla, aholi yashash manzili.

Kattamahalla – nisbatan katta mahalla, aholi yashash manzili.

Ko‘hna Rabot – qadimdan mavjud bo‘lgan va ko‘hna tarixga ega qishloq.

Navbahor – lug‘aviy ma’nosi “yangi bahor”. Tabiati bahorga qiyos qilinuvchi maskan.

Ro‘balar – ro‘bak so‘zining qisqartma shakli bo‘lgani ehtimol. Ro‘bak bu maxsus asbob bo‘lib, u bilan tegirmon toshlari va xammalar supurilgan.

Jo‘ynav mahalla fuqarolar yig‘ini

Jo‘ynav - “yangi ariq” ma’nosida.

Hovlinav - “yangi hovli” ma’nosida.

Mahallashi – “shermahalla, sher yuraklilar, jasur kishilar mahallasi” kabi majoziy ma’noni bildiradi.

Jo‘yrabot mahalla fuqarolar yig‘ini

Mahallaqozi – qozimahalla. O‘tmishda qozi vazifasini egallab turgan amaldor yashagan qishloq nazarda tutilib vujudga kelgan toponim bo‘lgani ehtimol.

Karvonboshi - savdo karvonlari o‘tib ketadigan yo‘l boshida joylashgan qishloq.

Ko‘lxorin – ikki qismdan, ya’ni ko‘l+xorin so‘zlari birikmasidan tashkil topgan toponim. Ikkinchi komponentga oid xorin so‘zi xor, ya’ni tikan o‘zagi asosida yasalgan bo‘lib, toponimning asl mohiyatini aniqlashga ko‘mak beradi. Shundan kelib chiqib, atrofi tikanzor ko‘lga nisbatan qo‘llanilgan atama deb hisoblaymiz.

Qarovulon - qorovullar qishlog‘i. Atrof qishloqlarni muxolifdan himoya qiluvchi chegara hududda joylashgan qishloq. Buxoro vohasining boshqa hududlarida ham uchraydi.

Jilvon – jilon (جیلان) so‘zining fonetik jihatdan transformatsiyaga uchragan ko‘rinishi deb faraz qiladigan bo‘lsak, “jiyda”, “jiydazor” ma’nosiga ega atama tarkib topadi. Demak, Jilvon tabiiy-geografik holatiga mos bo‘lgan jiydazordan iborat manzil hisoblangan.

Horin – horun (هارون) atamasining “horin”ga aylangan shakli deb qabul qilinsa, “posbon”, “nigohbon”, “qo‘riqchi” ma’nolari hosil bo‘ladi. Qarovulon nomi bilan ataluvchi manzil kabi atrof qishloqlarni muxolifdan himoya qiluvchi chegara hududda joylashgan qishloq sifatida tushunish mumkin bo‘ladi.

Qo‘xna Kalon – Buxoro vohasida “ko‘hna” aniqlovchisiga ega toponimlar bir qancha. Jumladan, Ko‘hna Peshko‘, Ko‘hna Pirmast, Ko‘hna Rabot va boshqalar. Ko‘hna Kalon - “eski, ko‘hna katta [qishloq]” ma’nosini bildirib, katta qishloqning qadimdan mavjudligidan darak beradi.

Quyimahalla – u yoki bu mavzening quyisida joylashgan mahallaga taalluqli atama.

Ko‘rishkent – كورشکینت 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da qayd etilgan. Lug‘aviy ma’nosi “ko‘rinib turgan qishloq”. Majoziy ma’noda jozibadorligi, go‘zalligi bilan namoyon bo‘lib turgan, nazarga keladigan qishloq.

Shavquvot - Shavqovoq atamasining fonetik o‘zgargan shakli. Chunki 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da Shavqovoq (شوقاواق) tarzida qayd etilgan. Shav so‘zi Buxoro shevasida, “zavq-shavq olmoq”, “gurkiramoq”, “havolanmoq” ma’nolarini anglatadi. Bizningcha, toponim mazmunida gurkirab o‘suvchi qovoq mo‘l-ko‘l bo‘lgan qishloq aks etgan.

O‘zgan – O‘zkent atamasining o‘zgargan ko‘rinishi. Mo‘g‘ulcha o‘‘s, ya‘ni “suv” va fors-tojikcha kent “shahar, qishloq” ma‘nolarini beruvchi ikki komponentli toponim. “Suv bo‘yidagi qishloq” demakdir.

Dorigar - o‘tmishda dori-darmon tayyorlovchilar yashagan qishloq.

Katta Urganji - urganjiylar yashagan qishloq. Urganchdan kelib, shu joyga asos solgan aholining istiqomat manzili.

Mahallapoyon – quyimahalla. Atrof qishloqlarning quyisida joylashgan manzilga tegishli atama.

Jo‘yrabot – rabotariq. Ariq oqib o‘tadigan yerda joylashgan, yoki atrofidan ariq oqib o‘tuvchi rabot, qishloq.

Do‘rmon mahalla fuqarolar yig‘ini

Do‘rmon - etnotoponim. O‘zbek qabilalardan biri. Movarounnahr hududiga XVI-XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kirib kelgan va Buxoro amirligi siyosiy hayotida faol ishtirok etgan. Zarafshon vohasi, shuningdek, mamlakatimizning janubiy hududlariga keng tarqalgan.

Kog‘oton (qatag‘an) - etnotoponim. O‘zbeklar tarkibidagi yirik qabila. Qashqadaryoning yuqori va quyi oqimlarida, Buxoro vohasi, Xorazm, Farg‘ona va Toshkent vohalarida yashagan. Qatag‘onlar bir necha urug‘larga bo‘lingan. Dastlab asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lsa-da, asrlar davomida mahalliy aholi ta‘siri ostida o‘troqlashib, dehqonchilikka o‘tgan.

Yuqori Chig‘atoy - Chig‘atoy Chingizxonning to‘rt o‘g‘lidan biri. Unga berilgan Movarounnahr Chig‘atoy ulusi deb atalib, asrlar o‘tishi bilan toponimga aylangan. Hozirgi holatda chig‘atoylar yashagan katta qishloqning yuqori qismi nazarda tutilmoqda.

Bobotodaryo – Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida hamda 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da Bobo Ato (بابا عطا) ko‘rinishida uchraydi¹. Taxminimizcha, shaxs nomidan olingan toponim hisoblanadi.

¹ Қаранг: Населённые пункты Бухарского эмирата (конец XIX-нач. XX вв). Материалы к исторической географии Средней Азии. Под редакцией А.Р. Мухаммеджанова. - Ташкент: Университет, 2001. – Б.25, 223; Халқ турадиган жойларнинг рўйхати. Ўзбекистон марказий районлаштириш комиссияси нашри. Самарқанд, 1926-йил / Кириш сўзи, араб алифбосидан таъдил ва айрим изоҳлар муаллифи Ахтам Аҳмедов. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2017. – Б. 19, 79.

Qizilon – turkiy tildagi “qizil” soʻziga fors-tojik tilidagi “on” koʻplik qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan atama. Maʼnosi “qizillar”. “Qizil” aniqlovchisi orqali shakllantirilgan toponimlar mamlakatimiz hududlarida koʻplab uchraydi. Masalan, Qizilqalʼa, Qizilrabot Qizilqum, Qizilqishloq, Qizilbuloq va hokazolar. Qizilon atamasi joyning tabiiy-geografik oʻrni va holatini, jumladan, tuprogʻining rangi yoki boshqa tabiiy belgilarini nazarda tutgan holda tashkil topgan.

Qorabosh – qoramtir toʻpgulli, yoʻgʻon poyali va ingichka, uzun-uzun keskir bargli koʻp yillik oʻt. Shu turdagi oʻsimlikzor atrofida, yoki shu xil oʻsimlik oʻsadigan yerda joylashgan qishloq.

Temirchi – temirchilik kasbi bilan shugʻullangan kosiblar yashagan qishloq.

Shayxlar – maʼrifat va irfon ahli, shayxlar istiqomat qilgan qishloq.

Doʻrmon Pattasi – oʻtmishda doʻrmon qabilasi yashagan va atrofi pattazor mavze. Patta Buxoro shevasida past boʻyli va ingichka poyali daraxtni anglatgan. Dashtga tutashib ketgan katta ariqlar qirgʻoq hududlarida tabiiy ravishda hosil boʻlgan chakalakzor.

Boylar – badavlat xonadonlar aksariyatni tashkil qilgan qishloq.

Koʻhna Qoʻshrabot – Yuqorida taʼkidlanganidek, Buxoro vohasida “koʻhna” aniqlovchisiga ega toponimlar bir qancha. Koʻhna Qoʻshrabot - “eski, koʻhna qoʻshrabot” maʼnosini bildirib, qoʻshrabotli, yaʼni ikki rabotli qishloqning qadimdan mavjudligidan guvohlik beradi.

Sugʻut - “suqut” soʻzi “yiqilmoq”, “past boʻlmoq” maʼnosini anglatadi. Joyning tabiiy holatini aks ettiruvchi atama sifatida talqin qilish oʻrinli.

Qulobod – “koʻlobod” atamasining “qulobod”ga aylangani deb tasavvur qiladigan boʻlsak, “obod koʻl”, “koʻldan iborat obod manzil” maʼnolari kelib chiqadi. Sharqiy Buxoroda, jumladan, Hisor, Baljuvon beklklarida Qulobod (قل اباد – قول اباد) nomli mavzelar mavjud boʻlib, ular Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida tilga olinadi. Shofirkon tumanidagi Qulobod qishlogʻi nomini ham shu koʻrinishda qabul qilish maqsadga muvofiq. Bunda “qullar obod qilgan manzil, joy” degan maʼno hosil boʻladi.

Hasan Xo‘ja - Jo‘ybor xo‘jalaridan biri Hasan Xo‘ja (Xo‘ja Tojiddin Hasan)ga tegishli mulklarda tashkil topgan qishloq (XVII asr).

Shibirg‘on - shimoliy Afg‘onistondagi shaharning nomi. Toponim Buxoro xonligining markaziy hududlariga ham tarqalgan.

Tiraxon – Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida Tiraxon, yoki Tiryon, 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da esa Tirikxon (تیریک خان) deb qayd etilgan. Bizningcha, toponimning asl shakli tarxon (ترخان- طرخان) bo‘lib, o‘rta asrlarda tarxon unvoniga ega, muayyan imtiyozlardan foydalanuvchi shaxslar yashagan qishloqqa nisbatan qo‘llanilgan.

Tir so‘zi ko‘p ma’nalarga ega bo‘lib, ulardan biri biyobondir.

Safarman – سفرمن arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, “safarchi”, “sayohatchi” ma’nosini bildiradi. O‘tmishda aholisi savdo-sotiq ishlari bilan aksariyat paytlarda safarda bo‘lishi nazarda tutilib tarkib topgan atama deb talqin qilish mumkin.

Tinchlik mahalla fuqarolar yig‘ini

Savrak - savr so‘zining ikki xil ma’nosi mavjud. 1. Buqa, ho‘kiz. 2. O‘n ikki burjning ikkinchisi. Umuman, chorvador aholi istiqomat manzili.

Sultonobod – tarixiy manbalarda shu nom ostida uchraydi va ayrim hollarda butun bir tumanga nisbatan ham qo‘llanilgan.

Novaboshi – suv oqishi uchun yog‘och, taxta va boshqa mahsulotlardan ishlangan maxsus o‘zan, tarnov. Shunday inshootga ega ariqning boshlanishida joylashgan qishloq.

Katta Kelachi – etnotoponim. O‘zbek urug‘laridan birining nomi.

Kotiyon - كاتیان Fikrimizcha, Xorazm vohasidagi qadimiy Kot shahridan ko‘chib kelib, shu qishloqda o‘rinlashib olgan aholi yashagan qishloq. Kot shahri xarobalari hozirgi Beruniy shahridan 2,5 km shimolroqda, Amudaryoning sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan.

Bobur mahalla fuqarolar yig‘ini

Qiyot - etnotoponim. O‘g‘uzlar tarkibidagi qadimgi turkiy qabilalardan biri. VIII-X asrlarda Dashti Qipchoqda yashab ko‘chmanchi chorvadorlik bilan shug‘ullangan qabila. XI asrga kelib o‘g‘uzlar davlati yemirilgach, qiyotlar bo‘liib ketadi. Bir qismi Turmaniston, ikkinchi qismi Bolqon yarim oroli tomon siljiydi. Dashti

Qipchoqda qolgan qismi keyinchalik o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq xalqlari tarkibiga singib ketadi. Qoraqalpoqlar tarkibidagi qiyotlar uchtamg‘ali, taroqli, bolg‘ali kabi bo‘g‘inlarga bo‘lingan. Qiyotlar Qashqadaryoning yuqori oqimi, Xorazm va Buxoro vohalari, Zarafshonning o‘rta oqimidagi hududlarga tarqalgan. Qashqadaryo, Xorazm, Buxoro vohasida o‘rnashib olgan qiyotlar o‘troq hayotga o‘tib, dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Talipoya - “past tepa” ma’nosida.

Ko‘lhovli – ko‘ldek pastlikda yoki ko‘l atrofida joylashgan qishloq hovlilari ma’nosini bildiradi.

Pulbandi – “band ko‘prik” ma’nosini bildiradi.

Mo‘g‘ulon - etnotoponim. Mo‘g‘ul urug‘lari yashagan qishloq. Mo‘g‘ullar garchi Movarounnahr va boshqa hududlarni zabt qilgan bo‘lsalar-da, ijtimoiy-madaniy, ma’rifiy jihatdan mahalliy aholidan quyida turardilar. Ular tarafidan islomning qabul qilinishi, mahalliy aholining yozuv madaniyatini o‘zlashtirilishi ayrim mo‘g‘ul guruhlarining o‘troqlashuviga olib keldi. Ular hatto o‘z tillarini unutib mahalliy aholi bilan aralashib ketdilar. “Mo‘g‘ulon” atamasi toponim sifatida saqlanib qoldi.

Uchon – اوچان uch yon atamasining qisqartma shakli deb faraz qilamiz. Uch tarafdin muayyan mavzega tutashib ketgan manzil.

Kichik Oqrabot – Oqrabot qishlog‘ining kichik bir qismi.

Ulug‘xo‘ja – onoma. Shaxs nomidan tarkib topgan toponim.

Mingon - etnotoponim. Ming urug‘lari yashagan makon. Minglar XV asr oxiri va XVI birinchi yarmida Dashti Qipchoqdan Movarounnahrqa ko‘chib o‘tib, keyingi davrlarda xonliklar siyosiy hayotida faol ishtirok etadilar. Qo‘qon xonligida hukmron mavqega ega bo‘lishgan. Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm vohasiga keng tarqalgan.

Darozon – “uzunlar”, “uzun bo‘ylilar” ma’nosida.

Boboato – onoma. Shaxs nomidan olingan toponim.

Naqqosh – naqqoshlik kasbiga ega aholi yashagan qishloq. Turli buyumlarga, jumladan, yog‘och, ganch, mis, temir, tosh, mato va hokazolarga naqsh bosganlar. Ayniqsa xonadon ichki qismi va devoriga naqsh solib bezaydigan ustalarga qishloq joylarida ham talab yuqori bo‘lgan.

Revgare – fors-tojik tilida “hiylagar” (ريوگر) degan ma’noni bildiradi. O‘tmishda joy nomiga nisbatan bunday atamaning

qo‘llanilgani shubha uyg‘otadi va bu so‘z toponimning buzilgan shakli bo‘lsa kerak degan fikrga hamda masalani qayta ko‘rib chiqishga chorlaydi. Toponim aslida Revagar bo‘lgan va transformatsiyaga uchrab Revgarga aylangan bo‘lishi mumkin degan mulohaza ham o‘rtaga tashlanishi kerak. Reva fors-tojik tilida “tepa” ma’nosini bildiradi. Umuman toponimning lug‘aviy ma’nosi qo‘shimcha o‘rganishni taqozo etadi. Naqshbandiya tariqati pirlaridan Xo‘ja Orif Revgariy tavallud topgan va yashab o‘tgan qishloq.



Xo‘ja Orif Revgariy ziyoratgohi

Xalajiyon - etnotoponim. Xalaj(ch)lar ma’nosida. Qadimgi turkiy qabilalalardan biri. Amudaryoning yuqori, o‘rta va quyi oqimlaridagi hududlarga, jumladan, Qashqadaryo, Buxoro vohalariga tarqalgan. Tarixiy manbalarda turkman qabilalari qatorida tilga olinadi. Mahmud Koshg‘ariy, shuningdek, Abulg‘ozixonning yozishicha, xalach so‘zi “qol+ och, och+ qol” ma’nosini bildiradi. Abulg‘ozixon o‘z fikrini quyidagi ma’lumot bilan asoslaydi. O‘g‘uzxon yurishlari davrida qo‘shindan orqada qolib adashgan, och qolgan askarlarni yig‘ib kelish uchun maxsus kishilar harakat qilgan. Kunlarning birida qo‘shindan orqada qolib ketgan bir askarni O‘g‘uzxon huzuriga olib kelishadi. Ma’lum bo‘lishicha, yegulikdan qiynalish oqibatida u qo‘shindan orqada qolgan va shu paytda askar homilador ayolining ko‘zi yorib, farzand ko‘rishgan. Ovqat kamligidan ayolning suti chaqaloqni boqish uchun ozlik qilardi. Askar er qirg‘ovul ovlab xotinini boqqan ekan. Bundan voqif bo‘lgan O‘g‘uzxon unga ot, oziq-ovqat va chorva mollari berib shunday

degan: “ Sen endi qo‘shin ortidan yurma, och qol”¹. Shu so‘zdan “xal+ach” etnotoponimi kelib chiqqan.

Shamshirgaron - shamshir, qilich yasovchilar istiqomat qilgan qishloq.

Tezguzar mahalla fuqarolar yig‘ini

Tezguzar – “tez o‘tib ket” ma’nosida.

Katta Karvonboshi – savdo karvonlari o‘tib ketadigan yo‘l boshida joylashgan katta qishloq.

Sabzikor - sabzi yetishtiruvchilar yashagan qishloq.

Qurama - etnotoponim. O‘zbek xalqi tarkibidagi etnik guruhlardan biri. Ular XV – XVI asr birinchi yarmiga qadar Dashti Qipchoqda yashab kelganlar. Katta bir qismi esa XVII-XVIII asrlarda hozirgi O‘zbekiston hududiga kelib joylashgan. Farg‘ona vodiysi, qisman Zarafshon vohasiga tarqalgan².

Boltaqara – “qorabolta” ma’nosida. Onoma bo‘lishi mumkin.

Dizqo‘rg‘on - “qal’a qo‘rg‘on” ma’nosida.

Savoliq – سواليق sovlıq, ya’ni qo‘zilagan, shuningdek, emizuvchi qo‘ylarni anglatuvchi so‘z. Chorvador aholi istiqomat qiladigan manzilni bildiruvchi toponim.

Regiyon - “qumloq joy” ma’nosiga ega.

Bobohaydar – onoma. Shaxs nomidan olingan.

Qumbosti – qum ko‘chishi oqibatida ba’zan qum ostida qolib ketadigan qishloq. Atama ko‘proq cho‘l etaklarida joylashgan qishloqlarga nisbatan qo‘llanilgan.

Toshtemir – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi joy nomi.

Furug‘un – فروغون Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida shu nomda qayd etiladi. Toponim tarkibidagi furu so‘zi fors-tojik tilida “past, pastlik”, “quyi” ma’nolarini anglatadi. Shuni inobatga olib, ushbu toponim “pastda joylashgan qishloq” ma’nosini bildiradi degan xulosaga kelish maqsadga muvofiq.

Ko‘llabi – ko‘lning labida, qirg‘og‘ida joylashgan qishloq.

Kichik qarshiliklar – o‘tmishda Qarshi taraflardan ko‘chib kelgan aholi istiqomat qilgan kichik qishloq.

Jilovdor – otlarning jilovini yetaklab yuruvchi shaxs. O‘rta asrlarda otlarga qarash uchun ajratilgan askar. Demak, saroy

¹ Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абу-л-Гази хана хивинского. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1958. – Б.46.

² Қораев С. Этнонимика. – Тошкент: Фан, 1979. –Б.9.

lavozimlaridan biri. Shuningdek, boshliq, rahbar ma'nosida ham ishlatilgan.

Polvonobod - polvonlar yashaydigan obod qishloq ma'nosida.

Jilvon – Shofirkon tumanining shimolida joylashgan cho'l.

Mazlaxon Chandir mahalla fuqarolar yig'ini

Mazlaxon chandir - etnotoponim. O'g'uzlar tarkibidagi urug'. VIII-IX asrlarda ular Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi, Orol dengizining janubidagi cho'llarda yashagan. Chandirlarning bir qismi keyinchalik Movarounnahrqa ko'chib o'tib mahalliy aholi bilan qo'shilgan, ikkinchi qismi hozirgi Turkmaniston hududiga kelib o'rinish turkmanlar bilan aralashib ketgan. XIX asr oxiri va XX boshlarida chandirlarning ayrim guruhlari yarim o'troq hayot kechirib, asosan chorvachilik, qolganlari qishloqlarda yashab dehqonchilik bilan shug'ullangan. Hozirgi ko'rinishda chandir urug'iga mansub Mazlaxon ismli shaxsning nomi bilan ataluvchi qishloqqa ishora mavjud.

Qo'rbongli – toponim ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismidagi qo'r so'zi bir necha ma'nolarni anglatadi. Masalan, "mayda cho'g'", "cho'g'li issiq kul", "qalb harorati", "g'amlab qo'yilgan narsa", jumladan, "boylik", "baraka". Ulardan baraka so'zini toponimning ikkinchi qismidagi bongli so'zi bilan qo'shib talqin qilinsa, "barakali, jarangdor makon" ma'nosi hosil bo'ladi.

Katta Arabxona – etnotoponim. Arablar yashaydigan katta qishloq. Arablar va ularning migratsiyasi to'g'risida yuqorida va quyida batafsil ma'lumot berildi.

Chig'ilbak – etnotoponim. Turkiy qabilalardan birining nomi.

Savrak - "savr" so'zining ikki xil ma'nosi mavjud. 1. Buqa, ho'kiz. 2. O'n ikki burjning ikkinchisi. Umuman, chorvador aholi istiqomat manzili.

Chitgaron – chit matosini tayyorlashga ixtisoslashgan aholi istiqomat qilgan qishloq.

Mavri - Amir Shohmurod (1785- 1800) tarafidan Marvdan ko'chirib keltirilgan aholiga nisbatan qo'llanilgan nom. Marvliklar yashagan qishloq. Aslida Marvi tarzida yozilishi va talaffuz qilinishi kerak.

Alisher Navoiy nomli mahalla fuqarolar yig'ini

Quyihovli – u yoki bu qishloqning quyisida joylashgan va bir necha hovlilardan iborat manzil.

Go‘zalkent – go‘zal qishloq. Joyning tabiiy-geografik o‘rni va holatini ifoda etuvchi atama.

Bo‘ston – so‘lim, gullab-yashnab turuvchi makon. Joyning tabiiy-geografik o‘rni va holatiga tashbih sifatida vujudga kelgan atama.

Kattamahalla – nisbatan katta mahalla, aholi yashash manzili.

Dodbog‘ni – “Dod, bog‘ nest!”, ya‘ni “Dod, bog‘ yo‘q!” iborasidan olingan toponim. Rivoyatga ko‘ra, bog‘i mahalliy hukmdor tomonidan yo‘q qilingan yoki tortib olingan fuqaro Buxoro amirining shu qishloqqa tashrifi davrida unga shu so‘zlar bilan arz qilgan.

Katta O‘ba - “katta qishloq” ma‘nosida.

Ko‘hna Qumbosti – cho‘l etagida joylashgan eski Qumbosti qishlog‘i. Qum ko‘chishi natijasida ba‘zida qum ostida qolib ketgan qishloqlarga nisbatan qo‘llanilgan atama.

Asbobon - “asboblar” ma‘nosida. Turli asboblar yasaydigan aholining istiqomat maskani.

G‘azalkent – go‘zalkent atamasining o‘zgargan ko‘rinishi. Tarixiy manbalarda uchramaydi. Zamonaviy nom sifatida so‘nggi yillarda muomalaga kiritilgan atama.

Yuqsun - يقسون Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlari va 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da tilga olinadi. Ma‘nosiga ko‘ra, biror narsaning yuqishini nazarda tutishni bildiruvchi toponim hisoblanadi. Jumladan, mohir hunarmand ustalar, ziroatkor dehqonlar kasbining yuqishi va hokazolar.

Navbur – navbahor atamasining qisqartma shakli. Tarixiy hujjat va maxsus toponimik ro‘yxatlarda uchramaydi. Joyning tabiiy-geografik o‘rni va holatini ifoda etuvchi atama.

Qal‘ai Miri Arab - XVI asrda yashagan va Mir Arab nomi bilan mashhur shayx Abdulla Yamaniy tomonidan barpo etilgan qal‘a.

Xonobod – xon, hukmdor tomonidan obod qilingan maskan. Buxoro shahri atrofida ham shu nomdagi qishloq mavjud.

Toshtepa – toshli tepa.

Quyi Chaqar - “quyi ko‘cha” ma‘nosida.

Sherobod – sherdek dovyurak, jasur kishilar obod qilgan mavze.

Iskogare mahalla fuqarolar yig‘ini

Iskogare - mahalliy aholi toponimni somon sovurish uchun ishlatilgan iskov asbobi bilan bog‘laydi. Iskov panjshaxaga (پنج شاخه)

o‘xshagan besh, ba‘zan to‘rt panjadan iborat yog‘och mehnat quroli bo‘lib, asosan bug‘doy o‘rib olingandan keyin uni xirmon qilib, somon va donni sovurish yo‘li bilan biri-biridan ajratib olish uchun yengil shamol esgan paytlari ishlatilgan. Asbob hozir deyarli unutilib, ishlatilmay qo‘ygan bo‘lsa-da, toponim saqlangan. Yaqin o‘tmishda ushbu mehnat qurolini yasovchilar shu qishloqda istiqomat qilgan.

Kulollar – kulolchilik bilan shug‘ullangan aholi istiqomat qilgan qishloq.

Chuqurak - “chuqurda, pastda joylashgan qishloq” ma’nosida.

Oynako‘l - joyning tabiiy geografiyasiga nisbat berib qo‘llanilgan toponim. Oynadek shaffoflikni, oyna monandlikni bildiruvchi sifat.

Talija - tarixiy nom. Tallicha, ya’ni “tepacha” so‘zining o‘zgargan shakli.

So‘fiyon - musulmonlarni namozga chaqiruvchi muazzin “so‘fi” deb atalgan. Bu ibora tasavvuf ahliga nisbatan ham qo‘llanilgan. Bu yerda esa, “so‘fiylar yashagan qishloq” ma’nosida ishlatilmoqda.

Arablar – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o‘zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrqa kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrqa yurishlari davrida Damashq va Bag‘dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o‘rnashib oldilar. Movarounnahrdagi sayyidlar va xo‘jalar o‘z kelib chiqishlarini arablar bilan bog‘laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg‘ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho‘jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrqa ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog‘i yuqori bo‘ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q. Arablar o‘tgan asrning 60-70-yillarigacha o‘z tillarini saqlab qoldilar. G‘ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o‘z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo‘lishidan qat’iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab

qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Beklik – بيکلیک Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida shu ko‘rinishda uchraydi. O‘zining bekiga ega yoki bek yashagan qishloq nazarda tutilib tarkib topgan atama.

Bog‘iafzal – qulayliklarga ega bog‘li qishloq.

Pashmon - pashm, ya’ni “jun to‘quvchilar yashagan qishloq” ma’nosida.

Regishoyi – shoyidek mayin qumli mavze.

Markush – morkush so‘zining buzilgan talaffuzidan hosil bo‘lgan atama deb hisblaydigan bo‘lsak, “ilon o‘ldiruvchi” ma’nosini beradi.

Labiro‘d - “ariq qirg‘og‘ida joylashgan qishloq” ma’nosida.

Xazina – yerlari unumli, hosildor, barakali joyga nisbat berib yasalgan toponim.

Chaqar - “tor ko‘cha qishlog‘i” ma’nosida.

Bog‘iqo‘rg‘on - atrofi bog‘ bilan o‘ralgan qo‘rg‘on.

Qisqacha xulosa

Shofirkon tumani hududi o‘rta asrlarda ko‘p tarmoqli hunarmandchilikning rivoj topgani bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Narshaxiy tilga olib o‘tgan Vardonze qo‘rg‘oni ushbu hudud ilk o‘rta asrlarda muayyan ijtimoiy, siyosiy, madaniy mavqe kasb etganligidan darak beradi. Tumandagi Xo‘ja Orif Revgariy ziyoratgohi bugungi kunda ziyorat turizmining rivojlanishiga xizmat qiluvchi muqaddas qadamjo sanaladi. Tezguzar, Bog‘iafzal qishloqlari esa ko‘plab taniqli san‘at, madaniyat, fan arboblari berganligi e‘tiborga sazovor. Toponim, etnotoponim, gidronimlar tuman tarixini o‘rganish uchun muayyan ahamiyat kasb etuvchi manba hisoblanadi.

Tayanch so‘z va iboralar: islohotlar, buxorxudot, Shopur, anhor, ziyoratgoh, istehkom, tarixan qadimiy, aholi punkti, tasavvuf namoyandasi, irrigatsiya tarmog‘i, suv inshootlari, Buxoro shevasi, geografik tuzilish, talqin qilish, toponim tarkibi, fonetik o‘zgarish, atrof qishloqlar, istiqomat manzili, yirik qabila.

Savol va topshiriqlar

1. Shofirkon tarixining muhim jihatlarini so‘zlab bering
2. Tuman hududida qaysi qadimiy qo‘rg‘on joylashgan ?
3. Iskogare qishlog‘ining tarixini so‘zlab bering. Atama qaysi dehqonchilik quroli nomi asosida vujudga kelgan?

4. Savrak, Dodbog‘ni, Jilovdor, Oynako‘l toponimlarining etimologik va ijtimoiy ma‘nolarini tushuntirib bering?
5. Naqshbandiya tariqatining ikkinchi piri qadamjosi joylashgan mavze nomini tilga oling?
6. Shofirkon qaysi tumanlar bilan chegaradosh?
7. Qaysi qishloqlar Tezguzar mahalla fuqarolar yig‘iniga qaragan?
8. Qo‘shimcha tadqiqotga muhtoj deb sanalgan toponimlarning ro‘yxatini shakllantiring va ularni o‘rganing?
9. O‘zingiz yashayotgan ko‘cha, mahalla, qishloq nomining ma‘nosi va tarixi to‘g‘risida qisqacha axborot tayyorlang?

11-MAVZU: VOBKENT TUMANI TOPONIMLARI

11.1. Tumanning qisqacha tarixi

11.2. Shaxs nomlari bilan ataluvchi toponimlar va etnotoponimlar

11.3. Aholi mashg‘uloti, joyning geografik o‘rni va ijtimoiy-maishiy omillar bilan bog‘liq toponimlar

11.1. Tumanning qisqacha tarixi

Vobkent tumani 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. Buxoro viloyatining G‘ijduvon, Shofirkon, Peshko‘, Romitan, Buxoro va Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlari bilan chegaradosh. Buxoro shahrining shimolida joylashgan. Vobkent tumanining ma‘muriy markazi bo‘lgan Vobkent shaharchasi tarixiy manbalarda qo‘rg‘on sifatida tilga olinadi. Vobkent qo‘rg‘oni taxminan XII asrdan boshlab ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki shu davrga kelib Buxoro vohasining qadimiy Varaxsha, Poykend shaharlari Zarafshon daryosi yo‘nalishining o‘zgarishi natijasida xarobaga aylandi va aholi bu joylarni tashlab boshqa hududlarga, bir qismi Sug‘d tomonlarga, ikkinchi qismi Ko‘hak (Zarafshon) daryosiga yaqin bo‘lgan serunum yerlarga kelib o‘rnashdi. Vobkent qo‘rg‘oni ana shu davrda shakllandi. Lekin bundan hozirgi Vobkent tumani hududida XI-XII asrlargacha aholi yashamagan, degan ma‘no kelib chiqmaydi. Shungacha ham tuman hududida ko‘plab aholi manzillari qad ko‘tarib turgan.

“Vobkent” toponimi etimologiyasi xususida turli talqin va izohlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar uni o‘g‘uz shevalaridagi “vob” yoki “vaxob” so‘zidan olingan va “bo‘z yer, qo‘riqdagi qishloq” ma’nolarini anglatadi deb hisoblasa¹, boshqalar “obkent” so‘zidan kelib chiqqan va “suvli qishloq, suv bo‘yidagi qishloq” ma’nosini beradi deb ta’kidlaydi.

Vobkent XIV asr tarixiy hujjatlarida o‘z qozisiga ega bo‘lgan qasaba, ya’ni shaharcha sifatida tilga olinadi². Tuman hududidan oqib o‘tgan Vobkentdaryo havzasida Komi Akka nomli yirik sug‘orish magistrali Vobkent qasabasidan quyida joylashgan yerlarni, aholi punktlarini sug‘orib turgan. Shirin va Sharoxun ariqlari ham dehqonchilikda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Qadimiy qishloqlardan biri Kosara atrofida Suxoxdiza va Jihondak deb atalgan tepalar bo‘lgan. Shuningdek, Rospodana, Bashvon, Buzunduvon, Kafshuvon, Dulobak, G‘abzdavon, Anbarduvon qadimiy qishloqlar sirasiga kiradi. Talli Ko‘shk Osiyo tepaligi ustida istiqomat qilgan aholi o‘z turmush tarziga ega bo‘lgan. Tepalik ustida masjid va boshqa xo‘jalik inshootlari joylashgan. Atrofi bog‘ bilan o‘ralgan. Talli Kuri, Talli Zukon, Talli Asbak, Talli Kuron, Talli Vinon, Talli Xavsan kabi tepalar esa ijtimoiy-iqtisodiy turmushda etakchi maqomga ega bo‘lgan. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan.

XVI asrdan Vobkent ikki nom bilan – Vobkana va Komot deb yuritila boshladi. Vobkentning iqtisodiy salohiyati boshqa tumanlarga nisbatan yuqori bo‘lganligini bu yerda zarb etilgan tangalar tasdiqlaydi³.

O‘rta asr tarixiy hujjatlarida Komot nomi bilan ham tilga olinadi. U tarixan Somjin, Komi Abu Muslim (G‘ijduvon), Sultonobod, Shimolirud tumanlari bilan chegaradosh. So‘nggi o‘rta asrlarda Vobkent Buxoro amirligiga qarashli tuman ma’muriy markazlaridan biri sifatida o‘z amlokdorxonasi, mirzaxonasiga ega kichik shaharcha maqomini oladi. Bu yerdagi minora, madrasa,

¹ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 40.

² Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Ташкент: Фан, 1965. – Б. 147- 165.

³ Қаранг: Давидович Е. А. История денежного обращения средневековой Средней Азии. - Москва: Наука, 1983. – Б. 238.

masjid, savdo, hunarmandchilik rastalari shaharchaning mo‘‘jaz markaz bo‘lganligidan dalolat beradi¹.

Tumanning diqqatga sazovor tarixiy obidalaridan Vobkent minorasi, uning artofida joylashgan madrasa va masjid yaxlit holda me‘moriy majmuani tashkil etgan. Minora 1196-1197- yillarda qurilgan, balandligi 40,3 metr, pastki diametri 6,19 metr. Pardoqli g‘ishtchalar va naqshlar, belbog‘idagi rangdor koshinlar yuqori tomon ingichkalashib borgan minoraga go‘zallik bag‘ishlaydi.

Vobkent hunarmandchilik, ayniqsa kulolchilik rivojlangan hudud. An‘anaviy kulolchilikning yorqin vakilasi, Vobkent yaqinidagi O‘ba qishlog‘ida yashagan sopol o‘yinchoqlar yasovchi rassom Hamrobibi Rahimovanning ishlari, yasagan o‘yinchoq namunalari Parijdagi Luvr, Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitaji, Rossiya etnografiya muzeyi, shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro muzeylarida saqlanadi. Qator Xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish qilingan.

Mustaqillik yillarida Vobkent markazida qator obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Shu yillar, jumladan, **keyingi to‘rt yilda barpo etilgan** litsey, kollej binolari, sport komplekslari, dehqon bozori, yangi turar joylar, to‘qimachilik kombinati bunga misoldir. Boks bo‘yicha jahon chempioni Abbos Atoyev shu tumanning farzandi. U boks bo‘yicha ilk saboqni shu tumandagi sport to‘garagida olgan.

Vobkent minorasi va uning atrofidagi tarixiy – etnografik hudud YUNESKO ro‘yxatiga kiritilish arafasida turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2021-yil yanvar’ oyida Buxoro viloyatiga tashrifi davrida Vobkent tumanidagi Shirin qishlog‘ini turistik ekomarkazga aylantirish taklifini ilgari surdi. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi tuman ijtimoiy-iqtisodiy hayotida shubhasiz katta ijobiy siljish yasaydi.

¹ Тўраев Х. Вобкент – тарихий манбаларда // “Шарқшунослик” журнали. – Тошкент, 1992. – №3. – Б. 17-21.



Buxoro viloyati tarkibidagi Vobkent tumani xaritasi (qizil rangli)
Vobkent tumanidagi qishloq va mahalla fuqarolar yig'ini
ro'yxati

№	Mahalla fuqarolar yig'ini
1	Pirmast
2	Bozorjoyi
3	Ko'lodina
4	Anjirbog'
5	Xalach
6	Latifsobungar
7	Kumushkent
8	Rozmoz
9	Halvogaron
10	Xo'jarabod
11	Sariosiyo
12	Ehson
13	Teraklik
14	G'aribshoh
15	Ko'lxatib
16	Qipchoq
17	So'fidehqon
18	Cho'rikalon
19	Mirvoshi

20	Changaron
21	Qo'ng'iro't
22	Xajuvon
23	Kosari
24	Beshrabot
25	Mo'minobod
26	Rohkent
27	Qo'qin
28	Arabxona
29	Guliston

11.1. Shaxs nomlari bilan ataluvchi toponimlar va etnotoponimlar

Boboshayx – onomatoponim. O'rta asrlarda Boboshayx ismli shaxs yashab o'tganligiga ishora qiladi.

Boltabek – onomatoponim. Shaxs nomi bilan ataluvchi joy nomi.

Imomqozixon – onomatoponim. Buxoroni mo'g'ullar g'oratidan asrab qolgan bola to'g'risidagi rivoyat Imomqozixon shaxsi bilan bog'liq.

Latifsobungar - onomatoponim. Latif ismli sovun tayyorlovchi shaxs nomidagi qishloq. O'tmishda hunarmandchilikning shu sohasiga ixtisoslashgan qishloq.

Mirsulaymon - onomatoponim. "Amir Sulaymon" atamasining qisqartma ko'rinishi. O'tmishdagi Sulaymon ismli mahalliy hokim nomidan olingan bo'lishi kerak.

Muqayim – onomatoponim. "Mirqayim" so'zining o'zgargan shakli.

Niyozxo'ja – onomatoponim. Shaxs nomi bilan ataluvchi mavze.

So'fidehqon – onomatoponim. So'fi Hidoyatullo nomiga atab qo'yilgan. Qishloq nomi tarixiy manbalarda ko'p uchraydi. Bu qishloqdan mashhur kishilar, jumladan, tarixchilar chiqqan.

Xo'japorso – onomatoponim. Xo'ja Muhammad Porso (1363-1419)ning qadami tekkan mavze. Xo'ja Muhammad Porso Bahouddin Naqshbandning muridlaridan biri. "Fasl ul-xitob" nomli mashhur asar muallifi.

Shamsiobod – onomatoponim. Shaxs nomi bilan bog‘liq. Agar etimologik nuqtai nazardan yondashilsa, “Quyosh obod” degan ma’no kelib chiqadi.

Shofayoz – onomatoponim. Rivoyatlarga ko‘ra, o‘tmishda yashab o‘tgan Shofayoz Qalandar ismli avliyo nomidan olingan.

G‘utparish – onomatoponim. G‘utparish ismli adib o‘tgan va shu kishi nomiga atab qo‘yilgan degan faraz bor. “G‘uta” so‘zi fors-tojik tilida “suvga tushib ketmoq, g‘arq bo‘lmoq” ma’nosini beradi.

Etnotoponimlar

Arablar – etnotoponim. Arab qavmiga mansub aholi yashaydigan joy hisoblanadi. Tumanda bu nomdagi qishloqlar bir nechtani tashkil etishi arab qavmlari tarixiy migratsiyasining bu hududga ta’sirida dalolat beradi. O‘tgan asrning 70-yillarigacha aholi o‘z ona tili – arab tilini saqlab qolgan edi. Hozirgi tarixiy davrda ular mahalliy aholi bilan aralashib ketgan.

Armetan – etnotoponim. Toponimning ikkinchi komponentini tashkil etuvchi metan so‘zi qabila nomidan olingan. Metanlar qadimda Shimoliy Mesopotamiya, Eron, Ozarbayjon, Armanistonda istiqomat qilgan. Keyinchalik yuz bergan migratsion va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqibatida Afg‘oniston va Movarounnahr hududlariga tarqaladi hamda mahalliy aholi tarkibiga singib ketadi. Aslida ushbu toponim dastlab “Varmetan” shaklida tarkib topib, keyinchalik transformatsiyaga uchraydi va Armetanga aylanadi. Var so‘g‘d tilida chorva mollarini saqlash uchun chor atrofi devor bilan o‘ralgan istehkomni bildiradi. Varmetan – metan qabilalarining istehkomli maskani bo‘lgan.

Shuningdek, Sarmetan atamasining o‘zgargan shaklidan vujudga kelgan toponim sifatida ham talqin qilish mumkin. Fors-tojik tilidagi sar so‘zining ko‘plab ma’nolari ichida “yuqori” tushunchasini ushbu toponimga qo‘llash natijasida “yuqoridagi metan qishlog‘i” ma’nosi hosil bo‘ladi.

Badoy – etnotoponim. Turkiy urug‘lardan birining nomi. Amudaryoning quyi oqimida yashab, chorvachilik bilan shug‘ullangan. XIX asr boshlarida Surxondaryo va Buxoro vohalariga tarqalgan.

Bahrinobod – etnotoponim. Bahrinlar obod qilgan mavze. Qorako‘ldaryo bo‘yidagi manzarali maskan. Turklashgan mo‘g‘ul qabilalaridan biri. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida ular Dashti

Qipchoqqa kelib oʻrnashib oladilar. XVIII-XIX asrlarda bahrinlarning katta qismi Toshkent vohasi va Fargʻona vodiysida oʻtroqlashgan boʻlsa, boshqa qismi Zarafshon vohasiga koʻchib oʻtadi. Umuman bahrinlar hozirgi Oʻzbekiston hududining koʻp qishloqlarida istiqomat qiladi¹.

Burqut – etnotoponim. Turklashgan moʻgʻul urugʻlaridan birining nomi. XI-XII asrlarda Baykal koʻlining sharqiy sohillarida yashagan. XIII-XVI asrlar davomida Movarounnahrda kelib oʻrnashgan. Burqutlarning katta qismi Zarafshon vohasiga kelib oʻtroq hayotga oʻtadi.

Minglar – etnotoponim. Ming urugʻlari yashagan makon. Minglar XV asr oxiri va XVI birinchi yarmida Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda koʻchib oʻtib, keyingi davrlarda xonliklar siyosiy hayotida faol ishtirok etadilar. Qoʻqon xonligida hukmron mavqega ega boʻlishgan. Fargʻona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm vohasiga keng tarqalgan.

Nayman – etnotoponim. Naymanlar yashagan qishloq. Moʻgʻulcha nayma, yaʼni “sakkiz” degan maʼnoni bildiradi. Atama mamlakatimizning barcha hududlarida uchraydi. Naymanlar qabila sifatida oʻzbek, qozoq, qoraqalpoq, qirgʻiz, noʻgʻay, oltoy xalqlari tarkibiga kirgan. Oʻzbek naymanlari XIX asrda uch yirik urugʻga boʻlingan: qoʻshtamgʻali, sadirbek va uvoxtamgʻali. Shuningdek, boshqa boʻlaklarga ham boʻlingan.

Saroy – etnotoponim. Oʻzbeklar tarkibiga kirgan yirik qabila uyushmasi. Bu qabila uyushmasi yana bir necha katta kichik qabilalarga boʻlingan. Jumladan, majar-saroy, qorabo-saroy, nayman-saroy, qoʻngʻirot-saroy va hokazolar. Buxoro vohasiga keng tarqalgan.

Sorin – etnotoponim. Turk-moʻgʻul qabilalaridan birining nomi.

Xalach – etnotoponim. Qadimgi turkiy qabilalardan biri. Amudaryoning yuqori, oʻrta va quyi oqimlaridagi hududlarga, jumladan, Qashqadaryo, Buxoro vohalariga tarqalgan. Tarixiy manbalarda turkman qabilalari qatorida tilga olinadi. Mahmud Koshgʻariy, shuningdek, Abulgʻozixonning yozishicha, xalach soʻzi “qol+ och, och+ qol” maʼnosini bildiradi. Abulgʻozixon oʻz fikrini quyidagi maʼlumot bilan asoslaydi. Oʻgʻuzxon yurishlari davrida

¹ Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 8.

qo‘shindan orqada qolib adashgan, och qolgan askarlarni yig‘ib kelish uchun maxsus kishilar harakat qilgan. Kunlarning birida qo‘shindan orqada qolib ketgan bir askarni O‘g‘uzxon huzuriga olib kelishadi. Ma‘lum bo‘lishicha, yegulikdan qiynalish oqibatida u qo‘shindan orqada qolgan va shu paytda askar homilador ayolining ko‘zi yorib, farzand ko‘rishgan. Ovqat kamligidan ayolning suti chaqaloqni boqish uchun ozlik qilardi. Askar er qirg‘ovul ovlab xotinini boqqan ekan. Bundan voqif bo‘lgan O‘g‘uzxon unga ot, oziq-ovqat va chorva mollari berib shunday degan: “Sen endi qo‘shin ortidan yurma, och qol”¹. Shu so‘zdan “xal+ach” etnotoponimi kelib chiqqan.

Elach – etnotoponim. Turkiy urug‘lardan birining nomi. Elachi tarzida ham qo‘lanilgan. “Nasabnomai o‘zbek” nomli tarixiy asarda uchraydi².

O‘zbekon – etnotoponim. Tojikzabon aholi “o‘zbakon”, ya’ni “o‘zbeklar” deb talaffuz qilgan. Aslida “o‘zbekon” tarzida yozish va talaffuz qilish kerak. O‘zbek etnotoponimiga tojikcha ko‘plik ko‘rsatgichi “on” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. O‘zbek millatiga mansub kishilar yashaydigan qishloq. Toponim kishilarning etnik belgisi asosida vujudga kelgan.

Qatag‘on - etnotoponim. O‘zbeklar tarkibidagi yirik qabila. Qashqadaryoning yuqori va quyi oqimlarida, Buxoro vohasi, Xorazm, Farg‘ona va Toshkent vohalarida yashagan. Qatag‘onlar bir necha urug‘larga bo‘lingan. Dastlab asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lsa-da, asrlar davomida mahalliy aholi ta’siri ostida o‘troqlashib, dehqonchilikka o‘tgan.

Qipchoq – etnotoponim. Turkiy qabilalarning yirik bo‘g‘ini. Farg‘ona, Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm vohalariga tarqalgan. Qipchoq atamasining vujudga kelishi xususida Abulg‘ozixonning “Shajarai tarokima” asarida quyidagi rivoyat keltiriladi. O‘g‘uzxon beklaridan biri homilador ayolini o‘zi bilan birga harbiy yurishga olib boradi. Lekin jangda o‘zi halok bo‘ladi. Kunning sovuq pallasida qurigan bir daraxt kovagida ayolining ko‘zi yoriydi. O‘g‘uzxon shu yetim bolani o‘g‘il qilib olib, unga Qipchoq,

¹ Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абу-л-Гази хана хивинского. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1958. – Б.46.

²Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII – Ташкент: Фан, 1985. – Б. 130.

ya'ni "ichi kovak daraxt" deb ism qo'yadi. Undan tarqagan barcha avlod qipchoq deb atalgan¹.

Qo'ng'irot - etnotoponim. Qo'ng'irot urug'iga mansub aholi yashagan qishloq. Qo'ng'irotlar yirik o'zbek qabilalaridan biri. XIII asrda Chingizxon qo'shinlari bilan Movarounnahrda kelib o'rnashganlar. XIV asrdan ularning butun O'rta Osiyo bo'ylab tarqalish jarayoni boshlandi. O'zbekistonning janubiy hududlari, Zarafshon, Xorazm vohalarida istiqomat qilishgan.

¹ Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абу-л-Гази хана хивинского. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1958. – Б. 43-44.

11.3. Aholi mashg'uloti, joyning geografik o'rni va ijtimoiy-maishiy omillar bilan bog'liq toponimlar

Rozmoz – biror bir narsaga rozilik beruvchi, rozilik bog'lovchi ma'nosida.

Beshrabort - o'tmishda beshta qo'rg'ondan iborat bo'lgan qishloq.

Chuqurko'cha – mavzening topografik holati, ya'ni chuqurlikda joylashganligiga nisbat berib ishlatiladigan atama.

Halvogaron - halvopazlik bilan shug'ullanuvchilar qishlog'i.

Qurton - suzmani yong'oqdek-yong'oqdek yoki undan kattaroq qilib yumaloqlab, so'ng oftobda quritib va qotirib tayyorlanadigan mahsulot qurut (قروت) deyilgan¹. Shu turdagi iste'mol mahsuloti tayyorlab sotuvchi aholi yashagan qishloq. Toponim “on”, ya'ni “lar” ko'plik qo'shimchasi qo'shish bilan yasalgan.

Xo'jamakon - xo'jalar yashagan qishloq.

Kumushkent - Buxoro vohasining qadimiy qishloq-qo'rg'onlaridan biri. Vobkentdan 9 km sharqda joylashgan. Arablar istilosi davrida istilochilarga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni markazlaridan biri. Ma'nosi “kumush qishloq”.

Baqqollon – qishloq ahli o'tmishda baqqollik kasbi bilan mashg'ul bo'lganidan darak beruvchi atama.

Buchchalar - Buxoro mahalliy shevasida jussasi kichik kishilarga nisbatan ishlatiladigan so'z.

Xo'jarabot - atrofi devor bilan o'rab olingan va xo'jalar istiqomat qishloq ma'nosida.

Xosrabot – xohish, istak bilan tashkil qilingan qishloq hisoblanadi. “Xos” so'zi “alohida”, “maxsus” ma'nolarini beradi. “Maxsus rabot” ma'nosiga ega deb ham qabul qilish mumkin.

Saktafon - qishloqning tarixiy nomi. Toponimning birinchi komponenti, “sak” so'zi qadimgi sak qabilasi nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. “Saxt”, ya'ni “qattiq” so'zining buzilgan shakli deb ham taxmin qilish mumkin.

Sariosiyo – daryo yoki katta ariq yoqasidagi suv tegirmonli qishloq. Lug'aviy ma'nosi “tegirmonning boshi”.

Sartaroshlar - sartaroshlik bilan shug'ullanuvchilar istiqomat qilgan qishloq.

¹ Садриддин Айни. Куллиёт. Жилд 12. – Душанбе: Ирфон, 1976. – Б.523.

Toqido‘z - do‘ppi tikuvchi, toq sanoqdagi do‘ppi tikadigan yoki do‘ppini toq – gumbazcha, ya’ni tepa qismini baland qilib tikuvchi hunarmandlar qishlog‘i.

Teraklik - teraklari mo‘l bo‘lgan qishloq. Komiariq deb ataluvchi katta ariq yoqasida aholi ko‘plab teraklar ekkan. Toponim mavzening tabiiy holatiga mos tarzda vujudga kelgan.

Teshiktepa – tepalikning tabiiy-geografik holatini aks ettiruvchi toponim.

Boyqazon – “boy qozoq” atamasining buzilgan shakli. Keskin transformatsiyaga uchrash natijasida onomad an toponimga aylangan.

Dahana - suv taqsimlagich. Qichik ariqlarning katta ariqdan suv oladigan qismi.

Rabotobod – “obod rabot”, “obod qilingan rabot” ma’nosida. Yo‘lovchilar dam oladigan obod maskan.

Asbobsozlar - turli asbob-uskuna yasagan hunarmandlar istiqomat qilgan qishloq.

G‘aribshoh – ushbu toponimga oid xalq orasida rivoyat mavjud. Unga ko‘ra, bir g‘arib kishi mehnat qilib shoh darajasiga ko‘tarilgan ekan.

Qumrabot – qumli rabot. Atrofi qumlar bilan to‘silgan mavze.

Baxshiyon – baxshilar istiqomat qilgan, jumladan, Yodgor Baxshi yashagan qishloq.

Gulrabot – gul yetishtiruvchi, gullarga serob mavze.

Ehson - qishloq aholisi o‘ziga to‘q bo‘lib, xayr-ehson ulashib yurgan.

Marvilar - marvlilar, ya’ni Marvdan ko‘chib kelgan aholi yashagan maskan.

Sarikor - “sarkor”, ya’ni “ish boshi”, “ish yurituvchi” ma’nosini beradi. Tarixiy manbalarda ko‘p uchraydi.

Ko‘lxatib - xatibning ko‘li, xatibga tegishli ko‘l.

Astarbof – astar tikish bilan shug‘ullangan aholi yashagan qishloq.

Dukchilar – duk yasovchi ustalar, to‘qimachilik do‘koni asboblarini yasovchilar qishlog‘i.

Cho‘rikalon - “chori koron” atamasining o‘zgargan shakli deb qabul qilinadigan bo‘lsa, bu yerda yashagan aholining to‘rt dan bir qismi mehnatkash bo‘lgan degan ma’no kelib chiqadi. Talaffuzdagi varianti, ya’ni cho‘rikalon - “katta cho‘ri” ma’nosini bildiradi.

Talligandum - “bug‘doytepa”, “bug‘doy, don ekilgan tepa” ma’nosiga ega. Yoki bug‘doy shaklidagi tepalikka nisbatan qo‘llanilgan atama ham bo‘lishi mumkin.

Vag‘onziyak - “varg‘oziyak” atamasining juz’iy o‘zgargan shakli deb hisoblash mumkin. Sug‘dcha varg‘ - “suv to‘planadigan joy, to‘g‘on, band” va yak, ya’ni “yakka, yagona” so‘zlari birikmasidan tashkil topgan ikki komponentli toponim. “Suv to‘planadigan yakka joy” ma’nosini anglatadi.

Voshi - Mirvoshi qisqarib, Voshi qishlog‘i deb yuritila boshlagan. Ushbu toponim tarixiy manbalarda, jumladan, XV asrda yozilgan “Rashahot aynil-hayot” asarida uchraydi. Naqshbandiya tariqati pirlaridan biri Amir Kalon Voshiy shu qishloqdan bo‘lgan.

Shakaravon - suvi shakardek shirin bo‘lib oquvchi qishloq.

Changaron – o‘tmishda qumloq, changli joylar bo‘lib, ozgina shamol esganda chang ko‘tarilgan va qishloq uzra tarqalgan. Ma’nosi “chang chiqaruvchi”.

Buzunduvon – uzunduvon, ya’ni “uzundovon” atamasining o‘zgarishga uchragan shaklidan tarkib topgan toponim deb hisoblash mumkin. Bunda atama mazmuni joyning geografik o‘rni va holatiga mos kelishi kerak. O‘tmishda ushbu qishloqning janubidagi odoq qishloqqa nisbatan pastda, qishloq esa balandda joylashganligi bois, unga nisbatan “dovon” atamasi ishlatilganligini taxmin qilish mumkin.

Xajivon – Hojivon tarzida yozilishi kerak. Toponim ma’nosi to‘g‘risida xalq tilidagi talqinlar haqiqatdan yiroq. Ularni keltirishni joiz topmadik.

Avurduvon - Abdulkarim Sam’oniyning “Kitob ul-ansob” asarida ushbu qishloq nomi “Anbarduvon” shaklida tilga olinadi. Anbar (عنبر) xushbo‘ylikni bildiruvchi so‘z bo‘lib, ushbu toponimning birinchi komponentini tashkil etadi. Bunda “xushbo‘y dovon” ma’nosi kelib chiqadi.

Rostgir – “to‘g‘ri ol” ma’nosini beradi. “Rozgir” deb ham yuritiladi. Bunday holda toponim “rozilik ol” ma’nosiga ega bo‘ladi.

Bo‘yrabof - bo‘yra to‘kuvchilar qishlog‘i. Qamishdan to‘qilgan bo‘yradan yaqin o‘tmishgacha uyni namdan himoya qilish uchun foydalanilgan. Hozirgi paytda Buxoro vohasida bo‘yra asosan buxorochoa sofi osh tayyorlashda ishlatiladi. Guruch yuvilgach, bir muddat bo‘yra ustiga yoyib qo‘yiladi. Shuningdek, osh damlangach,

bo‘yra va boshqa narsalar mis qozon og‘ziga yopib qo‘yiladi. Demak, bo‘yraboflik kasbiga ehtiyoj hozir ham mavjud.

So‘filar - ilgari ilmli, ma‘rifatli insonlar, ibodatga chaqiruvchi so‘fi - muazzinlar yashagan qishloq.

Katta xo‘jalar - boy va badavlat tabaqa- xo‘jalar istiqomat qilgan qishloq. Xo‘jalar Movarounnahrda yurish qilgan arab noiblarining avlodlari hisoblanadi. Ijtimoiy tabaqa sifatida sayyidlardan keyingi o‘rinda turgan va katta imtiyozlarga, shuningdek, ko‘plab ko‘chmas mulk, yer hamda suvga ega bo‘lishgan.

Kallon – kalon so‘zi bitta “l” harfi bilan yozilsa, “katta”, ikkita “l” harfi bilan yozilsa, “kallar” ma‘nosini beradi. Shuningdek, katta, kattalar, katta makon ma‘nolari ham borki, bizningcha, aynan shu ma‘noda qo‘llanilgan. Buxoro vohasining boshqa hududlarida ham uchraydi.

Rostbadan - qishloqning tarixiy nomi. XIV asrda yozilgan tarixiy hujjat, ya‘ni Sayfiddin Boharziyning maqbarasi vaqfnomasida tilga olinadi. “Rostbadan” so‘zi “qaddi-qomati tik “ ma‘nosini beradi.

Mo‘minobod - tarixiy hujjatlarda tilga olinadi¹. XIX asrga oid bir hujjatda Mo‘minobod qishlog‘i aholisiga 75 tanob mulk yerlari ajratilishi to‘g‘risida so‘z boradi. Mo‘min nomli shaxs yashagan obod qishloq, yoki Mo‘min degan shaxs tarafidan obod qilingan qishloq ma‘nosida.

Qo‘qin – turkiy qabilalardan birining nomi.

G‘avuzdovon – “g‘avsdovon” toponimining o‘zgargan shakli bo‘lganligi ehtimol. Bunda toponim “yo‘g‘ondovon” ma‘nosini anglatib, uning mazmunida o‘sha joyning tabiiy-geografik o‘rniga ishora mavjud.

Chitgaron - chit to‘quvchilar. O‘tmishda qishloqda chitgarlar yashab o‘tgan.

Ko‘chkiosiy – tegirmonli mavze. Ko‘chkida joylashgan tegirmonli qishloq ma‘nosida.

Rohkent - “rohatkent” ya‘ni rohat oladigan qishloq ma‘nosini anglatadi. Ikkinchi shakli roh, ya‘ni “yo‘l”, kent “qishloq” – “yo‘l yoqasidagi qishloq”.

¹ Каранг: Чехович О.Д. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве.- Ташкент: Издательство АН Уз ССР, 1954. – Б. 205-206.

Todari - qadimda “Boboi toatdor” – “Toatli bobo” deb nomlangan. Forscha dodar, ya’ni “do‘st, birodar” so‘zining buzilgan shakli bo‘lishi ham mumkin.

Bozorjoyi – qishloq turgan joyda ilgari bozor bo‘lganiga ishora.

Otaliq - o‘rta asrlarda yosh xonning tarbiyachisi, uning nomidan mamlakatni vaqtincha idora etuvchi amaldor otaliq deb atalgan. Shunday amaldor yashagan qishloq.

Chorbog‘inav - yangi chorbog‘.

Yo‘lbo‘ldi – muayyan bir joyning avvalgi funksiyasini yo‘qotib, yo‘lga aylanishi natijasida vujudga kelgan toponim.

Eshonlar - eshonlar tabaqasiga mansub insonlar yashagan qishloq. Diniy ilmlarni puxta egallagan shaxslar aholining aksariyatini tashkil qilgan. Shayx Xoja Xudoyorxon ismli shaxs shu qishloq ahliga diniy ilmlardan ta’lim bergan.

Mahsumlar - maxsum aslida maxdum (مخدوم), ya’ni xodim, xizmatkor ma’nosini anglatadi. Mo‘min-qobil, birovlariga astoydil xizmat qiluvchi shaxslarga berilgan insoniy sifat.

Ko‘liodina – “Odinaning ko‘li”. Oдина shaxs nomi, shuningdek, “juma” ma’nosini ham anglatadi.

Arobazozlar – arava yasovchi ustalar yashagan qishloq.

Pirmastobod - “piriman ast” iborasidan olingan bo‘lib, “mening tarbiyachim”, “ma’naviy ustozim” ma’nosini anglatadi. Ma’naviy ustozning istiqomat manzili.

Anjirbog‘ - joyning anjirzor bo‘lganligini bildiradi. O‘rta asrlardagi nomi Anjirfag‘na. Naqshbandiya tariqatining uchinchi piri Mahmud Anjir Fag‘naviy shu qishloqda istiqomat qilgan. Demak, qishloq XIII asrda mavjud edi.

Nonvoylar – nonvoylik kasbi bilan mashg‘ul aholi istiqomat manzili.

Halajiyon - “haloji”, ya’ni paxtani tolasi va chigitini ajratadigan asbob yasovchilar qishlog‘i.

Oqrabot – “katta rabot” ma’nosini bildiradi.

Yakkarabot – aholi turar joylaridan uzoqroqda, yakka holda joylashgan qishloq.

Qaxat - قحط – kamyob, nodir ma’nosida. O‘ziga xos, boshqalarga o‘xshamaydigan, farq qiladigan qishloqqa nisbatan

ishlatilgan atama bo'lishi kerak. Shuningdek, o'zbek urug'laridan birining nomi. Bunday holda ushbu atama etnotoponimga aylanadi.

Narchoq - toponim tarixiy manbalarda, jumladan, "Kitob al-ansob"da "Narshax" nomi bilan tilga olinadi. Narshax qo'rg'oni arablar istilosi davrida, ayniqsa "Oq kiyimlilar" harakati yuz berayotgan paytda istilochilarga qattiq qarshilik ko'rsatgan. O'rta asr atoqli tarixchisi, "Buxoro tarixi" asarining muallifi Muhammad Narshaxiy shu qishloqda tavallud topgan. Demak, ushbu qishloq bir yarim ming yillik tarixga ega.



Vobkent minorasi

Yangikent - yangi qishloq ma'nosini bildiradi.

Xumriyon – toponimning birinchi qismidagi xum so'zi qishloq aholisining xum tayyorlash bilan mashg'ul bo'lganidan darak beradi.

Talpushmon - "tallipushaymon" atamasining o'zgargan shakli. Lug'aviy ma'nosi "pushaymontepa". Rivoyatga ko'ra, shu tepalikda yashagan badavlat bir kishi sulh evaziga arab istilochilariga o'z mullukining bir qismini in'om qilib, so'ng pushaymon bo'lgan.

Koza – کازە chayla ma'nosini anglatadi. ekin yerlari, bog'lar atrofida qamish, shox-shabbadan qurilgan uycha-chayla.

Qo'ldosh – har bir ishda birga bo'luvchi, yordam qo'lini cho'zuvchi, ko'makdosh, hamkor ma'nolarini anglatadi.

Qoryog'di - qadimiy urf-odatlardan birining ijrosini ifoda etuvchi atamalardan biri. Marhumning vafotidan keyin birinchi qor yoqqanda o'tkaziladigan motam marosimi¹.

¹Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Бешинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 242.

Ko'kdala - dalalar ko'm-ko'kligi, yam-yashilligini aks ettiruvchi toponim. Joyning tabiiy-geografik xususiyatiga nisbat berilib shakllangan atama.

Rabotisari - sariqrabot. Rabot so'zi "qishloq" ma'nosida ham ishlatilgan. Ushbu toponim mazmunida o'tmishda sariq, ya'ni malla kishilar yashagan qishloqqa ishora mavjud.

Kaltarabot – kichik, qisqa rabotga nisbat berib ishlatiladigan atama. Vohaning boshqa hududlarida ham uchraydi.

Og'are - "ko'lmak" ma'nosini beradi. Sel yog'ib o'tgandan so'ng yerning har qayer – har qayerida hosil bo'ladigan ko'lmakka nisbatan qo'llanilgan. Toponim o'sha joyning geografik va tabiiy xususiyatini aks ettirgan, deb hisoblash mumkin. Toponim viloyatning boshqa tumanlarida ham uchraydi.

Pichoqchi – pichoqchilik kasbiga ixtisoslashgan aholi yashagan qishloq.

Shakarkent - "shakarqishloq" ma'nosiga ega. Bir qancha yaxshi sifatlar umumlashmasidan tarkib topgan atama.

Boyluk – badavlat kishilar istiqomat qilgan mavzega ishora.

Rome – ushbu atamani tojik tilidagi romeh (رامح) so'zining qisqartma shakli deb qabul qilish bilan toponimning lug'aviy va ijtimoiy ma'nosi ochib beriladi. Romeh "nayza otuvchi [mergan]" ma'nosini bildiradi. Joy nomi sifatida uchraydigan "merganlar" so'zining tojik tilidagi ekvivalenti bo'lishi mumkin.

Tallikulux – تالكلوخ arab va fors tilidagi ikki komponentdan iborat toponim. Ya'ni arabcha "tall" - tepa va forscha "kulux" – kesak so'zlaridan olingan. "Kesaktepa" ma'nosini bildiradi.

Regdamin - "regzamin" so'zidan olingan bo'lib, "qumli yer" ma'nosini beradi.

Tagalak – Buxoro shevasida qo'chqor tagal deyiladi. Qo'chqorning shoxini eslatuvchi jo'xorining tepa qismi esa tagalak deb ataladi. Toponim mazkur so'z asosida hosil bo'lgan.

Uzro – uzr-ma'zur so'rovchilar ma'nosida. Hazrat Bahouddin Naqshband o'z ma'naviy pirlari Abduxoliq G'ijduvoni qabri ziyoratiga shu qishloq orqali borgan ekanlar.

Komde - "komideh", ya'ni "qishloq arig'i" ma'nosini beradi.

Saripanja - atama lug'aviy jihatdan "panja boshi" ma'nosini beradi. Ijtimoiy jihatdan esa irrigatsiya tizimi tarixini ifoda etadi. Chunki ushbu hududdan beshta ariq taqsimoti boshlangan.

Xurram - shodu xurramlik ma'nosida.

Arabsaroy - arab millatiga mansub kishilar yashagan joy ma'nosida.

Ponob - "poyoni ob" so'zidan olingan bo'lib, "suvning, ariqning quyi qismi" ma'nosini anglatadi.

Xayrobod - "xayr obod" so'zidan olingan bo'lib, "kichik qishloq obod bo'lsin", degan ma'noni anglatadi. "Xayrbod", ya'ni "xayrli bo'lsin" so'zining o'zgargan ko'rinishi bo'lgan deb ham taxmin qilish mumkin.

Qumrabot - joyning tabiiy tuzilishiga ishora.

Pushmon - "pushaymon" ma'nosida.

Sariosiyo - "tegirmonboshi", yoki "tegirmon boshidagi qishloq" ma'nosida. Mamlakatimiz hududlarida ko'p uchraydigan toponim.

Bodomcha - bodomzorli kichik qishloqcha.

Xosrabot - alohida rabotga ega mavze.

Kunjak - tuman hududining janubiy sharqida, adoqqa tutash yerda joylashgan qishloq.

Shanba - hafta kunlarining nomidan olingan toponim.

Dilorom - tabiiy joylashuvi va tabiati bilan dilga orom beruvchi xushhavo maskan ekanligiga nisbat berib ataladigan mavze.

Oblogo'y - "Ollohgo'y" so'zining buzilgan shakli. "Ollohni zikr etuvchi" ma'nosini beradi.

Xalqobod - xalq obod qilgan joy.

G'ayroni - "boshqalar, begonalar" ma'nosini anglatadi. Turmush tarzi o'zgacha, boshqa qishloqlarnikiga o'xshamaydigan, o'ziga xos aholi yashagan qishloq bo'lishi kerak.

Shayxon - o'tmishda shayxlar yashagan qishloq.

Odoqariq - Zarafshon daryosi suv sathi pasayib, odoqlar hosil bo'lgan hududda joylashgan mavze.

Qavola - "qavola" so'zi "notiq", "hofiz" ma'nolarini anglatadi.

Jo'yiodoq - odoqdan oqib o'tuvchi ariq bo'yida joylashgan qishloq. Zarafshon daryosi suv sathi pasayib ariqlar hosil bo'lgan.

Qamchinbof - qamchi to'quvchilar qishlog'i.

Toshmasjid - tosh masjidli mavze.

Chorbog'kent - to'rt tomoni bog' bilan o'ralgan qishloq.

Rabotixossa - alohida rabotga ega mavze.

Niyogan – fors-tojik tilidagi “nigoh kun” soʻzining buzilgan shakli boʻlishi mumkin. Maʼnosi “qara, bu qishloqqa boq”.

Qoʻrjuq – qoʻrchi atamasining oʻzgangan shakli. Oʻrta asrlarda turkiy qabilalarning eʼtiborli va ishonchli kishilaridan tuzilgan alohida saroy gvardiyasi, shuningdek, hukmdor yoki yuqori lavozimli amaldorning shaxsiy qoʻriqchisi qoʻrchi deb atalgan. ekinzorlarni qoʻriqlaydigan shaxslar ham qoʻriqchi deyilgan.

Rabotak – rabotcha, kichik rabot maʼnosida.

Raboti eshon - oʻtmishda eshonlar istiqomat qilgan qishloq.

Behtoʻsi – beh soʻzi fors-tojik tilida “yaxshi”, toʻsi soʻzi esa Buxoro shevasida “qop-qora” maʼnosini bildiradi. Bunday holda toponim “qop-qora yaxshi kishilar” degan ijtimoiy maʼno kasb etib, shunday odamlar istiqomat qilgan qishloq va uning ahliga nisbatan qoʻllanilgan degan fikrni taklif qilish oʻrinli. Shu oʻrinda boshqa bir mulohazani ham oʻrtaga tashlash mumkin. Tus shahrida tayyorlangan “tusi” (طوسی) matosi Movarounnahr va Xurosonda isteʼmolda boʻlgan. Shu matoni qayta, sifatli tayyorlashga ixtisoslashgan qishloq nomi boʻlganligi ehtimoli bor. Bunda toponim “Tusning yaxshi matosi” maʼnosini anglatadi.

Rabotishayx – oʻtmishda shayxlar yashagan mavze.

Shishmaha – “shesh mahalla”, yaʼni “olti mahalla” soʻzining buzilgan shakli. Shu shaklda toponimga aylangan.

Yangikent – yangi qishloq.

Shohnigor – “shohnaqshi” maʼnosini bildiradi. Qishloqning goʻzalligiga nisbat berib tarkib topgan atama.

Qisqacha xulosa

Yuqoridagilar shuni koʻrsatadiki, Vobkent tumani oʻz geografik oʻrniga koʻra barcha tomondan viloyat tumanlari bilan chegaradosh va madaniy zonada joylashgan. Tarixiylikiga asos boʻluvchi obidalar shaharchaning markazida qad koʻtarib turibdi. Zarafshon daryosining bir irmogʻi Vobkentdaryo tumanning yirik suv inshooti hisoblanadi. Shaxs nomlari bilan ataluvchi toponimlar va etnotoponimlar, aholi mashgʻuloti, joyning geografik oʻrni va ijtimoiy-maishiy omillar bilan bogʻliq toponimlar tumanning qadimdan dehqonchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik, ayniqsa kulolchilik maskanlaridan biri boʻlganligidan dalolat beradi.

Tayanch soʻz va iboralar: toponimlar, etnotoponimlar, shaharcha, qoʻrgʻon, onomatoponim, kasb, aholi mashgʻuloti,

ijtimoiy-maishiy omil, ma'muriy markaz, ijtimoiy-madaniy, Kuhak daryosi, aholi manzillari, Vobkent qasabasi, Komot, Komi Akka, ixtisoslashgan qishloq, o'zbek naymanlari, urug'larga bo'linish.

Savol va topshiriqlar

1. Vobkent tumanida hunarmandchilikning qaysi sohasi rivojlangan?
2. Tuman markazida xalqaro ahamiyatga ega qaysi me'moriy obida joylashgan va uning me'moriy yechimlari nimalardan iborat?
3. Shaxs nomlari bilan bog'liq holda tashkil topgan toponimlar haqida ma'lumot bering?
4. Tumandagi etnotoponimlarni sanab bering
5. O'rta asrlar mashhur muarrixini tavallud topgan qishloq nomi qanday atalgan?
6. Sayfiddin Boharziy maqbarasi vaqfnomasida tilga olingan qishloq nomini ayting?
7. Qaysi tarixiy manbada qipchoq etnik atamasiga keng sharh berilgan?
8. Joyning tabiiy-geografik o'rni va holatini aks ettiruvchi toponimlarni chuqurroq o'rganing va topografik xaritasini tuzing?

12-MAVZU: G'JDUVON TUMANI TOPONIMLARI

12.1. Tumanning qisqacha tarixi

12.2. Mahalla fuqarolar yig'ini tarkibidagi tarixiy toponimlar

12.1. Tumanning qisqacha tarixi

G'ijduvon tumani 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. 1935-1938-yillarda Akmal Ikromov nomi bilan yuritilgan. Buxoro viloyatining shimoliy sharqiy chekkasidagi tuman. Tuman markazi G'ijduvon shahri Buxoro shahridan 50 km uzoqlikda joylashgan. Janubdan Vobkent, g'arbdan Shofirkon, shimoliy sharq va janubiy sharqdan Navoiy viloyatining Konimex, Qiziltepa tumanlari bilan chegaradosh. Hududi tekislikdan iborat. Shimol tomondan katta qismi Qizilqum bilan tutashib ketgan. Shimol va shimoliy sharq tarafi Qoratog' tizmasining g'arbiy chekkasiga borib taqaladi.

Sugʻoriladigan yerlarining tuprogʻi oʻtloqi. Choʻl zonasiniki esa sur-qoʻngʻir, qumli, taqirsimon shoʻrxok. Choʻl zonasiga xos oʻsimlik va hayvonot dunyosiga ega. Choʻlda iloq, arpagon, oqpechak, shuvoq, achchiqmiya, yulgʻun, qandim, qora saksovul va boshqa oʻsimliklar, suvga yaqin yerlarda esa qamish, boʻyra qamish oʻsadi.

“Gʻijduvon” atamasining lugʻaviy maʼnosi toʻgʻrisida turli talqinlar mavjud. Jumladan, “gʻujdavon” soʻzidan olinganligi va “dovonlari gʻuj, dovonlari koʻp boʻlgan joy” maʼnosini anglatishi haqidagi maʼlumotlar saqlangan. Nomining “Buxoro tarixi”, “Kitob al-ansob”, “Rashahot”, “Boburnoma”, Abdullanoma” va boshqa qator tarixiy asarlarda uchrashi uning qadimiyligidan va oʻrta asrlarda koʻplab ijtimoiy-siyosiy voqealarga guvoh boʻlganidan darak beradi¹. Xojagon-naqshbandiya tariqatining sarhalqasi Abduxoliq Gʻijduvoniy shu maskanda nashʼu-namo topgan va ushbu tariqat maʼnaviy-maʼrifiy qoidalarini ishlab chiqqan. Uning maqbarasi oldida temuriy Ulugʻbek tomonidan 1433-yilda qurilgan madrasa hamon oʻz ulugʻvorligini namoyon etib turibdi. Tuman hududida qad koʻtarib turgan Toshmasjid va Dehqonobod xonaqosi, Xoja Suktari va Chorsu masjidlari oʻrta asr meʼmoriy obidalari hisoblanadi.

Gʻijduvon viloyatdagi sanoatlashgan va hunarmandchilik sohasi rivojlangan tuman hisoblanadi. Paxta tozalash, yaxna ichimliklar, meva-sabzavot konserva zavodlari, Buxoroteks toʻqimachilik korxonasi filiali, Gʻijduvon keramika zavodi, gilam toʻqish, poyabzal fabrikalari, kulolchilik, qandolatpazlik sexlari, qurilish tashkilotlari mavjud.


Mustaqillik, ayniqsa keyingi toʻrt yilda tuman ijtimoiy-madaniy, maʼrifiy hayotidagi tub oʻzgarishlar xalq farovonligiga xizmat qilmoqda. Litsey, kasb-hunar kollejlari, kutubxona, muzey, madaniyat uylari, istirohat bogʻi, yangi dehqon bozori, sport inshootlari, sogʻlomlashtirish maskanlari bunga misoldir.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Gʻijduvon erkin iqtisodiy hududga aylantirildi. Abduxoliq Gʻijduvoniy maqbarasi asl qiyofasida qayta tiklanib, uning odidagi madrasada muzey, atrofida masjid, tahoratxona, bogʻ barpo etilib, yagona

¹ Бартольд В.В. Статьи из «Энциклопедии ислама». Гиждуван. Соч. в 9-томах. Т.3. - Москва: Наука, 1965. – Б. 400.

madaniy-majmuaga aylantirildi. Yetti pirlar ziyorati shu yerdan boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2021-yil yanvar’ oyida Buxoro viloyatiga tashrifi davrida G‘ijduvon shahri eski qo‘rg‘onini tarixiy ko‘rinishda qayta tiklash masalasini o‘rtaga tashladi. Madaniy meros ob‘ektlari taqdiriga davlat rahbari darajasidagi e‘tibor ularni saqlab qolishning ijobiy yechimini ta‘minlaydi.



Buxoro viloyati tarkibidagi G‘ijduvon tumani xaritasi

G‘ijduvon tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini
1	Shahar mahallalari
2	Shaharchalar
3	Ko‘kcha
4	Zarangari
5	Bo‘lakiyon
6	Mahalla
7	Mustaqillik
8	G‘ovshun
9	Mirzayon
10	Biyosin
11	Ulfatbibi
12	Baqollar

13	Oqrobot
14	G'ishti
15	Armechan
16	Denov
17	Todon
18	Cho'g'alon
19	Sarmijon
20	Labiro'd
21	Firishkent
22	Zargaron
23	Sohibiyon
24	Sho'rchu
25	Qassobon
26	Bo'ktaroy
27	Vazirshoh
28	Ko'shk
29	Taxtaxon
30	Sarvari
31	Kalon
32	Tavariyon
33	Pozagari
34	Qumoq
35	Karna
36	Soktari
37	Mirakon
38	Saidkent
39	Tarxanon
40	Qoraxoni
41	Olmazor
42	Qorabog'
43	Qo'riq
44	Paxtaobod
45	Ayirtom
46	Toshloq
47	G'alaba
48	Havzak

12.2. Mahalla fuqarolar yig'ini tarkibidagi tarixiy toponimlar Shahar mahallalari

Sardor -“yetakchi, rahnamo” ma'nosida.

Pomo'za – poymo'za, ya'ni “oyoqqa kiyiladigan etik” ma'nosini anglatadi. Joy nomida etikdo'zlar istiqomat qilgan qishloqqa ishora mavjud.

Dilkusho – dil ochuvchi, ko'ngilni tortuvchi ma'nosida. Mavzening tabiatini ifoda etuvchi toponim. Keng tarqalgan joy nomlaridan biri.

Chorsu – “to'rt tomon” ma'nosini beradi. Bu toponim ham mamlakatimizning qariyb barcha hududlarida uchraydi.

Qo'rg'on - G'ijduvon shahri ichida joylashgan qadimiy qo'rg'on. Atrofidan Pirmast arig'i oqib o'tadi. Qo'rg'on ichida aholi turar joylari, o'rta asrlarni eslatuvchi tor ko'chalar va bir necha masjid mavjud.

Degrezon – “qozon quyuvchilar, qozon yasovchilar” ma'nosiga ega. Kasbiy mashg'ulot bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan toponim.

Shaharchalar

Abadi – doimiy barqaror bo'lgan mavze, makon.

Beshtuvo – toponimning ikkinchi qismidagi tuvo so'zini turkiychadagi teva, ya'ni tuya so'zining o'zgargan shakli deb hisoblasak, toponim “beshtuya” qo'rinishini oladi. Toponim etimologiyasi qo'shimcha tadqiqqa muhtoj.

Gajdumak – “kajdumak” ya'ni “qiyshiq, egri dumli” ma'nosini beradi.

Jovgari – “javgar” ya'ni “jo'xori yetishtiruvchilar” so'zidan olingan. Dehqon aholining asosiy mashg'uloti jo'xori yetishtirishdan iborat bo'lganiga ishora qiluvchi toponim.

Ko'lijabbor - “jabborko'l” atamasining mahalliylashgan shakli.

Mazragan - toponimning birinchi komponenti, ya'ni mazra so'zi “yer, ekin yeri” ma'nosini bildiradi.

Rostgo'y – “rost, to'g'ri so'zlovchi” ma'nosida.

O‘zanon – “o‘zanlar” ma’nosini bildiradi. O‘zan – suv oqib o‘tadigan uzun chuqurlik, suv yo‘li¹.

Xatcha – خطچه vohaning boshqa tumanlarida ham uchraydigan atama. Kingadir tegishli, qaysidir shaxs yoki amaldorning ixtiyorida bo‘lgan mavze o‘rta asrlarda xatcha atamasi bilan belgilangan. Tarixiy hujjatlarda Xatchayi Xo‘ja Sarsari, Xatchayi zakotchi, Xatchayi miroxur, Xatchayi Mullo Odina, Xatchayi xo‘jaho kabi iboralar joyning ushbu shaxslar va amaldorlarga tegishli ekanligini bildirgan.

Chag‘dari – چاغدری Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida qayd etilgan. Bizningcha, chag‘andar atamasining o‘zgargan shakli bo‘lishi kerak. Chag‘andar Buxoro shevasida lavlagining bir navi hisoblanadi. O‘tmishda lavlagi yetishtirgan ziroatkor qishloq nomi.

Namadgaron – “namad, kigiz to‘quvchilar” ma’nosida. Qishloq ahli ilgari shu kasb bilan shug‘ullangan.

Qumoq – qum aralashib donador bo‘lib qolgan yer sathi. Mavzening tabiiy-geografik sharoitini ifoda etuvchi toponim.

Dodarak - “yaqin do‘stlar, birodarlar” ma’nosida.

Ko‘kcha mahalla fuqarolar yig‘ini

Ko‘kcha – tumanga qarashli cho‘l etagida joylashgan mavze. Yashilligiga qiyos tarzda vujudga kelgan toponim. Etnotoponim deb qarash ham mumkin.

Og‘itma – og‘ritma so‘zining qisqartma shaklidan yasalgan toponim bo‘lishi mumkin.

Shirinobod – etnotoponim. Shirin turk-mo‘g‘ul qabilalaridan birining nomi. Hozirgi ko‘rinishda “shirin qabilasi obod qilgan joy” ma’nosini beradi.

Bo‘kanay - toponimning birinchi komponenti, ya’ni “bo‘ka” so‘zining bir necha ma’nolari mavjud: “botir jangchi”, “polvon”, “mozor”, “ibodatxona”, “bino”, “mamlakat”, “joy”, “pastlik”. Bo‘kanay shularning birortasiga aloqadorlik negizida shakllangan toponim bo‘lishi mumkin. Toponim ikki qismdan iborat deb taxmin qilinsa, uning ikkinchi qismini tashkil qilgan nay so‘zi tojik tilida “qamish” degan ma’noni bildiradi. Bundan “qamishli joy” yoki “qamishli mozor” ma’nosi kelib chiqadi.

¹ Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. Бешинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 135.

Cho'lobod – “obod qilingan cho'l, obod bo'lgan cho'l” ma'nosini anglatadi.

Zarangari mahalla fuqarolar yig'ini

Zarangari - aslida “zirangori”, ya'ni “quyi qishloq”, “quyida, pastda joylashgan qishloq” ma'nosini anglatadi. Angor so'zi “ekiladigan yer, dala” ma'nosini bildiradi.

Oltinko'l – mavjud ko'lining ko'rinishini aks ettirgan toponim.

Quyimahalla - u yoki bu mavzening quyisida joylashgan mahallaga taalluqli atama.

Kallon – kalon so'zi bitta “l” harfi bilan yozilsa, “katta”, ikkita “l” harfi bilan yozilsa, “kallar” ma'nosini beradi. Shuningdek, katta, kattalar, katta makon ma'nolari ham borki, bizningcha, aynan shu ma'noda qo'llanilgan. Buxoro vohasining boshqa hududlarida ham uchraydi.

Urganjrabot - o'rta asrlarda urganjiylar, ya'ni Urganchdan kelib qolgan aholi istiqomat qilgan joyga nisbatan qo'llanilgan.

Katta Chitgaron - chit ishlab chiqaruvchilar, chit tayyorlovchilar yashagan qishloq.

G'adoni – غدانی Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida shu shaklda tilga olinadi. G'adud, g'udda so'zining fonetik o'zgargani deb faraz qilamiz. Qattiq narsa, jism, ehtimol ziroat erining ma'lum bir qismiga nisbatan qo'llanilgan.

Shakarobod – shakardek shirin va obod mavze. Toponim mazmunida joyning tabiiy o'rni va holati ifoda etilgan.

Yurqand – toponim hozirgi holatda biror ma'noni bermaydi. Taxminimizga ko'ra, Yorkend, ya'ni do'st qishloq so'zining buzib talaffuz qilinishi natijasida shakllangan atama.

Bo'lakiyon mahalla fuqarolar yig'ini

Bo'lakiyon – “bo'laklar, ajralib turuvchilar” degan ma'noni anglatadi.

Labi hovuz - hovuz bo'yi, hovuzning bo'yida joylashgan manzil.

Sariosiyoibolo – “yuqorida joylashgan osiyoboshi” ma'nosida.

Chaman – chamandek ko'rkam mavze. Toponim mazmunida joyning tabiiy ko'rinishi mujassam.

“Mahalla” nomli mahalla fuqarolar yig'ini

Bofandalar – “to'quvchilar” ma'nosini beradi.

Mug‘anak - mug‘lar, otashparastlar yashagan qishloqcha ma’nosida. “Mug‘” so‘zini Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” kitobida ishlatgan. Buxoro arkining “Darvozai g‘uriyon” deb atalgan sharqiy darvozasidan kiraverishda Siyovush qabri joylashgan. “Shu sababli Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarda mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo‘shiq qilib aytadilar. Qo‘shiqchilar uni “otashparastlar yig‘isi” (giry a mug‘on) deydilar”¹.

Xo‘jag‘oyib - mifologik avliyolarga nisbatan qo‘llaniladigan atama. Masalan “Xo‘ja G‘oyib ato” nomi bilan ataladigan qadamjolar viloyatning boshqa hududlarida ham uchraydi.

Mustaqillik mahalla fuqarolar yig‘ini

Oqtepa – katta tepa ma’nosida.

Poskati - پاسکتی Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida, shuningdek, 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da shu shaklda tilga olinadi. Bizningcha, “paskenti” atamasi negizida hosil bo‘lgan toponim bo‘lib, “pastdagi qishloq”, “pastda joylashgan qishloq” ma’nolarini anglatadi.

Chalaqazoq – etnik tarkibi to‘la qozoq bo‘lmagan, yarim qozoqlar yashagan manzil.

Qadim Qo‘shrabot - ikki rabotdan iborat mavzelarga nisbatan ishlatilgan atama.

G‘ovshun mahalla fuqarolar yig‘ini

G‘ovshun - غاوشون 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati”da uchraydi. Aslida “g‘ovshu”, “g‘ovash”, “g‘ovush” so‘zlari asosida tarkib topgan atama. Bodringning katta tuxumli navi g‘ovshu deb atalgan². Demak, bodringning shu xil navini yetishtirishga ixtisoslashgan ziroatkor qishloq.

Qumrabot – qumli rabot. Joyning tabiiy-geografik o‘rni va sharoitiga muvofiq shakllangan atama.

¹ Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Шарқ баёзи,1993. – Б. 28.

² Қаранг: Фарҳанги забони тоҷики (“Словарь таджикского языка”). В двух томах. Том 2. - Москва: Советская энциклопедия, 1969. – Б. 653.

Mirzayon mahalla fuqarolar yig'ini

Qo'rg'ontepa – Buxoro vohasida baland, mustahkam tepalar odatda shu nom bilan ataladi.

Ko'sarabot - etnotoponim. Urug' nomidan olingan. Qo'ng'irot, yuz, turkmanyuz kabi qabilalar tarkibida uchraydi. Shu qabila yashagan rabot.

O'rtarabot – atrof qishloqlarga nisbatan o'rtada joylashgan rabot, qishloq.

Qo'ng'irotobod - etnotoponim. Bu yerda “qo'ng'irotlar obod qilgan joy” ma'nosida kelmoqda. Qo'ng'irot urug'iga mansub aholi yashagan qishloq. Qo'ng'irotlar yirik o'zbek qabilalaridan biri. XIII asrda Chingizxon qo'shinlari bilan Movarounnahrda kelib o'rnatilganlar. XIV asrdan ularning butun O'rta Osiyo bo'ylab tarqalish jarayoni boshlandi. O'zbekistonning janubiy hududlari, Zarafshon, Xorazm vohalarida istiqomat qilishgan.

Mirzolar - mirzolar yashagan qishloq. O'tmishda har bir tumanning o'z amlokdorxonasi bo'lib, unda mirzolar kundalik xo'jalik hayotiga oid hujjatlarni rasmiylashtirishgan va markaziy devonga yuborishgan.

Biyosin mahalla fuqarolar yig'ini

Biyosun - بیاسون fors – tojik tilidagi biyo buyruq fe'li va sun so'zlari birikmasidan tashkil topgan toponim. Biyo – “kel”, sun – “taraf”, “tomon” ma'nolarini bildiradi. Yaxlit holda “shu tomonga kel” ma'nosi vujudga keladi. Toponim mazmunida shu qishloqqa kelishga da'vat mavjud.

Quyi Chorrabot - “quyida joylashgan to'rtrabot” ma'nosida.

Xonaqo – xonaqoga ega bo'lgan qishloq. Xonaqo ayrim me'moriy jihatlari bilan masjididan farq qilgan. Unda darvishlar istiqomat qilishi uchun hujralar bo'lgan.



Abduxoliq G'ijduvoniyy ziyoratgohi
Ulfatbibi mahalla fuqarolar yig'ini

Arablar – etnotoponim. Arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Bir tumanning o'zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrda kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrda yurishlari davrida Damashq va Bag'dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o'rinishib oldilar. Movarounnahrda sayyidlar va xo'jalar o'z kelib chiqishlarini arablar bilan bog'laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar – payg'ambar s.a.v. avlodlari sanalsa, ho'jalar – arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrda ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog'i yuqori bo'ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Arablar o'tgan asrning 60-70-yillarigacha o'z tillarini saqlab qoldilar. G'ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o'z ona tili – arab tilini unutganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo'lishidan qat'iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Bo'ldi - بولدى toponimi tarixiy mazmunga ega. XIX asrga oid Buxoro qushbegisi arxiv hujjatlarida qayd etiladi. Biror inshootning, yoki biror qishloqning bunyod etilganligini bildiruvchi atama sifatida ishlatilgan deb faraz qilamiz.

Denov – dehinav, ya’ni “yangi qishloq” ma’nosini anglatadi.

Katta Shayxlar – shayxlar yashab kelgan qishloq.

Sho’rrabot – sho’rlik yuqori bo’lgan mavzeda joylashgan rabot.

Xosakent - “xos, ya’ni alohida kishilar toifasi istiqomat qiladigan qishloq” ma’nosini beradi.

Xo’ja Mahalla - xo’jalar ijtimoiy tabaqasiga mansub aholi yashaydigan mahalla.

Navoboshi (Novaboshi) - suv oqishi uchun yog’och, taxta va boshqa mahsulotlardan ishlangan maxsus o’zan, tarnov. Shunday inshootga ega ariqning boshlanish qismida joylashgan qishloq.

Baqqollar mahalla fuqarolar yig’ini

Baqqollar – o’tmishda baqqollik bilan shug’ullan aholi yashagan qishloq.

Yusufbekkent - onoma toponim, ya’ni kishi nomi bilan ataladigan joy nomi.

Sharqiy Yangirabot – o’rta asrlarda yangi tashkil topgan rabotning sharqiy qismi.

Oqrabot mahalla fuqarolar yig’ini

Oqrabot – katta rabot ma’nosida.

Yangikent – “yangi qishloq” ma’nosida.

G’ishti mahalla fuqarolar yig’ini

G’ishti – o’tmishda imoratlarining aksariyati xom g’ishtdan qurilgan qishloq.

Qavali (Qavola) - “qavola” so’zi “notiq”, “hofiz” ma’nolarini anglatadi. Toponimga ma’no jihatdan qaraydigan bo’lsak, “qavola” atamasi qaysidir hofiz yashagan qishloqqa nisbatan qo’llanilgan degan fikrga kelish mumkin.

Mirzayon – o’tmishda mirzalar yashagan qishloq.

Nurafshon - “nur sochuvchi, nur taratuvchi” ma’nosida.

Armechan mahalla fuqarolar yig’ini

Qo’xna Shayxlar – o’tmishda shayxlar yashagan ko’hna qishloq.

Rabotoyim - turkiycha shakli “oyimrabot”. Ba’zan tepa, qo’rg’onlarga nisbatan “oyimtepa” atamasi ham qo’llanilgan.

Turkmanlar – etnotoponim. O’zbek turmanlari yoki Nurota turkmanlari. Yirik o’zbek urug’laridan biri. O’zbek turkmanlari keyingi ming yillik davomida Nurota tog’ etaklarida shakllangan. XI

asrda turkmanlarning asosiy qismi saljuqiylar harakati tufayli g'arbga siljigan. Kichik bir guruhi esa Nurota tog' etaklarida o'rtnashib qolgan. Bularning tarkibiga Zarafshon vohasida yashab kelgan o'zbeklar, Dashti Qipchoq o'zbeklari qo'shilgach, turkman nomi bilan yangi qabila birligi vujudga keldi.

Firishkent – qishloqqa nisbatan furushkent atamasi qo'llanilgan taqdirda, savdo-sotiq bilan shug'ullangan aholi yashaganligi ma'lum bo'ladi.

Chuqurak – qishloqning tabiiy joylashuviga nisbat berib qo'llanilgan atama.

Denov mahalla fuqarolar yig'ini

Kalbachkon – كول باچقان 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro'yxati”da, arab yozuvida ko'rsatilganidek, Ko'lbochqon tarzida qayd etilgan. Atama o'zagidagi ko'l so'ziga asoslanib, ushbu joyning ko'l bilan bog'likligi borligini ta'kidlash mumkin. So'z birikmasidagi “bochqon” so'zining ma'nosini topishning iloji bo'lmadi.

Denov – “yangi qishloq” ma'nosini beradi. Keng tarqalgan toponim.

Todon mahalla fuqarolar yig'ini

Todon - toponim “tudon” deb o'qilsa, ilk o'rta asrlardagi qishloq hukmdorlarining tituli tushuniladi. Toponim tarkibida sug'd tilining fonetik xususiyatlari mavjud.

Cho'g'alon mahalla fuqarolar yig'ini

Armijon - sarmijgon (سرْمِژگانن) atamasining buzib talaffuz qilinishi natijasida vujudga kelgan toponim deb hisoblaymiz. Sarmijgon “bosh mijja, bosh kiprik” ma'nolarini bildiradi.

Tilov - “tilamoq, istamok”, “tilab olingan manzil” ma'nosida.

Urganj mahalla – o'tmishda Urganchdan kelib qolgan aholi istiqomat qilgan mahalla.

Nasaf – Qashqadaryo vohasidagi qadimgi Nasaf shahriga taqlid tarzida qo'yilgan zamonaviy nom.

Turon – qadimgi Turon tarixiy-geografik atamasiga muvofiq berilgan zamonaviy nom.

Sarmijon mahalla fuqarolar yig'ini

Sarmijon – yuqorida ta'kidlanganidek, sarmijgon (سرْمِژگانن) atamasining buzib talaffuz qilinishi natijasida vujudga kelgan toponim

deb hisoblaymiz. Sarmijgon “bosh mijja, bosh kiprik” ma’nolarini bildiradi.

Oqgul – shu turdagi gullar makonini anglatuvchi atama.

Quy Mirzayon – o‘tmishda mirzalar yashab, yozish-chizish ishlari, ish yuritish hujjatlari bilan shug‘ullanishgan.

Qo‘hna Nayman - etnotoponim, qabila nomidan olingan. Mo‘g‘ulcha nayma, ya’ni “sakkiz” degan ma’noni bildiradi. Atama mamlakatimizning barcha hududlarida uchraydi. Naymanlar qabila sifatida o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, no‘g‘ay, oltoy xalqlari tarkibiga kirgan. O‘zbek naymanlari XIX asrda uch yirik urug‘ga bo‘lingan: qo‘sh tamg‘ali, sadirbek va uvoxtamg‘ali. Shuningdek, boshqa bo‘laklarga ham bo‘lingan.

Labiro‘d mahalla fuqarolar yig‘ini

Labiro‘d - “anhorning (rudning) labi, qirg‘og‘i”, shuningdek, rud, ya’ni “ariq labida joylashgan qishloq” ma’nosida.

Qorabosh – qoramtir to‘pgulli, yo‘g‘on poyali va ingichka, uzun-uzun keskir bargli ko‘p yillik o‘t. Shu turdagi o‘simlikzor atrofida yoki shu xil o‘simlik o‘sadigan yerda joylashgan qishloq. Atama boshqa tuman hududlarida ham uchraydi.

Rabotcha – kichik rabotga nisbatan ishlatilgan atama.

Shoxombek - onoma toponim. Kishi ismidan kelib chiqqan joy nomi.

Firishkent mahalla fuqarolar yig‘ini

Arobakashlar – o‘tmishda shu kasb bilan mashg‘ul aholi yashagan qishloq.

Angorgunji - toponimning birinchi komponenti, ya’ni angor so‘zi “atrofi o‘ralgan yer, qishloq” ma’nosini anglatadi. Ikkinchi qismi to‘g‘risida faqat taxminlarni o‘rtaga tashlash mumkin. Unga ko‘ra, gunji “kunjak” so‘zining buzib talaffuz qilinishidan hosil bo‘lgan. Umumiy ma’no “kunchakdagi, burchakdagi yoki chekkadagi qishloq”.

Varozin (ورازين) – varo so‘zi arabcha “orqa”, zin esa “egar-jabduq” ma’nolarini anglatadi. Bundan “orqa egar yoki egar orqasi” ma’nolari kelib chiqadi. Otlar uchun egar-jabduq yasovchi ustalar yashagan qishloq ahliga qarata ishlatilgan atama bo‘lsa kerak. Sug‘dcha var, ya’ni “qo‘rg‘on” atamasining ushbu toponimga aloqasi yo‘q deb hisoblaymiz.

Yangirabot - o‘rta asrlarda yangi tashkil topgan rabot.

Ispechandoq –qadimiy tepalar tuprog‘idan tandir yasash uchun tayyorlanadigan maxsus yopishqoq, sifatli loy Buxoro shevasida ispech deyiladi. Toponim tarkibida shunday loy tayyorlovchi ustalar istiqomat qilgan qishloqqa ishora mavjud. Bunday atama faqat Buxoroda qo‘llaniladi. Mashhur lug‘atlarda ham bu so‘z uchramaydi.

Mug‘alon - etnotoponim. Aslida “mo‘g‘ulon”, ya’ni “mo‘g‘ullar” bo‘lishi kerak. Mo‘g‘ul urug‘lari yashagan qishloq. Mo‘g‘ullar garchi Movarounnahr va boshqa hududlarni zabt qilgan bo‘lsalar-da, ijtimoiy-madaniy, ma’rifiy jihatdan mahalliy aholidan quyida turardilar. Ular tarafidan islomning qabul qilinishi, mahalliy aholining yozuv madaniyatini o‘zlashtirilishi ayrim mo‘g‘ul guruhlarining o‘troqlashuviga olib keldi. Ular hatto o‘z tillarini unutib mahalliy aholi bilan aralashib ketdilar. “Mo‘g‘ulon” atamasi toponim sifatida saqlanib qoldi.

Mang‘itonobod - birinchi komponent etnotoponim, urug‘ nomi hisoblanadi. “Mang‘it qabilalari obod qilgan joy” ma’nosida. Mang‘itlar istiqomat qilgan qishloq. Mang‘itlarning ajdodlari XIII asr boshlarida Mo‘g‘uliston hududida yashagan. XIII asr davomida Dashti Qipchoqqa kelib o‘rnashganlar. XIII-XIV asrlarda mang‘itlarning katta qismi Volga va Ural daryolari oralig‘ida joylashib oladi. Shu davr mobaynida qipchoqlar ta’siri ostida o‘z tillarini unutib turk-qipchoq tilini qabul qilishadi. Keyinchalik ular o‘zbeklar, qoraqalpoqlar va qisman qozoqlarning etnik tarkibiga kiradi. Mang‘itlar hozirgi O‘zbekiston hududiga XVI asrda ko‘chib o‘tadi va o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Ular Buxoro xonligining siyosiy hayotida katta mavqega ega bo‘lib, hukmron sulola darajasiga ko‘tariladi va 1753-1920-yillarda Buxoroni idora qiladi.

Mang‘itondiyor - “mang‘itlar diyori” ma’nosida.

Rabotqodir – Qodir nomli shaxsga tegishli, yoxud shunday ismli shaxs yashagan rabot, qishloq. Shaxs nomi bilan atalgan rabotlar vohaning boshqa hududlarida ham uchraydi.

Kesh – qadimiy Kesh shahriga taqlid tariqasida vujudga kelgan joy nomi.

Urganj eli - urganjiylarga nisbatan qo‘llanilgan.

Xinokoron - “xina ekuvchilar” ma’nosini beradi.

Xonsolor – خانسالار Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida shu tarzda tilga olinadi. Ma’nosi “rahnamo, rahbar xon”. Katta

amaldor istiqomat qilgan qishloq nazarda tutilib tarkib topgan atama deb o‘ylaymiz.

Shag‘olon - “shag‘ollar” ma’nosida. O‘tmishda atrofi chakalakzorlar bilan o‘ralgan va shag‘ollar yashashi uchun qulay bo‘lgan mavze.

Shilvon - shil deganda fors- tojik tilida ikki yoki uch parrakli kichik nayza yasovchi usta tushunilgan. Shilvon atamasi bu yerda shu kasb bilan shug‘ullanuvchilar yashaydigan qishloqqa nisbatan ishlatilmoqda.

Quyi Qalmoqlar – etnotoponim. Quyida yashovchi qalmoqlar (qalmiqlar). Qalmoqlarning bir qismi mo‘g‘ullar istilosi davrida O‘rta Osiyoga kelib qolgan va mahalliy aholi tarkibiga singib ketgan. Tarixiy hujjatlarda قلماق shaklida uchraydi.

Elobod – el-ulus tomonidan obod qilingan mavze.

Zargaron mahalla fuqarolar yig‘ini

Zargaron - “zargarlar” ma’nosini beradi. Zargarlik nozik kasb bo‘lgan. Ko‘pincha shaharda keng tarqalgan, lekin shahar arofidagi mavzelar ham bundan mustasno emas. Bu to‘g‘rida toponimlar muhim ma’lumot beradi.

Kudre – tojik tilidagi xudra so‘zining o‘zgargan shakli deb taxmin qilinsa, bu so‘z “begona, o‘z-o‘zidan unib-o‘sgan o‘t” ma’nosini bildiradi. Joyning tabiiy ko‘rinishi va holatiga nisbat berib tarkib topgan atama bo‘lishi mumkin.

Pinjuvon – toponimning birinchi so‘zi pin biror ma’noni anglatmaydi. Shuni inobatga olib uni panj, yani besh so‘zining o‘zgargan shakli deb hisoblash bir qadar o‘rinli. U holda atama “besh odam” ma’nosini bildiradi. Juvon so‘zi yoshi o‘rtadan pastroq, o‘smirdan yuqoriroq kishilarga nisbatan aytilgan.

Rabotiqambar – onoma. “Qambarning raboti, Qambar asos solgan rabot” ma’nosini beradi.

Sohibiyon mahalla fuqarolar yig‘ini

Palonze – پلان زه Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlari tarkibida uchraydi. So‘z birikmasidagi “zeh” qo‘shimchasi “kamon ipi”, “yoy ipi” ma’nosini bildiradi. Toponimning birinchi komponentini tashkil etuvchi “palon” so‘zini unga yaqin bo‘lgan falon so‘zining fonetik o‘zgargani deb hisoblaydigan bo‘lsak, “mustahkam kamon ipi yasovchi falon qishloq” ma’nosi hosil bo‘ladi.

Taxminimizcha, o‘tmishda bu qishloqda mustahkam kamon ipi yasovchi hunarmandlar yashagan.

Quyida Denov - “quyida joylashgan yangi qishloq” ma’nosida.

Sohibiyon - “sohiblar” ma’nosida. O‘z yerlarining, mulklarining sohiblari.

Sho‘rcha mahalla fuqarolar yig‘ini

Rome – ushbu atamani tojik tilidagi romeh (رامح) so‘zining qisqartma shakli deb qabul qilish bilan toponimning lug‘aviy va ijtimoiy ma’nosi ayonlashadi. Romeh “nayza otuvchi [mergan]” ma’nosini bildiradi. Joy nomi sifatida uchraydigan “merganlar” so‘zining tojik tilidagi ekvivalenti bo‘lishi mumkin.

Sho‘rcha – joyning tabiiy holatini, ya’ni tuprog‘i sho‘rligini ifoda etuvchi atama.

Yosman – xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotidagi Yosuman personaji asosida shakllangan toponim deb qisman taxmin qilish mumkin.

Qassobon mahalla fuqarolar yig‘ini

Qassobon – qassob so‘ziga fors-tojik tilidagi “on” ko‘plik qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan atama. Ma’nosi “qassoblar”.

Bog‘chag‘ozi - “g‘ozi, g‘oziy” (غازی, غازی) so‘zlari ikki xil ma’noga ega. Birovga “ovqat, quvvat beruvchi”, shuningdek, “g‘ayridinlarga qarshi kurashuvchi” ma’nolarini anglatadi. Bu yerda shu toifa kishilarning bog‘chasi ma’nosida kelmoqda.

Tashgaron - “ketmon yasovchilar” ma’nosini beradi.

Bog‘i orom - “orom oladigan bog‘”, “so‘lim maskan” ma’nosida.

Bo‘ktaroy mahalla fuqarolar yig‘ini

Labiro‘t - “anhorning (rudning) labi, qirg‘og‘i”, shuningdek, rud, ya’ni “ariq labida joylashgan qishloq” ma’nosida.

Sarmijon – sarmijon (سرْمِجَان) atamasining buzib talaffuz qilinishi natijasida vujudga kelgan toponim deb taxmin qilish mumkin. Unda toponim “bosh mijja, bosh kiprik” ma’nolarini bildiradi.

Qo‘rg‘on – o‘tmishda qo‘rg‘on, baland tepaliklar ustida aholi turar joylari qad ko‘tarib turgan. Davrlar o‘tishi bilan aholi ularni tashlab, yassi mavzelar, qishloqlarda yashay boshlagan. Qo‘rg‘onlarning muayyan qismi bizgacha yetib keldi va hozirgi

paytda arxeologik yodgorlik hisoblanadi. Ularga nisbatan ishlatilgan atama ham saqlanib qolgan.

Oqrabot – katta rabot ma’nosida.

Chorrabot – “to’rt rabotdan iborat mavze, qishloq” ma’nosida.

Talgundak - تل غنده toponimning birinchi komponenti arabcha “tall”, ya’ni “tepa” ma’nosini beradi. Gundak so’zi fors-tojik tilidagi g’unda- o’rgimchak so’zining fonetik jihatdan buzilgani hisoblanadi. Ikki so’z birikmasidan iborat ushbu toponim “g’undaktepa”, ya’ni “o’rgimchak tepa” ma’nosini bildiradi.

Quyi Qumoq - qum aralashib donador bo’lib qolgan yer sathi. Mavzening tabiiy-geografik o’rnini ifoda etuvchi toponim.

Bo’ktaroy – bo’ktar, bo’ktargi so’zlaridan yasalgan toponim. Bo’ktargi egarning orqasiga bog’lab qo’yiladigan lo’la yostiqla. Oddiy gazlamadan tikilgan va egarning tekis, mustahkam turishini ta’minlagan¹. Shu turdagi mahsulot yasash bilan shug’ullangan aholi yashagan qishloq.

Bobog’ozi – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi toponim.

Vazirshoh mahalla fuqarolar yig’ini

Bo’yrabof – “bo’yra to’quvchi”. O’tmishda hunarmandchilikning shu turi bilan mashg’ul bo’lgan aholi istiqomat qilgan qishloq.

Vazirshoh – onoma. Shaxs nomi bilan ataluvchi toponim. Shuningdek, o’tmishda shoh, hukmdor vazirining istiqomat manziliga qarata ishlatilgan toponim sifatida ham talqin qilish mumkin.

Galgochi – “galagovchi” atamasining fonetik transformatsiyaga uchragan ko’rinishi. Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida “galgochi” (گلگاجی) tarzida uchraydi. Ma’nosi “sigirlar to’dasi”. Bug’doy yanchishda bir-biriga matashtirilgan, ya’ni bo’ynidan ip o’tkazib bog’langan hayvonlar to’dasiga “galagov” deyilgan. Bu turdagi mehnat jarayoni mahalliy aholi tilida “ho’p” deb ataladi. “Ho’p”da eshaklardan ko’p foydalanilgan. Qishloq xo’jaligi texnikasi takomillashgandan so’ng, bunday mehnat tadbiri texnika vositasida amalga oshiriladigan bo’ldi. Hozirda unut bo’lib ketgan.

Rabotxo’ja – xo’jalar tabaqasiga mansub aholi yashagan joy, ya’ni rabot.

¹Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 407.

Qo'shqumboq – قوش قومباق 1926-yilda tuzilgan “Xalq turadigan joylarning ro'yxati”da qayd etilgan. Bizningcha, atama tarkibidagi “qumboq” so'zi “qumoq” ning fonetik o'zgarishga uchragan shakli. Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida bu so'z قوماق yoki قماق tarzida uchraydi. “Qumoq” atamasi donador qumli mavzega nisbatan ishlatilgan. Demak, “donador qumli joydagi ikki qishloq” ma'nosi ushbu atamaga mos.

Ko'shk mahalla fuqarolar yig'ini

Ko'shk - “qasr” ma'nosini beradi.

Naymandiyor - etnotoponim. Nayman qabilalari yashagan diyor. Mo'g'ulcha nayma, ya'ni “sakkiz” degan ma'noni bildiradi. Atama mamlakatimizning barcha hududlarida uchraydi. Naymanlar qabila sifatida o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, no'g'ay, oltoy xalqlari tarkibiga kirgan. O'zbek naymanlari XIX asrda uch yirik urug'ga bo'lingan: qo'shtamg'ali, sadirbek va uvoxtamg'ali. Shuningdek, boshqa bo'laklarga ham bo'lingan.

Naymanobod - etnotoponim. Nayman qabilalari obod qilgan joy.

Taxtaxon mahalla fuqarolar yig'ini

Dashtak - “dashtcha” ma'nosida. Toponim tarkibida dashtga tutash joydagi qishloqqa va uning joylashuv o'rniga ishora mavjud.

Rabothoji – hojilar yashagan qishloq.

Taxtaxon - turkiychaga o'girilsa, “xontaxta” ma'nosi kelib chiqadi.

Sarvari mahalla fuqarolar yig'ini

Sarvari - “sardor, etakchi, peshvo” ma'nolariga ega.

Dukiyon – dukilar. Duk yasovchilar ma'nosida.

Jiydazor – o'z vaqtida jiyda daraxti mo'l bo'lgan qishloq. Atama qishloqning hozirgi tabiiy holatiga mos kelmasa-da, toponim saqlanib qolgan.

Zaxkash – gidronim. Zax suvlarni tortuvchi zovur hududida joylashgan qishloq.

So'g'diyona – qadimda Zarafshon, Qashqadaryo vohalarini o'z ichiga olgan tarixiy-geografik hudud. Bu ko'hna zamin nomiga taqlid tariqasida zamonaviy turar joyga berilgan tarixiy nom.

Ustolar – usta –hunardmandlar qishlog'i.

Saydali – sayyidlar istiqomat qishloq deb taxmin qilish mumkin. Shuningdek, Saidali ismli shaxs nomi asosida shakllangan joy nomi tariqasida baholash ham o‘rinli.

Chitgaron - “chit to‘quvchilar” ma’nosida. O‘tmishda chitgarlik bilan mashg‘ul aholi yashagan qishloq.

Kalon mahalla fuqarolar yig‘ini

Boboxo‘ja – onoma. Shaxs nomini ifoda qiluvchi toponim.

Kalon - “katta qishloq” ma’nosida.

Sarvari - “sardor, yetakchi, peshvo” ma’nolariga ega.

Quyi Kalon - “quyida joylashgan katta qishloq” ma’nosida.

Tavariyon mahalla fuqarolar yig‘ini

Mirzoqilich - onoma toponim. Shaxs nomidan olingan.

Tovariyon – tabariyon so‘zining o‘zgargan shakli asosida hosil bo‘lgan toponim bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi. Tabar tojik tilidan olingan va bolta degan ma’noni anglatadi. Qishloq ahlining boltadek o‘tkir, toblangan, keskir bo‘lganiga ishora qilinadi.

Sariosiyoimiyona - “o‘rta tegirmonboshi, osiyoboshi,” ma’nosida.

Urganjidiyor - urganjiylar yashagan diyori.

Foyiq - onoma toponim. Somoniylar va g‘aznaviylar davrida faoliyat ko‘rsatgan sarkardaning nomi.

Charmgarlar - “charm ishlab chiqaruvchilar” ma’nosida.

Yangirabot - o‘rta asrlarda yangi tashkil topgan rabot.

Pozagari mahalla fuqarolar yig‘ini

Pozagari – پازہ گری yer haydash uchun ishlatiladigan sodda asbob – omochning uchiga o‘rnatiladigan cho‘yan tish – so‘qa Buxoro shevasida poza deyiladi¹. Shu turdagi mehnat quroli yasovchilar qishlog‘i.

Kekirtak– atamaning tarixiy deb hisoblashga asos bo‘ladigan narsa shuki, o‘tmishda u yoki bu joyning nomi uning tabiiy shakli, geografik holati bilan bog‘liq holda vujudga kelgan. Bu “kekirtak” toponimiga ham taalluqli.

Mullaliyon - mullalar yashagan qishlok ma’nosida.

Tohariston - Markaziy Osiyoda yashagan qadimiy qabilalardan birining nomi toharlar bo‘lgan. Qadimda hozirgi Surxondaryo viloyati

¹ Садриддин Айни. Куллиёт. Жилд 12. – Душанбе: Ирфон, 1976. – Б. 296.

hududining bir qismini o‘z ichiga olgan Tohariston davlati mavjud edi.

To‘qol - toponim ikki so‘z birikmasidan iborat deb hisoblansa, “to‘q qizil” ma’nosini beradi.

Xarchxona - savdo-sotiq, sarf xarajat bilan bog‘liq ishlar amalga oshiriladigan joy.

Pingon - “kosa, jom” ma’nolarini anglatadi. Toponim joyning geografik sharoitidan olingan, yoki kosa, jom yasovchi hunarmandlar yashagan qishloq bo‘lishi mumkin.

Qumoq mahalla fuqarolar yig‘ini

Qumoq - qum aralashib donador bo‘lib qolgan yer sathi. Mavzening tabiiy-geografik o‘rnini ifoda etuvchi toponim.

Andoqiyon – toponimning ma’nosi xususida bir necha fikrni ilgari surish mumkin. Jumladan, “Andoqiyon” fors-tojik tilidagi andakiyon (اندکيان), ya’ni kam, oz so‘zining turkiylashgan fonetik shakli bo‘lib, “ozchilikni tashkil qiluvchi qishloq ahli” degan ijtimoiy ma’no kasb etadi. So‘z o‘zagidagi and so‘zi fors-tojik tilida 3 dan 9 gacha bo‘lgan noma’lum sanoq sonlarni anglatadi. Shuningdek, toponim o‘zagiga yaqin andoy (اندای) so‘zi esa devor va tomlarni andava qilmoq, ya’ni ularga loy shuvamoq ma’nolarini bildiradi.

Xojagon tariqati asoschilaridan bo‘lgan Yusuf Hamadoniyning to‘rt murididan biri - Xoja Hasan Andoqiy shu qishloqdan bo‘lgan. Uning nisbasi shu qishloqda tug‘ilib o‘sganiga ishora qiladi.

Kelachi – etnotoponim. O‘zbek urug‘laridan birining nomi ekanligi taxmin qilinadi. Namangan viloyatining Pop tumanida ham shu nomdagi qishloq mavjud.

Karna mahalla fuqarolar yig‘ini

Osiyo - atama tegirmonli qishloqqa nisbatan qo‘llanilgan.

Karna – karona (کرانه) so‘zining qisqartma shakli deb faraz qilamiz. Ma’nosi “intiho”, “tugash”, “nihoya”. Demak, toponim mazmunida biror hududning chekkasida, tugallanayotgan qismida, oxirida joylashgan qishloqqa ishora mavjud. “Qarina” (قرینه) so‘zining buzilgan shakli sifatida talqin qilinsa, bu so‘z 1)“o‘zaro bog‘liqlik”, 2)“bir-biriga munosabat”, 3)“alomat”, ya’ni “belgi” kabi ma’nolarni anglatadi¹. Toponimning asl ma’nosini aniqlashda ushbu barcha etimologik jihatlar e’tiborga olinishi kerak.

¹ Қаранг: Садриддин Айни. Куллиёт. Жилд 12. – Душанбе: Ирфон, 1976. – Б. 513.

Ko‘mirjon - tarixiy hujjatlarda كمرجان “kamarjon” tarzida qayd etiladi. Kamarni eslatuvchi, kamarga o‘xshash qishloq.

Parxon - “parixon” so‘zining qisqa, o‘zgargan shakli.

Ko‘lhovli - ko‘ldek pastlikda yoki ko‘l atrofida joylashgan qishloq hovlilari ma’nosini bildiradi.

Soktari mahalla fuqarolar yig‘ini

Soktari – atama o‘zagidagi sokt so‘zi aslida tojik tilining Buxoro shevasidagi sokit (ساكت) so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli bo‘lishi kerak. Tar, tari so‘zi esa kuchaytiruvchi vazifasini bajaradi. Bunda Soktari atamasining Sokittari ko‘rinishidagi asl shakli hosil bo‘lib, “xomush”, “orom”, “ohista” ma’nolari kelib chiqadi va atamani qishloq ahlining fe‘l-atvori, turish-turmushini aks ettiruvchi toponim sifatida baholash imkonini beradi. “Soktari” atamasi aslida “Sad piri” so‘zining o‘zgargan shakli ekanligi va “yuzta pir, yuz ma’naviy ustoz yashagan qishloq” ma’nosini anglatishi to‘g‘risidagi talqinlar ham mavjud. Tariqat pirlaridan biri Mavlono Poyanda Soktaregi, shuningdek, atoqli adib Sadriddin Ayniy shu qishloqdan bo‘lishgan.



Sadriddin Ayniy tavallud topgan Soktari qishlog‘idagi eski masjid. Sadriddin Ayniy muzeyi

Tagiqo‘rg‘on - “qo‘rg‘on osti, qo‘rg‘onga yaqin joy” ma’nosida.

Sho‘robod – sho‘rxok mavzening obod joyga aylantirilishidan tashkil topgan qishloq.

Chorobod - “to‘rt tomoni obod joy” ma’nosida.

Mirakon mahalla fuqarolar yig‘ini

Mirakon – o‘tmishda mirlar, mahalliy hukmdorlar yashagan qishloq. Shuningdek, o‘rta asrlarda sayyid va xo‘jalarga qarata ishlatilgan taxallus. Buxoro shahrida ham shu nomdagi guzar mavjud bo‘lgan. Qadimiy toponimlardan biri.

Adoq - toponimning tabiiy geografiyasiga nisbatan qo‘llanilgan joy nomi. Suv tarmog‘i sohilida hosil bo‘lgan yulg‘unzorlar, bo‘sh yerlar adoq deyilgan. Adoq sahro yoki cho‘l emas, balki turli o‘simliklar bilan qoplangan, chorva uchun qulay va qishloq atrofida joylashgan mavze.

Obkena - “obi ko‘hna”, ya’ni “eski suv, eski ariq” ma’nosida.

Kundakor - “kunda ekuvchi” yoki “kunda qazuvchi, kundalarni qazib oluvchi” ma’nosida.

Chavandoz - chavandozlar yashagan qishloq.

Saidkent mahalla fuqarolar yig‘ini

Qazoqrabot - qozoqlar yashagan mavze.

Maroqand - “Maroqand” atamasi qadimiy Samarqandga nisbatan ham qo‘llanilgan.

Saidkent - “sayyidlar, ya’ni payg‘ambar avlodlari yashagan qishloq” ma’nosida.

Tarxanon mahalla fuqarolar yig‘ini

Balx - Afg‘onistondagi yirik shaharlardan biri ham shu nom bilan ataladi. Toponim Buxoro hududlariga tarqalgan.

Minglar – etnotoponim. Ming urug‘lari yashagan makon. Minglar XV asr oxiri va XVI birinchi yarmida Dashti Qipchoqdan Movarounnahrqa ko‘chib o‘tib, keyingi davrlarda xonliklar siyosiy hayotida faol ishtirok etadilar. Qo‘qon xonligida hukmron mavqega ega bo‘lishgan. Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm vohasiga keng tarqalgan.

Movarounnahr - qadimiy toponim. O‘rta asr arab geograflari tomonidan butun O‘rta Osiyo hududiga nisbatan ishlatilgan atama. Zamonaviy turar joyga berilgan tarixiy nom.

Xo‘jai Jahon - Abduxoliq G‘ijduvoniyniing diniy unvoni. Allomaning G‘ijduvon shahridagi maqbarasi joylashgan hudud aholi o‘rtasida shu nom bilan yuritiladi.

Qoraxoni mahalla fuqarolar yig‘ini

Ahmadxon - onoma toponim. Shaxs nomidan olingan.

Hunarmandlar – hunarmandlar yashagan qishloq.

Boylar – badavlat, o‘ziga to‘q xonadon vakillari istiqomat qilgan qishloq.

Do‘kkalar – duk to‘quv asbobi yasovchi hunurmandlar qishlog‘i.

Ko‘hna Oqrabot – katta rabotga ega bo‘lgan ko‘hna qishloq.

O‘rta hovli – ya‘ni o‘rta qishloq. Katta-qichik qishloqlarning o‘rtasida joylashgan manzil.

Olmazor mahalla fuqarolar yig‘ini

Yuqori Rabotcha – muayyan mavzening yuqorisida joylashgan qichik rabot, qishloqcha.

Qorabog‘ mahalla fuqarolar yig‘ini

Qorabog‘ – qora so‘zi o‘rta turkiy tilda “katta”, “ulug‘” degan tushunchalarni bildiradi. Ushbu tushuncha Qorabog‘ toponimiga qo‘llanilsa, “katta bog‘” ma‘nosi kelib chiqadi.

Mirishkor - “miri shikor”, ya‘ni “ovchilarning miri, amiri, boshlig‘i” ma‘nosida. Saroyda maxsus mirishkor lavozimi bo‘lgan. Turkiy qavmlardan birining nomi sifatida ham talqin qilinadi. Bunda atama etnonimga aylanadi. Vohaning boshqa hududlarida ham uchraydi.

Mirzohovli – mirzalar yashagan qishloq. So‘nggi o‘rta asrlarda har bir tumanda mahalliy ahamiyatga ega mirzaxonalar bo‘lgan.

Qumbosti – o‘tmishda qum ko‘chishi oqibatida qum ostida qolib ketgan qishloq.

Qo‘ng‘irot eli - etnotoponim. Qo‘ng‘irot urug‘iga mansub aholi yashagan qishloq. Qo‘ng‘irotlar yirik o‘zbek qabilalaridan biri. XIII asrda Chingizxon qo‘shinlari bilan Movarounnahrda kelib o‘rnashganlar. XIV asrdan ularning butun O‘rta Osiyo bo‘ylab tarqalish jarayoni boshlandi. O‘zbekistonning janubiy hududlari, Zarafshon, Xorazm vohalarida istiqomat qilishgan.

Qo‘riq mahalla fuqarolar yig‘ini

Qo‘riq – o‘zlashtirilmagan yer. Tabiatiga inson daxl qilmagan, havosi sof, suvi musaffo, sayr va ov uchun qulay yerlar qo‘riq hisoblangan. Shuningdek, o‘rta asrlarda hukmdor va uning oila a‘zolari dam olishi, ov qilishi uchun maxsus ajratilgan joy qo‘riq deyilgan.

Abbosxo‘ja - onoma toponim. Shaxs nomidan olingan.

Yavuzxo‘r - “yeb qo‘yuvchi yovuz” ma’nosida. Joyning noqulay tabiiy sharoiti nazarda tutilib tarkib topgan majoziy ma’noli atama.

Paxtaobod mahalla fuqarolar yig‘ini

Amirobod – “amir obod qilgan joy, amirning qishlog‘i, amirga qarashli yerlarda bunyod etilgan qishloq” ma’nosida. Buxoro viloyatining boshqa hududlarida ham uchraydigan toponim.

Arabsaydon - “arab ovchilari yoki ovchi arablar” ma’nosiga ega.

Ko‘krabot – yashil tabiatli qishloq ma’nosida.

Katta Mirishkor - “shikor amiri, ya’ni ovchilarning boshlig‘i” ma’nosida. Saroyda maxsus mirishkor lavozimi bo‘lgan. Turkiy qavmlardan birining nomi sifatida ham talqin qilinadi. Bunda atama etnonimga aylanadi. Vohaning boshqa hududlarida ham uchraydi.

Quyi Saydon - “quyida joylashgan ovchilar qishlog‘i” ma’nosini beradi.

Qalliq - mazkur toponim yuzasidan ikki xil versiyani ilgari surish mumkin. Birinchisi, ushbu toponim “qarluq” etnotoponimining buzilgan shakli bo‘lishi mumkin. Ikkinchisi, o‘z o‘rnida “qalliq” so‘zidan yasalgan.

Ayirtom mahalla fuqarolar yig‘ini

Ayritom - ایریتام tarixiy atama bo‘lib, O‘zbekistonning boshqa hududlarida ham uchraydi. Jumladan, Termizdan 18 km masofada joylashgan va kushonlar davriga oid dunyoga mashhur arxeologik yodgorlik Ayritom deb ataladi. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida ham Ayritom nomi bilan ataluvchi qishloq mavjud. Islomdan oldingi davr madaniyatidan bahs yurituvchi Surxondaryodagi Dalvarzintepa, Andijondagi bronza davriga oid Dalvarzintepa yodgorliklari bir nomdagi, lekin alohida-alohida tarixiy ob’yektlardir. G‘ijduvon tumanidagi **Ayritom** qishlog‘i nomi XIX asrga oid arab alifbosidagi tarixiy hujjatlarda uchraydi. Shu holatning o‘zi toponimning tarixiylikidan dalolat beradi.

Toshrabotcha – “toshqishloqcha”, “devorlari toshdan terib chiqilgan rabotcha” ma’nosini bildiradi.

Qumrabot saroy – qumloq mavzeda joylashgan rabotli saroy.

Toshloq mahalla fuqarolar yig‘ini

Devkent - “dev qishloq” yoki “katta qishloq” ma’nosida. Atama bu yerda majoziy ma’no kasb etadi.

Toshloq – joyning geografik holatini ifoda etuvchi toponim.

Yuqori Saydon - “yuqorida joylashgan ovchilar qishlog‘i” ma’nosini beradi.

G‘alaba mahalla fuqarolar yig‘ini

Boyxotin – o‘tmishda yashab o‘tgan badavlat ayolga nisbat berib tarkib topgan toponim.

Bog‘i Dilkusho - “ko‘ngilni ochuvchi bog‘” ma’nosida. Xushmanzara, so‘lim mavzelarga nisbatan qo‘llaniladigan atama.

Charmgaron - charm ishlab chiqaruvchilar yoki unga ishlov beruvchilar yashagan qishloq.

Rabotiqozi - “qozining raboti, ya’ni qo‘rg‘oni, saroyi” ma’nosida.

Rabotixo‘ja - “xo‘janing raboti, ya’ni qo‘rg‘oni, saroyi” ma’nosida.

Havzak mahalla fuqarolar yig‘ini

Darsozlar - “eshik yasovchilar” ma’nosida. hunarmandchilikning shu sohasi bilan mashg‘ul bo‘lgan aholi manzili.

Mazoriagasak – toponim tarkibida so‘g‘d tili elementlari uchraydi. Ikki komponentli bu atama “saklar, sak qabilalari mazori” degan ma’noni bildirishi to‘g‘risidagi taxmini o‘rtaga tashlash mumkin.

Katag‘an - etnotoponim. O‘zbeklar tarkibidagi yirik qabila. Qashqadaryoning yuqori va quyi oqimlarida, Buxoro vohasi, Xorazm, Farg‘ona va Toshkent vohalarida yashagan. Qatag‘onlar bir necha urug‘larga bo‘lingan. Dastlab asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lsa-da, asrlar davomida mahalliy aholi ta’siri ostida o‘troqlashib, dehqonchilikka o‘tgan.

Yuqori Havzak - “yuqorida joylashgan hovuzcha” ma’nosida.

Xo‘jalar eli – o‘tmishda xo‘jalar tabaqasiga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq.

Havzak - “hovuzcha” ma’nosida. Kichik hovuzga monand qishloq.

Qisqacha xulosa

G‘ijduvon azaldan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo munosabatlari rivojlangan hudud bo‘lgan. Abduxoliq G‘ijduvoni nash‘u namo‘ topgan bu tabarruk maskan va u yerdagi ziyoratgoh necha asrlardan beri xalqimizning ma’naviy ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. G‘ijduvon kulollar yurti. G‘ijduvon kulolchilik maktabi

vakillari kulolchilik an'analarini davom ettiribgina qolmay, uni kelajak avlodlarga etkazish borasida ham yangi-yangi loyihalarni amalga oshirmoqdalar. Tuman hududidagi tarixiy toponimlar bu yerda qadimdan diniy ulamolar, adiblar, dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, turkiyzabon va forsiyzabon qavmlarga mansub aholi istiqomat qilganligidan guvohlik beradi.

Tayanch soʻz va iboralar: ishora, makon, ma'no, shakl, qisqacha tarix, Qoratogʻ tizmasi, choʻl zonasi, tarixiy asarlar, ma'naviy-ma'rifiy qoidalar, me'moriy obidalar, tariqat sarhalqasi, Yetti pirlar ziyorati, erkin iqtisodiy hudud, kasbiy mashgʻulot, ziroatkor qishloq, oʻzgargan koʻrinish, etnik tarkib, atama oʻzagi.

Savol va topshiriqlar

1. Gʻijduvon atamasining lugʻaviy maʼnosi xususida qanday talqinlar mavjud?
2. Keyingi toʻrt yilda tuman ijtimoiy-madaniy hayotida sodir boʻlgan muhim ijobiy oʻzgarishlar nimalardan iborat?
3. Gʻijduvon shahridagi mahallalar nomi qanday maʼnolarni ifoda etadi?
4. Gajdumak atamasining asl maʼnosi toʻgʻrisida oʻz fikr-mulohazalaringizni bildiring?
5. Ayritom toponimi mamlakatimizning yana qaysi hududlarida uchraydi?
6. Suv boʻyidagi yulgʻunzorlardan iborat hududga nisbatan qanday atama qoʻllanilgan?
7. Mashhur adib tavallud topgan qishloq nomini aniqlang?
8. Tuman hududidagi etnik nomlarga ega qishloqlar roʻyxati va xaritasini tuzing?
9. Oʻzingiz yashayotgan koʻcha, mahalla, qishloq nomining maʼnosi va tarixi toʻgʻrisida qisqacha axborot tayyorlang?

Glossariy (izohli lug‘at)

- Agiografik adabiyot** – din, xususan tasavvuf namoyandalari faoliyatini aks ettiruvchi manbalar
- Amlokdorlik** – o‘rta asrlarda tuman hududlarida joylashgan soliq mahkamasi
- Arbob** - o‘rta asrlarda ariqlar, anhorlar tozaligini nazorat qilib boruvchi amaldor
- Arxaik so‘z** – uzoq o‘tmishga oid, eski, eskirgan, iste‘moldan chiqqan so‘z
- Atama** – nom, istiloh
- Afsonaviy shaxs** – real hayotda mavjud bo‘lmagan, voqelikdan tashqaridagi shaxs. Xalq eposlarida ko‘proq tilga olinadi
- Buxoro shevasi** – o‘zbek va tojik tillarining og‘zaki nutqda ko‘proq namoyon bo‘ladigan Buxoroga xos tarmog‘i
- Buxorxudotlar** – VI – VIII asrlarda Buxoroni idora qilgan mahalliy sulola
- Daxma** – qabr, sag‘ana. Ko‘pincha pishiq qilingan maxsus dafn joyi.
- Devonxona** – o‘rta asrlarda vazirlar mahkamasi
- Del’ta** – daryoning dengiz yoki ko‘lga quyilish joyida suvda oqib kelgan jinslardan hosil bo‘lgan tekislik
- Diniy-ma‘rifiy binolar** – masjid, madrasa, xonaqoh, minora kabi binolarni anglatuvchi ibora
- Diniy taxallus** – shayxlarning diniy taxallusi. Sayfiddin Boharziyning diniy taxallusi “shayx ul-olam”, Abduxoliq G‘ijduvoniyniki “Xojai jahon” bo‘lgan.
- Ekoturizm markazi** – tabiat qo‘ynida barpo etilgan sayyohlik markazi
- Eski hovli** – o‘rta asr me‘morchiligi uslubida qurilgan turarjoy
- Etimologiya** – so‘zning manbai, kelib chiqishi
- Etnografik hudud** – eski shaharlarning aholi istiqomat qiladigan YUNESKO ro‘yxatidagi qismi
- Eponim** – buyuk shaxslar nomi asosida tarkib topgan turdosh otlar
- Etnotoponim** – urug‘, qabila nomi bilan ataladigan joy nomi
- Fiqh ilmi** – musulmon qonunchiligiga oid bilimlar yig‘indisi. Islom dini, shariat qonun-qoidalari haqidagi fan
- Fiqhshunos** – qonunshunos, islom qonunshunosi

Gidronim – ariq, soy, daryo, ko‘l va umuman suv bilan bog‘liq inshootlarni bildiruvchi joy nomi

Geografik o‘rin – biror-bir hudud, kichik mavzening tabiiy joylashuvi

Hind harir matosi – Hindistondan keltirilgan yupqa, nozik gazlama, doka ro‘mol

Hofiz – Qur‘onni yodlab olgan va uni xush, yoqimli ovoz bilan tilovat qiluvchi kishi

Hudud – chegara, had. Ma‘lum chegaraga ega bo‘lgan, chegara bilan o‘ralgan yer

Ibtidoiy dehqonchilik – dehqonchilikning ilk ko‘rinishlari, jumladan, daryo sohillari bo‘ylab amalga oshirilgan dehqonchilik ishlari

Ibtidoiy madaniyat manzilgohi – ibtidoiy odamlar yashagan hudud. U erdan topilgan mehnat qurollari, xo‘jalik buyumlari, taqinchoq va boshqa ashyolar ibtidoiy madaniyat darajasidan guvohlik beradi.

Ijtimoiy imtiyoz – tabaqalashgan o‘rta asrlar jamiyatida muayyan imtiyozlarga, jumladan, soliq, harbiy imtiyozlarga ega bo‘lmoq

Ijtimoiy qatlam – o‘rta asr jamiyatida ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-kori, diniy va fuqarolik lavozimiga qarab tabaqalashtirish

Ilohiyot nazariyasi – diniy, jumladan, islomiy ilmlar nazariyasi

Iste‘moldan chiqmoq – biror so‘z yoki iboraning unutilishi, og‘zaki va yozma nutqda undan foydalanmaslik

Ixtisoslashgan guzarlar – hunarmandchilikning muayyan turi bilan shug‘ullanuvchi aholi yashagan shahar mahallalari

Ixtisoslashgan qishloq – hunarmandchilik, shuningdek, dehqonchilikning muayyan turi bilan shug‘ullanuvchi aholi yashagan qishloq

Jo‘gi – Buxoroda mahalliy lo‘lilarga nisbatan qo‘llaniladigan atama

Kuhandiz – qal‘a, ark

Ko‘pkari – uloq. O‘rta asrlarda shakllangan mahalliy ot sporti

Ko‘chki – tosh, tuproqning tog‘dan ko‘chib, nurab tushadigan uyumi

Ko‘shk – o‘rta asrlarda shahar tashqarisidagi qasr, dalahovli

Mavze – joy, o‘rin. Shahar va atrofidagi aholi yashaydigan joylarning kichik hududi

Madaniy zona – dehqonchilikka moslashgan hudud

Majoziy ma‘no – ko‘chma ma‘no

Maishiy soha – turmush, xo‘jalik hayotiga oid soha

Makon – istiqomatgoh, yashash joyi, vatan

Manzil – turarjoy, uy, xonadon. Yo‘lning bir to‘xtash joyidan ikkinchi bir to‘xtash joyigacha bo‘lgan masofa

Maskan – yashaydigan joy, o‘rin

Masnaviy – qo‘shaloq, ikkilik, ikki misrali she‘r shakli. Har bir baytning misralari o‘zaro qofiyadosh va baytdan baytga qofiyalar yangilanib boradi

Maqom bermoq – mavqe, daraja, martaba bermoq

Maqomot – shayxlarning tarjimai holi, karomatlari, ma‘naviy jasoratlari bayon etilgan asarlar. Tasavvuf adabiyoti janrlaridan biri

Mahalla ahli – u yoki bu mahallada istiqomat qilgan aholi

Mirza – o‘rta asrlarda yozuv-chizuv ishlarini olib borgan lavozimli shaxs, kotib

Me‘moriy majmua – bir necha obidalardan iborat me‘moriy yodgorlik yig‘indisi. Masalan, Registon, Sulton Saodat, Poyi kalon, Chorbakr, Labihovuz va hokazolar

Mehtar – Buxoro amirligida moliyaviy ishlarga mas‘ul amaldor

Mirzaxona – hukmdorlar saroyida kotiblar yozuv-chizuv ishlarini olib boradigan idora

Mifologiya – afsona, rivoyat, miflar haqidagi fan

Muazzin – azon aytuvchi, musulmonlarni ibodatga chiqiruvchi shaxs

Mudofaa devorlari – o‘rta asrlarda shaharni muxolifdan himoya qilish uchun barpo etilgan baland paxsa devor

Muzofot – viloyat. Hududi katta bo‘lgan ma‘muriy birlikka nisbatan qo‘llaniladigan atama

Murakkab rel‘yef – yer sirtida tabiiy yoki sun‘iy ravishda hosil bo‘lgan har xil murakkab notekisliklar – past - balandliklar

Murid – tasavvufda o‘z ma‘naviy ustozini – piriga ergashuvchi shaxs

Mulki xolis – o‘rta asrlarda soliqlardan ozod qilingan mulklar, yerlar

Musulmon manbalari – Qur‘on, hadis, fiqh va boshqa aqidaviy hamda huquqiy masalalarga oid asarlar, shuningdek, o‘rta asr arab mualliflarining tarixiy-geografik asarlari

Mutasavvuf shoir – tasavvuf mavzusida she‘r bitgan shoir

Mo‘‘jaz qishloq – aholisi ko‘p bo‘lmagan, hududi kichik qishloq

Nekropol – o‘lik, kimsasiz shahar, qadimgi qabriston, qabristonga aylantirilgan tepalik

Otashparastlar – o‘tga, olovga sig‘inuvchilar

Pir – tasavvuf ta‘limotida muridlarga ma‘naviy rahnamolik qiluvchi, ularni hidoyatga chorlovchi komil shayx, diniy rahnamo

- Poselenie** – kichik aholi maskani, istiqomatgoh, qarorgoh
- Qabila** – urug‘-aymoq, bir ota-onadan tarqagan avlod, etnik birlik
- Qabila uyushmasi** – bir ota-onadan tarqagan bir necha guruh uyushmasi
- Qadamjo** – avliyolar qadami tekkan joy. Ziyorat uchun boriladigan, muqaddas deb sanaluvchi joy, ziyoratgoh
- Qasaba** – shaharga o‘xshash katta qishloq, kichik shaharcha
- Qit‘a** – parcha, bo‘lak, qism, she‘riy parcha. Sharq mumtoz she‘riyatida keng tarqalgan, ikki yoki undan ortiq juft misralari o‘zaro qofiyalangan baytlardan iborat janr
- Qishloq** – aholisi asosan qishloq xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi joy, maskan
- Qora** - katta
- Qo‘riq** – ekishga yaroqli bo‘sh yotgan yerlar. Shuningdek, ekinlari qo‘riqlab turiladigan yer maydoni
- Qo‘rchi** – hukmdor, yoki yuqori amaldorning shaxsiy qo‘riqchisi
- Rabot** – atrofi devor bilan o‘ralgan qishloq
- Ramziy qabr** – aziz avliyoning qadami tekkan yerda joylashgan qabr. Bunday qabrlarda avliyo sanalgan shaxsning jasadi mavjud bo‘lmasa-da, qabr muqaddas hisoblangan
- Rux** – metall turi
- Sayyidlar** – Muhammad payg‘ambar s.a.v. avlodlari. Ular o‘rta asrlarda alohida hurmat va e‘tiborga sazovor bo‘lishgan
- Sardoba** – suvi doimo sovuq holda turadigan pishiq g‘ishtli va gumbazli hovuz
- Sarhalqa** – tariqat rahnamosi, shayx. Jahriya tariqatida zikr payti o‘rtada turib jarayonni boshqaradigan kishi
- Siyosiy agentlik** – Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi vakolatxonasi. Kogon shahrida joylashgan
- Sizot suv** – yer osti sho‘r suvlari
- Sunniy mazhab** – Qur‘on bilan birgalikda sunna(t)ni ham imon-e‘tiqod manbai deb tan oluvchi islomiy yo‘nalish. Islomning keng tarqalgan, jumladan, Markaziy Osiyoda keng yoyilgan asosiy yo‘nalishlaridan biri
- So‘z birikmasi** – ikki so‘zning qo‘shilishi asosida tarkib topgan yagona bir so‘z
- Tabaqa** – qatlam. O‘rta asrlarda o‘z iqtisodiy, huquqiy mavqelari bilan farq qiladigan kishilar ijtimoiy guruhi

- Tabiiy holat** – muayyan joy yoki hududning o‘ziga xos tabiiy xususiyatlari va ko‘rinishi
- Tazkira** – zikr etmoq, eslamoq. Shoirlarning hayoti va ijodi, shuningdek, shayxlar hayoti haqida ma’lumot beruvchi, she’rlardan namunalar keltirilgan asar
- Tarji’band** – qaytarish. Mumtoz adabiyotdagi lirik janrlardan biri. Tarji’band g‘azal usulida qofiyalangan bandlar zanjiridan iborat. Har banddan so‘ng bir bayt xuddi naqorat kabi aynan takrorlanadi
- Tarixiy topografiya** – yerning sathi va undagi aholi punktlari, ya’ni hovli va guzarlarning tarixan qay tarzda joylashganligi. Shuningdek, shahar hududining tarixiy joylashuvi, ko‘chalar yo‘nalishi
- Tarixiy ko‘chalar** – qadimiy shaharlar hududida joylashgan ko‘chalar
- Tarixiy hudud** – qadimiy shaharlarning tarixiy qismi
- Tariqat** – yo‘l, usul. Tasavvuf yo‘li. O‘rta asrlarda Xojagon-naqshbandiya, Yassaviya va Kubraviya tasavvuf tariqatlari ijtimoiy-ma’naviy hayotda etakchilik qilgan
- Tasavvuf adabiyoti** – maqomot, tazkira, manolib kabi janrlarni o‘z ichiga olgan adabiyot
- Tasavvuf ahli** – tasavvuf amaliyoti qoidalariga rioya qiluvchi xos kishilar
- Tektonik burmalar** – Yer qobig‘ining harakati va uning o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan burmalar
- Tipo-litografiya** – tipografik va litografik, ya’ni toshbosma usulida kitob chop qilish. Turkiston o‘lkasiga XIX asr ikkinchi yarmida kirib kelgan
- Topografik o‘zgarish** – davr o‘tishi natijasida shahardagi eski hovli va guzarlar tarixiy joylashuvida yuz bergan o‘zgarishlar
- Toponim** – joy, geografik ob’jekt nomi
- Toponimika** – ma’lum bir joyga oid geografik nomlar majmui
- Toponimik ob’ekt** – muayyan nomga ega bo‘lgan geografik ob’jekt
- Toponimik yodgorlik** – tarixiy nomga ega geografik ob’jekt – shahar, qishloq, mahalla, ko‘cha, guzar
- Totem** – ibtidoiy odamlarda diniy ehtirom ob’yekti sifatida ilohiylashtirilgan hayvon, o‘simlik, buyum
- Tug‘** – bayroq. Musulmonlarning yog‘och dastaga o‘rnatilgan qo‘tos, ho‘kiz yoki ot dumidan va yarim oy tasviridan iborat bayroqsimon belgisi

Urug‘ – bir ota-bobodan, bir ajdoddan kelib chiqqan kishilar guruhi, avlod

Vaqf hujjati – diniy muassasalarga qarashli vaqf mulklariga egalik qilish huquqi aks etgan va muhr bilan tasdiqlangan hujjat

Vobkentdaryo – Zarafshon daryosining Vobkent shaharchasi yaqinidan oqib o‘tuvchi yirik irmog‘i

Vodiy – oqar suvlarning yuvib ketishidan vujudga keladigan uzunasiga cho‘zilgan egri-bugri soylik

Voha – cho‘l va chala cho‘llarda obod qilingan, namlik darajasi ko‘p bo‘lgan yer

Xalifa – shogird, o‘rinbosar, noib. O‘rta asrlarda musulmon davlatining diniy va dunyoviy boshlig‘i, ruhoniylar hukmdori

Xalq qo‘zg‘oloni – o‘rta asrlarda xalqning noroziligi oqibatida sodir bo‘lgan ommaviy harakat, chiqish

Xatib – juma va hayit namozi paytida masjidida xutba o‘qiydigan, va‘z aytadigan imom, voiz

Yarim o‘troq – dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi xo‘jalik hayotini anglatuvchi tarixiy ibora

Zardushtiylik – otashparastlik. Mamlakatimiz, jumladan, Buxoro vohasi aholisining imlomdan oldingi asosiy diniy e‘tiqodi

Ziyoratgoh – avliyolar, tariqat pirlari, mashhur shayxlar qabrlari joylashgan manzil

Ziroatchilik – dehqonchilik va uning turli ko‘rinishlari

O‘zakdosh – asl ma‘nolari bir-biriga o‘xshash so‘zlar

O‘lkashunos – o‘lkani o‘rganuvchi

O‘troq dehqonchilik – asosiy mashg‘uloti dehqonchilik hisoblangan o‘troq aholiga nisbatan qo‘llaniladigan tarixiy ibora

Shahar xarobasi – arxeologik yodgorlikka aylangan qadimiy shahar qoldiqlari, xarobalari

Shahriston – o‘rta asr shaharlarining aholi yashaydigan, mudofaa devorlari bilan qurshab olingan asosiy qismi, markazi

Sheva – umumxalq tilining ma‘lum hududga xos tarmog‘i, mahalliy til

Sho‘rxok – sho‘r tuproq, sho‘r bosgan yer

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz (uzbek va rus tillarida). –Т.: O‘zbekiston, 2016.

2. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak (o‘zbek va rus tillarida). –Т.: O‘zbekiston, 2017.

3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Т.: O‘zbekiston, 2017.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ” сўзи” газетаси, 2020-йил 30-декабрь.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 11 сентябрдаги “Бухоро шаҳрининг тарихий қисмидаги маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш масалалари тўғрисида”ги 191-сонли қарори.

6. Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома (Ал-Ансоб) / Таржимонлар Ҳожи Абдулғафур Раззоқ Бухорий, Комилжон Раҳимов. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2003.

7. Абдурахман-и Тали. История Абулфейз-хана / Перевод с таджикского, предисловие и примечания А.А.Семенова.- Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1959.

8. Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. Мерос серияси. - Тошкент: Камалак, 1991.

9. Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993.

10. Альмеев Р., Махмудов К. “Зандани” тепалиги, “Занданичи” матоси маданий меросини асраш ҳамда туризмни ривожлантириш. – Бухоро: Бухоро вилоят босмахонаси МЧЖ нашриёти, 2019.

11. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (Кремль) Бухары в конце XIX - начале XX вв. – Душанбе: Дониш, 1972.

12. Анке фон Кюгельген. Легимитация среднеазиатских династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв). – Алматы: Институт Востока Германского Восточного общества, 2004.

13. Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. -Т.: Ўқитувчи.1994.

14. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Ахметова Ш.С. Историческое краеведение в Казахстане: учебное пособие. – Алма-Ата, 2012.

2. Альмеев Р, Махмудов К. Қадимги Мағок жумбоқлари. – Бухоро: Yoqub Dovud босмахонаси, 2020.

3. Аширов А. Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент: Akademnashr, 2020.

4. Ахмедов С. Жиззах вилояти топонимларининг семантик хусусияти. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд – 2019.

5. Ахмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик (ўқув кўлланма). - Фарғона – 2018.

6. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. в 9-томах. Т.1. - Москва: Наука, 1963.

7. Бартольд В.В. Статьи из «Энциклопедии ислама». Гиждуван. Соч. в 9-томах. Т.3. - Москва: Наука, 1965.

8. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Соч. в 9-томах. Т.2. Часть 1. - Москва: Наука, 1963.

9. Бақоев М. Гиждувоннома. – Тошкент, 2001.

10. Бўриева Х. Тошкент шахрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бошлари) – Тошкент: Noshirlik yog’dusi, 2009.

11. Выборова И.В., Распопина А.А., Распопина И.А. Иркутское краеведение: основы экскурсионной работы: учебно-методический материал. – Иркутск: БГУЭП, 2008.

12. Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии. – Москва: Наука, 1983.

13. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.

14. Жураев Ш. Сокровищица рукописей Бухарского музея: магистерская диссертация (научный руководитель Х.Тураев). - БухГУ, кафедра истории Бухары, 2020.

15. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи тарих фанлари доктори, профессор Ш.С. Камолитдин. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти, 2011.

16. Иванов П.П. Хозяйство Джуйбарских шейхов. – Москва – Ленинград: Изд-во АН СССР, 1954.

17. Йўлдошев Н. Бухородаги айрим авлиёлар тарихи. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1993.

18. Кличев О.А. Россия императори сиёсий агентлиги ва Бухоро амирлиги ўртасидаги ёзишмалар Россия-Бухоро муносабатлари тарихини ўрганиш манбаси. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати (илмий раҳбар Х.Тўраев). – Тошкент, ЎЗР ФА Шарқшунослик институти, 2018.

19. Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абу-л-Гази хана хивинского. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1958.

20. Корнилов Г.Е. Историческое краеведение Урала: учебное пособие. – Екатеринбург: Уральский государственный университет, 2015.

21. Матюшин Г.Н. Историческое краеведение: учебное пособие. – М.: Просвещение, 1987.

22. Мақсудов Р, Ражабов Қ. Қизилтепа тарихи. – Тошкент: Tamaddun, 2015.

23. Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк / Солих Муталлибов таржимаси асосида нашрга тайёрловчи Қосимжон Содиков. – Тошкент: Фафур Ғулом нашриёт- матбаа ижодий уйи, 2017.

24. Махмудов Б., Бердиев М. Луғати мухтасари лахжаҳои Бухоро. – Душанбе: Дониш, 1989.

25. Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перевод с таджикского с примечаниями А.А.Семенова. – Ташкент: Изд-во АН Уз ССР, 1957.

26. Мухаммад Насриддин ал-Ханафи ал-Хасани ал-Бухари. Тухфат аз-заирин / Перевод, предисловие, комментарии Х.Тураева. – Ташкент: Французский институт исследований Центральной Азии (IFEAS), 2003.

27. Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри 2500 ёшда. - Тошкент: Фан, 1998.

28. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

29. Населённые пункты Бухарского эмирата (конец XIX - нач. XX вв). Материалы к исторической географии Средней Азии. Под редакцией А.Р. Мухаммеджанова. -Ташкент: Университет, 2001.

30. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Мухаррир, 2009.

31. Некрасова Е.Г. Архитектурные памятники Бухарского оазиса. Чашма-и Аййуб. – Ташкент: Изд-во Baktria press, 2019.

32. Неъматов Б. Бухоро миллий меъморчилиги – шаҳарсозлик маданиятининг таркибий қисми: битирув малакавий иш. БухДУ Бухоро тарихи кафедраси, 2019.

33. Низомов А., Раҳимова Г., Расулова Г. Топонимика (ўқув кўлланма). - Тошкент: SHARQ нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2013.

34. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.

35. Равшанов Ў. Шарқ ва Европа мамлакатлари тарихини ўрганишда Бухоро музейи материалларининг аҳамияти: магистрлик диссертацияси (илмий раҳбар Ҳ.Тўраев). - БухДУ, Бухоро тарихи кафедраси, 2018.

36. Ражабов Қ., Бобомуродов К. Шофиркон тумани тарихи. (Қисқача маълумотнома). – Тошкент : Tafakkur нашриёти, 2015.

37. Ражабов Қ., Мухаммаджонова Л. Ромитан тумани тарихи. (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2015.

38. Ражабов Қ., Раҳмонов К. Вобкент тумани тарихи. (Қисқача маълумотнома) – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2015.

39. Ражабов Қ., Жамолова Д. Когон тумани тарихи. (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2015.

40. Ражабов Қ., Рашидов У., Рашидов О. Ғиждувон тумани тарихи. (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2015
41. Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2016.
42. Раҳматова С., Қурбонов Ҳ. Бухоро гузарлари тарихидан лавҳалар. – Бухоро : Бухоро нашриёти, 1995.
43. Раҳмонов Т. Қизбиби – Ҳазрат Оғойи Бузург. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт- матбаа бирлашмаси, 2017.
44. Ризаев Ҳ., Олимов С., Гадоев Қ., Тўраев Ҳ., Олимов М. Вобкент тумани. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳадак мероси нашриёти, 2002.
45. Ризаев Ҳ. Вобкентнома. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2007.
46. Садриддин Айни. Куллиёт. Жилд 12. – Душанбе: Ирфон, 1976.
47. Сайфиддин Сайфуллох. Буюклар ҳалқаси (Олтин силсила валийлари) . – Тошкент: Noshirlik yog’dusi нашриёти, 2011.
48. Солиев Б. Қоровулбозор тумани: ўтмиш, бугун ва келажак чорраҳасида. Тошкент: Tafakkur нашриёти, 2013.
49. Сухарева О.А. Квартальная община Бухары.- Москва: Наука, 1976.
50. Тураев Х. Регесты актов по истории феодального института танха в Западной Бухаре. – Ташкент: Узбекистон, 1991.
51. Тураев Х. Роль Джуйбарских ходжей в общественно – политической и духовно- культурной жизни Бухарского ханства XVI-XVII веков. Автореферат диссертации доктора исторических наук. – Ташкент, ИВАН РУз, 2007.
52. Туробов А. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд – 2016.
53. Тўраев Ҳ. Вобкент – тарихий манбаларда // “Шарқшунослик” журнали. – Тошкент, 1992. - №3. – Б. 17-21.
54. Фарҳанги забони тоҷики (“Словарь таджикского языка”). В двух томах. - Москва: Советская энциклопедия, 1969.
55. Халқ турадиган жойларнинг рўйхати. Ўзбекистон марказий районлаштириш комиссияси нашри. Самарқанд, 1926-йил / Кириш сўзи, араб алифбосидан таъдил ва айрим изоҳлар муаллифи Ахтам Аҳмедов. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2017.

56. Хожа Абдулхолик Гиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний / Таржимон, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари Сайфиддин Сайфуллох, Нодирхон Ҳасан. – Тошкент : Янги аср авлоди, 2005.

57. Чехович О.Д. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве.- Ташкент: Издательство АН Уз ССР, 1954.

58. Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Ташкент: Фан, 1965.

59. Юсуф Қурбоний, Азизаи Мардон. Зиробод. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2014.

60. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.

61. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.

62. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Учинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007.

63. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008.

64. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Бешинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008.

65. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Фан, 1978.

66. Қораев С. Этнонимика. – Тошкент: Фан, 1979.

67. Ҳалимов Т, Қобилов И. Қадимий ва навқирон Ромитан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.

68. Adizova N. Buxoro tumani toponimlari.- Toshkent: Navro'z, 2020.

69. Anke von Kugelgen. Die Legitimierung der mittelasiatischen Mangitendynastie. – Stambul, 2002.

70. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S., Ubaydullaev O'. Vatan tarixi (o'quv qo'llanma). Ikkinchi kitob. – T.: «Sharq» nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016.

71. Karimova S. O'lkashunoslik fanidan referat. Buxoro davlat universiteti.- Buxoro, 2016

72. Ўзбекистон Миллий архиви. Ф. И-126.

Qonun hujjatlari

1. “Географик объектларнинг номлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни (2011-йил 4-март).

2. “Географик объектларнинг номлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни (2011- йил 12-октябрь).

3. “Географик объектларнинг номлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори (2012-йил 16-октябрь).

Internet saytlari

1. www.buxoro.uz

2. www.ziyonet.uz

3. www.beruniy.uz

4. www.uzhistory.uz

АННОТАЦИЯ

К учебнику “Топонимика Бухары” профессора кафедры истории Бухары Бухарского государственного университета Х.Тураева

В учебнике в отрезке каждого района, махалли и гражданских собраний представлено краткая история районов Бухары, формирование исторических топонимов оазиса и их этимологическое и социальное значение, фонетическая трансформация топонимов, отражение в топонимах особенности местного наречия и природно-географических условий, мотивы образования этнотопонимов и оном.

Рассчитано на студентов специальности 5121000 - История. История Бухары Бухарского государственного университета, а также, на интересующихся историей Бухары историков, филологов, географов, краеведов и исследователей.

A N N O T A T I O N

To the handbook "Toponymics of Bukhara" of the professor of the chair of History of Bukhara of Bukhara state university H. Turayev.

In the textbook on the basis of segmentation of each district, mahalla and civic council short history of districts of Bukhara, formation of historical toponyms of the oasis and their etimological and social significance, phonetical transformation of toponyms, reflection of peculiarities in toponyms of the local vernacular and natural-geographical conditions, motives of the formation of ethnography and onom are presented.

Intended for the students of specialty: 5121000 - History. History of Bukhara of Bukhara State university and those historians, philologists, geographers and country studying scientists who are interested in the history of Bukhara.

ILOVALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil, 29-dekabr‘)

Boy tariximiz durdonasi bo‘lgan madaniy merosimizni asrab-avaylab, kelajak avlodlar uchun bezavol etkazishimiz zarur. Hozirgi vaqtda ularning soni 7 mingdan ziyodni tashkil etadi.

Afsuski, keyingi paytlarda bebaho madaniy merosimiz bo‘lgan ayrim obidalarga zarar etkazish holatlari uchrayotgani bu borada e‘tibor susayotganidan dalolat beradi. Bu ish nafaqat Madaniyat vazirligi, balki mahalliy hokimliklar, mahalla, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilikning ham diqqat markazida bo‘lishi kerak.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI BUXORO SHAHRINING TARIXIY QISMIDAGI MADANIY MEROS OB‘EKTLARINI MUHOFAZA QILISH MASALALARI TO‘G‘RISIDA

Buxoro shahrining shakllangan tarixiy qismidagi madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish va tartibga solish, tarix, madaniyat va me‘morchilik yodgorliklarini har tomonlama o‘rganish, ommalashtirish va targ‘ib qilish, o‘zbek xalqining bebaho milliy qadriyatlarini kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish, Buxoro shahrining tarixiy qismi yagona kompleks sifatida to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Belgilab qo‘yilsinki, Buxoro shahrining tarixiy qismidagi ko‘chmas madaniy meros ob‘yektlarini restavratsiya qilish ilmiy asoslangan tadqiqotlarni, tarixiy hujjatlar va arxiv hujjatlaridan foydalanishni, shahar muhitining tarixiy qadriyatlarini, jamiyatning zamonaviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, tarixiy markazni rekonstruksiya qilish yuzasidan ishlab chiqilgan maxsus normalar va qoidalarga muvofiq, Madaniy meros ob‘yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Keyingi tahrirga qarang.

2. Buxoro viloyati hokimligi (Xusenov) Buxoro shahrining bosh rejasini ro'yobga chiqarishda:

Buxoro shahrida qurilishlarni shaharni rivojlantirish yuzasidan tasdiqlangan bosh reja talablariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirsin;

Buxoro shahrining tarixiy qismida yangi qurilishlarni taqiqlasin;

shakllangan tarixiy muhitni saqlab qolishni hisobga olgan holda shaharning qismini mukammal rejalashtirish loyihasi ishlab chiqilishini ta'minlasin;

konservatsiya qilish, ta'mirlash, restavratsiya qilish, zamonaviy foydalanish uchun moslashtirish, shuningdek ular bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot, loyihalashtirish va ishlab chiqarish ishlarini o'z ichiga olgan madaniy meros ob'ektlarini saqlab qolish chora-tadbirlarini ko'rsin, bunda «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda Vazirlar Mahkamasining «Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002 yil 29 iyuldagi 269-son qaroriga qat'iy amal qilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Buxoro shahrining madaniy meros ob'yektlarini tadqiq etish, konservatsiya qilish, restavratsiya qilish va zamonaviy foydalanish uchun moslashtirish hamda 2020 yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirish davlat dasturini 2008 yil 1 noyabrgacha ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

4. «Davarxitektqurilish» qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan birgalikda 2008 yil 1 iyulgacha SHNK 2.07.01—03 «Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi yashash punktlari hududlarida qurilishni rivojlantirishni rejalashtirish» qoidalarining aholi yashash punktlarini qurishda madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilishga oid qismiga belgilangan tartibda qo'shimchalar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari N.M.Xanov va R.S.Qosimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2007 yil 11 sentyabr,

191-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

GEOGRAFIK OB‘EKTLARNING NOMLARI TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 4 martda qabul qilingan
Senat tomonidan 2011 yil 26 avgustda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo‘llanilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan geografik ob’yektlar nomlarining ulardan O‘zbekiston Respublikasida foydalanishga doir qismiga ham tatbiq etiladi.

2-modda. Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

geografik ob’yektlar — Yerning hozirda yoki o‘tmishda mavjud bo‘lgan hamda muayyan o‘rnashgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun’iy bo‘lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma’muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, xiyobonlar); transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi ob’yektlari (temir yo‘l stantsiyalari, avtostantsiyalar, metropoliten stantsiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko‘priklar, raz‘yezdlar, yo‘llar, kanallar, suv omborlari, to‘g‘onlar, dambalar); tabiiy ob’yektlar (daryolar, ko‘llar, muzliklar, tekisliklar, tog‘lar, tog‘ tizmalari, g‘orlar, cho‘llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag‘irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi ob’yektlar kiradi;

geografik ob’yektlarning nomlari — geografik ob’yektlarning ularni farqlash va aniqlash uchun foydalaniladigan o‘z nomlari;

geografik ob’yektning nomini belgilash — yanada normallashtirish maqsadida geografik ob’yektning nomini aniqlash;

geografik ob'yektning nomini normallashtirish — geografik ob'yektning eng ko'p foydalaniladigan va eng maqbul nomini tanlash, ushbu nom yoziladigan shaklini belgilash hamda tasdiqlash;

geografik ob'yektning nomini o'zgartirish — geografik ob'yektning hozirgi nomini ushbu Qonunda belgilangan hollarda va tartibda o'zgartirish;

geografik ob'yektlarning nomlari sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi — O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi (O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qo'mitasi);

geografik ob'yektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning davlat ekspertizasi — geografik ob'yektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qo'mitasi tomonidan o'tkaziladigan toponimik, etnografik, lingvistik, kartografik va boshqa tadqiqotlar majmui.

4-modda. Geografik ob'yektlarning nomlariga doir talablar

Geografik ob'yektga berilayotgan nom:

geografik ob'yektga eng xos bo'lgan belgilarni aks ettirishi;

mazkur geografik ob'yekt joylashgan erdagi geografik ob'yektlar nomlarining mavjud tizimiga mos tushishi;

mahalliy aholining fikrini hisobga olishi;

qoida tariqasida, ko'pi bilan uchta so'zdan iborat bo'lishi;

ushbu Qonun 6-moddasining **ikkinchi qismi** talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga odamlarning ismi-sharifini berishga, shuningdek, ularni tarixiy voqealar sharafiga nomlashga, qoida tariqasida, yo'l qo'yilmaydi.

Ko'chalar, shohko'chalar, mahallalar, maydonlar, bog'larga va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga ayrim odamlar, jamoat arboblari, siyosiy arboblarning ismi-sharifini berishga, qoida tariqasida, yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslar bundan mustasno.

Vakolatli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilayotgan geografik ob'yektlarga ularni tashkil etish to'g'risidagi tegishli hujjatlar bilan ushbu **Qonun** talablariga muvofiq nom beriladi.

Ma'muriy-hududiy birliklarning nomlari, qoida tariqasida, ularning ma'muriy markazlari nomidan, ushbu ma'muriy-hududiy birliklar

joylashgan hudud qismining geografik yoki tarixiy nomidan hosil bo'lishi lozim.

Transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi ob'yektlarining, shu jumladan aeroportlar, vokzallar, portlar, pristanlar, raz'yezdlar, temir yo'l stantsiyalarining va boshqa ob'ektlarning nomlari, qoida tariqasida, ularning yonida joylashgan aholi punktlarining yoki ular tarkibiy qismlarining, boshqa geografik ob'yektlarning nomlaridan hosil bo'lishi kerak.

Quyidagilarga aynan bir xil nom berilishiga yo'l qo'yilmaydi:

O'zbekiston Respublikasi doirasidagi viloyatlar, tumanlar, shaharlarga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar doirasidagi shaharchalar, qishloqlar, ovullarga;

bir tuman, shahar yoki aholi punkti doirasidagi bir nechta turdosh geografik ob'yektlarga.

5-modda. Geografik ob'yektlarning nomlarini o'zgartirishga doir talablar

Geografik ob'yektlarning nomlarini o'zgartirishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

geografik ob'yektning belgilangan maqsadi jiddiy tarzda o'zgarganda; ayrim geografik ob'yektlarning tarixiy nomlarini tiklash zarur bo'lganda;

agar geografik ob'yekt geografik ob'yektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelmaydigan qisqartma so'z, raqam yoki so'z birikmasi bilan belgilangan bo'lsa;

geografik ob'yektlarga ushbu Qonun 4-moddasining **uchinchi qismida** nazarda tutilgan shaxslar ismi-sharifini berish zarur bo'lganda;

geografik ob'yektlarning ushbu Qonun 4-moddasining **yettinchi qismida** nazarda tutilgan bir xil nomlari mavjud bo'lganda.

6-modda. Geografik ob'yektlarning nomlarini belgilash

Geografik ob'yektlarning nomlari hududni kartografiya qilish, toponimik tadqiqotlar o'tkazish vaqtida, shuningdek geografik ob'yektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlanayotganda:

tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hujjatlari;

rasmiy kartografik hamda ma'lumotnoma nashrlarining, statistik, arxivga oid, tarixiy va boshqa manbalarning ma'lumotlari;

mahalliy aholi, shuningdek o'lkashunoslar, geograflar, tarixchilar va boshqa mutaxassislar o'rtasida so'rovlar o'tkazish asosida belgilanadi.

Geografik ob'yektlarning nomlarini belgilashda:

mahalliy aholi turmushining geografik, tarixiy, milliy, etnik, tilga oid va boshqa xususiyatlari hisobga olinadi;

geografik ob'yektlar nomlarining yanglishishga olib keluvchi o'xshashligi, ushbu nomlarning hurmatsizlik mazmunida bo'lishi, O'zbekiston xalqining tarixi, an'analari va madaniyati bilan nomuvofiqligi istisno etiladi.

2-bob. Davlat organlarining geografik ob'yektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirishga doir vakolatlari hamda vazifalari

7-modda. Tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish

Tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimlari iltimosnomalari asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kiritgan taklifga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan geografik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha komissiya (bundan buyon matnda respublika komissiyasi deb yuritiladi) tuziladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi 295-son qarori bilan tasdiqlangan «Geografik ob'yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasi to'g'risida»gi nizom.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi viloyatlar, Toshkent shahar hokimlarining tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi iltimosnomalarini ko'rib chiqadi hamda ularni tegishli hujjatlar bilan birga xulosa olish uchun respublika komissiyasiga yuboradi.

Respublika komissiyasi taqdim etilgan hujjatlar har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi, geografik ob'yektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazaridan ularni davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qo'mitasiga topshiradi. Respublika komissiyasi o'tkazilgan ish yakunlariga ko'ra hamda davlat ekspertisasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa beradi, ushbu xulosa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi respublika komissiyasining xulosasini hisobga olgan holda, geografik ob'yektlarga

nom berish yoki ularning nomini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlaydi hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi uchun kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining takliflarini ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

8-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish tumanlar, shaharlar hokimlarining taklifiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi.



Buxoro shahri xaritasi (XX asr boshlari)

1

اسرا شلاق ای شمارود

مینلاق عیخانہ پهلوان عیخانہ دیگر عیخانہ
 خیر آبادک بنشان ربابستان
 ابرار پهلوان کول پهلوان ربابستان
 خامسکب غازیکب ربابستان
 قویچر بیلوان ششاد سرچین ششکینه
 دل آرام ربابستان
 چارزہ تیموری دروچین بادمجہ هباب
 اوپورانک ابرزیا غیران
 پتلر کنگل قرچہ اسین سخا
 اوزبلک کورسک
 حصار نوربا فوالبولان کول شلوم
 جنس کچکبار کونلانان
 قویچ خوجم سنج ربابیز سن بریز
 چکلیس ربابس سنج تنکرا
 نیندین کیتنگ نکلون ترنظر پاناب
 ربابستان قلنن شدرق غدا
 تکلک شدرق بربن خبرکون دودلان
 کامره ربابستان عیخانہ قوم خرم رباب
 نوربا زرغور شدرق بربن چرغ نکلن
 نران جدریر دهنو قملق
 اویبیل قواله پاناب هر پهلوان
 مینک خج سکره

SHOT ON REDMI 7
AI DUAL CAMERA

Buxoro amirligi devonxonasida saqlangan Shimolirud tumani tarikibidagi qishloqlar ro'yxati (hozirgi Buxoro tumani)

از روی درخت نامه اشان آنچه نامکوی قشود قسمای تومان خمر آماو

ای توئی بابوش خرد جوی خنده پیش خنده چاکر کنده اور کینیا چارغوا قران خواجه کای منعت چهارده لهرن چارک مجایه

ملک آخر ماخان پیمانیه پیان چارک چندر زاکر قهرم شانور در زبلا در زبلا شکله حله

عزیزانیا عزیزانیا دگر دگر پاجای ناداب فضا شوره رباط عیایه خواجه کیک جیکان موقوفه نوکر نکلانو

اشخ جعفر بابو نوز نوزبا شور کین نعمان لالا داوود ایلیا رچنامه در زبلا جابریک کولابلا نوز نوز

کول بابا ای کبر دلمون قلعه کول فرس خواجه کای کورن خندان خندان خندان خندان خندان خندان خندان خندان

دیش خطیر خور خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر خطیر

بنور کیک کیمه یوت پزنگر اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا اویلا

فردا کای رحیم آبا عزیزان فرده کار مکتب توجین داغوا شور آبا اعیان نادمان عزیزان ایلان ایلان ایلان ایلان ایلان ایلان

فردا کای خازنه جاندر کینه باز جای کونیا بور باغنه خانبه کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا

قرین کای شور آبا خضر عدنان ایله دیخانچ نوز نوز کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا کونیا

بازدم شمشیر جمادی الاول ۱۲۳۲ که اعیان سلطان دهم نامارته سلطان بود که خیر یافت



Buxoro amirligi devonxonasida saqlangan Xayrobod tumani tarikibidagi qishloqlar ro'yxati (hozirgi Jondor tumani)

آنجراي قشلاق تومانی شافیرکوم بوده گ

تورغان در دازه قشلاق در دازه کهنه قشلاق موملان قشلاق اوبه قشلاق محله نیری قشلاق قنقره قشلاق چار وادار
 قشلاق قریشیان قشلاق بابهرخ قشلاق اوندور قشلاق لیج قشلاق نوکر قشلاق کاتیان قشلاق خوجوشان
 قشلاق کیلیه قشلاق قلمقان قشلاق باغچیدر قشلاق زرهمیا قشلاق اوبه کیم قشلاق مارین قشلاق بگیل
 قشلاق قراوللا قشلاق کورکینت قشلاق شوقبار قشلاق دهنو قشلاق آهمنه قشلاق بکیش قشلاق قونان
 قشلاق چوچقان قشلاق اندوق قشلاق موفیان قشلاق بکلیک قشلاق باغ انفض قشلاق خوجوشان
 قشلاق لیبور قشلاق چنومان قشلاق پیمان قشلاق مارکش قشلاق کدیبا قشلاق قورده قشلاق تیرکند
 قشلاق تورغان قشلاق سولایق قشلاق قردوغون قشلاق جامه قشلاق گلوت قشلاق سلیبا قشلاق چار
 قشلاق علیچنوب قشلاق عیجانده قشلاق رباط قشلاق قره بیتیج قشلاق روزگن قشلاق ایلرزد
 قشلاق توروق قشلاق دو آریبالد قشلاق قره باغ قشلاق برنگار قشلاق قرچین قشلاق کورک
 قشلاق ایرکابو قشلاق سیدیم قشلاق دیکنت قشلاق شوق قشلاق ایرهم قشلاق قراول

جمع الحقیق قشلاق تومانی تکرار شصت و شش عدد بوده گ

از روز دوماکویا بخت کتیر اوصت نینوم

عرض نمودم که برین قشلاق

SHOT ON REDMI 7

Buxoro amirligi devonxonasida saqlangan Shofirkom tumani tarikibidagi qishloqlar ro'yxati (hozirgi Shofirkon tumani)

وزارت با
ناکوی قشلاقهای نویمان کاهان

کام چرخ کوشکنت

راجح (بارکباد) جراب (زرمان) سرکلیا بدری آق ساه کلکان هزردوز قشوق کوشکنت اهدان
 اسیکانه کلکان باسایخ بودوزون کره ربا نوم ربا جرش کوه نور قشوق بدریک بشوق کتبه دهنه
 بزکلیب همان بر کشف اسیک افغان غریبه غریزه بای غره ولیم کولاس کلکین
 کالکلب نام ربا قشوق جرش قشوق قریه ماش سبه قشوق اسم ارکان بار ربا درخی
 بوزان کام عک

کام عک

موزون برکت (سرایان) شکردان نیان جکره عیانه دننازیم جهانی کلکیم رجبیا کسوات
 بخون درگا بارکلیک کاسری آق با بزدنده نوم ربا اوردنک جهایش خیرت رجبیکه قشوق
 چوبچ بران (کوشوق) قشوق جکره کوشوق بارکنت عریانه کلکلیا نامری کوشوق کتبه
 جاده نوم ربا (کوشوق)

کام کسبه

درر کله ربا طح بخت کله کارداره نکرکنت سرزاده قوش قوشی اوبه جرم کله ربا باد
 قلکان خود کسبه نیان پنجم نوم ربا نسیج ابله عربان لیسارک کازه رجبیه قار بهر قلکان
 ربهسینه نیاز نوم قران کل نیان نازندر ویدر دراز
 قشوق قشوق درون درکند


بیکون خور مسجد سیم بازار ربا سوسلیا بل موسیج بیکدر قابض کزنازه سرسبار کتبه

کام نیانک


ربا نه (بخنوی نیان) کله کار کتبه رجبیه قلکان ربا نیان رباباب قوشوق کله ربا نه

بدین کدشت


Buxoro amirligi devonxonasida saqlangan Vobkent (Komot) tumani tarikibidagi qishloqlar ro'yxati (hozirgi Vobkent tumani)



Buxoro viloyatining YandexMaps ilovasidagi tasviri



Geonames.org saytidagi Buxoro viloyatining bazasi



Buxoro viloyatining geonames.org geografik bazasi orqali ko'rinishi

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
Muqaddima	7
1-modul. Buxoro shahri va uning atrofida joylashgan tuman toponimlari.....	26
1-mavzu: Buxoro shahri tarixiy toponimlari	26
2-mavzu: Buxoro tumani toponimlari	52
3-mavzu: Kogon tumani toponimlari	77
4-mavzu: Qorovulbozor tumani toponimlari	95
2-modul. Buxoroning janubiy-g‘arbiy, shimoliy-g‘arbiy va shimoliy hududlaridagi tumanlar toponimlari	100
5-mavzu: Jondor tumani toponimlari	100
6-mavzu: Qorako‘l tumani toponimlari.....	117
7-mavzu: Olot tumani toponimlari	134
8-mavzu: Romitan tumani toponimlari.....	145
9-mavzu: Peshko‘ tumani toponimlari	166
10-mavzu: Shofirkon tumani toponimlari	183
11-mavzu: Vobkent tumani toponimlari.....	200
12-mavzu: G‘ijduvon tumani toponimlari.....	218
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	250
Annotatsiya.....	257
Ilovalar	258

СОДЕРЖАНИЕ

Предисловие	3
Введение	7
1- модуль. Топонимы г.Бухары и районов вокруг неё.....	26
1- тема. Исторические топонимы г.Бухары	26
2- тема. Топонимы Бухарского района	52
3- тема. Топонимы Каганского района	77
4- тема. Топонимы Караулбазарского района.....	95
2- модуль. Топонимы районов, расположенных на юго-западной, северо-западной и северной стороне Бухарской области.....	100
5- тема. Топонимы Джондорского района	100
6- тема. Топонимы Каракулского района.....	117
7- тема. Топонимы Алатского района.....	134
8- тема. Топонимы Рамитанского района.....	145
9- тема. Топонимы Пешкунского района	166
10- тема. Топонимы Шафирканского района	183
11- тема. Топонимы Вабкентского района	200
12- тема. Топонимы Гиждуванского района	218
Список использованной литературы	250
Аннотация.....	257
Приложения.....	258

HALIM TO‘RAYEV

BUXORO TOPONIMIKASI

5121000 - Tarix. Buxoro tarixi
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun
darslik

Telegram adress:

@turkiston_kutubxonasi

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Ortiqova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 07.09.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 17,2. Adadi 100. Buyurtma №277.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45